

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**Buxoro davlat universiteti
Buxoro tarixi kafedrası**

**OYBEK KLICHEV
A‘ZAM BOLTAYEV**

BUXORO MUZEYSHUNOSLIGI VA ARXIVSHUNOSLIGI

O‘quv qo‘llanma

Ta‘lim yo‘nalishi: 5121000 – Tarix. Buxoro tarixi

Buxoro -2020

O.A.Klichev, A.H.Boltayev

**BUXORO MUZEYSHUNOSLIGI VA ARXIVSHUNOSLIGI: o'quv
qo'llanma**

O'quv qo'llanma o'zida Buxoroda muzey hamda arxiv ishining shakllanishi, rivojlanishi, sohada qo'lga kiritilgan so'nggi yutuqlar tahliliga doir ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Qo'llanmada Buxoro muzeyining tashkil topishi, muzeyning ilmiy ekspeditsiyalari va muzey filiallari haqidagi ma'lumotlar, muzey bilan maktab hamkorligi va muzeyning o'lkashunoslik sohasidagi faoliyati, shuningdek, Buxoro viloyatida arxiv ishining tashkil etilishi, mustaqillik yillarida ushbu sohada qo'lga kiritilgan natijalarga doir ma'lumotlar xronologik tartibda yoritiladi.

Ushbu o'quv qo'llanma Buxoro davlat universiteti 5121000-Tarix. Buxoro tarixi ta'lim yo'nalishi talabalari, shuningdek, Buxoro tarixi bilan qiziquvchi tarixchi, muzeyshunos, o'lkashunos, arxivshunos, ekskursavod, ilmiy xodim va tadqiqotchilarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: Tarix fanlari doktori **H.H.To'rayev**

Taqrizchilar:

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**D.M. Jamolova**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Sh.A. Miraliyeva**

O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv agentligi" bo'lim boshlig'i **O.H. Suyunov**

Kirish

Istiqlol sharoitida jamiyatdagi yangi o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonida, erkin demokratik jamiyat a'zolarini va yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash vazifalarini bajarishda tarix fanining ahamiyati ortib bormoqda. O'zining uzoq o'tmishiga ega mamlakatimiz tarixini o'rganish va undan to'g'ri xulosa chiqarish, bugungi kunda har bir yosh avlodning burchi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 10-martda Buxoro viloyatiga tashrifida "Buxoro viloyatida 660 dan ortiq madaniy meros obyekti mavjud. Ularning aksariyati arxeologik obyektlar, monumental san'at asarlari, arxitektura yodgorliklaridir. Ushbu madaniy meros obyektlari xalqimizning bebaho boyligi, ularni asrash va kelajak avlodlarga bezavol yetkazish barchamizning burchimiz" – degan edi¹. Bu ishlarni amalga oshirishda o'lkashunoslik muzeylarining o'rni benihoya katta.

O'zbekiston Respublikasidagi muzeylar va tarixiy me'moriy yodgorliklar millatning madaniy uyg'onishi, milliy g'oyani targ'ib etish, xalq ongida milliy g'urur va qadriyatlarni kuchaytirishda, mustaqillik g'oyalariga sodiqlik hissiyotini, demokratiya va taraqqiyotga ishonchni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Muzeylar nafaqat tabiat va jamiyatning noyob hamda xilma-xil ashyolari xazinasini, balki muhim ilmiy, ma'rifiy-tarbiyaviy, ijtimoiy kommunikatsiyaning muhim halqasi va markazlari hamdir.

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil fevralda Buxoro viloyatiga tashrifi chog'ida Buxoro davlat universiteti huzurida Buxoro tarixi ta'lim yo'nalishini ochish to'g'risida berilgan topshirig'iga binoan 2018-2019-o'quv yilidan Buxoro tarixi ta'lim yo'nalishi tashkil etilib, hozirgi paytda unda talabalar tahsil olmoqda. O'qitilayotgan va o'qitilishi mo'ljallanayotgan maxsus fanlar Buxoro tarixining barcha masalalarini qamrab oladi, chunki yo'nalishning asosiy maqsadi Buxoro tarixi bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash. Shuningdek, ushbu yo'nalish gidlar tayyorlash yoki gidlikka yo'naltirish, ularga me'moriy obidalar

¹Барча эзгу ишларимиз халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришга йўналтирилган //Бухоронома, №22, 2017 йил 11 март.

bo‘ylab ekskursiya o‘tkazish metodologiyasini o‘rgatish vazifasini ham o‘z zimmasiga oladi. Zero, me‘moriy obida to‘g‘risida ma‘lumot berayotganda obidaning qurilish davridagi ijtimoiy-siyosiy ahvol uning qaysi hukmdor davrida bunyod etilganligi va davrning o‘ziga xos jihatlari masalasiga e‘tibor qaratish lozim.

Buxoro muzeyshunosligi va arxivshunosligi o‘quv kursi hududiy ahamiyatga egaligi bois tanlov fanlar turkumiga kiritilib, maxsus adabiyotlarning ozligi, borlarini esa qo‘lga kiritish imkoniyatining cheklanganligi, o‘quv qo‘llanma va darsliklarning yo‘qligi talabalarga bu kursni o‘zlashtirish uchun qiyinchilik tug‘dirardi. Buxoro muzeyshunosligi va arxivshunosligiga oid ma‘lumotlarning turli akademik nashrlar va ilmiy adabiyotlarda yetarlicha emasligi muammoni yanada chigallashtirar edi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma Buxoro tarixi ta‘lim yo‘nalishi II bosqich talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘lkamizda birinchilardan bo‘lib tuzilgan Buxoro o‘lkashunoslik muzeyining faoliyati, uning o‘lkadagi maktablar bilan olib borgan hamkorligi, ilmiy tadqiqot yo‘nalishdagi faoliyati atroflicha yoritiladi. Unda bayon etilgan tarixiy ma‘lumotlar va ularning tahlili o‘lkada tarixiy o‘lkashunoslik shakllanishi hamda rivojlanishida Buxoro muzeyining o‘rni nechog‘lik kattaligini ko‘rsatadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda muzey sohasiga jiddiy e‘tibor qaratildi va bir necha yangi muzeylar ochildi. 2007-yildagi ma‘lumotga ko‘ra, respublikamizda 17 ta tarix, 27 ta o‘lkashunoslik, 10 ta badiiy, 24 ta memorial, 8 ta adabiyot, 4 ta aniq fanlar muzeylari faoliyat ko‘rsatayotgan edi². Bugungi kunda respublikamizda jami 444 ta muzey faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 28 tasi kollej muzeylari va 188 tasi maktab muzeylaridir³. Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi tarkibida 15 filial va 3 ta doimiy ko‘rgazma muzeylari faoliyat olib bormoqda. Ularda o‘zbek va jahon xalqlari tarixi va madaniyatiga doir jami 110 mingdan ortiq turli eksponatlar saqlanadi. Respublikada muzeylarning faoliyatini har tomonlama o‘rganish va

²Альмеев Р.В. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития. - Ташкент:Издательско-полиграфический творческий дом имени Гафура Гуляма, 2007. – С.16.

³ Исмоилова Ж. Ўзбекистон музейларининг ҳуқуқий асослари //Мозийдан садо. 2016. №4. –Б.11.

tahlil etish hamda muzeyshunoslikning dolzarb va istiqbolli ilmiy yoʻnalishini tashkil etadi.

Qoʻllanmada muzeyshunoslikka doir soʻnggi -yillarda nashr etilgan adabiyotlar, jumladan, R.Almeyer, J.Ismoilova, N.Sodiqova, Q.Jumayev, D.Kuryazova va boshqalarning ishlaridan keng foydalanilgan.

Mustaqillikkacha oʻlkashunoslik muzeylari ateistik ruhda, mustaqillik gʻoyalari zid holda oʻrganilgan, mavjud adabiyotlar va usubiy qoʻllanmalardagi maʼlumotlar esa tarqoq holda, muzeylar haqidagi maʼlumotlar yetarlicha emas va cheklangan miqdorda edi. Oʻlkashunoslik muzeylarning faoliyati keng ommaga atroflicha yetkazib berilmagan. Muzey sohasidagi darsliklar va oʻquv qoʻllanmalar mazmun jihatdan eskirgan, koʻpchiligi zamon talablariga javob bermaydi va rus tilida yozilgan. Shu sababdan ushbu muammo kengroq tadqiq etishga muhtoj va uning bugungi kunda ham fundamental tadqiqot sifatida oʻrganilishi ustuvor va dolzarbdir.

Oʻzbekistonning mustaqil mamlakat sifatida va bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy-demokratik davlatning barpo etilishida arxiv muassasalarining oʻrni beqiyosdir. Bugungi kunda respublika arxiv ishi sohasida koʻpgina islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada qator huquqiy-normativ hujjatlar qabul qilinmoqda. Bunga 2019-yil 20-sentabrdagi "Oʻzbekiston Respublikasi "Oʻzarxiv" agentligi faoliyatini takomillashtirish toʻgʻrisida"gi PQ-4463-son qarori hamda "Oʻzbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF-5834-son Farmoni, 1999-yil 15-aprelda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan "Arxivlar toʻgʻrisida"gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30-oktabrdagi 482-sonli "Arxiv boʻyicha meʼyoriy hujjatlarni tasdiqlash toʻgʻrisida"gi, 2004-yil 3-fevraldagi "Oʻzbekiston Respublikasi arxiv ishini boshqarishni yanada takomillashtirish toʻgʻrisida"gi 49-sonli qarori, 2008-yil 26-avgustdagi "Oʻzbekiston Respublikasida arxiv ishini yanada rivojlantirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi 194-sonli qarori, 2010-yil 15-iyunda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan yangi tahrirdagi "Arxiv ishi toʻgʻrisida"gi kabi Qonun,

Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 5-aprel sanasida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi arxiv ishini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 101-sonli qarorlari kabi huquqiy-me‘yoriy hujjatlarni ta’kidlash joiz.

Bugungi kun tarixchi va arxivshunos olimlar oldida turgan muhim vazifalardan biri mamlakatimiz tarixini o‘zida jo aylagan arxiv hujjatlarini⁴ tadqiq etish hisoblanadi. O‘zbek davlatchiligi an‘analari doirasida davlat muassasalari tarixi alohida o‘rganilib kelinmoqda. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O‘rta Osiyo mintaqasida faoliyat olib borgan arxiv muassasalarining mamlakatimiz tarixidagi o‘rni va roli nihoyatda muhimdir.

O‘rta Osiyo mintaqasidagi arxiv muassasalari tarixini o‘rganish masalasida bir guruh olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, K.G.Mityayev, G.A.Belov, V.I.Vyalikov I.P.Kozlitin, V.V.Maksakov, I.L.Mayakovskiy, I.Alimov, A.Mirzayev, V.Vays, G.M.Dremina, V.Kote, V.I.Vliyakov, Z.V.Krayskaya, L.Myaskovalarni ko‘rish mumkin⁵.

Arxivshunos olim I.Alimov o‘z ishida O‘zbekistondagi arxiv muassasalarining tarixi va ularni tashkil etish masalalari, faoliyat yuritishlari haqida ma’lumot beradi. Bunda O‘zbekistonda faoliyat yuritgan arxivlar va ularning hujjatlar bazasi, hujjatlarga beriladigan ilmiy-texnik ishlov, ularning

⁴ Arxiv - davlat hujjatlarni jamlash, hisobga olish saqlash va ulardan foydalanishni amalga oshiruvchi muassasa; Arxiv hujjatlari – fuqarolar jamiyat va davlat uchun ahamiyati bois saqlanishi lozim bo‘lgan matnli, qo‘lyozma va mashinada o‘qiladigan hujjatlar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinolentalar, fotosuratlar, forografiya plyonkalari, chizmalar, sxemalar, xaritalar, shuningdek boshqa moddiy jismlardagi yozuvlar kiradi. 2010-yil 7-may O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan “Arxivlar to‘g‘risida”gi qonunining 3- moddasi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 5-aprel sanasida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi arxiv ishini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 101-sonli qarorlari ilova qilingan “Arxiv hujjatlarini jamlash, davlat hisobiga olish, saqlash va ulardan foydalanish tartibi tog‘risidagi Nizomning” II qismi. http://www.lex.uz /pages/getpage.aspx?lact_id=1645540

⁵ Митяев К.Г. Теория и практика архивного дела. Учебное пособие. М., 1946. 248 с. Белов Г.А. и др. Государственные архивы СССР / Краткий справочник. М.: Типография им. Воровского, 1956. – 508 с; Shumullif: Теория и практика архивного дела в СССР. Учебное пособие. М.: Типография им. Воровского, 1958. - 341 с. Козлитин И.П. Архивы учреждений, организаций и предприятий СССР. (Законодательство и современная организация). М.: Типография МСХ РСФСР, 1957. - 89 с. Вяликов В.И. Архивное строительство в СССР (1946-1967). Учебное пособие. М.: Типография ХОЗУ Минавтопрома, 1972. - 109 с. Максак В.В. Архивное дело в первые годы советской власти. Типография "Пограничник", 1959. - 161 с.; Shumullif: История и организация архивного дела в СССР. 1917-1945 гг. М.: Наука, 1969. -338 с. Маяковский И.Л. Очерки по истории архивного дела в СССР. М.: Типография им. Воровского, 1960. - 338 с. Алимов И., Мирзаев А., Вайс В. Справочник по архивному делу в Узбекистане (1918-1968 гг.). - Ташкент: Узгипрозем, 1970. 30-43 с. Дремина Г.М. Государственные архивы и архивное дело в союзных республиках. Учебное пособие. М.: Типография ХОЗУ Минавтопрома, 1971. – 233 с. Коте В. Архивы кинофотофонодокументов. М.: 1972. - 60 с. Крайская З.В. Организация архивного дела в СССР. Учебник для техникумов. М.: Экономика, 1980. - 176 с. Мяскова Л. История партийных архивов Узбекистана. Ташкент: Узбекистан, 1984. - 144 с.

saqlov sharoitlari, hujjatlarni jamlash manbalari va boshqalar to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng I.Alimov⁶, M.S.Isakova, V.G.Iofe, U.Jumayev, N.A.Abduraximova, M.M.Ismoilov kabi tarixchi va arxivshunos olimlar mintaqamizda faoliyat olib borgan va bugungi kunda o'z vazifasidan kelib chiqib ish yuritib kelayotgan arxiv muassasalari tarixini o'rganish bo'yicha chuqur izlanishlar olib bormoqdalar.

M.S.Isakova hamda V.G.Iofelar o'z risolasida O'zbekiston Respublikasidagi arxiv ishi tarixi, arxiv ishini boshqarish, arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti masalalariga to'xtalib o'tganlar. Jumladan, O'zbekistondagi ilk arxivlar vazifasini bajargan muassasalar va ularning paydo bo'lishi, faoliyati yoritiladi. Bundan tashqari sovet davridagi arxiv ishi va uning rivojlanish bosqichlari haqida ham fikrlar keltiriladi. Yana bu kitobda O'zbekistondagi texnotron arxivlar xususida ham batafsil ma'lumot mavjud.

N.A.Abduraximova, Z.M.Suleymanova, M.S.Isakovalar o'z tadqiqotlarida O'zbekistondagi ilk davrlardan boshlab hozirgacha bo'lgan davrda faoliyat yuritgan davlat muassasalari tarixi haqida atroflicha fikr-mulohazalar yuritganlar. Kitobda davlat muassasalarining tashkil etilishi va ularning olib borgan faoliyatlari to'g'risida ancha fikrlar aytilgan. Yuqorida qayd etilgan tadqiqotchi olimlarning ilmiy izlanishlari O'zbekiston Respublikasidagi arxiv ishining umumiy tarixi,

⁶Alimov I., Ergashev F., Butayev A. Arxivshunoslik. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Sharq, 1997. – 73 b. Shu muallif. Arxivshunoslik. – Andijon: ADU, 2005. – 103 b. Isaqova M. S. Архивы – хранилища фактов истории. // Народное слово, 18 апреля 2001. Shu muallif: Сокровищница ценных источников по истории Узбекистана (к 60-летию СГА КФФД РУз) // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 2003. № 1-2. Shu muallif: Ўзбекистонда архив ишлари ривожлантиришнинг ҳуқуқий асослари. // Қонун ҳимоясида, 2003. № 10. Shu muallif: Isaqova M. S. К вопросу о создании архива кинофотофонодокументов в Узбекистане // Магистратура талабаларининг илмий ишлари тўплами. – Тошкент: Университет, 2003. Shu muallif. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Т.: Университет, 2012.-204 с. M.S.Isakova, V.G. Iofe. Arxivshunoslik. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: Cho'lpon, 2007. - 192 b. Iofe B. G., Ishanходжаева З. М. Подготовка архивных кадров в Узбекистане. // Отечественные архивы, 2004. № 1. Shu muallif: Мустафаев З. М. Архивная практика в Национальном университете Узбекистана // Отечественные архивы, 2005. № 2. – 139 с. Shu muallif Новое в управлении архивным делом Республики Узбекистан. // Отечественные архивы, 2006. № 1. Jumayev U. O'rta Osiyo va O'zbekistonda arxiv ishi tarixi, O'zbekistonning asosiy arxivlari. – Toshkent: AL-FABA-SERVIS. 2010. – 64 b. Abduraximova N.A., Suleymanova Z.M., Isakova M.S. Davlat muassasalari tarixi. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: Sharq. 2007. – 128 b. Ismoilov M.M. Hujjatshunoslik va Markaziy Osiyo diplomatikasi. – Toshkent: Akademiya nashri, 2010. – 64 b.

rivojlanish bosqichlari, taraqqiyoti va boshqa jihatlarini o'rganish uchun ahamiyatlidir.

Biroq Buxoro mintaqasidagi ilk arxiv vazifasini bajargan muassasalar va davlat arxivining faoliyati tarixi masalasiga oid alohida tadqiqot olib borilmagan. Bu kabi vazifalardan kelib chiqib, ushbu qo'llanmaning bir qismi Buxorodagi arxiv ishi tarixi masalasiga bag'ishlanadi. Mazkur qo'llanma Buxoro amirligida amalda bo'lgan hujjat yuritish tartibining o'ziga xosligi, keyinchalik Buxoro Xalq Sovet Respublikasi va 1938-yilda tashkil etilgan Buxoro viloyatidagi arxiv muassasalarining xronologik izchillik asosida yoritilgan tarixiy taqdiri, mustaqillik yillarida esa yangi qonunchilik tamoyillari va tartiblari asosida faoliyat yuritayotgan Buxoro viloyat davlat arxivi tarixi masalalarini ham yoritishga xizmat qiladi.

1-modul. Buxoro muzeyshunosligi

1- Mavzu: Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari

Reja:

- 1.1. “Muzey” atamasi va muzey haqida tushuncha. Buxoro muzeyshunoslik fanining obykti va predmeti.
- 1.2. Muzey tashkil etishning tartibi.
- 1.3. Muzey ashyolari va kolleksiyalarini hisobga olish hamda saqlash tartibi.
- 1.4. Davlat muzeylari toifalari, ularni belgilash ko‘rsatkichlari.

Tayanch so‘z va iboralar: Muzey, muzeyshunoslik, muza, IKOM, ekspozitsiya, eksponat, ekskursiya, kategoriya, toifa, kolleksiya, ashyo, fond, kirim daftari, muassasa, maktab.

1.1. “Muzey” atamasi va muzey haqida tushuncha. Buxoro muzeyshunoslik fanining obykti va predmeti. Muzey “musion” so‘zi inson madaniyatiga ikki yarim ming yil ilgari, ya’ni antik davrda kirib keldi. Biroq uning ma’nosi hozirgi muzey tushunchasidan ancha farq qiladi. Qadimgi Yunonistonda “musion” deb ma’budalar sha’niga e’zozlanadigan maskanlarni aytganlar. Bu maskanlar tabiatning go‘zal joylarida, tog‘ etaklarida, daryo va ko‘l bo‘ylarida, bog‘-u rog‘larda qurilgan. Shuningdek, muzeylar ibodatxona vazifasini ham o‘tagan. Yunon panteoniga to‘qqizta muza kirgan. Shulardan ikkitasi, ya’ni Klio-tarix, Uraniya-astronomiya ma’budalari bo‘lib, qolganlari insonlarga san’attaqdim etgan, bular: Melpomena-tragediya, Taliya-komediya, Terpsixora-raqs, Erato-muhabbat qo‘shiqlari, Kalliopa-epik she’riyat, Poligimiya-diniy qo‘shiqlar, Evterpa-lirik she’riyat ma’budalari hisoblangan edi. Qadimgi Yunonistonda ko‘pxudolik dini hukm surgani uchun hamma narsaning o‘z ma’budasi bo‘lgan. Oldinlari ma’budalar xudoning vakillari hisoblangan bo‘lib, keyinchalik ilm-fan va san`atga homiy xudolar degan tushuncha paydo bo‘lgan.

Shuningdek, yana bir ta'rifda muzey (yunoncha "musion" - muzalarga bag'ishlangan joy)- tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, saqlash, o'rganish va targ'ib qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy hamda ilmiy-ma'rifiy muassasadir, deb qayd qilinadi. Muzey xazinasida, asosan, moddiy va tasviriy ashyolar, shuningdek, san'atarlari jamlanadi. Shu bilan birga yozma manbalar (qadimdan hozirgi davrgacha bo'lgan tarixiy qimmatga ega qo'lyozmalar, bosma hujjatlar, kitoblar) saqlanadi. Zamonaviy muzeyning ko'plariga tadqiqot va ta'lim tarbiyaviy vazifalarning bir butunligi xos. Muzeyning o'ziga xos ilmiy ommaviy va tarbiyaviy shakllari – ekspozitsiya⁷ va ko'rgazmalardir.

Zamonaviy ilmiy tasnifda muzey tur va sohalar bo'yicha bo'linadi. Turlar bo'yicha ijtimoiy vazifasiga ko'ra ma'rifat (muzeylarning asosiy qismini tashkil etadi, ba'zan ular xalq muzeylari, ommaviy muzeylar deb ham ataladi), tadqiqot (ilmiy tadqiqot institutlari qoshida o'ziga xos laboratoriya vazifasini o'tovchi) va o'quv muzeylariga bo'linadi. Shuningdek, muzeyning memorial, o'lkashunoslik kabi turlari ham bor.

Sohalar bo'yicha tarix, qishloq xo'jaligi, tabiatshunoslik, san'atshunoslik, adabiyot, texnikaga oid va boshqa muzeylarga bo'linadi.

Muzey katta ilmiy tadqiqot va tarbiyaviy ishlarni olib boradi; to'plangan ashyolarni restavratsiya qiladi va o'rganadi; ilmiy hujjatlarni tayyorlaydi, muzey ashyolarini saqlash va ta'mirlash tartibini yaratadi; monografiya, katalog va yo'lko'rsatkichlar nashr etadi; zamonaviy muzeyshunoslik ishlab chiqqan ilmiy usul va metodologiya asosida ekspozitsiyalarda ilmiy tashviqotlar olib boradi; maktab bilan hamkorlikda tadbirlar va sayohatlar tashkil etib, yoshlarni o'z tarixini bilishga ko'maklashadi. Tomoshabinlar bilan ishlashning eng muhim shakli ekskursiya bo'lib, muzeyda ekskursavodlar tayyorlanadi.

Mashhur fransuz muzeyshunosi J.Bazenni ta'kidlashicha, muzeylar tarixini yozish uchun ikkita narsani tushuntira olish kerak: birinchisi-muzeylar konsepsiyasi, ikkinchisi-zamon konsepsiyasi. Muzeylar o'zlarining ilk paydo

⁷Ekspozitsiya (lotinchi-ko'rsatish, bayon etish)-badiiy asar, moddiy-madaniy yodgorliklar, tarixiy hujjat va boshqalarni ko'rgazma va muzey zallarida yoki ochiq joylarda ma'lum tizimda joylashtirilishi hisoblanadi.

bo'lgan kundan boshlab o'z zamonasini aks ettirgan, o'z zamonasining talab ehtiyojlarini ifoda qilgan, qisqa qilib aytsak, zamon ko'zgusi bo'lgan⁸.

Muzeylarning Xalqaro kengashi (IKOM) tomonidan ishlab chiqilgan 1974-yildagi Nizomda va o'zgarishlar kiritilgan 1995-yildagi variantida muzeyga quyidagicha ta'rif beriladi: Muzey - bu doimiy, tijorat va savdo-sotiq bilan shug'ullanmaydigan muassasadir, u jamiyat uchun xizmat qiladi hamda odamlar uchun ochiqdir. Muzey eksponatlarni to'playdi, saqlaydi, o'rganadi, targ'ib qiladi va ekspozitsiyaga qo'yadi.

Muzeyning asosiy belgisi - ilmiy asosda tashkil etilgan, hisobga olish lozim bo'lgan muzey ashyolarini to'plash, saqlash, konservatsiyalash, muzeyshunoslik va sohaviy fanlarning ilmiy metodlari bazasida tadqiq qilish va ilmiy, ta'limiy-tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishlardan iborat. Umumlashgan formada muzeyning zamonaviy tushunchasini quyidagicha ta'riflash mumkin. Muzey – bu madaniy-tarixiy, tabiiy-ilmiy qadriyatlarni aniqlash, muzey predmetlari vositasida axborotni to'plash va tarqatish uchun mo'ljallangan ko'pqirrali ijtimoiy axborot muassasadir.

Ma'lum tarixiy sharoitda muzeylar faoliyati ijtimoiy faoliyatning alohida qatlami sifatida – muzey ishining mavjud bo'lishi bilan belgilanadi.

Buxoro muzeyshunosligi fanining obyekt – bu muzey ijtimoiy hodisa sifatidagi Buxoro muzeyidir. Bu obyekt Buxoro tarixi, xususan, madaniyat tarixi, san'atshunoslik, sotsiologiya va boshqa fanlar tomonidan o'rganilmoqda.

Buxoro muzeyshunosligi fanining predmeti – bu muzey sohasida qabul qilingan qonunlar, ekspozitsiya va ko'rgazma tashkil qilish qoidalari, ashyolarni to'plash va saqlash tartibi, muzey ishi sohasi, filiallar faoliyatidir.

1.2. Muzey tashkil etishning tartibi. Muzeylar quyidagi maqsadlarda tashkil etiladi: muzey ashyolari va kolleksiyalarini saqlash; muzey ashyolari va kolleksiyalarini aniqlash hamda to'plash; madaniy, ma'rifiy, ilmiy va ta'lim faoliyatini amalga oshirish; muzey ashyolari va kolleksiyalarini o'rganish; muzey

⁸ Курязова Д.Т. Ўзбекистонда музей иши тарихи. – Тошкент: Санъат, 2010. – 154 б.

ashyolari va kolleksiyalarini e'lon qilish. Muzeylarni ushbu badda nazarda tutilganidan tashqari boshqa maqsadlar uchun tashkil etishga yo'l qo'yilmaydi.

Quyidagilar muzeyning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- muzeylarda xalqimizning boy madaniy merosini, uning insoniyat tarixidagi rolini haqqoniy yoritish;
- mamlakatimizda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarda erishilgan yutuqlarni keng targ'ib etishga qaratilgan muzey ekspozitsiyalarini tashkil etish;
- muzey fondlarida saqlanayotgan, xalqimizning madaniy boyligi hisoblangan muzey ashyolari va kolleksiyalarini avaylab-asrash, o'rganish, boyitib borish, mamlakat fuqarolariga namoyish etish, dunyo jamoatchiligiga tanitish va targ'ib etish;
- muzeylardagi noyob eksponatlar orqali fuqarolarga, ayniqsa, yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, bebaho tarixiy va madaniy merosga hurmat, g'urur va iftixor, Vatanga sadoqat va muhabbat tuyg'ularini tarbiyalash va kuchaytirish;
- muzey ashyolari va kolleksiyalarini ilmiy tadqiq qilish ishlarini kuchaytirish va uning natijalarini e'lon qilib borish;
- muzey ekspozitsiyalarini tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish;
- muzeyshunoslikning dolzarb masalalariga oid ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazish va ilg'or ish tajribalarni ommalashtirish;
- chet el muzeylari bilan ko'rgazmalar tashkil etish borasida o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini mustahkamlash;
- jahon muzeyshunosligi tajribasini qo'llash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va boshqalar.

Muzey o'z maqsad va vazifalarini amalga oshirishda davlat tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar bilan birgalikda hamkorlik dasturlarini ishlab chiqishi, turli tanlovlar, ko'rgazmalar tashkil etishi hamda belgilangan tartibda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi mumkin.

Muzeylarni tashkil etish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi:

Mulkchilik shakliga ko'ra muzeylar davlat muzeylari va nodavlat muzeylarga bo'linadi.

Ixtisoslashuviga ko'ra muzeylar: asosiy faoliyati muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash, o'rganish hamda ommaga namoyish etishdan iborat bo'lgan muzeylarga;

asosiy faoliyati tarixiy-madaniy qo'riqxonalar va u bilan bog'liq tabiiy landshaft tarkibiga kiradigan madaniy va tabiiy meros obyektlarini, shuningdek, muzey ashyolari va kolleksiyalarini saqlash, o'rganish hamda ommaga namoyish etishdan iborat bo'lgan muzey-qo'riqxonalariga bo'linadi.

Davlat muzeylarini davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat boshqaruvi organlari hamda davlat tashkilotlari tomonidan tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Muzeylarni tashkil etish uchun quyidagi shartlar: muzey tematikasiga muvofiq muzey ashyolari va kolleksiyalarining mavjudligi; muzey ashyolari va kolleksiyalarini saqlash hamda ommaga namoyish etish talablariga javob beradigan moddiy-texnik bazaning, shu jumladan, bino (xona yoki xonalar), zarur ko'rgazma jihozlari, muhofaza vositalari hamda yong'inga qarshi vositalar mavjudligi; muzey faoliyatini ta'minlash uchun zarur moliyaviy mablag'lar mavjudligi talab etiladi.

Muzey-qo'riqxonalarini tashkil etish uchun qonun hujjatlariga muvofiq qo'shimcha shartlar belgilanadi.

Muzey notijorat madaniyat muassasasi shaklida tashkil etiladi va belgilangan tartibda yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Muzey Nizomi amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi (faqat davlat muzeylari uchun) hamda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi. Muzey Nizomiga belgilangan tartibda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Muzey bank hisob raqamlariga, o'z nomi yozilgan muhrga, shtamp va blankalarga ega bo'ladi. Muzeylar o'zlarining yuqori boshqaruv organi hamda tegishli hududiy mahalliy hokimliklar bilan kelishgan holda (faqat davlat muzeylari uchun) belgilangan tartibda o'z filiallarini tashkil etishi mumkin. Muzey filiali o'zi bo'ysunadigan bosh muzey Nizomi asosida faoliyat ko'rsatadi.

1.3. Muzey ashyolari va kolleksiyalarini hisobga olish hamda saqlash tartibi. Muzey ashyolari va kolleksiyalarini hisobga olish quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Muzey ashyolari va kolleksiyalarini hisobga olish deganda O'zbekiston Respublikasining umumxalq mulki bo'lgan muzey ashyolar va kolleksiyalarini aniqlash hamda tegishli tartibda qayd etish tushuniladi. Hisobga olish muzey ashyolari va kolleksiyalarini o'rganish, namoyish etish, saqlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi hamda ularning huquqiy himoyalanihini ta'minlaydi.

Muzey ashyolarini hisobga olish ikki bosqichda, ya'ni: muzeyga olingan ashyolar va kolleksiyalarning dastlabki himoya hujjatlarini tuzish (dalolatnomalar yozish, ularning qisqacha tavsifini qayd etish);

ularni inventar daftarlarida hisobga olish, ya'ni ilmiy ro'yxatdan o'tkazish (muzey ashyolari va kolleksiyalarini xillari va ma'lum bir san'aturiga mansubligiga qarab turkumlashtirish, tegishli daftarlarda kengaytirilgan hamda aniq tavsiflarini aks ettirish) tarzida amalga oshiriladi.

Muzeylarda saqlanayotgan ashyolar va kolleksiyalarning narxlari buxgalteriya hisoboti hujjatlarida aks ettirilmaydi.

Muzeyning asosiy va ilmiy-ko'makchi fondlari tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va kolleksiyalari majmuyi muzey fondini tashkil etadi. Fond ishlarini yuritish, muzey ashyolari va kolleksiyalarini sotib olish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish masalalarini kollegial hal etish maqsadida muzeylarda fond ishlari va sotib olish komissiyalari tashkil etiladi.

Muzeyga olingan ashyolar va kolleksiyalar qat'iy tartibda hisobga olinib, hujjatlashtiriladi. Muzey ashyolari va kolleksiyalarini rasmiylashtirish hujjatlarining shakllari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan belgilanadi.

Muzeyga doimiy saqlash uchun olingan muzey ashyolari va kolleksiyalari ilmiy ro'yxatga olinadi. Ushbu Nizomda belgilangan tartibda hisobga olinmagan muzey ashyolari va kolleksiyalarini muzeylarda saqlash qat'iyan man etiladi.

Muzey ashyolari va kolleksiyalarini hisobga olishning asosiy hujjatlari quyidagilar hisoblanadi: Kirim daftari va Inventar daftarlari; muzey ashyolari va kolleksiyalarini doimiy (vaqtincha) saqlashga oid qabul dalolatnomalari; muzey ashyolari va kolleksiyalarini ta'mirlash va hisobdan chiqarish dalolatnomalari (ular muzey fondi tarkibidan chiqarilgan hollarda).

Muzey ashyolari va kolleksiyalarini saqlash tartiblari quyidagicha: muzey ashyolari va kolleksiyalarining saqlanishini ta'minlash, ularni shikastlanish, kasallanish, yemirilishdan va o'g'irlanishdan himoya qilish, shuningdek, ularni o'rganish, namoyish etish va ommalashtirish uchun qulay sharoit yaratish muzeylarning asosiy vazifasidir.

Muzey ashyolari va kolleksiyalarini vaqtinchalik yoki doimiy foydalanish maqsadida boshqa yuridik shaxsga berish muzey bo'ysunuvchi yuqori boshqaruv organi (nodavlat muzeylarda – mulkdor)ning buyrug'iga asosan amalga oshiriladi. Belgilangan tartibda hisobga olinib, shifr va tartib raqamlari qo'yilmagan muzey ashyolari va kolleksiyalarini foydalanish uchun boshqa yuridik shaxsga berish mumkin emas.

Muzey ashyolari va kolleksiyalarini vaqtinchalik foydalanishga oladigan muassasa ularni o'z muddatida qaytarish to'g'risida kafolat xati taqdim etishi lozim.

Muzeyda vaqtinchalik saqlanayotgan eksponatlarni ularning egasidan ro'xsat olmay boshqa shaxslar yoki tashkilotlarga berish qat'iyan taqiqlanadi.

Muzey ashyolari va kolleksiyalarini muzey ichida qisqa muddatga bir bo'limdan boshqa bo'limga yoki tahlil etish maqsadida ilmiy xodimga berish bosh muhofiz ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Muzeyga olingan muzey kolleksiyalari butunligicha hisobga olinadi va saqlanadi. Ularning boshqa muzey ashyolari va kolleksiyalari bilan aralashtirib yuborilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Muzey ashyolari va kolleksiyalarining o'g'irlanishi, nobud bo'lishi, shikastlanishi aniqlangan har bir holatda muzey direktori ushbu hodisani batafsil tavsiflab, bu haqda muzey bevosita bo'ysunuvchi yuqori boshqaruv organi (nodavlat muzeylarda mulkdor)ga yozma ravishda xabar qilishi shart.

Muzey ashyolari va kolleksiyalari o'g'irlangan taqdirda ularni topish choralarini ko'rish maqsadida muzey direktori yoki bosh muhofizi tezlik bilan huquqni muhofaza qilish organlariga xabar berishi lozim.

Muzey ashyolari va kolleksiyalari nobud bo'lgan yoki jiddiy shikastlangan hollarda ularga yetkazilgan zarar to'g'risidagi dalolatnoma rasmiylashtirilishi va unga muzey ashyosining fotosurati ilova qilinishi lozim.

Muzey rahbariyati muzey ashyolari va kolleksiyalarini belgilangan vaqtda muntazam xatlovdan o'tkazishi, ya'ni muzey bu ashyolarning fondlarda mavjudligi va saqlanishi holatini kirim daftarlari, ilmiy ro'yxatdan o'tkazish daftarlari, dalolatnomalar hamda boshqa hisob hujjatlari bilan solishtirib turish ishlarini tashkil etishi shart.

O'z tarkibida uch mingtagacha muzey ashyolari va kolleksiyalari bo'lgan kichik muzeylar fondidagi barcha ashyolar har yili xatlovdan o'tkaziladi. Uch mingdan ko'p ashyolari va kolleksiyalariga ega bo'lgan muzeylarda xatlov ishlari muzeyning bo'limlari yoki muzey ashyolari turlari bo'yicha har ikki yilda bir marta o'tkaziladi.

Muzey ashyolari va kolleksiyalarini xatlovdan o'tkazish ishlari muzey direktorining buyrug'iga binoan tashkil etiladigan komissiya tomonidan amalga oshiriladi. Komissiya ishida shu kolleksiya uchun mas'ul bo'lgan shaxs ishtirok etishi lozim. Muzeysga arxeologik ekspeditsiyalar materiallari vaqtinchalik saqlab turish uchun qabul qilinmaydi.

1.4. Davlat muzeylari toifalari, ularni belgilash ko'rsatkichlari. Dunyo tajribasiga nazar tashlasak, muzeylar turli guruhlariga, toifalarga va kategoriyalarga bo'linganligiga guvoh bo'lish mumkin. Masalan, Buxoro muzeyi 1945–1969-yillarda Buxoro tarixiy-o'lkashunoslik muzeyi deb nomlanib, respublikada III kategoriyaga kiritilgan bo'lsa, 1969–1988-yillarda II kategoriyaga kiritilgan.

O‘zbekiston SSR Ministrlar sovetining 1988-yil 21-martdagi 112-sonli qaroriga asosan muzey Buxoro davlat badiiy-me‘morchilik muzeyi-qo‘riqxonasi nomini oldi va 1989-yil 1-yanvardan respublikada I kategoriyadagi muzey deb qayd qilindi. 2017-yildan Buxoro davlat muzey qo‘riqxonasi oliy toifali deb e‘lon qilindi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat muzeylari toifalari darajalariga ko‘ra oliy toifa, I toifa, II toifa, III toifadan iborat bo‘ladi.

Muzeylarning asosiy fondida saqlanayotgan muzey ashyolari, muzey kolleksiyalarining noyobligi, ularning saqlanish holati, muzey binosining amaldagi talablarga mosligi, zamonaviy texnika va fond jihozlari bilan ta‘minlanganligi, tashrif buyuruvchilar uchun yaratilgan qulayliklar, ekspozitsiyasining jahon standartlariga javob bera olishi, xalqaro aloqalar yo‘lga qo‘yilganligi hamda eksponatlar soni, muzeyga bir yil davomida tashrif buyurganlar soni davlat muzeylarining toifalarini belgilashda asosiy ko‘rsatkichlar bo‘lib hisoblanadi.

Davlat muzeylariga: asosiy fondida noyob muzey ashyolari, muzey kolleksiyalari mavjud, eksponatlar saqlanish holati talab darajasida, zamonaviy texnika va fond jihozlari bilan to‘liq ta‘minlangan, tashrif buyuruvchilarga barcha qulayliklar yaratilgan, ekspozitsiyasi jahon standartlari talablariga javob beradigan, xalqaro aloqalar yaxshi yo‘lga qo‘yilgan hamda eksponatlar soni 40 mingdan ziyod, muzeyga bir yil davomida tashrif buyurganlar soni 40 ming nafardan ortiqni tashkil etgan bo‘lsa – oliy toifa;

asosiy fondida noyob muzey ashyolari, muzey kolleksiyalari mavjud, eksponatlar saqlanish holati talab darajasida, zamonaviy texnika va fond jihozlari bilan ta‘minlangan, tashrif buyuruvchilarga qulayliklar yaratilgan, ekspozitsiyasi jahon standartlari talablariga javob beradigan, xalqaro aloqalar yo‘lga qo‘yilgan hamda eksponatlar soni 30 mingdan ziyod, muzeyga bir yil davomida tashrif buyurganlar soni 30 ming nafardan 40 ming nafargachani tashkil etgan bo‘lsa – I toifa;

asosiy fondida noyob muzey ashyolari, muzey kolleksiyalari mavjud bo‘lmagan, eksponatlar saqlanish holati talab darajasida, zamonaviy texnika va

fond jihozlari bilan qisman ta'minlangan, tashrif buyuruvchilarga o'rtacha darajada qulayliklar yaratilgan, ekspozitsiyasi jahon standartlari talablariga qisman javob beradigan, xalqaro aloqalar qoniqarli yo'lga qo'yilgan hamda eksponatlar soni 25 mingdan ziyod, muzeyga bir yil davomida tashrif buyurganlar soni 20 ming nafardan 30 ming nafargachani tashkil etgan bo'lsa – II toifa;

asosiy fondida noyob muzey ashyolari, muzey kolleksiyalari mavjud bo'lmagan, eksponatlar saqlanish holati qoniqarli darajada, zamonaviy texnika va fond jihozlari bilan ta'minlanmagan, tashrif buyuruvchilarga yaratilgan qulayliklar darajasi past, ekspozitsiyasi jahon standartlari talablariga javob bermaydigan, xalqaro aloqalar yo'lga qo'yilmagan hamda eksponatlar soni 20 mingtagacha, muzeyga bir yil davomida tashrif buyurganlar soni 10 ming nafardan 20 ming nafargachani tashkil etgan bo'lsa – III toifa beriladi.

Yuqoridagi talablarga javob bermagan muzeylarga toifa berilmaydi va ular hududdagi boshqa yirik muzeylar tarkibiga o'tkaziladi va filial sifatida faoliyat yuritadi.

Yangi tashkil etilgan muzeylarga dastlab III toifa beriladi va bir yillik faoliyatidan so'ng belgilangan asosiy ko'rsatkichlar asosida tegishli ravishda toifasi o'zgartiriladi. Davlat muzeylarining shtat jadvallari ular ega bo'lgan toifadan kelib chiqqan holda shakllantiriladi.

Davlat muzeylari toifa olish, amaldagi toifasini o'zgartirish to'g'risida o'zlari bevosita bo'ysunuvchi yuqori boshqaruv organlari orqali O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligiga murojaat etadi. Madaniyat vazirligi huzuridagi maxsus komissiya davlat muzeylariga uning asosiy ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan holda toifa berilganligi to'g'risida qaror qabul qiladi.

Muzeylarning asosiy fondida saqlanadigan noyob durdonalarning boshqa muzeylarga berib yuborilishi, saqlanish holati yomonlashganda, muzey binosi talabga javob bera olmay qolganda, zamonaviy texnika va fond jihozlari bilan ta'minlash to'xtab qolganda, tashrif buyuruvchilarga yaratilgan qulayliklar qoniqarsiz bo'lganda, ekspozitsiyasining jahon standartlariga javob bera olmay qolishi, xalqaro aloqalarning susayib borishi hamda eksponatlar sonining

kamayishi, muzeyga yil davomidagi tashrif buyuruvchilar soni ko'rsatkichlari pasayishi holati aniqlanganda ularning toifalari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi maxsus komissiyaning qaroriga asosan tegishli tarzda pasaytiriladi.

Muzeylarga ularning toifasini tasdiqlovchi maxsus guvohnoma uch yil muddatga beriladi va belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi. Guvohnoma shakli O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, muzey ashyolarni to'plash, saqlash, o'rganish, tadqiq etish, ko'rgazmalar tashkil qilish va xalq ommasiga namoyish etish hamda boshqa maqsadlar uchun tashkil etiladi. Muzeylar fondidagi ashyolarning noyobligi, tomoshabinlar sonining ko'pligi va xalqaro aloqalar yo'lga qo'yilganligiga qarab, uning toifalarga bo'linganligi diqqatga sazovordir.

Nazorat uchun savollar

1. Muzey atamasiga ta'rif bering?
2. Muzey so'zi qaysi tildan olingan?
3. IKOM bu qanday tashkilot?
4. Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi sovet davrida qaysi kategoriyada bo'lgan?
5. Toifalar nimaga qarab belgilanadi?
6. Muzey ashyolari va kolleksiyalarini saqlash tartiblari haqida gapirib bering?
7. Muzey ashyolari va kolleksiyalarini hisobga olish qanday tartibda amalga oshiriladi?

Test topshiriqlari

1. Buxoroda birinchi muzey qachon ochilgan?
A. 1927-yil
B. 1930-yil
S. 1931-yil
D. 1922-yil

2. “Sovet muzeyi” jurnali qaysi yildan chiqa boshlagan?
- A.1931-yil
 - B.1932-yil
 - S.1933-yil
 - D.1934-yil
3. 1876-yil qaysi muzey ochilgan?
- A.Temuriylar muzeyi
 - B.Toshkent muzeyi
 - S.O‘lkashunoslik muzeyi
 - D.Navoiy muzeyi
- 4.1896-yil respublikamizning qaysi shahrida muzey ochildi?
- A.Samarqandda
 - B.Buxoroda
 - S.Nukusda
 - D.Andijonda
- 5.1898-yil qaysi muzey ochilgan?
- A.Yettisuv muzeyi
 - B.Temuriylar muzeyi
 - S.Toshkent muzeyi
 - D.O‘lkashunoslik muzeyi
- 6.1928-yil 28-martda muzeyshunoslarning qaysi yirik tashkiloti tuzilgan?
- A.Uzkomstaris
 - B.Turkkomstaris
 - S.Sredazskomstaris
 - D.To‘g‘ri javob yo‘q
- 7.1931-yildan Muzeylar faoliyatini yorituvchi qaychi jurnal nashr etila boshlandi?
- A. “Moziydan sado”
 - B. “Sovet muzeyi”
 - S. “Muzeylar tarmog‘i”
 - D.To‘g‘ri javob yo‘q

8.1996-yilda O‘zbekistonda tashkil etilgan muzey qanday nomlanadi?

A.Temuriylar davlati tarixi muzeyi

B.O‘zbekiston davlat tarixi muzeyi

S.Oybek nomidagi Davlat muzeyi

D.To‘g‘ri javob yo‘q

9.Kataloglar qay tartibda bo‘ladi?

A.tizimli va alifbo tartibida bo‘ladi

B.tartibli bo‘ladi

S.grafikli bo‘ladi

D. yo‘nalishli bo‘ladi.

10. “Moziydan sado” jurnali qachondan nashr etila boshlandi?

A.1998-yil

B.1999-yil

S.2000-yil

D.2001-yil

2- mavzu: O‘zbekistonda muzey ishi tarixi

Reja:

- 2.1. Chor Rossiyasi bosqini davrida madaniy boyliklarning tashib ketilishi va muzey ishi.
- 2.2. Turkistonda dastlabki muzeylarning vujudga kelishi.
- 2.3. Muzeylarni tashkil etilishida ilmiy jamiyatlar va kolleksionerlarning roli.

Tayanch so‘z va iboralar: ilmiy jamiyat, muzey, kutubxona, general gubernator, Turkiston, Peterburg, Nizom, numizmatika, etnografiya, geografiya, antropologiya, arxeologiya, bo‘lim, kolleksiya, kolleksioner, o‘lkashunos.

2.1. Chor Rossiyasi bosqini davrida madaniy boyliklarning tashib ketilishi va muzey ishi. Rossiya imperiyasining mahalliy aholini o‘rganish jarayoni ayniqsa, XIX asrga kelib juda avj oldi. Peterburgdagi Osiyo muzeyining direktori, sharqshunos olim X.D.Fren 1834-yil O‘rta Osiyodan izlab topilishi mumkin bo‘lgan sharq mualliflariga mansub “Yuz asarning xronologik ro‘yxati”ni tuzib chiqdi⁹. Orenburg bojxonasiga savdogarlarni jo‘natish va ko‘rsatilgan qo‘lyozmalarni Peterburgga yuborish haqida farmoyish berildi. Bu vazifa buyurganidan ham a‘lo darajada bajarilib, Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari tarixi, geografiyasiga doir qimmatli qo‘lyozmalar Peterburgga oqib kela boshladi. Bu O‘rta Osiyodan moddiy va ma‘naviy yodgorliklar olib kelinishining birinchi bosqichi edi. Shu davrdayoq Yevropa davlatlari va Rossiyaning podsho saroylari kutubxonalarida Turkiston yodgorliklari paydo bo‘la boshladi. 1853-yili rus qo‘shinlari tomonidan Oq masjid qal`asining qo‘lga kiritilishi paytida moddiy va ma‘naviy xazinalarimiz rus qo‘shini tomonidan talandi. 1869-yildan rejali o‘lja yig‘ish choralari ishlab chiqildi. Soldat – ofitserlar qo‘llariga Peterburgda yozilgan tavsianoma berilib qanday narsalarga ahamiyat berishlari ko‘rsatilgan edi. Asosiy maqsad: Turkiston shaharlari va xonliklardan qo‘lyozmalar, hujjatlar, tanga, muhr,

⁹ Содиқова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. – Тошкент: Фан, 1981. –Б.33.

amaliy san'atnamunalari, osori-atiqalar, mahalliy hunarmandlarning ijod mahsullari, gilamlar, mis o'ymakorligi buyumlari, nodir egar-jabduqlar, zargarlik buyumlari, ayniqsa, soplari dur va gavhar toshlari bilan bezatilgan qimmatbaho metallardan yasalgan qilich, xanjar, pichoqlar va boshqa buyumlar Peterburgdagi muzey hamda kutubxonalarga jo'natilishi kerak edi.

Madaniy va ma'naviy yodgorliklarni ilmiy asosda yig'ish 1873-yili Xiva xonligiga yurish oldidan juda mukammal tashkil qilindi. Bu ishga Peterburgdagi rus geografiya jamiyati bosh-qosh bo'ldi. Yirik sharqshunos olim P.I.Lerx xonlikda nimalarga e'tibor berish va yig'ish haqida mukammal dastur ishlab chiqib Turkistonga yubordi. Dastur, ya'ni "Ko'rsatma" tipografiya yo'li bilan nashr qilinib soldat va ofitserlarga tarqatildi. "Ko'rsatma"ning maxsus bo'limida arxiv hujjatlari, tilla, kumush tangalar va qo'lyozma kitoblarni yig'ish alohida qayd etildi. Yana ko'rsatiladiki, yuqoridagi yodgorliklar, qozixonalar, masjid-madrasa va xonadonlardan olinsin. Bu yerlarda Abu Rayxon Beruniy, Alisher Navoiy va boshqa mutaffakkirlarning qo'lyozmalari bo'lishi shartligi ko'rsatiladi. Yozilgan qo'lyozma va osori-atika buyumlarini Peterburgga jo'natish Turkiston general-gubernatorining faxriy maslahatchisi sharqshunos olim A.L.Kun zimmasiga ma'muriy yo'l bilan yuklatiladi. Ko'rsatmada soldat va ofitserlarni rag'batlantirish yo'llari ham ko'rsatiladi.

Buxoro bilan Xiva – Rossiya imperiyasining tobe xonliklari bo'lib qolgandan keyin o'lkada yarim podsho Turkiston general-gubernator bo'lib, u cheklanmagan vakolatga ega edi. Endi yangi vazifa O'rta Osiyoning ulkan hududini o'zlashtirish, uni Rossiya imperiyasining Sharqdagi istehkomiga, boyish manbaiga aylantirish, o'lkani mukammal o'rganish, ya'ni uning yer osti va yer usti boyliklarini, o'simlik va hayvonot olamini, tarixini, etnografiyasini o'rganish zarur edi. Bu borada katta dastur ishlab chiqildi: unda Turkistonning qadimgi tarixi, moddiy va ma'naviy yodgorliklari, geografiyasi, yer osti va yer usti boyliklari, tabiati, hayvonot dunyosi, urf-odatlarini, hayot tarzini keng ko'lamda o'rganish hamda o'zlashtirish mo'ljallangan edi. Shu maqsadda general-gubernator huzurida faxriy maslahatchilar shtati tashkil etildi va bu lavozimlarga sharq tarixi

bilimdonlari jalb etildi. Peterburgdan sharqshunos olimlar O‘rta Osiyoga doimiy va uzoq muddatli ekspeditsiyalarga kelib mahalliy kolleksionerlar va sharqshunoslar yordamida har taraflama tekshirish o‘tkazar edilar. Ular ishni arxeologik qazilmalar hamda betakror maqbara va madrasalardan boshlar edilar. Bu ishlarning natijasi o‘laroq, ular ixtiyorida qadimiy nodir yodgorliklar, qimmatli manbalar to‘planardi.

Bu noyob manbalar Peterburg muzey va kutubxonalariga jo‘natiladi. Ular Peterburgning hamma shaharlariga general-gubernator vakolati bilan borib xon saroylari, madrasalar, masjidlar, qozixona va savdogarlarning shaxsiy kolleksiyalarini, moddiy va ma‘naviy yodgorliklarni, qadimiy nodir qo‘lyozmalarni izchil ravishda qo‘lga kiritib, saralab Peterburgdagi arxeologiya komissiyasiga, Osiyo muzeyiga va Imperator kutubxonasiga uzluksiz jo‘natib turdilar. Bulardan tashqari shu maqsad yo‘lida 1867-yildan to 1917-yilgacha Turkistonda 15 dan ortiq ilmiy jamiyat va to‘garaklar ishlab turgan. 1895-yilda Toshkentda arxeolog, etnograf va antropologlar to‘garagi tashkil etilib, unga Nikolay Petrovich Ostroumov boshchilik qildi. To‘garakning asosiy vazifasi - o‘lkaning boy madaniyati va tarixini o‘zida mujassamlashtirgan yodgorliklarni to‘plash hamda o‘rganish bo‘ldi. Bu ish Peterburgdagi imperator arxeologlar jamiyati bilan hamkorlikda yo‘lga qo‘yilgan edi. To‘garak to‘plagan ashyolar haqida markazga axborot berib turar va markazdagilarning tavsiyasi bilan qo‘lga kiritilgan ashyolarni Peterburgga jo‘natar edi.

O‘rta Osiyoni o‘z mustamlaka mulki deb bilgan chorizm beqiyos boyliklarni o‘zlashtirish uchun Turkistonni ilmiy asosda o‘rganish zarurligini yaxshi tushunardi. Ilmiy jamiyatlar, Turkiston o‘lkasining tadqiqotchi olimlari, ayrim shaxslar, ayrim muassasalar o‘z fondlarini Turkiston o‘lkasi mineralogiyasi, zoologiyasi, numizmatikasi, etnografiyasi, flora va fauna dunyosiga oid ajoyib kolleksiyalar bilan to‘ldirib oldilar. Shu munosabat bilan tarqoq kolleksiyalarni birlashtirish va ularni Peterburgga jo‘natish uchun saralash markazi lozim bo‘lib qoldi. Buning uchun eng qulay Markaz muzey hisoblanib, o‘lkada muzey tashkil etish masalasi ko‘tarildi. Jumladan, A.P.Fedchenko Turkiston general-

gubernatoriga tayyorlagan axborotida “Turkistonni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun u bilan asosli ravishda tanishib chiqish kerak, muzey esa buning eng yaxshi vositasidir” – deb yozgan edi.

Shunday qilib, A.P.Fedchenko, I.V.Mushketov, V.F.Oshanin, V.V.Bartold va boshqalar Turkistonda muzeylar qurilishining tashabbuskorlari bo‘ldilar. 1876-yil birinchi bo‘lib Toshkent muzeyi (hozirgi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi) ochildi. Shu paytdan e‘tiboran, O‘rta Osiyoda bosh muzeyning mavjudligi rasman tan olindi. 1896- yili Samarqand, 1898-yili Yettisuv, 1899-yili Farg‘ona va Kaspiyorti (Ashxobod) o‘lka muzeylari barpo etildi¹⁰.

2.2. Turkistonda dastlabki muzeylarning vujudga kelishi. Turkistonda birinchi muzey 1876-yilda ochilgan bo‘lsa-da, lekin davlat tomonidan muzey uchun bino ajratilmagan. Shunda N.A.Mayev o‘zining ipakchilik maktabidan muzey uchun ikki xona ajratdi. Ko‘p o‘tmay, muzey Statistika bo‘limi ixtiyoriga o‘tkaziladi. Muzey ta‘minoti uchun yiliga 300 so‘m ajratilganidan tashqari, ba‘zi shaxslarning moddiy yordamlari ham kelib tushgan. N.A.Mayevning yozishicha, muzey faoliyati uchun yiliga 1600 so‘mlik mablag‘ talab etilgan¹¹.

1877-yilning yanvariga kelib, muzey etnografiya, ishlab chiqarish texnologiyasi, qishloq xo‘jaligi, tabiat tarixi va arxeologiya bo‘yicha 1500 dan ortiq ashyolarga, 800 ga yaqin qadimiy tangalarga ega bo‘ldi³. Muzey tez rivojlana boshladi. Mazkur eksponatlar asosida etnografiya-texnika, tabiat, tarixiy-arxeologiya, numizmatika, qishloq xo‘jaligi bo‘limlari tashkil topdi.

Ekspozitsiyalarning mazmuniga kelsak, uning asosiy vazifalaridan biri Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyodagi g‘alabalarini sharaflashdan iborat bo‘lib, Turkistonni bosib olishdagi rus generallari va ofitserlarining ko‘rsatgan “jangovarligi” madh etilib, ularning sanoqsiz portretlari ko‘rsatilgan edi. ekspozitsiyalarda mahalliy tillarda izoh matnlari berilmagan, mahalliy aholi muzeyni ko‘rish va tushunish uchun qisqacha izohlarga muhtoj edi. Umuman, mustamlaka ma‘muriyati muzey ekspozitsiyalardan, hukmron metropoliya

¹⁰ Содиқова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. –Тошкент. Фан, 1981 –Б.43-48.

¹¹Shu kitob. –B.39.

g'oyalarini targ'ib qilish uchun foydalanar edi. Bu ishda rus burjuaziyasi, savdogarlar hamda korchalonlar, mustamlaka tabiiy boyliklarini suiste'mol qilishdagi o'z yutuqlarini namoyish etish va shu bilan o'z mahsulotlarini pullash uchun reklama yaratishga harakat qilar edilar. Shunday bo'lsa-da, XIX asrda Turkiston o'lkasida dastlabki muzeylarning yuzaga kelishi o'lkada madaniyatning rivojiga qo'shilgan hissa, deb bilsak bo'ladi. Mahalliy aholining oz qismi ya'ni, ziyolilar muzey ekspozitsiyalari bilan tanishib, o'lkalarining o'z tabiati, yer osti va usti boyliklaridan namunalar ko'rib, o'zligini anglashda biroz turtki olgan bo'lsalar ajab emas.

Muzey predmetlari maxsus to'planmagan bo'lsa-da, unda qimmatbaho, nodir va noyob buyumlarning asl nusxalari mavjud edi. Mazkur muassasaning tashkil etilishi fanning turli tarmoqlarida foydalanish mumkin bo'lgan xilma-xil kolleksiyalarni to'plashni davom ettirishga turtki berdi. Natijada ekspozitsiyalarni kengaytirish va bo'limlarni ma'lum darajada tartibga solish uchun dastur ishlab chiqilib, geografiya, antropologiya bo'limlari ajratildi, texnika, sanoat va etnografiya bo'limlariga bo'lindi.

Muzey Nizomi tasdiqlandi va unda muzey ixtisosligi vazifasi, ish ko'lami belgilab berildi. Dastlab muzeyni besh kishidan iborat nazorat komiteti boshqardi. Nizomga muvofiq muzeyga geologiya, botanika, zoologiya, etnografiya, arxeologiya, numizmatika, sanoat va qishloq xo'jaligi bo'yicha eksponatlar to'plash va saqlash huquqi berildi. Mazkur Nizomda: "Muzey ommaning O'rta Osiyo o'lkasi bilan tanishuvi va to'plangan materiallarni olimlar o'z sohalari bo'yicha o'rganishlari uchun ochildi", – deyilgan edi¹². Lekin muzey bu talabga to'liq javob bera olmas edi, chunki eksponatlarning bir-biriga aloqasi yo'q alohida kolleksiyalardan iborat edi. Nizomning bu bandidan muzey tashkilotchilari, uning vazifasini ilmiy-ma'naviy muassasa sifatida belgilaganlarini bilib olish mumkin. Albatta, o'z davri uchun Turkistonda tashkil etilgan birinchi muzeyning ahamiyati katta edi. Undagi kolleksiya to'plamlari va ekspozitsiyaning sifati hamda ko'lami yillar o'tib o'sib bordi.

¹² Курязова Д.Т. Ўзбекистонда музей иши тарихи. –Тошкент:Санъат, 2010. –Б.8.

Olimlarning fikricha, 1876-1880 - yillar Toshkent muzeyi faoliyatining muhim bosqichi bo'ldi. Shu yillarda numizmatika, etnografiya bo'limlari boy kolleksiyalar bilan to'ldirildi.

Rossiya imperiyasining davlat siyosatidagi ayrim islohotlari natijasida 1883-yili muzey xalq kutubxonasiga qo'shib yuborildi. Asosiy mablag' kutubxonaga ajratiladi. General-gubernatorlik mahkamasi ixtiyoriga o'tgan muzeyga yangi tayinlangan rahbarlarning aksariyati yetarli malakaga ega bo'lmaganligi, muzey ishining nozik jihatlarini tushunmasligi unga in'om etilgan osori-atiqalarning yo'qolib ketishiga olib keldi. Muzey binosining eksponatlarni saqlash va ta'mirlash uchun mo'ljallanmaganligi, maydonning torligi buyumlarni turkumlash, ularni tartibli joylashtirish imkonini bermay qo'ydi. Yaroqsiz holga kelib qolgan muzeyning binosi doimiy ta'mirlashni talab etar, buning uchun esa mablag' yetishmas edi. Natijada muzey ko'pincha yopiq bo'lar va qiziquvchilarni doim qabul qila olmasdi.

Zarur mablag' va sharoitning yetishmasligi muzey fondi materiallarini ta'mirlash, pasportlashtirish imkonini bermadi. Zoologiya bo'limidagi qimmatbaho kolleksiyalar nobud bo'lishiga sabab bo'ldi. Turli hayvonlarning ho'l preparatlarini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan spirtning yo'qligi tufayli bu kolleksiyadan 1883-yili voz kechishga to'g'ri keldi.

Muzey kolleksiyalarining tez-tez ko'chirilishi hamda o'g'irlanishi natijasida u jiddiy zarar ko'rsa ham fidoyilar sa'y-harakatlari tufayli fondlar doimiy ravishda boyitib borildi. Toshkent muzeyi 1884-yilga kelib gerbariy, numizmatika to'plami Samarqand kolleksiyalaridan tashqari 3000 ta turli buyum-ashyolarga ega edi. Oradan yana ikki yil o'tib, eksponatlar soni 4000 dan oshib ketdi.

Samarqandda birinchi muzey o'z faoliyatini 1896-yil iyul oyida boshladi. Muzey Georgiyev cherkov uyi xonalaridan birida joylashdi. Ko'rgazmada dastlab qishloq xo'jaligi qurollari asosiy o'rinni egallaydi. Shuningdek, keng ko'lamda bo'lmasa-da, muzeyda arxeologiya, etnografiya va numizmatika kolleksiyalari ham

namoyish etiladi. Devorlarda mahalliy aholi maishiy turmushi, urf-odatlarini ifodalovchi yuzdan ortiq fotosurat osib qo'yiladi.

Keyinchalik muzeyning arxeologiya bo'limi qazilma ishlari paytida arxeolog V.L.Vyatkin, V.V.Bartold tomonidan topilgan buyumlar bilan tezda boyib ketdi. Topilmalar orasida Somoniylar saroyining devorlariga mansub qoplama bo'laklari o'z mohiyati bilan alohida ahamiyat kasb etgan. Viloyat ma'muriyati muzey uchun har yili 300-400 so'm ajratar edi. Ammo muzeyning torligi ish va namoyish ko'lamlarini kengaytirish imkoniyatini bermasdi. Shu munosabat bilan Samarqand muzeyi uchun bino qurish masalasi 1901- yili ko'tarilsa-da, masala hal etilmay qog'ozda qolib ketdi¹³.

Farg'ona muzeyining ochilishiga sabab, 1894-yili Yangi Marg'ilon shahriga qishloq xo'jaligi va davlat mulki ministri keladigan bo'lib qoladi. Ana shu tashrif munosabati bilan Farg'onada birinchi marta sanoat va qishloq xo'jaligi ko'rgazmasi tashkil etiladi. Xuddi o'sha paytda mazkur ko'rgazma eksponatlari asosida muzey barpo etish fikri tug'ilib qolib, keyinchalik bu g'oya amalga oshiriladi. Muzey eksponatlari ko'rgazmaning qishloq xo'jaligi va o'rmonchilik bo'limlaridagi uskunalardan, qurol-yarog'lardan, shuningdek, xususiy majmualar: vrach L.I.Smirnovning etnografiyaga, kapitan N.P.Danilovning mineralogiyaga, turli shaxslarning numizmatikaga, K.F.Mauyerning zoologiyaga, injener A.G.Serebrennikovning mahalliy qurilish materiallariga oid va boshqa kolleksiyalaridan tashkil topdi. Muzey 1899-yili rasmiy ravishda Farg'ona xalq muzeyi nomini oldi¹⁴.

Asta-sekin muzeylar boshqa shaharlarda ham ochila boshlaydi. Nijniy Novgorodda 1896-yildagi ko'rgazmaga yuborilgan kolleksiyalar qaytarilgandan so'ng 1899-yili uning asosida Ashxobod muzeyi tashkil etiladi. 1902–1904-yillari uning uchun yangi bino ham quriladi.

2.3.Muzeylarni tashkil etilishida ilmiy jamiyatlar va kolleksionerlarning roli. Muzey ishida 1885-yili tuzilgan arxeologiya

¹³ Содиқова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. –Тошкент: Фан, 1981. –Б.47.

¹⁴Shukitob. –Б.47.

havaskorlari to‘garagining faoliyati muhim ahamiyat kasb etdi. To‘garak tashkil etgan arxeologik ekspeditsiyalarning dastlabki arxeologiya va numizmatika materiallari 1899-yildan muzeyga topshirila boshlanadi.

Muzey moddiy holatining og‘irligi kolleksiyalarning yo‘qolishi, bo‘limlarning qisqarishiga olib keldi. 1900-yilga kelganda faqat etnografiya, arxeologiya va numizmatika bo‘limlarigina faoliyat ko‘rsatar edi. O‘sha yili ro‘yxatga olingan kolleksiyalar holatiga qarab ekspozitsiyalar haqida fikr yuritish qiyin emas. Ro‘yxat besh qismdan: gravyura va fotosuratlar; dafn etish va qabrtoshlar bilan bog‘liq ashyolar; uy-ro‘zg‘or buyumlari; kichik arxeologik ashyolar; numizmatika kolleksiyalaridan iborat bo‘lgan.

Muzeyga keladigan tomoshabinlar soni yildanyilga ortib borgan. Xususan ,1900-yili tomoshabinlar soni 5400 kishi bo‘lsa, 1908-yilga kelib – 10000, 1913-yili esa 37000 kishiga etdi. Bu borada eng muhimi muzeyga keluvchilarning aksariyat qismi mahalliy aholi vakillari ekanligidir. “O‘rta Osiyo hayoti” gazetasidagi xabarda “garchi muzey eksponatlari mahalliy tilda izohga muhtoj bo‘lsa ham, ularni zo‘r qiziqish bilan tomosha qilayotgan mahalliy aholi orasida ruslar umuman kam ko‘rinardi”¹⁵.

Turkiston muzeylarini boyitish, o‘tmish obidalarini saqlashda mahalliy yodgorliklar havasmandlarining xizmati katta. Rus olimlari Turkiston o‘lkasini o‘rganish, O‘rta Osiyo xalqlari hayoti bilan tanishish mobaynida mahalliy aholining turli vakillari bilan yaqin aloqada bo‘ldilar. N.I.Veselovskiy, V.V.Bartold, E.F.Kal, A.N.Samoylovich va ruslarning boshqa taniqli namoyandalari o‘zlarining Turkistonda olib borgan ilmiy ishlarida mahalliy yodgorlik muxlislariga tayandilar. Shu tufayli ularning ilmiy axborotlari, xabar va maktublarida mahalliy o‘lkashunoslar faoliyati tasvirlangan. Rus olimlari bilan tanishuv ayni paytda mahalliy kolleksionerlar faoliyatiga ham samarali ta’sir ko‘rsatdi.

Samarqandlik usta Mirza Qosimov shahardagi me’moriy yodgorliklarning sirli lavhalarini to‘plovchi kolleksioner sifatida tanilgan edi. Jizzax yaqinidagi

¹⁵ Содиқова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. –Тошкент: Фан, 1981. –Б.45.

“Temur darvoza” qoyatosh lavhalari ham shu ajoyib rassom va xattot tomonidan qog‘ozga ko‘chirilgan. M.Qosimov Ulug‘bek madrasasining qo‘lyozma chizmasini ham tayyorlagan. Uning rasmlar to‘plami 1886-yili Toshkentdagi Turkiston hunarmandchilik sanoati ko‘rgazmasida namoyish etilib, munosib taqdirlanadi.

Turkistonda N.I.Veselovskiy rahbarligida o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlarda qatnashgan toshkentlik savdogar Akrom Asqarov yirik kolleksionerga aylandi. Rus imperatori arxeologiya jamiyati 1887-yili Akram Asqarovni “Arxeologiyada erishilgan yutuqlarga yordam qilganligi uchun” kichik kumush medali bilan taqdirlaydi. Uni Parijdagi ilmiy arxeologiya jamiyati ham a‘zolikka saylagan. A.Asqarov arab, rus tillarini bilgan o‘z zamonasining etuk ziyolisi bo‘lgan¹⁶.

1890-yili ochilgan Turkiston qishloq xo‘jaligi va sanoati ko‘rgazmasiga A.Askarov ham qatnashadi. Unga ajratilgan pavilyonni N.A.Mayev shunday tasvirlaydi: “Temir yo‘l va O‘rta Osiyo bo‘yicha ilmiy ishlar pavilyonlari orasida Akram Asqarovning uncha katta bo‘lmagan pavilyoni joylashdi. ... Pavilyon ichkarisida rus Turkistonida kamdan kam uchraydigan ilg‘or kishilar orasida obro‘ qozongan Akram Asqarovning hunarmandchilik mahsulotlaridan namunalar o‘rin olgan edi. Bu yerda amerika paxtasi, pilla va shoyi namunalari, ipak qurti uchun eng yaxshi deb tan olingan tut daraxti namunalari namoyish etildi. Shuningdek, bu yerda boy numizmatik va arxeologik kolleksiyani ham ko‘rish mumkin. Akram Asqarov O‘rta Osiyo qadimgi yodgorliklari va eski tangalarini ko‘pdan beri ishtiyoq bilan to‘plab keladi. Uning kolleksiyalari bu o‘lkaning bir paytlari juda jo‘shqin kechgan hayoti bilan qiziquvchilarning hammasiga ma‘lumdir”¹⁷.

A.Asqarov o‘z vasiyatnomasida to‘plagan kolleksiyasini hukumatga topshirilishini iltimos qilgan. Ammo uning o‘limidan keyin yiqqan osori-atiqalari alohida-alohida sotilib, turli odamlar qo‘liga o‘tib ketdi. A.Asqarov kolleksiyasining katta qismi – 14 mingta tanga va 200 ta buyum Turkiston general-gubernatori A.B.Vrevskiy farmoyishi bilan Peterburgga, Imperator arxeologiya komissiyasi ixtiyoriga jo‘natiladi.

¹⁶ Лунин Б.В. Самаркандский любитель старины Мирза Бухары //Общественные науки в Узбекистане. 1963. – № 6. – С. 39.

¹⁷Содиқова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. –Тошкент: Фан, 1981. –Б.50.

Mahalliy yodgorlik to'plovchilari orasida o'tkir qobiliyatli, rus shaharlari bo'ylab bir necha bor sayohat qilgan, faol va yirik kolleksioner samarqandlik Mirza Abdulla Buxoriy ham bor edi. Mirza Abdulla Buxoriy savdogar va mahalliy ipak, jun va ip gazlama buyumlari fabrikasining xo'jayini ham edi. Mirza Abdulla 1878-yili Toshkentda ko'rgazma tashkil etib, unda xonatlas, ayollar bosh kiyimlari kabilardan iborat kolleksiyasini namoyish etgan.

Mirza Abdulla savdogar Muhammad Shokir bilan birga "Ipak buyumlari ishlab chiqarishni ancha takomillashtirgani va kengaytirgani" uchun oltin medaliga sazovor bo'ladi. 1886-yili Turkiston ko'rgazmasida, 1887-yili Xarkov qishloq xo'jalik ko'rgazmasida qatnashdi. U keltirgan ipak mahsulotlar tezda sotilib ketgan, ana shu gazmollari uchun u medal olgan edi. Mirza Abdulla N.I.Veselovskiy bilan ham aloqada bo'lgan. N.I.Veselovskiy Mirza Abdulla kolleksiyalarini ko'rib chiqib, undan 1202 buyum, shu jumladan, 11 tilla va 77 kumush tanga, 951 dona chaqa, 18 ta muhr, odamlar, hayvonlar hamda boshqa narsalar tasviri tushirilgan 6 ta tosh sotib olgan.

Mirza Abdullaning kolleksiyasi Imperator arxeologiya komissiyasi a'zolarida qiziqish uyg'otdi. Ular Turkiston general-gubernatori N.O.Rozenbax orqali unga murojaat etib, kolleksiyalari bilan tanishtirishni iltimos qildilar. 1888-yilning 21-oktabrida Mirza Abdulla roziligi bilan Peterburgga 6 yashik qadimgi tanga va boshqa narsalar yuborildi. Mirza Abdulla ularga hech qanday narx qo'ymadi. Hammasi bo'lib 6300 ta osori atiqalarning ko'pchiligi kommissiya tomonidan qabul qilindi¹⁸.

Shayboniyxon madrasasida mudarrislik qilgan Abu Said Mahsum ham mahalliy o'lkashunos, qadimgi buyumlar ishqibozi va to'plovchisi bo'lgan. U mohir hattot bo'lib, Go'ri Amir, Shohi Zinda dahmalari va boshqa me'moriy inshootlardagi o'qilishi qiyin bo'lgan yozuvlardan nusxa ko'chirgan. To'plangan qadimgi buyum, tanga-chaqalarni saqlaydigan maxsus stol va vitrinalarni ta'mirlash, zarur jihozlar tayyorlash uchun viloyat ma'muriyati ma'lum miqdorda mablag' ajratadi. To'plangan tangalari 1875-yilning iyulida 700 dona bo'lsa,

¹⁸O'shajoyda. –B.53.

kutubxonadagi qo‘lyozma va kitoblar esa 30 taga yetadi. 1883-yili Zarafshon okrugi mahkamasida saqlanayotgan kolleksiyaning bir qismini Toshkent muzeyiga topshiradi.

Abu Said Mahsumdan sharqshunos olim V.V.Bartold Osiyo muzeyi uchun Sulton Shohruh davridan tortib to Shayboniyxon sulolasining so‘nggi davrigacha bo‘lgan turli yorliq va hujjatlarni sotib olgan. Uning nomi Ulug‘bek rasadxonasi xarobalarining topilishi bilan ham aloqador. 1908-1909-yillari Obirahmat arig‘i yaqinidagi Poyirasat tepaligida qazuv ishlarini olib borgan V.L.Vyatkinga qazilma joyini aniqlash va Ulug‘bek rasadxonasi qoldiqlarini topishda mahalliy keksalarning ko‘rsatmalari yordam beradi.

Yana bir o‘lkashunos, qadimgi buyumlar muxlisi, etnograf Shohimardon Ibrohimov esa yuksak ma‘rifatli va madaniyatli kishi sifatida ajralib turgan. U O‘rta Osiyo etnografiyasiga oid ko‘pgina asarlar muallifi. Sh.Ibrohimov xalqimizning tarixi, turmush tarzini yaxshi bilgan. Qozog‘istonlik elshunos E.Masanov uning asarlarini “rus bo‘lmagan xalqlarga vatanparvarlik munosabatini qaror toptirishga yordam beradi, u rus ilg‘or g‘oyalari ta‘sirida bo‘lgan oz sonli savodxon etnograflardan biri edi” deb baholaydi¹⁹. O‘rta Osiyoda o‘zbek tilida nashr etilgan kitob – “1871-yil kalendari”ning tuzuvchisi ham Sh.Ibrohimovdir.

Xulosa qilib aytganda, o‘lkamizda muzeylarning ochilishi Rossiya imperiyasi tomonidan o‘lkaning moddiy va madaniy boyliklarini talon-toroj etish siyosatini oldini olish kerak edi va xalq ommasiga o‘z tarixini, o‘tmishi haqida ma‘lumot berishi lozim edi. Ammo bu davrda kolleksiyalarni birlashtirish va muzey tashkil etish masalasi juda murakkab kechdi. Chunki Rossiya imperiyasi Turkiston xalqi orasida tarix va madaniyatga oid bilimlarni keng tashviqot qilish hamda ular e‘tiborini qadimgi yodgorliklarga jalb etishni xohlamas edi. Shu tariqa O‘rta Osiyoning moddiy va madaniy yodgorliklari, qimmatbaho buyumlari, nodir qo‘lyozmalari Rossiya va boshqa chet mamlakatlarga olib ketildi. Keyinchalik o‘lkamizda muzeylarning ochilishi bu ishlarning qisman oldini oldi. Muzeylarni

¹⁹ Лунин В.Б. Среднеазиатский этнограф Шахимардан Ибрагимов //Общественные науки в Узбекистане, 1966. – № 7. – С. 39-48.

ochishda ilmiy jamiyatlar va to'garakalarning xizmati alohida tahsinga loyiq. Muzei fondlarini boyitishda kolleksionerlarning roli ham katta bo'ldi.

Nazorat uchun savollar

1. Turkistonda tuzilgan dastlabki ilmiy jamiyatlar qaysilar?
2. Turkistondagi birinchi muzei qayerda ochilgan?
3. A.Askarov haqida ma'lumot bering?
4. Samarqanddagi muzei o'z faoliyatini qachon boshladi?
5. Abu Said Mahsum kim bo'lgan?
6. Rossiya imperiyasi nima maqsadda Turkistonda muzeylarni ochdi?
7. Turkistonlik o'lkashunos-kolleksionerlar haqida ma'lumot bering?

Test topshiriqlari

1. Muzei kataloglari bu-
 - A. muzei ashyolarini xarakterlab beradi.
 - B. muzei fondlarga xizmat qiladi.
 - S. Fondlarni tartibga soladi.
 - D. Tizimlab beradi.
2. Muzei predmeti deganda nima tushuniladi?
 - A. asl nusxadagi hujjat ahamiyatiga ega bo'lgan ashyolar
 - B. inson tomonidan yaratilgan ashyolar
 - S. tabiiy ashyolar
 - D. hozirda yaratilgan ashyolar
3. Muzei so'zining ma'nosini toping?
 - A. "muzalarga bag'ishlangan joylar"
 - B. "san`atga bag'ishlangan joylar"
 - S. "muzei bu ko'rgazma"
 - D. to'g'ri javob yo'q
4. Muzei fondlari asosiy qismi qanday maqsadda tuziladi?
 - A. mangu saqlashga mo'ljallab tuziladi

B.1 yillikka tuziladi

S.10 yilga tuziladi

D.25 yilga tuziladi

5. Muzeylardagi “ochiq eshiklar kuni”da kimlar tashrif buyuradi?

A.o‘quvchilar, talabalar, va h.

B.Xodimlar

S.Ishchilar

D.Xorijiy sayyohlar

6. Muzey fondlari bu-?

A.davlat mulki

B.shaxsiy mulk

S.muзей mulki

D.to‘g‘ri javob yo‘q

7. Muзей fondlarini ajratib bering?

A.Davlat muзей fondi

B.asosiy, ilmiy, ko‘makchi fond

S. dublet fond

D.ilmiy ko‘makchi fond

8. Temuriylar davlati tarixiy muzeyi qachon ochildi?

A.1990-yil

B.1996-yil

S.1995-yil

D.1993-yil

9. Farg‘ona va Kaspiyorti o‘lkashunoslik muzeylari qachon barpo etildi?

A.1899-yil

B.1897-yil

S.1900-yil

D.1911-yil

10. Yurtimizda muzey qachondan paydo bo‘lgan?

A.rus bosqinidan keyin

- B. xonliklar davrida
- S. ilk oʻrta asrlarda
- D. XX asr oʻrtalarida

3-mavzu. Buxoro o'lkashunoslik muzeyining shakllanishi va XX asr 20-40-yillaridagi faoliyati

Reja:

- 3.1. Buxoro o'lkashunoslik muzeyining shakllanishi.
- 3.2. 1925-1927-yillarda Buxoro o'lkashunoslik muzeyining shakllanishida Sredazkomstaris va Buxkomstarisning faoliyati.
- 3.3. XX asr 30-40-yillarida Buxoro o'lkashunoslik muzeyining yangi bosqichga o'tishi, P.E.Kornilovning muzey sohasidagi faoliyati va ilmiy ekspeditsiyalar.

Tayanch so'z va iboralar: O'lkashunoslik, nozir, sovet, maorif, muzaxona, madrasa, sho'ba, Zerkomissiya, Buxkomstaris, Sredazkomstaris, Turkomstaris, Ko'kaldosh, BXSР, ekspozitsiya, sotsialistik, Sitorai Mohi Xosa.

3.1. Buxoro o'lkashunoslik muzeyining shakllanishi. Buxoroda sovet hokimiyati o'rnatilib, ijtimoiy hayot yangi tizimga burib yuborilgandan so'ng, yangi hukumat tomonidan qo'lyozmalar, eski kitoblar va osori-atiqalarni to'plash, ularni mamlakat hududidan olib chiqib ketishga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan chora-tadbirlar ko'rildi va bu borada bir qator buyruqlar chiqarildi. 1920-yil 17-sentabrdagi Buxoro Nozirlar Sho'rosining buyrug'ida jumladan shunday deyiladi: "Butun Buxoro mamlakatlaridagi eski hukumat ma'murlaridan qolgan eski va yangi kitoblar maorif nazoratiga topshiriladur. Shul kitoblarni ko'rmak yoki sotib olmoqchi bo'lg'onlar maorif nazoratidan ijozat olmoqlari kerakdur. Xususiy kishilarda eski kitoblari bo'lib sotmoqchi bo'lsalar chetga chiqarmasdan maorif nazoratiga keltirib, o'z bahosida oqchasini olsunlar va shul yuqoridagi yozuvlarga qarshi kelganlarga jazolar ila hukmga beriladur". Hukumat o'tmishdan meros bo'lib qolgan madrasalarga, kitob va o'quv-yozuv asboblariga, osori-atiqalarga egalik qilish, ularni bir joyga to'plash vazifasini maorif nozirligi zimmasiga yuklaydi. Shuning uchun o'lka madaniyatiga oid osori-atika va san'atarlarini to'plash maqsadida maorif nozirligi qoshida "Tarixiy osori-atika sho'basi" tashkil qilindi. Chunki general-gubernatorlik davrida ko'plab bebaho kitoblar,

qo‘lyozmalar, osori-atiqalar ayrim kolleksionerlar tomonidan xalqdan yig‘ib olinib, olib ketilgan edi. Shu bois Buxoro hukumati bunday salbiy holatlarning takrorlanishiga chek qo‘yish maqsadida yuqoridagi buyruqlarni chiqarishni maqsadga muvofiq deb bildi. Maorif nozirligining 1920-yil 20-dekabrda buyrug‘ida ham shunday xavotirni oldini olishga chaqiriq bor. Unda Buxoroning o‘lka madaniyatiga oid osori-atika va nafis san’atarlarini maorif nazoratidagi tarixiy osori-atika sho‘basiga topshirishga qat’iy da’vatlar mavjud.

Maorif noziri boshchiligidagi “Tarixiy osori-atika sho‘basi” 1920-1922-yillar davomida samarali faoliyat ko‘rsatib, Buxoro vohasida yagona bo‘lgan muzey tashkil qilishga muvaffaq bo‘ldi. Muzey 1922-yil 8-noyabrda ochiladi. Buxoro muzeyining ochilish sanasi borasida yagona fikr mavjud emas. Tadqiqotchi N.Yo‘ldoshev muzey ochilishini 1927-yil bilan belgilaydi²⁰. Biroq Buxoro muzeyi o‘z faoliyatini 1922-yilda boshlaganini o‘sha yillarda chiqib turgan “Buxoro axbori” gazetasidagi e‘lon tasdiqlaydi. O‘sha paytdagi Nozirlar Sho‘rosi raisi Ato Xo‘ja, Maorif nozirligidagi mutasaddi rahbarlar, Rossiyaning Buxoro Respublikasidagi vakolatxonasi boshlig‘i N.I.Sokolov hamda xalq vakillari ishtirokida 8 noyabrda Buxoro muzeyining rasmiy ochilish marosimida qatnashadi.

Muzeyning ochilish marosimida Ato Xo‘ja so‘zga chiqib, Buxoroda muzey tashkil etilishining madaniy-ma’rifiy ahamiyati xususida gapirdi. N.I.Sokolov rus vakolatxonasi qaramog‘ida ochilgan Fayzulla Xo‘jayev nomli qiroatxona (kutubxona) hisobidan muzey uchun ayrim kitoblar beradi.

Muzey ochilishi o‘sha paytda muhim tarixiy voqea bo‘lib, unga tashrif buyuruvchilarning son-sanog‘i bo‘lmagan. Mazkur xayrli ishni amalga oshirish oson bo‘lmagandi, albatta. Buxoro muzeyi ochilishi marosimida muallimlardan biri Nazir afandi so‘z olib, muzeyga “Qori Yo‘ldosh muzaxonasi” deb nom berishni taklif qiladi. Ushbu taklif barcha ishtirokchilar tomonidan ma’qullandi. Qori Yo‘ldosh esa marosim oxirida masala yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildiradi²¹.

²⁰Йўлдошев Н. Бухоро музейи //Фан ва турмуш. 1959. №12. –Б.32

²¹ Бухоро ахбори. 112-сон. 1922 йил 23 ноябр.

Muzeyning direktori etib Aminjon Po‘latov tayinlangan. Uning birinchi binosi avvalgi Rus-xitoy banki binosida joylashgan (hozirgi San‘at muzeyi binosi-A.B.)²². Mirzo Salimbek muzeyning Ko‘kaldosh madrasasida joylashganini qayd etsa, K.Raxmonov muzeyning birinchi binosi sifatida Sitorai Moxi Xosa binosini ko‘rsatadi. Lekin arxiv hujjatlarining guvohlik berishicha, 1927-yil boshida muzeyga mo‘ljallab Ko‘kaldosh madrasasi ta‘mirlanayotgan paytda Zerkomissiya (Zarafshon okrug komissiyasi) muzeyni Buxoro amirining yozgi qarorgohi Sitorai Mohi Xosada ochish taklifi bilan chiqadi. Biroq bunga Oblispolkom (Zarafshon viloyat ijroiya qo‘mitasi) ruxsat bermaydi va Ko‘kaldosh madrasasidagi ta‘mirlash ishlari tugatilib, muzey faoliyatini shu madrasada boshlashga ruxsat beriladi. Demak, muzey Ko‘kaldosh madrasasida 1927-yilda ochilgan. Amirning yozgi qarorgohi Sitorai Mohi Xosa esa 1931-yil Buxoro muzeyi filialiga aylantirilgan²³. Aslida bu ishlar 1927-yil boshlarida boshlangan edi.

1922-yilda o‘z faoliyatini boshlagan Buxoro muzeyi beshta xonadan iborat bo‘lib, bino yonida teatr, klub, kutubxona joylashgan va bular birgalikda madaniyat maskanini tashkil etgan.

Birinchi muzey ekspozitsiyasi (ko‘rgazma) tizimli bo‘lmay, unga har xil qadimiy ashyolar jamlangan edi. Yig‘ilgan ashyolar 168 donani tashkil etib, ular matolar, qoshg‘ar vazalari, sopol buyumlar, qo‘lyozmalar, misgarlik va zargarlik buyumlaridan iborat bo‘lgan. Asosiy maqsad - ommani o‘ziga chorlash va qiziqtirish bo‘lgani uchun muzey ashyolari muntazam to‘ldirib borilgan. 1924-yilda tematik ekspozitsiya (mavzuli ko‘rgazma) tashkil qilinadi va u qishloq xo‘jaligi mehnatkashlariga bag‘ishlanadi. Ekspozitsiya yaratish borasida hali yetarli tajriba to‘planmagani, tashkil etilgan ekspozitsiya amirlik tuzumining tanqidchisiga emas, aksincha targ‘ibotchisiga aylanib qolgani, shuningdek, muzey o‘zining saqlov vazifasini bajarmagani bois, ekspozitsiya vaqtincha yopib qo‘yiladi.

²²Альмеев Р.В. Бухара город-музей. –Ташкент: Фан, 1999.–С.17.

²³ Альмеев Р.В. Бухара город-музей. –Ташкент: Фан, 1999. –С.20.

Muzey uchun 1922-1924-yillardagi faoliyat birinchi bosqich bo'lib, bu davrda muzey shakllantirildi va Buxoroda ijtimoiy madaniyatni ko'rsatuvchi muzey instituti vujudga keldi.

3.2. 1925-1927-yillarda Buxoro o'lkashunoslik muzeyining shakllanishida Sredazkomstaris va Buxkomstarisning faoliyati. XX asr birinchi choragi oxiridan muzeyshunoslik va o'lkashunoslikda yangi davr boshlandi. 1925-yil may oyidan boshlab O'zbekiston SSR Xalq komissariati buyrug'iga asosan muzey sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Sredazkomstaris (O'rta Osiyo madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish qo'mitasi) bayonnomasida tarixiy yodgorliklari ko'p bo'lgan Xorazm, Buxoro, Samarqand, Farg'ona hududlaridagi obidalarni ta'mirlash ishiga e'tibor qaratish, bu yerlarda joriy yilda yangi muzeylarni tashkil etish va yil oxirigacha muzey faoliyatini tartibga olish va takomillashtirish, ularning yillik xarajatlarini ishlab chiqish vazifalari belgilab qo'yilgan.

“Sredazkomstaris” barcha qo'mitalarga quyidagi topshiriq bilan murojaat qiladi:

- viloyatlarda o'zbekshunoslik (o'lkashunoslik) ishlarini etnografiya, antropologiya va atamashunoslik sohalari bilan birgalikda olib borish va bu sohani aynan uchta viloyatda, ya'ni Xorazm, Buxoro, Farg'onada jonlantirish;
- etnografiya sohasiga alohida e'tibor qaratish va muzeyning etnografiya bo'limi uchun qimmatbaho va nodir ashyolarni yig'ish. Ularning yo'qolib ketish xavfini oldini olish;
- muzeylarda antropologiya xonalari tashkil etish va ularning doimiy faoliyat olib borishi uchun sharoit yaratish;
- atamashunoslik sohasini rivojlantirish, muzey eksponatlarini shu soha yordamida ilmiy muomalaga kiritish, eksponatlar mahalliy tilda qanday nomlangan bo'lsa, ularni shu nomda yozish va ashyoning tarixini yozishda atamashunoslikdan foydalanish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, antropologiya sohasi bo'yicha viloyatlarda ilmiy maslahatchi qilib L.V.Oshanin tayinlangan. Yig'ilishda yana bir masala-

maxsus o‘quv kurslarni tashkil etib, shu hududlarda istiqomat qilayotgan aholini muzey ishi, madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish sohalaridagi bilimni oshirish va ishlash uchun jalb etish muhokama qilingan edi. Uning loyahasini ishlab chiqish viloyat mutasaddilariga vazifa qilib topshiriladi.

Buxoroda muzey ishi Narkompros (Xalq komissariati) ixtiyoridan olinib, Buxkomstaris (Buxoro madaniy yodgorliklarini muhofaza qilish qo‘mitasi)ga topshiriladi. O‘sha paytlarda bu tashkilotni M.Saidjonov va ilmiy maslahatchi B.I.Butkevich boshqarar edi. Buxkomstaris o‘z oldiga yangi muzey ochish vazifasini qo‘ydi. Bu uchun unga moliyaviy mablag‘ kerak edi. Ammo Narkompros 1927-yilning 1-martigacha davlat budjetidan Buxoro muzeyi uchun hech qanday mablag‘ ajratmagan. Bunga javoban B.Butkevich yordam so‘rab, Sredazkomstaris va Toshkentga telegramma jo‘natadi.

Bundan tashqari muzey binosi masalasida ham bahs-munozaralar davom etayotgan edi. 1925-yil 12-sentabrdagi Sredazkomstaris yig‘ilishida V.K.Kostko Buxoro muzeyini Timi Abdullaxon yodgorligida ochish taklifi bilan chiqadi²⁴.

Bundan oldinroq Buxkomstarisning 1925-yil 8-sentabrdagi yig‘ilishida ham shu masala, ya’ni muzeyni Timi Abdullaxon yodgorligida ochish masalasi ko‘rilgan edi. Buxkomstarisning bir necha tekshirish guruhleri ham buni ma’qullagan. Hatto BXSRning Maorif noziri bu taklifni qo‘llab-quvvatlaydi va ta’mirlash uchun ikki ming rubl ajratadi. Binoni birinchi navbatda yorug‘ qilishga alohida e’tibor qaratish kerakligi, buning uchun har bir gumbazchalar ostiga fonuslar o‘rnatish, bino polini beton qilish, ichki qism devorlarini suvoqlash, binoni isitish va qishda zax-nam chiqishini oldini olish choralarini ko‘rish ko‘zda tutiladi. Buning uchun hammasi bo‘lib 10-12 ming rubl kerak bo‘lgan. Buxkomstaris Timi Abdullaxon uchun qiladigan xarajatlar ro‘yxatini Sredazkomstarisga taqdim etadi.

Sredazkomstarisning 1925 -yil 11-oktabrdagi yig‘ilishida “Zerkomissiya” (Zarafshon okrug komissiyasi) rahbari Abdurauf Fitrat hisoboti eshitilib,

²⁴Ниязова М.И. Из истории деятельности Бухарского музея (1925-1927 гг.). //Из истории культурного наследия Бухары. – Вып. 2. – Бухара: Бухоро, 1994. – С.40..

hisobotning ikkinchi qismida Buxoro muzeyi uchun bino masalasiga to'xtaladi. Tekshirish komissiyasi xulosasiga ko'ra, xavfsizlik nuqtayi nazaridan muzey binosi quruq bo'lishi, nam va zax muzey ashyolariga jiddiy zarar yetkazishini inobatga olgan holda havo aylanishi va almashishi uchun qulay sharoit yaratilishi, asosiysi, isitish imkoniyatiga ega va yong'in xavfsizligi qoidalari hisobga olingan bo'lishi kerak edi. Zerkomissiya yuqoridagi kamchiliklarni inobatga olib, Timi Abdullaxon binosi muzey uchun mos emas, degan xulosaga keladi. Zerkomissiya muzey uchun qulay bino sifatida Ark binosini tavsiya etadi.

Zarafshon viloyat ijroiya qo'mitasi Sredazkomstarisga muzeyni amirning yozgi qarorgohi Sitorai Mohi Xosada ochish taklifi bilan chiqadi. Ammo Zerkomissiya amirning yozgi qarorgohi shahardan ancha uzoqligini, ashyolarni saqlash va qo'riqlash tizimining yo'qligini asoslab beradi. Yuqoridagi sabablarga ko'ra, Sitorai Mohi Xosa yodgorligida muzey ochish taklifi keyinroqqa qoldiriladi.

Shundan so'ng Buxkomstaris bo'lajak muzeyni Yevropacha ta'mirlangan Ko'kaldosh madrasasida ochish taklifi bilan chiqdi. Ko'kaldosh madrasasi saqlov imkoniyatlari yuqoriligi va madrasaning xonalari ozroq ta'mirlansa, muzey uchun qulay binoga aylanishi ta'kidlandi.

Ko'kaldosh madrasasini ta'mirlash ishlari arxitektor A.Loginovga topshirilgan. O'sha paytlarda muzeyni ta'mirlash uchun eng og'ir muammo moliyaviy mablag' masalasi edi. Buxkomstaris yordam so'rab Buxoro kosiblar uyushmasi va Kogon temir yo'l rahbariyatiga marojaat qiladi. Muzeyni ta'mirlash ishlari 1926-yil mart oyidan boshlandi. Buxoro muzeyi uchun 3236 rublga yangi vitrina va jihozlar sotib olindi.

Asosiy eksponatlar etnografiya va amaliy san'atbuyumlaridan iborat bo'lib, bular BXSR maorif nozirliги tomonidan yig'ilgan edi. Bu ashyolarni Buxkomstaris xodimlari saqlayotgan edilar. Yig'ilgan ashyolarning bir qismi Sitorai Mohi Xosada edi. Buxkomstaris ixtiyoridagi eksponatlar yangi ko'rgazma uchun kamlik qilgani tufayli M.Saidjonov va B.Butkevich mutasaddi tashkilotlarga murojaat qilib, yangi muzeyga eksponat yig'ish uchun yordam so'raydilar. Ular Zarafshon viloyat ichki ishlar boshqarmasiga rasmiy xat bilan murojaat qilib, muzey uchun

eski qurollarni, ya'ni buxorolik harbiylarning inqilobgacha bo'lgan qurollarini berishni iltimos qilishadi. B.Butkevich Samarqand muzeyi direktori V.Vyatkin bilan muzokara olib borib, uni eksponat almashishga ko'ndiradi. Hatto Farg'ona muzeyi bilan eksponat almashiriladi.

Yangi tuziladigan tabiat bo'limi uchun Samarqandga 100 ta mahalliy hayvonlar mulyajini (qo'g'irchoq) yasash uchun buyurtma beriladi.

1927-yil 1-martdan boshlab muzey uchun ko'rgazma tuzishga kirishiladi. Yig'ilgan ashyolar saralanib, ularga etiket (yorliq) yoziladi. Muzeyda uchta - arxeologiya, etnografiya va tabiat bo'limlari tashkil etiladi.

Buxkomstaris tashabbusi bilan ta'mirlangan Ko'kaldosh madrasasida 1927-yil 22-iyunda muzey ochiladi va yangi ekspozitsiya tashkil qilinadi. Muzey ochilishida qatnashish uchun Buxkomstaris Samarqand muzeyi direktori V.L.Vyatkinga, arxeolog V.A.Shishkinga va O'zbekistonning boshqa ko'zga ko'ringan ilm-fan namoyandalariga taklifnoma jo'natadi.

Ekspozitsiya uchun to'rtta xona ajratilib, ikkitasi ilmiy xodimlarga beriladi. Arxeologiya bo'limi bitta xonaga joylashtirilib, unda asosan arxeologik ashyolar, sopol buyumlar, Samarqanddan keltirilgan ossuariylar o'rin olgan. Eng qimmatli eksponat marmardan qilingan bo'lib, u XIV asrga oid Shayx Sayfiddin Boxarziy qabrtoshi edi. Bu yodgorlik 1926-yilning kuzida muzeyga keltirilgan²⁵. Bundan tashqari XVII-XVIII asr boshlariga, ya'ni Ashtarxoniylarga tegishli qabrtoshlar ham ekspozitsiyadan o'rin oladi. 1913-1914-yillardagi L.Zimin ekspeditsiyasi paytida Poykentdan topilgan Somoniylar va Qoraxoniylar davriga oid sopol buyumlar ham ko'rgazmaga qo'yiladi.

Buxoro vohasiga tegishli hunarmandchilik ashyolari etnografiya bo'limidan o'rin oladi. Xonaning burchagida esa harbiy ashyolar va qurollar kolleksiyasi joylashtiriladi. Etnografiya bo'limining markaziga Buxoro vohasi mahalliy aholisining XIX-XX asrlarga oid kiyimlari qo'yilib, zardo'zlik

²⁵Sayfiddin Boxarziy qabrini bezagan yodgorlik aslida yog'ochdan va yog'och o'ymakorligining yuksak namunasi hisoblanadi. U hozir ham Buxoro muzeyida saqlanadi.

buyumlariga ham ekspozitsiyada alohida o‘rin ajratiladi. Ekspozitsiyada Shahrisabz, Farg‘ona va Buxoro kashtalari namoyish etilgan.

Tabiat bo‘limida vohada yashaydigan 70 ta hayvon (fauna) eksponati joylashtirilib, bu bo‘limdagi asosiy eksponatlar Samarqand muzeyidan keltiriladi. Jami 600 dan ortiq eksponat uchta bo‘limga qo‘-yiladi. 1927-yil 22-iyundan 1-oktabrgacha muzeyga 3227 tomoshabin, dekabr oyining oxirigacha esa 6579 ta tomoshabin tashrif buyurdi. Ular orasida ilmiy xodimlar, turistlar va ekskursovodlar ham bor edi. Qiziquvchilar muzeyni ko‘rish uchun hatto Moskva va Leningraddan tashrif buyurishgan.

Mahalliy aholini ko‘proq o‘lkaning faunasi qiziqtirardi. Buni inobatga olgan Buxoro muzeyi rahbariyati 100 ta hayvon mulyajini tayyorlash uchun Samarqandga buyurtma bergan.

Buxkomstarisning 1927-yil mart oyidagi yig‘ilishida muzeyni ta‘mirlash ishlari tugaganligi va ko‘rgazma uchun tayyorgarlik ishlari boshlanganligi haqida fikr bildiriladi. Har bir tomoshabinning muzeyga kirishi 20 tiyin, musulmon ayollari va qizil armiya askarlari uchun esa bepul qilib belgilangan.

1927-yildagi muzey Buxkomstarisning qoshida tashkil etilgan bo‘lsa, keyinchalik bu tashkilot Narkompros tasarrufiga o‘tgan. O‘sha paytlarda muzey o‘zida ko‘proq o‘lkashunoslik va biroz tarixiy-rassomchilik mazmunini aks ettirgan edi. Muzey fondini yangi eksponatlar bilan boyitish va buning uchun tashkil etiladigan ilmiy ekspozitsiyalarni moliyalashtirish maqsadida muzeyga davlat tomonidan uch yillik kredit mablag‘lari ajratiladi. Kredit mablag‘lari yildan yilga oshirilib borilgan: 1929-yil 5000 rubl ajratilgan bo‘lsa, 1930-yil 15000 rubl, 1931-yil esa 22000 rubl²⁶ ajratilgan.

3.3. XX asr 30-40-yillarida Buxoro o‘lkashunoslik muzeyining yangi bosqichga o‘tishi, P.E.Kornilovning muzey sohasidagi faoliyati va ilmiy ekspeditsiyalar. 1930-yildan Buxoro o‘lkashunoslik muzeyi faoliyatida yangi davr boshlandi. Muzey fondi tashkilotlardan olingan, shuningdek, ekspeditsiya natijasida to‘plangan va sotib olingan ashyolar bilan boyitila boshlandi. Fond

²⁶Корнилов П.Е. Государственный Бухарский музей //“Советский музей”. –Москва: 1931. – №4. –С. 92-96.

asosan arxeologiya, etnografiya, zoologiya (tabiat) va numizmatika materiallari bilan boyitildi. Bu ishlar P.E.Kornilovning²⁷ rahbarligi ostida amalga oshirildi.

P.E.Kornilovning tashabbusi bilan 1930-yil Oktabr to'ntarishining 13 yilligi va Buxoroda 1920-yil 2-sentabr voqealarining 10 yilligi munosabati bilan yangi ko'rgazma tashkil qilindi. Yangi ekspozitsiya "Ulug' Oktabr to'ntarishi va Buxoro xalq inqilobi" deb nomlangan va o'zida o'sha davr mafkurasini aks ettirgan.

1931-yildan muzey xodimlarining malakasi, soni va tarkibiga e'tibor berildi. Uning tarkibida uchta ilmiy xodim va to'rtta texnik xodim bo'lib, ularga fevral oyida yana bitta ilmiy xodim qo'shilgan. Arxiv hujjatlari ma'lumotlariga ko'ra, muzeyning yarim yillik hisobotida direktor o'rinbosari, uchta ilmiy xodim va to'rtta texnik xodim faoliyat yuritgan. Muzey Ko'kaldosh madrasasining birinchi qavatidagi oltita hujrada joylashadi. Birinchi xonada davriy (vaqti-vaqti bilan o'zgarib turadigan) ko'rgazma, ikkinchi xonada sopol, tosh va metall buyumlar, uchinchi xonada yog'och va diniy marosimlarni aks ettiruvchi ashyolar, to'rtinchi xonada Buxoro zardo'zlik san'ati namunalari, beshinchi xonada ov va jang qurollari namoyish etilgan. Oltinchi xona muzey ma'muriyatiga ajratiladi. Bu ko'rgazma boshida direktor o'rinbosari P.E.Kornilov turgan va u birinchilardan bo'lib Buxoroda professional (ixtisoslashgan) muzey faoliyatini yo'lga qo'ygan.

O'sha vaqtlarda Buxoro muzeyi Sobiq Ittifoqning Leningraddagi ermitaj, Tretyakov galereyasi, Sovet inqilobi muzeylari bilan aloqa o'rnatdi²⁸.

Shu yillarda muzeyga kiruvchilarning soni ham ortadi va 1930-yilda 25011 kishiga etadi. Mahalliy aholi vakillaridan 13348 kishi va yevropaliklardan 11 050 kishi muzeyga tashrif buyuradi. Ularga 613 ekskursavod xizmat qilgan.

P.E.Kornilov rahbarligi va tashabbusi bilan G'ijduvon, Vobkent, Vardonze va Gajdumak tumanlarida ilmiy-tadqiqot ekspeditsiyalari amalga oshiriladi. Yuqori tashkilotlar tomonidan muzey faoliyatiga yetarli mablag' ajratilmaganligi,

²⁷Petr Yevgenevich Kornilov (1896-1981) tarixchi-san'atshunos olim 1927-1928-yillarda Termiz arxeologik ekspeditsiyasi ishtirokchisi. U 1930-yilda Buxoroga keladi va 1932-yilgacha Buxoro o'lkashunoslik muzeyida direktor o'rinbosari lavozimida faoliyat yuritadi.

²⁸Альмеев Р.В. Бухара город-музей. –Ташкент: Фан, 1999. –С.20; Курбанов Г.Н. Бухарскому краеведческому музею-60 лет //Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент: 1983. № 1. – С.64-65; Корнилов П.Е. Государственный Бухарский музей //“Советский музей”. –Москва: 1931. №4. -С. 92-96.

ko'rgazma uchun binoning yetishmasligi ilmiy va texnik xodimlarning yangi ko'rgazma tashkil etishiga imkon bermagan. XX asr 30-yillarida davlat qurilishining besh yillik rejasi asosida muzey ishiga ham e'tibor berilgan. Buning natijasida muzey huzurida ilmiy kengash, muzey xodimlarining yig'ilishlari va turli sovet jamiyatlari bilan hamkorlik kengashlari tuziladi.

Ko'rilgan chora tadbirlar natijasida muzey xodimlari 8-mart nomi ostida yangi ko'rgazma tashkil etishgan. Ko'rgazma uchun eksponat yetishmasligi oqibatida tashkilotlardan material yig'ishga kirishiladi. 8-mart ko'rgazmasida diagrammalar, fotosuratlar²⁹ qo'yilib, u orqali zamonaviy hayotda Buxoro ayollarining o'rni va rolini ko'rsatmoqchi bo'lishgan. Ko'rgazma tashkil etilgan xonaning yarmida O'rta Osiyo va Sharq tarixida islom dini va madaniyatiga oid ashyolar qo'yilgan. Bundan ko'zlangan maqsad birinchidan, islom dini va madaniyatiga qarshi qaratilgan targ'ibot, ikkinchidan ayollarni paranji tashlashga undash va uchinchidan muzeyda qishloq xo'jaligi bo'limini tashkil etib aholini paxta va qorako'l teri ishlab chiqarishga yo'naltirishdan iborat edi. Shu orqali aholiga sovet mafkurasi va g'oyasi singdirilgan. Muzey ishida sovet mafkurasining ta'siri 1930-yillardagi o'zgarishlar dinga qarshi, ateistik muzeylarni tashkil etishda ham o'zining ifodasini topdi³⁰.

Muzey ilmiy xodimlariga 1931-yildan boshlab o'lkashunoslik sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish vazifasi yuklatilgan. P.E.Kornilovning ma'lumotiga qaraganda, o'sha vaqtlarda Buxoro o'lkasini ilmiy o'rganish borasida na pedagogika instituti va na o'lkashunoslik jamiyatlari faoliyat yuritgan. Shuning uchun o'lkani o'rganish ishlari oz sonli muzey ilmiy xodimlari zimmasiga tushgan³¹.

Muzey ilmiy xodimlari muzeydagi faoliyat bilan birga o'lkashunoslik va o'lka tarixiga oid ashyolarni to'plash va ilmiy o'rganish bilan shug'ullanishgan. Muzey xodimlarining yetishmasligi o'lkashunoslik sohasidagi tadqiqotlarga salbiy

²⁹ Fotosuratlarda zavod va qishloq xo'jaligi sohasida mehnat qilayotgan ayollar aks etgan.

³⁰Музейное дело в России. 3-е изд./ Под редакцией М.Е. Каулен, И.М. Коссовой, А.А. Сундиевой. –Москва: Издательство “БК”, 2010. – С.150.

³¹ Корнилов П.Е. Из новых работ государственного Бухарского музея //“Советский музей”. –Москва: 1932. №4. –С. 94.

ta'sir qilgan bo'lishiga qaramay, muzey ilmiy xodimlari o'lkashunoslik ishini ham o'z zimmalariga olishgan. Besh nafar a'zodan iborat ilmiy jamoa o'lkashunoslik sohasi bilan jiddiy shug'ullana boshlaydi. Yil oxiriga borib doimiy faoliyat olib boradigan Buxoro inqilobi tarixi va bunyodkorlik mavzuida ko'rgazma tashkil etiladi. 1931-yil 7-noyabrda o'z faoliyatini boshlagan ko'rgazma beshta bo'limdan iborat edi.

1. Buxoro amirligi (to 1920-yilgacha); 2. Yosh buxoroliklar va jadidlar harakati (1905-1920-yillar); 3. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (1920-1924-yillar); 4. Sovet qurilishi (yer-suv islohoti yillari); 5. Lenin burchagi. Har bir bo'limda o'z davriga tegishli eksponatlar qo'yilgan.

Buxoro o'lkashunoslik muzeyi o'sha davrda ilmiy-tadqiqot muassasasiga aylangan edi. Muzey xodimlari ilmiy-tadqiqot ishlariga faol kirishib ketib, natijalarni maxsus nashrlarda e'lon qila boshladilar. Jumladan, P.E.Kornilovning ikki-uch yillik ilmiy faoliyati natijasida uch risola va ikki ilmiy maqola "Sovetskiy muzey" jurnalida nashr etiladi³².

Buxoroda o'lkashunoslik sohasini rivojlantirish uchun 1931-yilda Rossiya o'lkashunoslik byurosi rahbari M.P.Potyomkin Buxoro muzeyiga o'lkashunoslikka doir 33 ta kitob jo'natadi. 1933-yilda Buxoro muzeyiga tumanlararo o'lkashunoslik muzeyi maqomi beriladi va ekspozitsiya qayta tashkil etiladi³³.

1934-yil 23-mayda Ko'kaldosh madrasasida texnik tekshirish ishlari o'tkaziladi. Bunda binoning holati, devorlarning ta'mirtalabligi va kelajakda yangi ekspozitsiya tashkil etilsa, bino bunga javob bera olishi tekshiriladi. Tekshirish komissiyasi a'zolari tarkibida muhandis F.V.Yeselev, Buxkomstaris raisi, arxeolog V.A.Shishkin, arxitektor N.M.Bachinskiy va muzey direktori A.S.Amitrov bor edi. Shu yildan boshlab muzey ilmiy komissiyasining xulosasi bilan muzey fondiga ashyolar va kutubxona uchun kitoblar qabul qilingan.

³²Корнилов П.Е. Чеканное производство Бухары. 1932. –37с; Шу муаллиф. Изучение искусство Средней Азии. – Бухара. –10 с; Shu muallif. Бытовое искусство Средней Азии. –Бухара. 1932. –24 с; Shu muallif. Государственный Бухарский музей //“Советский музей”. –Москва: 1931. №4. –С. 92-96; Shu muallif. Из новых работ государственного Бухарского музея //“Советский музей”. –Москва: 1932. –№4. –С. 94.

³³ Жумаев Қ. Ситорайи Моҳи Хоса халқ амалий санъати музейи //Мозийдан садо. –Тошкент: 2003.- №1.-Б.26.

1934-yil 2-dekabrda muzey bilan mashhur rassom P.P.Benkov o'rtasida shartnoma imzolanadi. Shartnomaga ko'ra, rassom muzey uchun uchta: Buxoro ipakchilik korxonasi, paxta yig'imi hamda mehnatkash-bunyodkor mavzularida suratlar chizib berishni o'z zimmasiga oladi. Surat 1935-yil 1-fevralgacha tayyorlanishi shart bo'lgan va shartnomada har bir surat narxi belgilangan. Unga binoan mehnatkash-bunyodkor surati uchun 2000 rubl, paxta yig'imi surati uchun 3000 rubl, ipakchilik korxonasi surati uchun 3000 rubl to'lanishi kerak edi. Bundan shu narsa oydinlashadiki, o'sha davrda muzey tarixiy ashyolarni to'plash bilan birga sovet mafkurasini targ'ibot qilishga xizmat qiladigan suratlarga ham buyurtmalar bergan. Rassom P.P.Benkov bilan muzeyning hamkorligi ancha oldinroq boshlangan edi³⁴.

1935-yilda Devonbegi masjidida "Buxoroda qishloq xo'jaligi sohasi" nomli ko'rgazma tashkil qilinadi³⁵. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad aholini qishloq xo'jaligiga jalb qilish edi.

Buxoro shahar sovetining 1935-yildagi yig'ilish bayonnomasida shahar soveti rahbari N.Qurbonov shahardagi barcha korxonalar va tashkilotlarni Buxoro o'lkashunoslik muzeyiga yordam berishga chaqiradi. Korxonalar va zavodlar o'z tashkilotlari modelini, umumiy ko'rinishini aks ettirgan ashyolarni muzeyga taqdim etishi yoki ularni tayyorlash uchun muzeyga mablag' ajratishi kerak edi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad sovet davlatini mustahkamlash va sotsialistik qurilishni targ'ib qilish bo'lgan.

1930-yillarning o'rtalarida butun Rossiyada o'lkashunoslik muzeylarining umumiy tizimi yaratilib, o'lkashunoslik muzeylarida uchta ekspozitsiya-tarix, tabiat va sotsialistik qurilish bo'limlarini tuzish rejalashtirildi. Shu davrdan boshlab avvalgi saroy, zodagonlar qo'rg'onlarida joylashgan tarixiy-maishiy va tarixiy badiiy muzeylar soni kamayib bordi³⁶.

³⁴ 1927 -yil Buxoro muzeyi rassom P.P.Benkovdan Buxoro tasviri tushirilgan 12 ta suratni sotib olgan. Qarang. Садыкова Н.С. Музейное дело в Узбекистане. –Ташкент: Фан, 1975. –С.90

³⁵ Альмеев Р.В. Музей Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития. –Ташкент: Издательско-полиграфический творческий дом имени Г.Гуляма, 2007. –С.49.

³⁶Музейное дело в России. 3-е изд. /Под редакцией М.Е. Каулен, И.М. Коссовой, А.А. Сундиевой. –Москва: Издательство "БК", 2010. – С.149.

1936-yilning birinchi choragida Buxoro o'lkashunoslik muzeyida tarix, sotsialistik qurilish va tabiat bo'limlari faoliyat yuritadi va joriy yilda tashkil etilgan ekspozitsiya besh bo'limdan iborat edi. 1. Qadimgi Buxoro tarixi. 2. Buxoro o'rta asrlarda. 3. Buxoro xonligi XVIII asrdan 1920-yilgacha. 4. Buxoroda sotsialistik to'ntarish davri. 5. Buxoro sotsialistik O'zbekiston tarkibida. Ekspozitsiya 1936-1937-yillar mobaynida namoyish qilingan va shu davrda muzeyga 6330 nafar kishi tashrif buyurgan. Shularning 2004 nafari mahalliy aholi, 830 kishi boshqa millat vakillari va 1737 kishi turli tashkilotlardan edi.

Bu davrda Buxoro muzeyining respublikadagi boshqa muzey va ilmiy muassasalar bilan aloqalari kengaya bordi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan moddiy madaniyat yodgorliklarining bir qismi bevosita muzeyga kelib tushardi. Ayniqsa, Samarqand muzeyi bilan eksponat almashuv borasida ijobiy natijalarga erishildi. Buxkomstaris tomonidan Mag'oki Attori yodgorligida olib borilgan qazish ishlari natijasida topilgan sopol buyumlar muzey fondidan joy oladi.

XX asrning 30-yillari Buxoro o'lkashunoslik muzeyida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini SSSR Fanlar Akademiyasi to'plamida va "Sovetskiy muzey" jurnalida chop etish uchun ushbu muassasalardan 1936-yil Buxoro muzeyiga axborot xatlari jo'natilgan.

Shuningdek, bu davrda siyosiy-ma'rifiy ishlarga, xususan, muzeydan tashqari ishlar, ma'ruzalar, ekskursiyalar va ko'chma ko'rgazmalarga e'tibor kuchaydi. Muzeylarga kiruvchilarning soni ko'paydi. Bunday natijaga ko'rgazmalarda maktab o'quvchilarining tartibli jalb qilinishi orqali erishildi. ekspozitsiya ishining ko'p yillar davom etgan uslubi siyosiy mazmundagi mavzuli ko'rgazmalar bo'lib qoldi. Muzeylarga sotsialistik qurilish va hayot tarzidagi ustunliklarni namoyish etish tavsiya qilindi.

1936-yil Buxoro o'lkashunoslik muzeyiga maktab bolalari uchun maxsus ekskursiyalar tashkil qilinadi. Arxiv xujjatlaridagi ma'lumotlarga qaraganda, 1935-1936-yillar oralig'ida muzey direktoriga turli tashkilot va o'quv muassasalaridan

muzeyni tomosha qilish uchun ruxsat soʻralgan xatlar kelgan. Guruh boʻlib muzeyni tomosha qilish uchun muzey direktorining ruxsati kerak edi.

Muzey eksponatlari sonining ortib borishi hamda tomoshabinlar oqimining koʻpayishini inobatga olgan shahar rahbariyati muzey binosi bilan bogʻliq masalani oʻrganadi. Jumladan, Buxoro shahar sovetining 1940-yil 4-iyuldagi yigʻilishida muzeyni Koʻkaldosh madrasasidan Arkka koʻchirish, arkda joylashgan tashkilotlarni esa ikki oy ichida Koʻkaldosh madrasasiga koʻchirish masalasi koʻrilib, tegishli qaror qabul qilindi. Viloyat ijroiya komiteti Xalq taʼlimiga 1-avgustgacha arkni remont qilib berish va muzeyni koʻchirish uchun zarur boʻlgan transport vositalari bilan taʼminlash vazifasini yuklaydi. Ark atrofini qisman taʼmirlash Uzkomstarisga, ashyolarni koʻchirish paytida va tungi vaqtlarda ark binosida nazoratni kuchaytirish viloyat ichki ishlar boʻlimiga topshiriladi.

Ikkinchi jahon urushi davom etayotgan bir paytda Toshkentda Alisher Navoiy yubileyiga atab koʻrgazma tashkil qilinadi. Shu munosabat bilan ushbu koʻrgazma uchun Buxoro tarixiy oʻlkashunoslik muzeyidan “Burqu” (Kaʼbapoʻsh-A.B.)³⁷, otlarni tarashga moʻljallangan qora yogʻochdan qilingan katta taroq, yogʻoch dastasiga arabcha yozuv yozilgan, zargarlik tarozisi va bir nechta minbar joʻnatiladi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida muzey faoliyati ancha susaydi. Bunday jarayon respublikadagi barcha muzeylarga xos edi. Soha faoliyatining susayishiga sabab boʻlgan yana bir omil – bu yetakchi ilmiy xodimlar aksariyatining urush girdobiga tortilishidir. Ikkinchi jahon urushigacha Oʻzbekistonda 12 davlat muzeyidan 9 tasi oʻlkashunoslik, 1 tasi tarix, 1 tasi badiiy va 1 tasi tabiat muzeyi boʻlgan.

Maʼlumotlarga koʻra, urush boʻlishiga qaramasdan viloyat ijroiya komiteti rahbari va viloyat kompartiya rahbarining buyrugʻi bilan arkda yangi oʻlkashunoslik muzeyini tashkil etish ishlariga kirishiladi. Muzeyni ochish ishlari 1941-yil 7-oktabr sanasida, inqilobning 24 yilligi munosabati bilan tashkil etish

³⁷ Burqu hozirda numizmatika boʻlimida saqlanadi. Burqu, yaʼni kaʼbapoʻsh 3m x 2m 77sm oʻlchamda. Amir Muzaffar davrida Makkadan sovgʻa sifatida yuborilgan. Kaʼbapoʻsh har yili zardoʻzlik kasbi bilan shugʻullanuvchi misrliklar tomonidan tayyorlanib, Kaʼbani yopish uchun joʻnatiladi.

rejalashtirilgan. Arkda uchta bo‘lim: tarix, sotsialistik qurilish va tabiat bo‘limlari tashkil etiladi. Arkdagi jome masjidida ateizm muzeyini tashkil etish rejalashtiriladi va muzey uchun Moskvadan 3500 rublga diniy eksponatlar sotib olinadi. Hatto o‘lkashunoslik muzeyi ishiga yordam berish uchun to‘rtta mutaxassis ham yuboriladi. Arkda 1-may sanasida mahalliy sanoat mavzusida birinchi ko‘rgazma tashkil etiladi³⁸.

Buxoro o‘lkashunoslik muzeyining 1946-yildagi hisobotida qayd etilishicha, muzey fondi va kutubxonasi ashyo va kitoblar bilan boyitiladi. Birgina shu yilning o‘zida 12 ta ilmiy kengash chaqirilgan va unda Gelax, Ivanov, Irantsova va boshqalar ma’ruza bilan ishtirok etganlar. O‘sha yili Ark va Sitorai Mohi Xosani ta’mir qilish uchun davlat tomonidan 230 ming rublajratiladi.

Xulosa qilib aytganda, muzeyni tashkil etishdan maqsad Buxorodagi boy tarixiy kitoblar, osori-atiqalar, tarixiy ashyolarni qisman bo‘lsa-da saqlab qolishdan iborat edi. Ikkinchidan, hukumat teatrlar qatorida muzey tashkil etish, aholini o‘z tarixi bilan tanishtirish va ularning dunyoqarashini sal bo‘lsa-da o‘zgartirishga harakat qilgan.

Muzeyning qisqa vaqt (1922-1924) faoliyat yuritishiga sabab ko‘rgazma tizimli bo‘lmagan, yig‘ilgan ashyolar davrlashtirilmay joylashtirilgan va o‘sha davrdagi tuzumga mos bo‘lmagan shu sabab muzey vaqtincha o‘z faoliyatini to‘xtatgan. 1925-yildan boshlab muzey sohasi uchun yangi davr boshlandi va bu ishlar bevosita Buxkomstarisning faoliyati bilan bog‘liq.

XX asrning birinchi yarmida davlat tomonidan o‘lka tarixi va muzey ishiga alohida e’tibor qaratildi. Muzey ishida tarix, arxeologiya, atamashunoslik va etnografiyaga alohida e’tibor berilishi muzeylar faoliyatining rivojlanishiga olib keldi. Muzey fondi yangi eksponatlar bilan boyitildi. Boshqa viloyatlardagi muzeylar bilan hamkorlik ishlarining yo‘lga qo‘yilishi, muzeyshunoslikda yangi bosqichni boshlab berdi.

³⁸Большой краеведческий музей в Бухаре. Красная Бухара //1941, 20 март.

Nazorat uchun savollar

1. Buxoroda birinchi muzey qachon ochilgan?
2. Buxoro muzeyining shakllanishida Buxkomstarisning roli qanday bo'lgan?
3. Birinchi muzey binosi qaysi binoda joylashgan?
4. Buxoro muzeyi rivojlanishida P.E.Kornilovning faoliyati?
5. Sitorai Mohi Xosa qachon muzey filialiga aylangan?
6. Ikkinchi jahon urushigacha O'zbekistonda nechta muzey bo'lgan?
7. Ko'kaldosh madrasasida qachon muzey ochilgan?

Test topshiriqlari

1. Buxoroda birinchi muzey qachon ochilgan?
 - A. 1927-yil
 - B. 1930-yil
 - S. 1931-yil
 - D. 1922-yil
2. "Sovet muzeyi" jurnali qaysi yildan chiqa boshlagan?
 - A. 1931-yil
 - B. 1932-yil
 - S. 1933-yil
 - D. 1934-yil
3. 1876-yil qaysi muzey ochilgan?
 - A. Temuriylar muzeyi
 - B. Toshkent muzeyi
 - S. O'lkashunoslik muzeyi
 - D. Navoiy muzeyi
4. 1896-yil respublikamizning qaysi shahrida muzey ochildi?
 - A. Samarqandda
 - B. Buxoroda
 - S. Nukus
 - D. Andijon

5.1898-yil qaysi muzey ochilgan?

A.Yettisuv muzeyi

B.Temuriylar muzeyi

S.Toshkent muzeyi

D.O'lkashunoslik muzeyi

6.1928-yil 28-martda muzeyshunoslarning qaysi yirik tashkiloti tuzilgan?

A.Uzkomstaris

B.Turkkomstaris

S.Sredazskomstaris

D.To'g'ri javob yo'q

7.1931-yildan Muzeylar faoliyatini yorituvchi qaysi jurnal nashr etila boshladi?

A. "Moziydan sado"

B. "Sovet muzeyi"

S. "Muzeylar tarmog'i"

D.To'g'ri javob yo'q

8.1996-yilda O'zbekistonda tashkil etilgan muzey qanday nomlanadi?

A.Temuriylar davlati tarixi muzeyi

B.O'zbekiston davlat tarixi muzeyi

S.Oybek nomidagi Davlat muzeyi

D.To'g'ri javob yo'q

9.Kataloglar qay tartibda bo'ladi?

A.tizimli va alfavitli bo'ladi

B.tartibli bo'ladi

S.grafikli bo'ladi

D. yo'nalishli bo'ladi.

10. "Moziydan sado" jurnali qachondan nashr etila boshladi?

A.1998-yil

B.1999-yil

S.2000-yil

D.2001-yil

4-mavzu. XX asr 50-90-yillardagi Buxoro muzeyi faoliyati

Reja:

- 4.1. XX asr ikkinchi yarmidan boshlab muzeyda o'lkashunoslik sohasiga e'tiborning kuchayishi va muzeyning maktab bilan hamkorligi hamda maktablarda o'lkashunoslik to'garaklarining tashkil etilishi.
- 4.2. Buxoro o'lkashunoslik muzeyining ashyolar bilan to'ldirilishi va muzeyda ilmiy tadqiqot hamda respublikadagi muzeylar bilan hamkorlik ishlari.
- 4.3. XX asr 80-90-yillardagi Buxoro muzeyi faoliyati.

Tayanch so'z va iboralar: Arxiv, arxeologiya, institut, inventarizatsiya, muzey, maktab, ma'ruza, kolxoz, kolleksiya, ko'chma ko'rgazma, komissiya, ta'lim, to'garak, ta'til, turist, filial, fond, protokol, o'lkashunoslik, sovet, eksponat, ekspeditsiya, ekspozitsiya, ekskursiya, hamkorlik.

4.1.XX asr ikkinchi yarmidan boshlab muzeyda o'lkashunoslik sohasiga e'tiborning kuchayishi va muzeyning maktab bilan hamkorligi hamda maktablarda o'lkashunoslik to'garaklarining tashkil etilishi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Buxoro o'lkashunoslik muzeyining faoliyatida yangi davr boshlandi desak xato bo'lmaydi. Muzey qoshida turli to'garaklar, ekspeditsiyalar va ekspozitsiyalar tashkil etildi hamda turli tashkilotlar va ilmiy tadqiqot markazlari bilan hamkorlik ishlari yo'lga qo'yildi.

1947-yildan Buxoro o'lkashunoslik muzeyi o'z faoliyatini arkdavom ettirdi. 4-iyulda muzey direktori R.Fayozova nomiga markazdan yuborilgan xatda oktabr to'ntarishining 30 yilligi munosabati bilan 7-oktabrda ko'rgazma tashkil etish va unda asosiy e'tiborni sovet jamiyatini mustahkamlashga qaratish kerakligi ta'kidlanadi.

Xatda asosiy e'tibor o'lkashunoslik sohasiga qaratilgan holda, sotsialistik qurilish va ikkinchi jahon urushi g'alabasining tarixiy ahamiyatini aks ettiruvchi

materiallarni to'plab, aholi o'rtasida targ'ib qilishning zarurati to'g'risida so'z boradi. Shuningdek, erishilgan yutuqlarni qamrab oluvchi mavzularda o'lkashunoslik konferensiyalari o'tkazish tavsiya etiladi.

1948-yil muzey tomonidan Buxoro viloyati bo'ylab uchta ilmiy ekspeditsiya tashkil etiladi. Tarix bo'limi ilmiy xodimlari Romitan tumanidagi 17 ta tepalikda arxeologik tadqiqot ishlari olib bordilar. Natijada 60 tanga, 200 ta arxeologik ashyo topishga muvaffaq bo'lindi. Topilgan buyumlarning fotosuratlari tayyorlanib, doimiy saqlash uchun muzeyga topshirildi. Tabiat bo'limi ilmiy xodimlari esa viloyatning Vobkent, Romitan va Jondor tumanlariga ilmiy ekspeditsiya uyushtirdilar. Bundan ko'zlangan maqsad tumanlar tabiatini va Zarafshon daryosi o'ng sohilidan 72 km masofadagi hudud tabiatini o'rganishdan iborat edi.

Kogon tumaniga qilingan uchinchi ekspeditsiya davrida Tabiat bo'limi ilmiy xodimlari tomonidan tog' jinslari kolleksiyasi yig'iladi.

1948-yil 22-oktabrda SSSR Ministrlar Soveti Madaniy oqartuv ishlari komiteti rahbari N.Baranovning Buxoro tarixiy o'lkashunoslik muzeyi direktori S.Jo'raevga yuborgan xatida muzeylarda o'lkani o'rganish sohasida ilmiy tadqiqotlar kam olib borilayotganligi va davlat tomonidan yildan yilga ko'proq mablag' ajratilishiga qaramasdan, bu soha oqsayotganligi haqida gapiriladi.

Maktubda muzeyning har bir sohada olib borayotgan ishiga e'tibor berilgan. O'lkashunoslik sohasida qilinishi kerak bo'lgan ishlar to'g'risida quyidagilar qayd qilingan:

1. Viloyat (shahar) komsomoli, madaniyat uylari, Xalq ta'limi bilan kelishgan holda o'lkashunoslik to'garaklarini xuddi muzeylardagi tabiatshunoslik, tarix va etnografiya bo'limlari kabi maktablar, madaniyat uylari, klublar qoshida tuzish. To'garaklarda o'lka tarixini o'rganish va o'lkashunoslik ashyolarini yig'ish;

2. O'lkashunoslik sohasiga qiziquvchilarni to'plash va ulardan tabiat bo'limi uchun ilmiy xodimlar tayyorlash. O'lkaning tabiati – fauna va florasi kolleksiyasini yaratish, etnografik ekspeditsiyalar tashkil etish natijasida muqaddas qadamjolarini o'rganish va folklor namunalarini yig'ish;

3. Mahalliy va poytaxt arxivlaridan mustamlakachilik, inqilob tarixi va o'tgan yillardagi sotsial qurilish mavzularida material yig'ish, kutubxona va o'quv tashkilotlari bilan aloqa bog'lab o'lka tarixi bo'yicha ma'lumot to'plash;

4. Muzey qoshida maktab o'lkashunosligi xonasini tashkil etib, yoshlarni o'lkashunoslikka jalb qilish, bu sohada Surxondaryo muzeyi faoliyatini barcha muzeylarga namuna qilib ko'rsatish;

5. Tezda muzey o'lkashunoslik kengashini tuzish va uning doimiy o'lkashunoslik faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish.

Maktubda ko'tarilgan masala va berilgan topshiriqlardan kelib chiqib, Buxoro o'lkashunoslik muzeyida 1948-yil 7-noyabrda to'rtta bo'limdan iborat yangi ekspozitsiya tashkil etiladi. Bundan tashqari muzey 1948-yilda o'lka tarixini o'rganish sohasida ham talay ishlarni amalga oshiradi. Masalan, keyingi yillarda Buxoro muzeyi maktablar qoshidagi o'lkashunoslik to'garaklari bilan aloqalarni mustahkamlashga harakat qilgan. Shofirkon tumanidagi Gorkiy maktabi va Buxorodagi Ushinskiy maktablarida yangi o'lkashunoslik to'garaklari tashkil etiladi. To'garak loyihasi bo'yicha yozgi ta'tilda maktab o'quvchilariga Buxoroning tarixiy yodgorliklariga sayohat tashkil qilinadi va kuzatishlar paytida pioner o'lkashunoslar tomonidan turli tarixiy ashyolar yig'iladi. Buning natijasida muzey qoshida maktab-o'lkashunoslik xonasi tashkil etish rejalashtiriladi.

1949-yilning 25-mayida bo'lib o'tgan muzey xodimlari kengashida muzey sohasidagi har bir yo'nalishga alohida e'tibor berilgan va o'lka tarixini o'rganish bo'yicha talay ishlar qilinishi rejalashtirilgan. Unga ko'ra muzey tarkibida o'lkashunoslik kengashini tuzish va uning tarkibiga tarixchi, tabiatshunos, sotsialistik qurilish mutaxassislarini kiritish, korxonalar, ta'lim muassasalari, kolxozlar va tashkilotlarning o'lkashunoslik faoliyatini o'rganish, o'lkashunoslik to'garagiga maktab komsomollarini jalb qilish, tashkilotlarda o'lkashunoslikni targ'ib qilish uchun muzey ilmiy xodimlarining ma'ruzalaridan foydalanish ko'zda tutilgan.

Viloyat muzeyining № 9 buyrug'iga binoan, 1949-yil 29-yanvardan muzeydagi qimmatbaho va nodir metallar inventarizatsiyasini (ro'yxatdan

o'tkazish) tashkil etish lozim edi. Unga ko'ra, oltin buyumlar (tangalar, uzuklar, sirg'alar, ayollar zeb-ziynat buyumlari) umumiy og'irligi 691 gramm 450 mlg, kumush ashyolar (tangalar, qoshiqlar, rumkalar va boshq.) umumiy og'irligi 19414 gramdan ortiq va boshqa 630 ta ashyo ro'yxatdan o'tkaziladi.

Buxoro tarixiy-o'lkashunoslik muzeyining 1949-yil uchun tayyorlangan hisobotida arkda muzey uchun 11 ta xona ajratilgani va shu vaqtdan boshlab muzeyda maktab o'lkashunosligi xonasi ochilganligi haqida ma'lumotlar mavjud.

Hisobotda ilmiy o'lkashunoslik kengashining strukturasi va tashkilotlarda rasmiy o'lkashunoslik to'garaklari 1949-yilgacha mavjud bo'lmagani ta'kidlanadi. Shuni inobatga olib, o'lkashunoslik to'garaklarini tuman madaniyat uylari, kolxozlardagi yig'ingohlarda va maktablarda ochish vazifasi qo'yiladi.

Kolxozlarda tuzilgan to'garaklar avgust-sentabr oylarida asosiy e'tiborni paxta yig'imiga qaratishlari kerak bo'lgan.

Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi oldiga yangi o'quv yilida o'lkashunoslik sohasiga jiddiy e'tibor berish, sentabrning ikkinchi yarmidan viloyatdagi 15 ta maktabda yosh o'lkashunos to'garaklarini tashkil etish va rasmiylashtirish vazifasi qo'yildi. 1949-yilning uchinchi choragida oltita joyda (tuman madaniyat uyi va kolxoz klublarida) o'lkashunoslik to'garagini ochish uchun tayyorgarlik ishlari boshlanadi.

O'lkashunoslik sohasini targ'ibot qilish uchun quyidagi choralar ko'rilganini kuzatish mumkin. O'qituvchilarning avgust kengashida o'lkashunoslik to'garaklarining metodik ko'rsatmasi tasdiqlanadi. Viloyat gazetasida o'lkashunoslik faoliyatini ommalashtirish uchun katta maqola e'lon qilinadi va radioda uchta eshittirish beriladi.

O'lkashunoslik sohasi viloyatda ancha qiziqishga sabab bo'ldi va bu sohadagi muammolarni yechish uchun muzey direktoridan boshlab ilmiy xodimlar, hatto texnik xodimlargacha jiddiy shug'ullanishi talab qilinadi. Haftaning uch kuni, ya'ni seshanba, payshanba va juma kunlari muzeyda o'lkashunoslik kunlari deb e'lon qilinadi. O'sha kunlarda ilmiy xodimlar o'lkashunoslik bo'limi faoliyati bilan

shugʻullanishgan va toʻgarak vakillarini qabul qilib, ularga maslahat va yordam berishgan.

Arxiv maʼlumotlarida qayd etilishicha, muzey qoshida maktab komissiyasi tuziladi va Buxoro shahridagi Xalq taʼlimi boʻlimi tavsiyasiga koʻra, unga shahar maktabining 25 ta faol oʻqituvchisi jalb qilinadi. Komissiya yettita seksiyaga boʻlinib ish olib boradi³⁹. Bundan koʻzlangan maqsad maktab bilan muzey oʻrtasida tajriba almashish, maʼlum bir fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab oʻlkashunosligi xonalarini tuzish va maktab oʻquvchilariga oʻlka tarixini oʻrgatishdan iborat edi.

Oʻlkashunoslik ishlari 1950-yilda ikki yoʻnalish boʻyicha olib borilgan. Birinchisi, muzey oʻlkashunosligi kengashini rasmiylashtirish va uning seksiyalari doirasida shahar maktablarida yosh oʻlkashunoslar toʻgaragini tashkil etish. Ikkinchisi, “Qadrdon oʻlkamizni oʻrganamiz” mavzusida maktab oʻquvchilari bilan viloyat boʻylab turistik sayohat tashkil etish.

Oʻlkashunoslik kengashi tarkibi 93 ta faollardan, yaʼni oʻqituvchilar, sanoat va qishloq xoʻjaligi xodimlari, tabiatshunoslar, tarixchilardan iborat boʻlib, ular yil davomida bir necha bor toʻplanishib ilmiy tadqiqot, ekspozitsiya tematik rejalari va strukturasi oid masalalarni hal etishgan. Joriy yilda 22 ta kengash chaqirilib, unda 38 ta masala koʻriladi. Asosiy masala mavzuli ekspozitsiyaning metodikasi va oʻlkashunoslik ishini nimadan boshlash kerakligi haqida edi. Butun shahar maktablari va uchta qishloq maktablarida oʻlkashunoslik toʻgaraklari tashkil qilinadi va ularda 294 ta yosh oʻlkashunos birlashtirilgan. Ammo muzey ilmiy xodimlari toʻgaraklar bilan muntazam aloqa, boshqaruv va ishga yoʻnaltirish ishlarini taʼminlay olmagan. Muzey tarkibida maktab oʻlkashunosligi xonasi yaxshi jihozlangan boʻlsa-da, boshqa sohalarni tashkil etishning biroz oqsashi va ilmiy xodimlarning oʻz xonasida doimiy turmasligi bu soha ish faoliyatini susaytirardi. Joriy yildagi muzey xodimlarining yana bir kamchiligi maktab

³⁹Yettita seksiyaning 3 tasi boshlangʻich sinflar va 4 tasi (tabiatshunoslik, tarix-arxeologiya, fizika-matematika va til, adabiyot va folklor) katta yoshdagilar uchun edi.

o'lkashunosligi ishini hali jiddiy tashkil etmaganligida va maktab o'quvchilari bilan mustahkam aloqa o'rnatmaganligida edi.

Yozgi ta'til paytida muzey rahbariyati, xalq ta'limi boshqarmasi va hokimlik rahbarligida o'lkashunoslik sayohatlarini tashkil qilish uchun viloyat shtabi tuziladi. Muzey jamoasi viloyat bo'yicha 10 ta o'lkashunoslik sayohat yo'nalishini ishlab chiqdi. Shu yo'nalishlar bo'yicha 330 ta guruhda 8258 kishi yosh o'lkashunos sifatida qatnashgan. Aslida bunday tadbirlarning kelajakda o'z samarasini berishiga umid qilingan va darhaqiqat shunday bo'lib chiqdi. O'quvchilarning muzey rahbariyatiga murojaatida ekskursiyalarni ko'paytirish va ularni ta'lim dasturlariga kiritishning so'ralgani, buni tasdiqlaydi.

1951-yil davomida muzeyning maktab-o'lkashunosligi xonasida ilmiy xodimlar tomonidan 47 ta mashg'ulot tashkil etilgan. Mashg'ulotlarda gerbariy yig'ish, qushlar va mayda jonivorlarni yasash mavzularida darslar o'tkazilgan.

1951-yil muzeyga jami 33576 kishi tashrif buyurgan bo'lsa, shundan 1214 kishiga muzeyni bepul tomosha qilishga ruxsat berilgan. Yuqoridagilarni inobatga olib, 1952-yilda qilinadigan ishlar rejasida quyidagilar belgilangan. 1. Sovet jamiyatini targ'ib qiluvchi ekspozitsiya yaratish; 2. Muzey ilmiy xodimlar kengashi tasdiqlab bergan mavzular bo'yicha turli tashkilotlarda 250 ta ma'ruza o'qish va sayyor ekspozitsiya tashkil etish. Rejadagi ishlar bajarilganligi hisobotlarda o'z aksini topgan.

Maktab va muzey bevosita o'lkashunoslik faoliyati bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishni rejalashtirgan. Jumladan, Xalq ta'limi boshqarmasi bilan kelishgan holda shahar maktablarida o'lkashunoslik to'garaklarini ochish, ularga muzey tomonidan metodik yordam berishni tashkil etish va h.k. Rejada ko'zda tutilgan ishlar albatta, o'z amaliy natijasini ko'rsatdi. Yil oxirida Buxoro shahrida 3 ta va Kogon shahrida 3 ta maktabda o'lkashunoslik to'garaklari ochildi. Xalq ta'limi metodik birlashmasining roziligi va ko'magi bilan o'rta maktablarda geografiya, botanika, zoologiya, tarix va adabiyot fanlarini muzeylarga ekskursiya qilish orqali o'qitish jarayonlari rejalashtiriladi va o'sha yili bu ishlar amalga oshiriladi.

Yozgi ta'til paytida maktab o'quvchilari bilan o'lkani o'rganish yo'nalishida kamida 5 ta turistik sayohat rejalashtirilgan bo'lib, ulardan 2 tasi viloyat tarixiy yodgorliklariga va 3 tasi tabiatga sayohat edi. Buning natijasida 1952-yil Xalq ta'limi bilan Buxoro turistik ekskursiya markazi o'rtasida o'lkashunoslik ishlarini viloyatlar bo'yicha yoyish maqsadida shartnoma imzolanadi. Sayohat davomida yig'ilgan ashyolar umumlashtirilib, muzeyda maktab o'lkashunosligi ko'rgazmasi tashkil etiladi. 1952-yili Muzey qoshidagi maktab o'lkashunosligi xonasida yosh o'lkashunoslarga 26 ta mashg'ulot darslari o'tkazildi.

O'lkashunoslik va turistik sayohat yakunlari bo'yicha yosh o'lkashunoslar konferensiyasi tashkil etiladi. Unda muzey ilmiy xodimlari "Maktab o'lkashunosligining vazifalari" mavzusida ma'ruza qilishadi. 1952-yilda muzey ilmiy xodimlari butun viloyat maktablarida shu mavzuda ma'ruzalar o'qishgan.

Oradan bir yil o'tib, ya'ni 1953-yil muzey tarkibidagi maktab o'lkashunosligi xonasini tarixiy ashyolar bilan boyitib, viloyat maktab o'lkashunosligi metodik markaziga aylantirish rejalashtirilgandi. Yil davomida metodik markaz maktablardagi o'lkashunoslik burchaklari va to'garaklariga yordam berib turgan. Buxoro viloyatidagi tarixiy va arxeologik yodgorliklarni aniqlash va ro'yxatga olish ishlarini o'lkashunoslik sohasida faoliyat yuritayotgan muzey ilmiy xodimlari Laskutova, Maksimova, Davlatkazina, Gadiyevlar tomonidan amalga oshirishgan.

Yuqoridagilarning amaliy natijasi sifatida har yili Buxoro tarixiy o'lkashunoslik muzeyida 4-5 ta ekspozitsiya tashkil etilardi.

O'tgan asrning 60-yillaridan muzey ilmiy-ma'rifiy faoliyatida targ'ibot ishlari yanada jonlanganini turli tashkilotlarda o'qilgan ma'ruzalar soniga qarab bilish mumkin. (*diagramma №1*).

Muzeyda maktab o'lkashunosligi yo'nalishida ikkita to'garak tashkil etilgan bo'lib, unga maktab o'qituvchilaridan 25 tasi qatnashadi va ularga 21 ta mashg'ulot darsi tashkil etiladi. 1962-yil boshida to'garakni 10 nafar yosh

o'lkashunos bitiradi. Shu yillarda viloyat bo'yicha birinchi havaskor muzeyni Buxoro ipakchilik fabrikasida ochish ishlari boshlanadi.

1962-yil o'lkashunoslik muzeyida ikkita to'garak faoliyat yuritgan bo'lsa, 1963-yilga kelib to'garak ishtirokchilari sonining ortgani bois, to'garak mashg'ulotlari har hafta olib boriladi va ularda 20 ta maktab o'lkashunoslik to'garagi a'zolari ishtirok etadi. Mashg'ulotlarda tabiat, sovet jamiyati va inqilob tarixi bilan bog'liq masalalar o'rta tashlangan va shu mavzular doirasida to'garak a'zolari attestatsiyadan o'tqazilgan. Shu davrda maktab to'garaklari tomonidan muzeyga 300 ga yaqin eksponat topshiriladi.

Muzey rahbariyati ommaviy targ'ibot ishlariga katta e'tibor qaratgan. Muzey xodimlari siyosat, ilmiy-tarixiy va ilmiy ateizm masalalariga doir viloyat tashkilotlarida 58 ta ma'ruza o'qishadi. Shu yillarda muzey xodimlari tomonidan gazeta va jurnallarda ham maqolalar e'lon qilib borilganki, bu narsa madaniy meros targ'iboti masalasining yaxshi yo'lga qo'yilganidan dalolat beradi.

1965-1967-yillarda maktab bilan muzey o'rtasidagi hamkorlik faoliyati yana jonlanadi. Shu yillarda maktab o'quvchilariga bir necha ekskursiyalar amalga oshiriladi va unda to'rt mingdan ziyod o'quvchi qatnashadi. Muzey xodimlari tarafidan maktablarda "O'lkangiz tarixini bilasizmi?", "O'z o'lkangni gullatib yashnat", "Amirlik davridagi og'ir hayot" mavzularida ma'ruza va davra suhbatlari tashkil etiladi.

1967-yilda 31-martda Madaniyat vazirligi tomonidan muzey xodimlarining ish faoliyati to'g'risida hujjat imzolandi. Unga binoan muzey ilmiy xodimlari besh kunlik ish haftasiga o'tadi.

1968-yil muzey bilan maktab hamkorligi doirasida 20 ta shahar maktabida 10 ta ma'ruza o'qilgan va o'qituvchilar uchun 19 ta tarix, biologiya va estetika fanlaridan ochiq darslar tashkil etilgan.

1967-1969-yillari Buxoro o'lkashunoslik muzeyida olti bo'lim faoliyat yuritgan bo'lib, bular tabiat bo'limi, tarix va arxeologiya bo'limi, sovet davri bo'limi (1917-1970-yillar), tasviriy san'atbo'limi, ko'rgazmalar zali va ommaviy

bo'limlardir. Bulardan tashqari fond, ilmiy laboratoriya, muzeyning boshqaruv apparati joylashgan.

Arkda joylashgan tabiat bo'limi 4 ta xonadan iborat bo'lib, unda o'lkaning umumiy geografiyasi, geologiyasi, suv, tuproq landshafti va iqlim fenologi kabi ko'rgazmalar joy olgan edi.

Tarix va arxeologiya bo'limi 7 ta xonadan iborat bo'lib, unda Buxoro hududida ibtidoiy jamoa tuzumi, quldorlik tuzumi, feodal jamiyat, Buxoro chor Rossiyasining yarim mustamlakaga aylanishi bilan bog'liq ashyolar namoyishga qo'yildi.

Sovet davri bo'limi 13 ta xonadan iborat bo'lgan va ular quyidagicha nomlangan: a) oktabr inqilobi (1917-1920-yillar); b) BXSRS; d) O'rta Osiyoda milliy hududiy chegaralanish va O'zSSSR 1925-yil; e) qishloq xo'jaligini rivojlantirish, sanoat, transport, ta'lim (1920-1928-yillar); f) qishloq xo'jaligini, sanoat, transport, qurilish, madaniyat, xalq ta'limi (1928-1940-yillar); g) Buxoro ikkinchi jahon urushi davrida (1940-1945-yillar); h) Buxoro xalq xo'jaligining ko'tarilishi va hukmron g'oyani qurish yillari (1945-1958-yillar); i) Buxoro viloyatida yetakchi mafkura qurilishi davri (1958-1968-yillar).

Tasviriy san'at bo'limi 6 ta xonadan va ommaviy bo'lim 4 ta xonadan iborat bo'lgan.

Muzey rahbariyati 1969-yilda Toshkentdagi Rassom tashkiloti bilan shartnoma imzolab, tarix va sovet davri bo'limlari ekspozitsiyasini qayta qurish uchun eskizlar buyurtma qilishadi. 1970-yilda shu eskizlar asosida yuqorida nomlari tilga olingan bo'limlarning ko'rgazmasi qayta quriladi.

Buxoro o'lkashunoslik muzeyiga qiziqish yildan yilga oshib bordi. Mamlakatimizdagi sayyohlardan tashqari, xorijiy turistlar kelishi ham yildanyilga orta bordi. 1968-yilda muzeyga 29602 turist kelgan bo'lsa, 1969-yilda ular soni 42937 kishiga etdi.

Ommaviy-oqartuv ishlarining eng asosiysi shahar va tuman maktablari, o'rta va oliy o'quv yurtlari bilan mustahkam aloqada bo'lish hisoblanib, har yili

muzeyda o'sha davr hukmron g'oyalarini targ'ib qiluvchi tadbirlar, marosimlar, uchrashuvlar tashkil etiladi.

1967-1969-yillarda "Buxoroning o'tmishi va hozirgi kuni", "Sovet hokimiyatining 50 yilligi", "Shoir va buyuk muttafakkir Alisher Navoiy tug'ilgan kunining 525 yilligi", "Komsomolning 50 yilligi", "O'zbekistonda tojik adabiyoti va san'ati dekadasi" kabi ko'rgazmalar tashkil etiladi.

1969-1974 -yillarda Buxoro tarixiy o'lkashunoslik muzeyida tabiat bo'limi, inqilobgacha bo'lgan tarix bo'limi, sovet davri bo'limi, tasviriy san'atbo'limi, saqlov fondi, ilmiy-ma'rifiy bo'lim va ikkita filial faoliyat yuritgan.

1974 -yil butun O'zbekistonga 39 ta "Do'stlik" turistik poyezdi keladi va 53825 turistga ekskursiya tashkil etiladi. Joriy yilda "Buxoro siyosatchilar va xorijiy davlat turistlari nigohida" mavzuida ko'rgazma tashkil etiladi. R.T.Tipayeva va X.I.Dosayevlar ko'rgazmaga javobgar edilar. Ko'rgazmadan suratlar, suvenirlar, albomlar, kitoblar va boshqa eksponatlar o'rin olgan edi. Ko'rgazmani tomosha qilish uchun mashhur siyosatchilar tashrif buyurgan, bular: BMT bosh kotibi Kurt Valt Xaym, bolgar-sovet do'stlik komiteti rahbari Sola Dragoicheva, chililik shoir va yozuvchi Pavlo Neruda va boshqalardir. Amerikalik kommunist Lui Tomson Peterson muzey faxriy mehmonlari kitobiga o'z fikrlarini yozib qoldiradi. Fransiyalik advokat va jurnalist Robert Jan Longe va Fransiya-SSSR do'stlik jamiyati prezidenti janob Blyumellar ham o'z fikrlarini yozib qoldirishadi.

1974-yil ilmiy xodimlar tomonidan 6737 kishiga 49 ta ma'ruza o'qiladi hamda maktab va texnikumlarda 27 ta tadbir va uchrashuvlar tashkil qilinadi.

1975-yil muzeyga 450632 kishi tashrif buyuradi, uning 31495 nafari xorijiy sayyohlar edi. Muzey xodimlari "Do'stlik" poyezdida Buxoroga tashrif buyurgan 53104 kishiga 2317 ta ekskursiya tashkil etadi. O'quvchi-yoshlar va texnikum talabalari uchun esa 58 ta tadbir o'tkaziladi.

1978-yil 1-yanvarda o'lkashunoslik muzeyida 88 ta xodim ishlagan bo'lib, shundan 34 tasi muzey xodimi, uning 22 tasi oliy ma'lumotli va bittasi fan nomzodi edi.

XX asr 70-yillarida Buxoro o'lkashunoslik muzeyi O'z SSR Fanlar akademiyasining Tarix va Arxeologiya instituti, Buxoro pedagogika instituti va sanoat korxonalari bilan mustahkam aloqalar o'tnatgan.

Buxoro o'lkashunoslik muzeyining 1976-1980-yillardagi ma'lumotnomasi va 1981-1982-yillardagi hisobotiga ko'ra, muzeyda quyidagi ishlar amalga oshiriladi. Buxoro o'lkashunoslik muzeyi o'tgan asrning to'rtinchi choragida barcha sohalar bo'yicha yuqori ko'rsatgichlarga erishdi. Ilmiy-ma'rifiy ishlar, ma'ruza o'qish, ko'chma ko'rgazma, turli tadbirlar va hokazolar rejadan ortig'i bilan bajarildi.

Muzey ilmiy xodimlari tomonidan besh yil(1976-1980)da 164 ta tadbir tashkil etilgan bo'lsa, keyingi ikki yilda(1980-1981) 80 ta tashkil etildi.

Muzey xodimlari tomonidan jamiyatdagi ustuvor g'oyalarni qishloq aholisi orasida mustahkamlash maqsadida ko'chma ko'rgazmalar tashkil qilindi. Bu ishlarga ilmiy xodimlar rahbarlik qiladilar. Besh yillikda viloyat kolxoz va sovxozlarida 199 ta ko'chma ko'rgazmalar tashkil etilgan bo'lsa, keyingi ikki yilda 83 ta shunday ko'rgazmalar tashkil etildi. Bu ko'rgazmalarni yuz mingdan ziyod aholi tomosha qilishga keldi.


1981-yil bahorida arxeologiya bo'limi ekspozitsiyasi yangilanadi. Ekspozitsiyaning xronologik chegarasi musye (o'rta paleolit) va temuriylar davrini o'z ichiga oladi. Oktabr oyida muzeyning sovet davri bo'limida ham yangi ekspozitsiya tashkil etiladi. Ekspozitsiyadan 600 dan ortiq eksponatlar o'rin olgan edi.

Markaziy komitetning 1982-yil muzeylarning g'oyaviy-tarbiya sohadagi faoliyatini yanada yaxshilash to'g'risidagi qarorida ilgari surilgan vazifalardan kelib chiqib, Buxoro o'lkashunoslik muzeyi jamoasi jamiyatdagi bunyodkor g'oyalar targ'ibotini yanada kuchaytirdi.

XX asr 70-80-yillar oralig'ida muzey ilmiy xodimlari shahar korxonalari, maktab, kolxoz va sovxozlarda o'lkashunoslik mavzusida ma'ruza o'qishgan. Ma'ruzalar asosan o'lka tarixi, tarixiy yodgorliklar, hukmron mafkura dohiylari haqida, oktabr inqilobi haqida, jamiyatdagi ilg'or g'oyalarni mustahkamlash

haqida bo‘lib, ilmiy xodimlar tomonidan aholiga yetkazildi. Quyidagi diagrammada yillar davomida qilingan ma’ruzalar ko‘rsatkichini ko‘rishimiz mumkin.

diagramma №1



4.2. Buxoro o‘lkashunoslik muzeyining ashyolar bilan to‘ldirilishi va muzeyda ilmiy tadqiqot hamda respublikadagi muzeylar bilan hamkorlik ishlari. Buxoro amirligi tugatilgandan keyin hukumat o‘tmishdan meros bo‘lib qolgan osori-atiqalarga egalik qilish maqsadida ularni bir joyga yig‘ish vazifasini maorif nozirligiga yuklaydi. Chunki yarim mustamlaka davrida ko‘plab bebaho osori-atiqalar ayrim rus kolleksionerlari tomonidan xalqdan yig‘ib olib ketildi.

XX asr 30-yillaridan keyin Buxoro o‘lkashunoslik muzeyi faoliyatida ijobiy o‘zgarishlar boshlandi. Muzey fondi tashkilotlardan olingan, shuningdek, ekspeditsiya natijasida to‘plangan va sotib olingan ashyolar bilan boyitila boshlandi. Fond asosan arxeologiya, etnografiya, zoologiya (tabiat) va numizmatika materiallari bilan boyitildi. Bu ishlar P.E.Kornilovning rahbarligi ostida amalga oshiriladi.

P.E.Kornilov rahbarligi va tashabbusi bilan Buxoro atrofidagi tumanlarda ilmiy espeditsiyalar amalga oshiriladi. G‘ijduvon, Vobkent, Vardonze va Gajdumak tumanidagi ilmiy tadqiqot ekspeditsiyalaridan maqsad kulolchilik va gul

bosish san`atini o`rganish edi⁴⁰. Ilmiy tadqiqot natijasida ular aholi qo`lida saqlanayotgan osori-atiqalarni yig`ib, muzey fondini to`ldiradilar⁴¹.

Buxoro o`lkashunoslik muzeyi rahbarligida 1937-yil Nurota va Karmana tumanlariga ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etilgan bo`lsa, 1938-yil Termiz muzey bilan hamkorlikda Sherobod tumanida ilmiy ekspeditsiya uyushtiriladi. 1938-yilga kelib Buxoro o`lkashunoslik muzeyining ilmiy aloqalari va o`zaro hamkorlik ko`lami yanada kengaydi. Shu yillari muzey Uzkomstaris, SSSR Xalqlari muzeyi, Tojikiston markaziy davlat muzeyi, Sharqshunoslik instituti hamda Samarqand muzeyi bilan yaqin ilmiy aloqalar o`rnatdi. Bunday hamkorliklar doirasida muzey kutubxonasini yangi nashrlar bilan boyitish ishlariga ham e`tibor qaratilganligini ko`rish mumkin (*birinchi jadvalda*).

Arxiv ma`lumotlariga ko`ra, 1936-yilda muzey direktori Sh.Kamolov, ilmiy xodim I.Sadri va O`zSSR Davlat kutubxonasi direktori o`rtoq Sergeevlar tomonidan dalolatnoma tuziladi. Unga ko`ra Sharifjon Mahsumning shaxsiy kolleksiyasi ro`yxatdan o`tkaziladi va muzeyning asosiy fondiga qabul qilinadi. Kolleksiya asosan kitoblar o`rin olgan bo`lib, ro`yxatda ularning soni 293 ta deb qayd qilingan edi. Keyinchalik bu kolleksiya O`zbekiston Respublikasi FA qoshidagi Sharqshunoslik institutiga olib ketiladi.

Urush yillarida o`lkamizdagi barcha muzeylar singari Buxoro o`lkashunoslik muzeyining ilmiy, ma`naviy-ma`rifiy va hamkorlik faoliyatidagi ishlarida susayishlar kuzatildi.

Buxoro o`lkashunoslik muzeyining 1946-yildagi hisobotida qayd etilishicha, muzey fondiga bir qancha eksponatlar qabul qilinadi hamda fond ashyolari soni sakkiz mingdan ortadi(*birinchi jadval*). Muzey kutubxonasi uchun bir qator jurnal va gazetalar sotib olinadi (*birinchi jadval*). Birgina shu yilning o`zida 12 ta ilmiy kengash chaqirilgan va unda Gelax, Ivanov, Iransova va boshqalar ilmiy ma`ruza bilan ishtirok etganlar.

⁴⁰ Альмеев Р.В. Бухара город-музей. –Ташкент: Фан, 1999. –С.21.

⁴¹ Курбанов Г.Н. Бухарскому краеведческому музею-60 лет //Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент: 1983. –№ 1. – С.64-65.

1949-yil 16-yanvardagi yig'ilish bayonnomasida respublika hududida 11 ta o'lkashunoslik muzeyi faoliyat olib borayotgani haqida ma'lumot mavjud. Bundan tashqari, Surxondaryo muzeyi va Buxoro o'lkashunoslik muzeyi o'rtasida aloqalarni bog'lash va bir-biriga ko'mak berish to'g'risidagi mulohazalar ham o'rin olgan.

O'sha yili muzey fondida saqlanayotgan nodir qimmatbaho metallar inventarizatsiyadan o'tkaziladi. Unga ko'ra: 1. Oltin tangalar umumiy og'irligi – 260 gr 450 mgr; 2. Kumush tangalar umumiy og'irligi – 8388gr 740mgr; kumush ashyolar jami 71 ta (kumush qashiqalar, rumkalar, uzuklar va h.) og'irligi 11026 gr 950 mgr; oltin ashyolar jami 5 ta (uzuk, sirg'a, ayollar bosh kiyimi va h.) og'irligi 431 gr; tarkibida qimmatbaho tosh bo'lmagan boshqa ashyolar 630 ta.

1950-yillardan keyin muzey ilmiy xodimlariga ilmiy tadqiqot sohasida asosiy e'tiborni kolxoz, sovxoz, MTSlar, qishloq xo'jaligida pillachilik sohalari bilan bog'lab olib borish vazifasi yuklatiladi. 1951-yil ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro o'lkashunoslik muzeyida 41 kishi ishlagan bo'lsa, uning 16 tasi ilmiy xodim edi.

1962-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tomonidan O.Obelchenko rahbarligidagi arxeologik ekspeditsiyada muzey ilmiy xodimi Duke Xuan ishtirok etadi. 1963-yil yanvarda N.N.Mikluxo-Maklay nomidagi Arxeologiya instituti va etnografiya institutidan xat keladi. Unda konferensiya uchun tezis va maqola yuborish haqida fikr bildirilgan edi.

Arxiv hujjatlarida, 60-yillarda muzeyda ilmiy-tadqiqotlar ishlari ancha oqsaganligi haqidagi ma'lumotlar uchraydi⁴². Buni inobatga olgan muzey rahbariyati 1964-yil O'zbekiston SSR tashkil topganligining 40 yilligi munosabati bilan ilmiy maqolalar to'plamini chop etishni rejalashtirdi⁴³. To'plam 1965-yilda "Ilmiy maqolalar to'plami" nomi ostida nashr etiladi va undan 8 ta ilmiy maqola o'rin oladi. Ushbu to'plam muzeyning birinchi ilmiy nashri hisoblanadi.

⁴²Arxiv hujjatlarini tekshirish natijasida shunday xulosaga kelindiki, muzeyda ilmiy tadqiqotning susayishiga sabab markaz tomonidan moliyaviy mablag' ajratilmaganligidir. Chunki arxiv hujjatlaridagi ma'lumotlarga qaraganda, 1962-yil ilmiy tadqiqot ishlari uchun 5 ming rubl ajratilgan, 1963-yilda pul ajratilmagan, bu holat tadqiqotlarga ta'sir etgan bo'lishi mumkin.

⁴³ 1964-yildagi ilmiy kengash №3 bayonnomasida.

Muzey bo‘limlari va fondida Buxoro tarixi va tabiatiga doir eksponatlar ko‘p bo‘lib, bu eksponatlar o‘lkamizning neolit davridan boshlanardi. 1967-1969-yillarda muzey ilmiy xodimlari o‘lkani o‘rganish ishlarini faol olib borib, o‘lka tarixi va tabiatiga doir ko‘plab hujjat va buyumlar to‘plashga muvaffaq bo‘lishdi. Bular sovet jamiyati ilg‘or vakillarining orden, medal va hujjatlari, zardo‘zlik buyumlari, kaltacha, bilaguzuk, sirg‘a va boshqalar.

1967-1969-yillar davomida muzey eksponatlarini saqlash sharoitini yanada yaxshilash borasida ham sezilarli natijalarga erishildi. Jumladan, eksponatlarni tartibli joylashtirish yaxshilandi, ashyolar va hujjatlar tartibga keltirildi, fondagi eksponatlarni aniqlash maqsadida xatlov o‘tkazildi, fond materiallari asosida ko‘pgina o‘quvchi-talabalar, olimlar, rassomlarga konsultatsiyalar berildi, ekskursiyalar tashkil etildi.

Shu davrda muzey fondida 27 mingdan ortiq eksponat saqlangan. Eng qimmatbaho ashyolar guruhiga (VII-VIII asr Abbosiylar, IX-X asr Somoniylar va XII asr Qoraxoniylar davriga oid) oltin tangalar, Baqtriya hukmdorlariga tegishli miloddan avvalgi IV asrga oid kumush tangalar, XVI-XX asrga oid mis chaqalar, XIX-XX asrga xos zardo‘zlik namunalari va XIV-XX asrga taalluqli katta miqdordagi qo‘lyozma asarlar kirgan. Muzey fondi har yili qimmatbaho ashyolar bilan boyib borgan.

1966-yilda O‘zbekiston SSR Madaniyat vazirligining qarori bilan bir qator ilmiy xodimlarni mahorat va malaka oshirish maqsadida Moskva, Leningrad, Boltiqbo‘yi, Toshkent, Samarqand muzeylariga yuborish rejalashtiriladi.

1967-1969-yillar davomida muzey ilmiy xodimlari viloyat, respublika va ittifoq gazetalarida, maqola va tezislar e‘lon qildilar. Muzey ilmiy xodimlarining malakasini oshirish uchun har yili muzeyda seminar mashg‘ulotlari o‘tkaziladi, ilmiy xodimlar esa respublika va ittifoq muzeylariga ilmiy safarlarga yuboriladi.

Buxoro o‘lkashunoslik muzeyida xodimlarni ilmiy safarlarga yuborish ishlariga ham muayyan e‘tibor qaratildi. Muzeyning 1973-yilgi safar rejasiga muvofiq ilmiy xodimlar tajriba almashish uchun Riga shahar muzeyiga (M.Po‘latova), eksponat yig‘ish ishlarini o‘rganish uchun Qozon shahriga

(Sh.Avezova), san'atva galereya fondiga eksponat yig'ishni o'rganish uchun Toshkent shahriga (E.Axmedova), tajriba orttirish maqsadida Vladimer-Suzdal muzeyiga (K.Husenova) borishlari rejalashtirilgan.

Arxiv hujjatlarining ma'lumotiga ko'ra, 1967-1969-yillar oralig'ida Buxoro o'lkashunoslik muzeyda 40 ga yaqin ilmiy xodim ishlar edi. Ularning ko'plari ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullangan. Bular ichida fan nomzodlari Duke Xuan, Yuldosheva, Sharipov bo'lib, ilmiy xodimlardan M.Po'latova, X.Ostonova, Z.Ibragimovalar esa dissertatsiya ustida ilmiy faoliyat olib borayotganligi qayd qilinadi. Muzey ilmiy xodimlari bir vaqtning o'zida Qarshi muzeyi xodimlariga ilmiy-metodik yordam berishgan va ekspozitsiya rejasini tuzish hamda eksponatlarni tayyorlash bo'yicha Chorjo'y shahar muzeyi xodimlariga yordam berishgan.

1971-yil 1-choragida muzey xodimlari N.X.Tipava va fond mudiri I.Ya.Idrisov buxorolik tabib Qori Muhammad Amir⁴⁴ kolleksiyasini muzeyga qabul qiladilar. Uning qarindoshlaridan quyidagi ashyolar sotib olingan: tibbiyot anjomlari 57 dona; farmakologiyaga oid 10 ta ashyo va qadimiy musiqa asboblari shular jumlasidandir. Bundan tashqari 4 dona qo'lyozma, 7 ta arab yozuvidagi kitob va tibbiyotga oid 8 ta rus tilida inqilobdan oldingi yozuvda yozilgan kitoblar muzey fondiga qabul qilinadi.

1973-yil Buxoro o'lkashunoslik muzeyi fondiga eksponat qabul qilish o'tgan yillarga nisbatan rekord darajasiga yetdi. O'sha yili 3904 ta eksponat qabul qilinadi. Shundan 397 tasi 2888 rublga sotib olingan, 774 tasi esa sovg'a qilingan va 229 eksponat o'tgan yildan qolgan bo'lib, bular 1973-yil inventar kitobga kiritilgan. Bulardan tashqari 1973-yil muzeyga tarix fanlari nomzodi T.F.Gelaxning katta kutubxonasi va S.N.Yurenyevning⁴⁵ boy kolleksiyasi va arxeologik tadqiqot hisobotlari topshiriladi. Bular:

⁴⁴ Qori Muhammad Amin tabiblik sohasida katta tajriba egasi bo'lib, u farmakologiya va retsepturaga oid ishlarini fors va lotin tilida yozgan. Qori Muhammad Amin tabiblik faoliyatini inqilobdan oldin boshlab, sovet hukmronligining 30-yillariga qadar davom etadi.

⁴⁵S.N.Yurenyev o'z kolleksiyasini Buxoro o'lkashunoslik muzeyiga topshirishni vasiyat qilgan.

- O'rtta Osiyo xalqlarining tarixi, arxeologiyasi, san'ati va etnografiyasiga doir 131 dona kitob;

- Buxoro viloyat ustalarining 24 dona kulolchilik mahsulotlari, sovg'a yozuvi bilan;

- 30 dan ortiq arxeologik kundaliklar va hisobotlar;

- mingdan ortiq arxeologiya, arxitektura va san'atsohasiga tegishli fotosuratlar;

- Buxoro shahridagi arxeologik yodgorliklarda qazuv va restavratsiya ishlari ketayotgan paytda topilgan sopol bo'lakchalari.

Ushbu materiallar muzey xarid komissiyasining protokol va aktlari bilan qabul qilingan.

XX asrning 70-yillaridan boshlab muzey fondiga qabul qilingan ashyolarga kartoteka yopishtirish va qaydlar kitobiga kiritish ishlari amalga oshiriladi. Shu vaqtdan boshlab muzey fondiga ashyolarni sotib olish uchun maxsus komissiya tuzildi va mahalliy aholidan noyob ashyolar sotib olindi. Bu jarayon to 90-yillargacha davom etdi.

1975-yilda muzey fondidagi qo'lyozma hujjatlar va boshqa eksponatlarni tekshirish uchun 8 ta ilmiy xodim ajratildi. Ular joriy yilda 500 dan ortiq hujjatni o'rganishgan.

1977-yil 1-dekabrda muzey fondidagi qimmatbaho metallar inventarizatsiyadan o'tkaziladi. Unga ko'ra: oltin-1162,85 gr, kumush-249522,5 gr, olmos-359 dona, brilliant-272 karat, zumrad-40 dona, marjon-35 dona mavjud edi.

1978-yilda bir qator muzey ilmiy xodimlari mahorat kurslarida malakalarini oshiradilar. Bular: R.K.Tipoeva, M.Po'latova, I.Ya.Idrisova, B.Qazoqovlar Toshkent va Samarqandga borishgan. B.Qazaqov noyabr oyida Moskva shahridagi SSSR davlat tarixi muzeyida stajirovka o'tab qaytdi.

1980 -yilda muzey ilmiy xodimlari eksponat yig'ish uchun maxsus ilmiy safarlar uyushtirishgan. Ular Romitan, Peshko', Shofirkon, Qiziltepa, Vobkent,

G'ijduvon va Buxoro tumanlariga borib aholidan nodir osori-atiqa namunalarini sotib olishadi⁴⁶.

Ma'lumotlarga ko'ra, 1982-1984-yillar mobaynida, sobiq sho'rolar davrida musodara qilinib, talon-toraj qilingan minglab qimmatbaho yodgorliklardan tashqari, 2264 dona nodir ashyo va buyumlar Moskva, Sankt-Peterburg, Ivanova va boshqa shahar muzeylari hamda tashkilotlarga va ba'zi bir shaxslarga sovg'a qilib yuborilgan. 1986-yildan boshlab olib ketilgan eksponatlarni muzey xazinasiga qaytarish ishlari boshlangan, ammo shu davr ichida ularning 540 tasigina qaytarildi xolos⁴⁷.

XX asr 80-yillaridan boshlab o'lkashunoslik muzeyida ashyolarga ilmiy pasport yozish ishlari ham yo'lga qo'yildi. 1980-yil 112 ta ashyoga pasport yozilgan bo'lsa, 1981-yil 212 ta va 1982-yil 277ta ilmiy pasport yozildi.

Buxoro o'lkashunoslik muzeyi ilmiy markazida XX asr 90-yillariga qadar bir qator ilmiy xodimlar o'z ilmiy ishlarini yakunlashga muvaffaq bo'ldilar⁴⁸.

Buxoro o'lkashunoslik muzeyi fondiga va kutubxonasiga qabul qilingan eksponatlarning yillar davomidagi soni

(1- jadval)

<i>-yillar</i>	<i>Fondga qabul qilingan ashyo soni</i>	<i>Asosiy fondga</i>	<i>Fonddagi jami ashyolar soni</i>	<i>Kutubxona uchun qabul qilingan kitob va jurnallar</i>
<i>1924</i>	<i>168</i>			
<i>1927</i>	<i>600</i>			
<i>1932</i>			<i>3190</i>	
<i>1938</i>	<i>497 ta</i>			<i>1808 ta kitob yig'ilgan, shundan 1356 tasi nodir kitoblardir</i>
<i>1946</i>	<i>231</i>		<i>8339</i>	<i>370 kitob va 3000 rublga jurnal va gazetalar sotib</i>

⁴⁶ 1980-yil 2 martda g'ijduvonlik kulol hunarmandlar I.Narzullaev va U.Umarov ustaxonalariga tashrif buyurib ularning kolleksiyalaridan 15 ta ashyoni muzey fondiga sotib olib kelishadi.

⁴⁷Жумаев Қ. Ситорай Мохи Хоса халқ амалий санъати музейи //Мозийдан садо. – Тошкент: 2003. –№1. – Б.27.

⁴⁸Эргашев Б.Х. Особенности идеологии национально-освободительного движения в Бухарском эмирате накануне народной революции (1905-1920). Автореф. дис. канд. филос. наук. –Ташкент, 1987; Тураев Х.Х. Документальные источники истории феодального института танха в Западной Бухаре. Автореф. дис. канд. ист. наук. –Ташкент, 1989; Курбанов Г.Н. Печати Бухарского ханства XIX – начала XX вв.(Источниковедческое исследование). Автореф. дис. канд. ист. наук. –Ташкент, 1990.

				<i>olinadi.</i>
<i>1950</i>	<i>537</i>		<i>10741</i>	<i>1683 ta kitob qabul qilingan shundan 1290 tasi tarixiy qo'lyozma asarlar</i>
<i>1964</i>	<i>3 mingdan</i>			<i>Joriy yilgacha 3432 ta kitob saqlangan bo'lsa, 1964-yilda 114 rublga 409 ta kitob sotib olinadi</i>
<i>1965</i>	<i>1200</i>		<i>15 mingdan ziyod eksponat yig'ilgan, ularning 60 foizi etnografik ashyolardir</i>	
<i>1966</i>	<i>1225</i>			
<i>1967</i>	<i>917</i>	<i>640</i>		
<i>1969</i>	<i>794</i>	<i>13271</i>	<i>19053</i>	
<i>1970</i>	<i>1249</i>			
<i>1971</i>	<i>1680</i>			
<i>1972</i>	<i>2989</i>			
<i>1973</i>	<i>3904</i>			<i>4542 ta kitob, 1765 ta jurnal va broshyura</i>
<i>1974</i>	<i>3286</i>	<i>542</i>	<i>30 mindan oshgan</i>	<i>754 kitob va 608 ta jurnal va broshyura qabul qilingan</i>
<i>1975</i>		<i>18785</i>	<i>32613</i>	
<i>1976</i>	<i>2317</i>	<i>1106</i>		
<i>1977</i>	<i>1336</i>			
<i>1978</i>	<i>3696</i>		<i>34820</i>	<i>Kutubxonadagi kitoblar soni 6371ta jurnallar soni 16710 tani tashkil etgan</i>
<i>1979</i>	<i>3294</i>			
<i>1980</i>	<i>2621</i>		<i>45703</i>	
<i>1981</i>	<i>2475</i>			
<i>1982</i>	<i>6307</i>		<i>54488</i>	

4.3. XX asr 80-90-yillardagi Buxoro muzeyi faoliyati. XX asr 80-yillarida Buxoro muzeyi o'zining ilmiy, ma'rifiy-madaniy va ijtimoiy faoliyatini davom ettirdi. Bu davrda muzey filiallari ko'paydi, tadqiqotchilarning soni sezilarli

darajada o'sdi. Muzei xodimlarining tajriba almashish ishlari ham davom etib, muzei nomi va kategoriyasi ham o'zgardi. Biz quyida bular haqida to'liqroq ma'lumot berishga harakat qilamiz.

O'zbekiston SSR Madaniyat Ministrligining 1978-yil 28 iyundagi № 246-k buyrug'iga asosan muzei xodimi F.I.Vodopshin Yerevan shahriga stajirovkaga jo'natish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Buxoro oblispolkomi Madaniyat boshqarmasining № 328 xatiga asosan 1979-yil 9-iyuldan F.I.Vodopshin 15 kunga Yerevan shahrida stajirovka o'tash uchun jo'natiladi.

Buxoro oblispolkomi Madaniyat boshqarmasi sovetining 1980-yil 29-martdagi №3§13-sonli buyrug'iga binoan urush tugaganining 35 yilligi munosabati bilan ko'rgazma tashkil etildi. O'zbekiston SSR Madaniyat Ministrligining 1980-yil 17-apreldagi №216-sonli qaroriga asosan 1-mayda Ulug' vatan urushi qatnashchilari va nogironlarini uchun muzeida ekskursiyalar tashkil qilinadi.

1980-yilda muzei xodimlari tomonidan ilmiy ekspeditsiyalar amalga oshiriladi. Ular Romitan, Peshko', Vobkent tumanlariga borib, fond uchun 1400 ta eksponat yig'ishadi. Shundan 48 donasi numizmatik ashyolar, 33 donasi etnografik ashyolar, 2 tasi amaliy san'atashyosi, kitob, broshyura va hujjatlar 662 dona hamda 665 dona foto suratlar iborat edi. Ekspeditsiyada M.Po'latova – 906 dona, A.Axmedov – 247 dona va H.To'raev – 247 dona ashyoni yig'ib muzei fondiga topshirdi.

1981-yil yanvar² holatiga ko'ra fonda ashyolar soni 45703 taga yetdi. Shu yili inventar kitobda 2621 birlikdagi ashyo qayd qilinadi. Ularning 2222 donasi asosiy, 337 donasi yordamchi va 17 donasi vaqtincha saqlovga qabul qilinadi.

Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, 1982-yilda muzei fondidagi ashyolardan ilmiy tadqiqot ishi uchun quyidagi tadqiqotchilar foydalanishgan. Toshkent davlat universiteti tadqiqotchisi A.Musakayeva "Arablarga bo'lgan davrda Buxoroda pul muomalasi" mavzusida, Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi P.Abdulxayrov "IX-XII asrlardagi Buxoro arxitekturasini o'rganish" va institut 4 kurs talabasi M.Oripova "XIX asr va XX asr boshlarida Buxoro tojiklarining

kiyimlari” mavzusida, Leningrad shahridan SSSR FA Etnografiya instituti xodimi etnograf F.D.Lyushkevich “Buxoro shahri va tumanlardagi aholi kiyimlari, oyoq kiyimlari va taqinchoqlari” mavzularida tadqiqot ishlarini olib bordilar.

Shu yili ilmiy xodimlar tomonidan maktab, texnikum va yoshlar tashkilotlarida 39 ta tadbir tashkil etildi va ilmiy xodimlar tomonidan joylarda 257 ta ma’ruza qilingan bo’lsa, 1984-yil viloyatdagi turli tashkilotlarga “Lenin va O‘zbekiston”, “Leninning paxtachilik rivojida xizmati”, “Ikkinchi jahon urushi yillarida Buxoro viloyati ayollarining ishtiroki”, “Ibn Sino va uning matematikasi”, “Inson va tabiat” mavzularida 259 ta ma’ruza o‘qilgan.

Muzey ilmiy xodimlari M.Po‘latova, Z.Ashurova, Q.Jumayev, Bo‘ronova, A.Nurullayeva, G‘.Qurbonov, H.To‘rayevlarning “Buxoro haqiqati”, “Bartold o‘qishlari”, “O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar” jurnali va gazetalarda maqolalari e’lon qilinadi.

1986-yil muzey fondida tadqiqot olib borish uchun Toshkentdan V.Beriya va E.Nekrasova, Buxoro davlat pedagogika institutidan rassom E.Axmedov va P.Abdulxayrov kelishgan, muzey xodimi G‘.Qurbonov va V.Paklar ham o‘z ilmiy ishlari uchun fondan foydalanishgan edi.

Muzeyda metodik kengash doimiy faoliyat olib borgan ekskursiyalarning sifatini oshirish uchun ular vaqti-vaqti bilan ekskursavodlarni attestasiyadan o‘tkazib turishgan. 1986-yilda 20 ta metodik kengash o‘tkazilib, 68 ta ekskursiya eshitiladi. Yil davomida muzeyning yetakchi xodimlari tomonidan Buxoro tarixiga oid turli mavzularda ekskursavodlarning malakasini oshirish uchun seminarlar tashkil qilinadi.

Muzey ilmiy xodimlari Q.Jumayev, G‘.Qurbonov, M.Po‘latova, V.Pak, A.Axmedov, A.Qobilov, B.Qazoqov, N.Ilyasovalar tomonidan “Sovetskaya Buxara”, “Buxoro haqiqati” hamda markazdan chiqadigan “Pravda Vostoka”, “Sovet O‘zbekistoni” gazetalarida va “Sovetskiy muzey” jurnalida o‘zlarining 20 dan ortiq maqolalarini e’lon qilishdi.

1986-yilda muzey ilmiy xodimi M.Bozorova S.Ayniy hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot to'plash uchun G'ijduvon tumanidagi Sektare qishlog'iga va Tojikiston SSRning markazi Dushanbe shahriga ilmiy safar qildi.

1987-yilda "Oktabr inqilobining 70 yilligi" va "Hujum harakatining 60 yilligi" munosabati bilan ko'proq shu mavzularda ko'rgazmalar tashkil qilinadi. Shu yili San'atmuzeyida Moskva va Tomsk shahridan kelgan ko'rgazmalar namoyish etiladi. Ularning ko'rgazmalari "Sovet tasviriy san'atida jismoniy tarbiya va sport" Moskva shahridan, Tomsk shahridan "Tomsk viloyati mahalliy aholisining an'anaviy madaniyati" nomi ostida namoyish etildi.

1987-yil muzey fondiga 2391 dona ashyo qabul qilinib, fondagi ashyolar soni 70033 dona yetkazildi. Qabul qilingan ashyolarning 2105 donasiga topografik va kolleksion kartochka tuziladi.

1987-yil 4-iyulda ilmiy xodimlar H.To'rayev, B.Qazoqov va bo'lim boshlig'i G'.Qurbonovlar "Bartold o'qishlari"da ishtirok etish uchun Moskvaga borishadi. Malaka oshirish maqsadida N.Ilyasova Vladimir Suzdal muzey-qo'riqxonasiga tashrif buyuradi.

Tuman va shaharlardagi maktablar bilan muzey ilmiy xodimlari o'rtasida uchrashuvlar, ekskursiyalar va sayohatlar uyushtirildi. 23-31-mart kunlari bahorgi ta'til munosabati bilan Buxoro muzeyida "maktab haftaligi" o'tkazildi. 9 kun davomida 670 ta ekskursiya tashkil qilinib, unda Buxoro shahri, tumanlardan va chetdan kelgan 18 ming bola qatnashdi. 1980-yilda muzey ilmiy xodimlari 22700 kishiga 250 marta mu`ruza o'qishgan.

O'zbekiston SSR Madaniyat Ministrligining 1979-yil 28-dekabrdagi №674-sonli buyrug'iga asosan Peshko'dagi Afshona qishlog'ida Ibn Sino tavalludining 1000 yilligi munosabati bilan muzey ochish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Buning ijrosi sifatida muzey 1980-yil 1-avgustda ochildi.

1982-yil oktabr oyida Buxoroda San'atmuzeyi ochilib, muzey filiallari soni 4 taga yetdi. Shu yili fondga 6307 ta ashyo qabul qilinib, fondagi ashyolar soni 54485 taga yetdi. Qabul qilingan ashyolarning 5941 tasi asosiy fondga qabul qilindi va ularning 855 tasiga topografik hamda 855 tasiga kolleksionerlik

kartochkasi tuzildi. Ilmiy xodimlar tomonidan 105 dona eksponatga ilmiy pasport yozildi.

1984-yilda Arkdan tashqari beshta filial faoliyat olib borgan bo'lsa, ularda 3 mingdan ortiq eksponat namoyishga qo'yilgan. Misol uchun tabiat bo'limida 4 xonada 312 dona, sovetlargacha bo'lgan davr tarixi bo'limida 7 xonada 964 dona, sovet dari tarixi bo'limida 14 ta xonada 713 dona eksponat qo'yilgan. Sitorai Moxi Xosa muzeyi amaliy san'atbo'limida 8 ta xonada 274 dona, San'at muzeyi 11 ta xonasida 475 dona, Zindon muzeyida 51 dona, Ibn Sino memorial muzeyida 7 ta xonada 120 dona va Rometan muzeyida 7 xonada 150 dan ortiq eksponatlar namoyish uchun qo'yilgan.

Muzey hisobotidagi ma'lumotlarga ko'ra, 1984-yil Buxoro muzeyida 108 kishi ishlagan bo'lib, shundan 22 tasi ilmiy xodim bularning 21 tasi oliy ma'lumotli, 15 ta ekskursavod qayd qilinadi. Shu yili muzey fondiga 4985 dona eksponat qabul qilinib, foddagi ashyolar soni 62.051 donaga yetkazildi. Ilmiy xodimlar tomonidan 190 ta ilmiy pasport yozildi va umumiy yozilgan pasportlar soni 1934 tani tashkil qildi.

Muzey doimiy maktablar bilan hamkorlikda ishlagan va 1984 -yilda 45 tadbir o'tkazilgan. Shu yilning 2-10-yanvarda "maktab haftaligi" kunlari tashkil qilinadi va unda Moskva, Leningrad, Minsk, Kiyev va Ashxobod shaharlaridan maktab o'quvchilari muzeyni tomosha qilish uchun tashrif buyurdi. Mehmonlarga 458 ta ekskursiya o'tkazildi va unga 11256 ta o'quvchi qatnashdi. 24-30-mart kunlari "Qishloq maktabi va ittifoq respublika shaharlari haftaligi" o'tkazildi. Muzey turistik byuro bilan hamkorlikda Buxoro muzeyi filiallariga turpoezd va avtobuslarda ekskursiyalar tashkil qilinadi. Muzey xodimlari tomonidan 876 marta ekskursiya tashkil qilingan va unda 26354 o'quvchi qatnashgan. Shuningdek, G'ijduvon, Kogon, Gazli, Jondor tumanlaridagi kolxoz va sovxozlarda ham 45 ta ko'rgazma qilindi.

1986 -yil 13-dekabrda Gavkushon madrasasida "XIX-XX asrlarda Buxoro misgarlik san'ati" nomli ko'rgazma tashkil qilindi va ko'rgazmada 70 dona eksponat qo'yildi. Shu yilning 20-iyulidan 15-oktabrigacha Tomsk va Kalpasheva

shaharlarida “XIX-XX asrlarda Buxoroning amaliy-dekorativ san`ati” ko`rgazmasi tashkil qilindi. Unda milliy erkaklar kiyimi, Buxoro sopol, mis va zargarlik buyumlari, O`ba qishlog`ida Hamrobibi tomonidan yasalgan o`yinchoqlar namoyish etildi.

1986-yil Muzey ilmiy xodimlari tomonidan komunistik va ateistik g`oyalarni targ`ib qiluvchi 45 ta tadbir tashkil qilindi. Unda institut va to`rtta texnikum talabalari hamda 23 ta maktab o`quvchilari qatnashdi.

1987-yil qishki ta`til vaqtida maktab o`quvchilari uchun “maktab haftaligi”da 7 ming o`quvchiga 412 ta ekskursiya uyushtirildi va qo`shimcha ravishda “yosh o`lkashunos”, “yosh arxeolog” va “yosh tarixchi” to`garaklari tashkil qilindi.

1988-yil 8-fevraldagi muzey direktori R.Almeyerning 1987-yil yakunlari to`g`risidagi hisobotiga ko`ra, 1987-yilda Ko`kaldosh madrasasida “Sadridin Ayniy hujrasi”, Chashmai Ayub yodgorligida “Buxoro suv ta`minoti tarixi”, Ibrohim Oxun madrasasida “Varaxsha” va “Poykent shahri” yangi ekspozitsiyalari tashkil qilindi.

Buxoro davlat badiiy-me`morchilik muzey-qo`riqxonasi tomonidan 1988-yil aprel oyida qadimiy, o`rta asrlar va sovet davriga oid tarixiy ashyolarini yig`ish maqsadida Shofirkon tumanidagi Leninobod kolxoziga sakkiz kishidan iborat maxsus ilmiy ekspeditsiya tashkil etildi. Uning a`zolariga ekspeditsiya maqsadi tushuntirilib, har bir qatnashchiga vazifalar bo`lib berilgan. Tadqiqotning asosiy obyekti qilib Iskogare⁴⁹ qishlog`i tanlab olinadi.

A`zolarining har biri uchun alohida reja ishlab chiqilgan bo`lib, har bir qatnashchi o`ziga berilgan soha bo`yicha ma`lumot to`plagan.

Shofirkon tumanidagi Leninobod kolxozi tarkibida to`qqizta qishloq⁵⁰ bo`lib, unda 11811 kishi istiqomat qilardi. Aholining yarmini tojiklar tashkil qilgan. Shuningdek, kolxozda Rudakiy nomli tojik maktabi joylashgan bo`lib, unda mo`jaza maktab-muzeyi mavjud edi.

⁴⁹Iskogarening ma`nosi yog`ochdan yasalgan panjshaxa bo`lib, qadimda bug`doy, arpa va donli ekinlar yanchilgandan keyin bu panjshaxa bilan somon bug`doydan ajratilgan. Iskogare nomi shundan olingan.

⁵⁰Vardonze, G`ulomtepa, Jo`yinav, Talisafed, Quyichuqur, Yuqorichuqur, Sho`riston, Mahallasheri, Iskogare.

Ekspeditsiya jarayonida to‘qqizta qishloqning uchtasi o‘zining hududida arxeologik tepaliklarni saqlaganligi aniqlandi. Bu tepaliklar arxeolog Yu.Hamroeva tomonidan tekshiriladi. Ular ichida eng mashhuri Vardonze bo‘lib, tepalik Shofirkon markazidan 25-30 km shimoli-g‘arbda joylashgan va tepalik o‘rmon xo‘jaligi tarkibiga kirgan. Narshaxiy ma‘lumotlarida Vardonze Varaxsha, Poykent, Dabusiya va Tavois shaharlari kabi qadimiy bo‘lib, uni Vardonxudot boshqargan deb qayd qilinadi⁵¹. Yu.Hamroeva tepalik maydonini 1 gektar va balandligini 10-15 metr deb qayd qiladi. Tepalikdan sopol bo‘laklari, shahar qismidan esa shisha parchalari topiladi. Tadqiqot vaqtida tepalikdan epigrafik yozuvlarni o‘zida aks ettirgan qabrtoshlar borligi aniqlandi.

XX asr boshlariga oid yog‘ochdan yasalgan eshiklar va unga solingan naqshlar ekspeditsiya a‘zolarini hayratga soladi, buning sirini bilish uchun tadqiqotchilar ekspeditsiyaning birinchi kuni yog‘och o‘ymakorligi ustasi Rajab Abdurahmonov bilan uchrashishadi. Uning otasi Abdurahim usta ham shu soha bilan shug‘ullanganligini va arkda joylashgan Jome masjidi eshiklariga naqsh solishda ishtirok etganligini ta‘kidlaydi. Usta yog‘ochga ishlov berish texnikasi, uning qonun qoidalari va saqlash tartiblari haqida ekspeditsiya a‘zolariga ma‘lumot beradi. Shuningdek, usta Buxoro xonligida qog‘oz pullar va qog‘oz pul uchun zarur bo‘lgan qog‘ozning tayyorlanish texnikasi haqida ham qimmatli ma‘lumotlarni keltiradi. Chunki usta Rajab Abdurahmonov bu jarayonda bevosita ishtirok etgan edi.

Numizmatika va epigrafika bo‘limi katta ilmiy xodimi S.Tishaeva tomonidan Iskogare qishlog‘idagi yoshi katta aholi bilan olib borilgan suhbat natijasida “Chimildiq kashon” nomli marosim to‘g‘risida ma‘lumotlar yozib olinadi. Bu marosim to‘ydan 20 kun keyin o‘tkazilgan. Shuningdek, ekspeditsiya a‘zolarini ko‘proq qishloq aholisining milliy kiyimlari qiziqtirgan va ular ko‘proq shu haqida ma‘lumot to‘plashgan.

Hudud bo‘yicha toponimik ma‘lumotlarni to‘plash ishlari tarix bo‘limi katta ilmiy xodimi H.To‘rayevga topshiriladi. Tadqiqotchi G‘ulomtepa va

⁵¹Муҳаммад Наршахий. Бухоро тарихи. –Тошкент: Шарқ баёзи. 1993. -108 б.

Talisafed kabi tepaliklarning nomlarini manbalar va aholidan olingan ma'lumotlar asosida tadqiq qilgan.

Ekspeditsiya jarayonida hunarmandchilik uskunalari va ustalarning nomlari, kosiblarning mahsulotlari, mahalliy aholining ijod namunalari san`atshunos mutaxassislar tomonidan atroflicha o`rganildi. Bunday jiddiy vazifa amaliy san`atbo`limi rahbari Q.Jumaevga topshirilgan edi.

Sovet davri bo`yicha ma'lumot yig`ish ishlari K.Rustamovga topshiriladi. U "Leninobod" kolxozining birinchi rahbarlaridan X.Ibragimov haqida ma'lumot to`playdi va kolxoz raisi S.Shokirovning kolxoz pravleniesi yig`ilishida qilgan nutqi hamda amalga oshirilishi kerak bo`lgan ishlar to`g`risidagi axborotlaridan namunalar jamladi.

Yu.Kuznetsovaga muzey uchun yig`ilgan san`atva epigrafika ashyolarining holatini aniqlash vazifasi topshiriladi. Ekspeditsiya jarayonlari fotolavhalarga muhrlanib borilgan va bu ish bilan fotograf T.Sharipov shug`ullangan.

Ekspeditsiyasi davomida tarixiy-etnografik ashyolar, jumladan, Amir Ahadxon tangalari, XIX va XX asr boshlariga oid kashtachilik namunalari, san`atarlari yig`ildi. Barcha ashyolar nizomda ko`rsatilgan tartibda rasmiylashtirilib, doimiy saqlash uchun ularga inventar raqamlari berildi.

Hisobotda qayd etilishicha, ekspeditsiya o`z oldiga qo`ygan barcha vazifalarni bajargan. Ekspeditsiya rahbari G`.Qurbonovning fikriga ko`ra, har bir ilmiy xodim ekspeditsiyaga chiqishdan oldin o`lka tarixiga doir kitoblarni sinchiklab o`qib chiqishi, etnografik ashyolar yig`ish metodikasini o`zlashtirishi hamda ekspeditsiyaga chiqishdan oldin uning maqsad va vazifalarini o`rganishi lozim.

Muzeyning uzoq yillik tarixida birinchi marta muzey ilmiy xodimlaridan G`.Qurbonov va B.Qazoqovlarning ilmiy ishlari, ya`ni monografiyalari "O`zbekiston" nashriyotida nashr qilindi⁵².

⁵² G`.Qurbonovning "XVII-XIX asrlarda Buxoro muhrlari" va B.Qazoqovning "O`rta Osiyo yozma manbalari" monografiyalari.

O‘zbekiston SSR Ministrlar sovetining 1988-yil 21-martdagi №112–sonli qarori asosan muzey Buxoro davlat badiiy-me’morchilik muzeyi-qo‘riqxonasi nomini oldi va 1989-yil 1-yanvardan respublikada 1-kategoriya deb qayd qilindi.

Buxoro o‘lkashunoslik muzeyi 1938-yildan O‘zSSR Xalq Maorif komissariyatiga bo‘ysungan bo‘lsa, 1946-yildan O‘zSSR Madaniy-oqartuv ishlari komitetiga qaragan. 1953-yildan boshlab, O‘zbekiston SSR Madaniyat ministrligi tarkibiga kiritildi va yillik hisobotlarini Buxoro viloyat madaniyat boshqarmasiga taqdim qildi.

XX asr 80-90-yillar oralig‘ida tashkil qilingan Buxoro o‘lkashunoslik muzeyining filiallari

(3-jadval)

<i>№</i>	<i>Tashkil etilgan yili</i>	<i>Muzey ochilgan bino</i>	<i>Muzey nomi</i>
1.	1980-yilda	Peshko‘ tumani Afshona qishlog‘ida	Ibn Sino me‘morial muzeyi
2.	1982-yilda	Buxoro shahridagi davlat banki binosida	San‘atmuzeyi
3.	1986-yilda	Govkushon madrasasida	“XIX-XX asrlarda Buxoroning misgarlik san‘ati”
4.	1987-yilda	Chashmai Ayub yodgorligida	Buxoro suv ta‘minoti tarixi muzeyi
5.	1986-87-yilda	Abdulazizxon madrasasida	Yog‘och o‘ymakorligi ekspozitsiyasi
6.	1988-1989-yilda	Ibrohim Oxun madrasasida	“Qadimgi Varaxsha” muzeyi
7.	1987-yilda	Ko‘kaldosh madrasasida	“Sadridin Ayniy hujrasi”, “Jalol Ikromiy” bo‘limi
8.	1988-1989-yilda	Bolohovuz masjidida	Kulolchilik muzeyi
9.	1988-1989-yilda	Labihovuz masjidida	Buxorolik hunarmand mahsulotlarining sotilishi ko‘rgazmasi
10	1989-yilda	Mag‘oki Attor masjidida	Gilam ko‘rgazmasi
11	1989-yilda	Buxoro shahridagi F.Xo‘jayev yashagan uyida	F.Xo‘jayev uy - muzeyi

Nazorat uchun savollar

1. O'lkamizda maktab bilan muzey hamkorligi qachon yo'lga qo'yildi?
2. Invertarizasiya nima?
3. T.F.Gelax va S.N.Yurenyev kolleksiyalari qachon fondga qabul qilindi?
4. Muzeyda xarid komissiyasi nechinchi yildan boshlab ish boshlagan?
5. XX asr 80-90-yillar oralig'ida tashkil qilingan Buxoro o'lkashunoslik muzeyining filiallari haqida ma'lumot bering?
6. Buxoro muzeyi sovet davrida qanday nomlangan?
7. Buxoro muzeyining ilmiy tadqiqot ishlari haqida ma'lumot bering?

Test topshiriqlari

1. Mug' tog'ida topilgan hujjatlar qaysi davrga tegishli?
A. VIII asr
B. X asr
S. V asr
D. I asr
2. Mug' tog'i arxivi dastlab kim tomonidan topilgan?
A. Cho'pon
B. Arxivshunoslik ekspeditsiyasi
S. Uy bekasi
D. Arxeologik ekspeditsiya
3. Mug' tog'i arxivi qaysi yilda topilgan?
A. 1930
B. 1927
S. 1948
D. 1970
4. Mug' tog'i arxivi qanday idishlarda saqlangan?
A. Sopol idishlar va savatlar ichida
B. Savatlarda
S. Sandiqlarda

- D.Sopol idishlarda
- 5.Mug‘ tog‘ida topilgan hujjatlar mazmuni?
- A.Hammasi to‘g‘ri
- B.Oilaviy-mulkiy munosabatlar
- S.Elchilar hujjatlari
- D.Toshkent tarixiga oid
- 6.Somoniylar saroy arxivida hujjatlar qanday idishlarda saqlangan?
- A.Sandiqlarda
- B.Savatlarda
- S.Sopol idishlarida
- D.Sopol idishlarida va savatlarda
- 7.Somoniylar davlatida qanday arxivlar mavjud edi?
- A.Saroy arxivi va xususiy arxivlar
- B.Saroy arxivi
- S.Xususiy arxivlar
- D.Arxivlar hujjatlar bo‘lmagan
8. Abu Ali Ibn Sino Aristotelning “Metafizika” asariga izohlarni qayerdan sotib oldi?
- A.Buxorodagi qo‘lyozma bozoridan
- B. Saroy arxiv-kutubxonasidan
- S. Xorazmdagi qo‘lyozma bozoridan
- D. Samarqanddagi qo‘lyozma bozoridan
- 9.Vaqfnomalarning tarixiy ahamiyati?
- A.Tilshunoslik fanidan ma’lumot beradi
- B. Iqtisodiy hayotini tasvirlab beradi
- S. Geografiya, matematika fanlaridan ma’lumot beradi
- D. Hammasi to‘g‘ri
10. Birinchi vaqfnomalar qaysi davrga tegishli?
- A. XIII-XIV asr
- B. XV-XVI asr

S. XVII-XVIII asr

D. XI-XII asr

5-mavzu: Mustaqillik davrida muzey ishi to'g'risidagi qonunlar

- 5.1. Sovet hukumatining muzey sohasida olib borgan ishlari va Mustaqillik davrida muzey ishidagi o'zgarishlar.
- 5.2. 1998-yil 12-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida" gi Farmoni.
- 5.3. O'zbekiston Respublikasining 2008-yil iyun va avgustdagi muzeylar to'g'risidagi qonuni

Tayanch so'z va iboralar: O'zbekmuzey, Vazirlar Mahkamasi, Madaniyat vazirligi, Badiiy akademiya, qonun, farmon, qaror, modda, band, ark, tarix, o'lkashunoslik, tarixiy me'moriy yodgorlik, eksponat.

5.1. Sovet hukumatining muzey sohasida olib borgan ishlari va Mustaqillik davrida muzey ishidagi o'zgarishlar. Muzeylarda saqlanayotgan san'at asarlari va qadimgi davrga oid osori-atiqalar xalqning qadriyatlarini ekanligi, ularni asrash va muhofaza etish bilan hukumat darajasida shug'ullanish lozimligi anglanadi. Sovet hokimiyati muzeylarni moliyaviy ta'minlash o'rniga asosiy e'tiborni muzeyga kiruvchilarga hukmron kommunistik g'oyani targ'ib etish uchun yo'naltirdi. Shuni ta'kidlash lozimki, Rossiya imperiyasida oktabr davlat to'ntarishiga qadar muzeylarni boshqarish uchun alohida boshqarma yoki biror bir maxsus muzeylar uchun qonunlar majmuasi yaratilmagan edi.

Muzey ishi va yodgorliklarni muhofaza qilish davlat boshqaruvi tizimi 1918-1920-yillarda yaratildi. XX asrning 20-yillari "o'lkashunoslikning oltin o'n yilligi" deyiladi. Bu mahalliy muzeylar taraqqiyoti o'lkashunoslik harakati bilan bevosita bog'liq holda borgan. "O'lkashunoslik muzeylari" atamasi ham o'tgan asr 20-yillarining o'rtalaridan keng tarqaldi. Ularning faoliyati, mazmun mohiyati o'lkashunoslikka oid nashrlarda muhokama etildi.

O'lkashunoslik ishlarining bu xilda tashkil etilishi muzeylarning viloyatlar hayotidagi ahamiyatini oshirib, ularni o'ziga xos madaniy va ilmiy markazlarga

aylantirdi, jamiyatda ularga “viloyat fanlar akademiyasi”, “o‘lkaning jonli ensiklopediyasi” sifatidagi munosabati shakllandi. Dastlab bolsheviklar hukumati mahalliy ziyolilardan katta qismining muzeylarda ishlashi jiddiy ilmiy tadqiqotlarni davom ettirishlari uchun imkon berdi. O‘tgan asrning 20-yillarida muzeyga sovet davrida ta’lim olgan, ammo avvalgi an’ana va tajribalarni o‘zlashtirgan yosh avlod ham kelib qo‘shildi. O‘lkashunoslik muzeylarining ushbu yillardagi faoliyati natijasida fondlarda turli mavzudagi kolleksiyalar to‘plandi. Muzeylar faoliyatiga oid masalalar ko‘p sonli anjumanlarda va o‘sha davr matbuoti sahifalarida keng muhokama etildi.

Bu davrda nafaqat sobiq Ittifoq, balki O‘zbekiston mahalliy muzeylari ham (bu atama XX asr 30-yillarining o‘rtalarigacha muomalada bo‘lgan) kuchli g‘oyaviy tazyiqqa uchradi. Natijada o‘lkashunoslik muzeylari o‘lkani kompleks va keng qamrovli o‘rganishi lozimligi haqidagi juda ham muhim vazifa bir tomonlama yondashuvga olib keldi. Oqibatda mahalliy muzeylarning ko‘pchiligi XX asrning o‘ttizinchi yillariga kelib, madaniyat sohasining ikkinchi darajali tarmog‘iga aylanib qoldi.

Muzeylarga umumiy talablar markaz tizimlari tomonidan 1930-yillarda shakllantirilib, urushdan keyin ham deyarli o‘zgarmay qoldi. Davlat muzey ishini qat’iy talablar asosida olib borishdan ham voz kechmadi. Bu esa ularning ijodiy ishlashiga, izlanishlariga yo‘l bermadi. Bozustiga 1945-yili muzeylar O‘zbekistonda ham maorif tizimidan madaniy-ma’rifiy muassasalar qo‘mitasiga o‘tkazildi. Shu tariqa muzeylarning madaniy-ma’rifiy muassasalar tizimiga o‘tishi uzil-kesil hal etildi. 1953-yil Madaniyat ministrligi tuzilsa-da, uning muzeylarni boshqarishning ilmiy asoslangan dasturga ega emasligi, boshqaruvning barcha pog‘onalaridagi kadrlar saviyasining pastligi kuzatilar edi. Muzeylarni boshqarishdagi bu vaziyat O‘zbekistonda 1950-yillarning oxiridan 80-yillarning oxiriga qadar davom etdi.

Partiya Markaziy Qo‘mitasining 1964-yil 12-maydagi “Mehnatkashlarning kommunistik tarbiyasida muzeylarning rolini oshirish to‘g‘risida”gi va 1982-yil avgustdagi “Muzeylarning g‘oyaviy-tarbiyaviy rolini oshirish to‘g‘risida”gi ikki

Qarori O‘zbekiston muzeylarini ham “g‘oyaviy targ‘ibotchi muassasalar” tizimiga uzil-kesil biriktirib qo‘ydi. Bu esa muzeylar rivojiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Muzeylar boshqarmasi 1947-yili ishlab chiqqan “Muzey fondlarini hisobga olish bo‘yicha ko‘rsatmalar” va 1968-yili yangi “Asosiy fondlar tarkibi haqida” hujjat chiqqunga qadar O‘zbekistonda amal qildi. Shu davrdan boshlab muzeylarga yagona namunadagi inventar kitoblari ishlab chiqilib tarqatildi.

Davlatning asosan muzey muassasalaridan g‘oyaviy targ‘ibotchi sifatida foydalanishga intilishi sovet davrining deyarli boshqa bosqichlarida muzeylarning ilmiy salohiyatli mutaxassislarning qarshiligiga duch keldi. O‘lkashunoslik va muzey ishi ilmiy tadqiqot institutlarining 1948-yil noyabrdagi kengaytirilgan sessiyasi ushbu muassasaning faoliyati yakunlari va istiqbollari bag‘ishlandi. Institut “Respublika, o‘lka, viloyat va yirik rayonlar o‘lkashunoslik muzeylari haqida”gi hamda “Respublika, o‘lka, viloyat va yirik rayonlar o‘lkashunoslik muzeylari ko‘rgazmalarini tashkil etishning asosiy tamoyillari” kabi hujjatlar ishlab chiqildi. Hujjatlarda muzey eksponatlarini unifikatsiyalashga yo‘l tutilgani o‘z tasdig‘ini topdi. O‘lkashunoslik muzeylarining davlat tomonidan ilmiy tadqiqot va madaniy-ma‘rifiy muassasa deb tan olinishi muzey ishiga ijobiy ta‘sir qildi. Uning tizimida fond bo‘limi, kutubxona, ilmiy arxiv, yordamchi kabinetlar bo‘lishi ko‘zda tutilgan edi. Muzeylar mustaqil ravishda adabiyot yoki badiiy ko‘rgazmalar tashkil etishga ruxsat oldi. Katta anjuman tashkil etilib, unda muzey tizimini ilmiy rejalashtirish masalasi muhokama etildi.

Sovet muzeylari 1957-yil Muzeylar xalqaro kengashiga a‘zo bo‘ldi. Xorijiy muzeylar bilan aloqa bog‘lash jahon muzey amaliyotidagi yangi jarayonlar bilan tanishish imkonini berdi. Butunittifoq muzeylarning I ko‘rigi 1957-yili o‘tkazilib, u urushdan keyingi o‘n yillikda soha faoliyatini sarhisob qilishga imkoniyat yaratadi. Shu yillarda O‘zbekistonda ham o‘lkashunoslik harakati jonlandi. Yangi bosqichda ommaviy tarixiy o‘lkashunoslik harakatining o‘ziga xos jihati qator muzeylar tizimining yaratilishiga asos bo‘ldi. Yangi muzeylar jamoatchilik tashabbusi bilan tashkil etilib, ularning mablag‘lari hisobiga faoliyat ko‘rsatgan.

Jamoa muzeylari ichida son jihatidan eng ko'pchiligini maktab muzeylari tashkil etadi. O'zbekistonda ular XX asrning 60-yillaridan boshlab tashkil qilina boshlandi. Umuman olganda 1960-1980-yillarning boshida muzeylarga kiruvchilar sonining keskin o'sishi kuzatildi. Muzey ishi jamoachilik diqqat markazida turdi. Muzeylar, ular faoliyati, madaniy yodgorliklarni asrash muammolari haqidagi munozaralar nafaqat maxsus, balki matbuot, gazeta va jurnallarda keng muhokama etildi. Jamiyatda muzeylarga qiziqishning oshishi muzey faoliyatiga davlat tomonidan e'tiborning kuchayishiga olib keldi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach respublikamiz ma'naviy hayotida yangi istiqbollari ochildi. Xususan, jamiyat va inson hayotida muhim o'rin tutuvchi muzey va muzeyshunoslikka alohida e'tibor berildi. Ushbu qismda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Farmoni, Vazirlar Mahkamasining maxsus qarorlari, "O'zbekmuzey" tashkilotining ta'sis etilishi, "Muzeylar to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi hamda ularning ma'naviy hayotda, muzeylar faoliyati, muzeyshunoslikka ta'siri, ularning ilmiy ahamiyati ochib berildi⁵³.

Shundan so'ng O'zbekiston hududida joylashgan muzeylar faoliyatini takomillashtirish ishlari boshlandi. Ular xalqning ma'naviy-axloqiy kamolotida yanada muhim o'rin egallay boshladi. Tariximizni, mustaqilligimiz odimlarini aks

⁵³ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 23-декабрда қабул қилинган "Республика музейлари фаолиятини яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори //Халқ сўзи, 1994 йил 24-декабрь; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1998 йил 12-январда қабул қилинган "Музейлар фаолиятини тубдан яхшилаш ва такомиллаштириш тўғрисида"ги Фармони// Халқ сўзи, 1998 йил 13-январь; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 5-мартда қабул қилинган "Музейлар фаолиятини тубдан қўллаб-қувватлаш масалалари тўғрисида"ги қарори// Халқ сўзи, 1998 йил 15-март; Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан "Об упорядочении вопросов вывоза и ввоза культурных ценностей в Республике Узбекистан" от 23-марта 1999 года // Правда Востока, 24-марта 1999 года; "Музейлар тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 2008 йил 12-сентябрь//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 йил.–№37-38. – Б.12-20; "Давлат музейларининг болалар ва уларнинг ота-оналарига очиклигини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 11-июлдаги 189-сон қарори// Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 йил 21-июль, – № 35. – Б. 57-31; Ўзбекистон Республикаси ҳуқматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида" 2017 йил 15-февралдаги ПҚ-2779-сон қарори)" Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 11- майдаги 270-сон қарорига асосан "Музей тўғрисидаги" қонун ва қарорларга қўшимча ва ўзгартиришлар киритилган// Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 йил 15-май – №19.– Б.69-88; "Ўзбекистон Республикаси маданият ва санъат соҳасини инновацион ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 26-августдаги ПҚ-3920-сон қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2018 йил 26-август июль – № 35. – Б. 19-23.

ettiruvchi noyob, nodir eksponatlar bilan muzey ekspozitsiyalari yangilandi. Shuningdek, muzeylarni jahon standartlariga moslashtirish, jahonga tanitish, ulardan yoshlarimiz ongida milliy gʻurur va iftixor, milliy gʻoyaning oʻrin olishiga muhim omil boʻlishi, yoshlarda Vatanga sadoqat tuygʻularini shakllantirishga alohida eʼtibor berildi.

Muzey masalalari xususida N.Habibullayev, R.Almeyer, I.Ilalov, G.Fuzailova, M.Xasanova, M.Bekmurodov, M.Rashidova, D.Kuryazovava boshqa mutaxassislar maxsus tadqiqotlar, qoʻllanma va darsliklarda oʻz fikr-mulohazalarini bildirganlar. Ularning mulohazalari umumlashtirilib, muzeylar taraqqiyoti uchun meʼyoriy-huquqiy baza yaratgan hujjatlar xronologik tartibda tahlil etildi.

Muzeylarga nisbatan jamiyatdagi ehtiyoj unga kiruvchilar sonining oshib borishi bilan belgilanadi. Bu koʻrsatkich 1990-yillarda keskin kamayib, XX asrning oxirlaridan asta-sekin oʻsa boshladi. Muzeylar faoliyatini murakkablashtirgan narsa XX asrning 90-yillarida ham jamiyatda koʻpchilik aholi qabul qilgan muhim qadriyatlar tizimining shakllanmaganligi edi. Kommunistik mafkura va sovet turmush tarzining targʻiboti mustaqillik yillarida demokratik qadriyatlarga asoslangan ochiq jamiyat tomon yoʻnalish bilan almashti. Muzeylar bosib oʻtgan tarixiy yoʻl uning vositasida koʻplab madaniy va ijtimoiy muammolarni echish mumkinligini tasdiqlamoqda.

Oʻlkadagi muzeylar jamiyat ijtimoiy hayotida muhim kommunikativ oʻrin tutadi. Sovet davrida muzeylarga uchinchi darajada qaralgan boʻlsa, Oʻzbekistonda muzeylarga eʼtibor mustaqillikdan keyin birinchi darajasiga koʻtarildi.

Oʻzbekiston Respublikasidagi muzeylar va tarixiy meʼmoriy yodgorliklar millatning madaniy uygʻonishi, milliy gʻoyani targʻib etish, xalq ongida milliy gʻurur va qadriyatlarni kuchaytirishda, mustaqillik gʻoyalariga sodiqlik hissiyotini, demokratiya va taraqqiyotga ishonchni mustahkamlashda muhim rol oʻynaydi. Muzeylar nafaqat tabiat va jamiyatning noyob hamda xilma-xil ashyolar xazinasini, balki muhim ilmiy, maʼrifiy-tarbiyaviy, ijtimoiy kommunikatsiyaning muhim halqasi va markazlari hamdir.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni va 2017-yil 19-maydagi PQ-2980-sonli “2017-2019-yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori muzeylar tizimida katta o‘zgarishlar yasash, yangilarini rivojlantirishda muhim asos bo‘lib xizmat qildi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi doirasida 88 ta muzey mavjud bo‘lib, shulardan 43 tasi tarix va o‘lkashunoslik ixtisosligidagi muzeylardir. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tasarrufida to‘rtta muzey bo‘lib, bular: O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi va Alisher Navoiy nomidagi davlat Adabiyot muzeylari shular jumlasidandir.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yilning 10-11-mart kunlari Buxoroga tashrifi chog‘ida Ark qo‘rg‘oni majmuasida viloyatning turizm salohiyatini yanada oshirish dasturi taqdimoti bilan tanishgan edi. Unda yangidan barpo etiladigan Buxoro tarixi davlat muzeyi loyihasi ham namoyish etildi. 1,2 gektar maydonni o‘z ichiga oladigan yangi muzey qurilishiga budjet mablag‘lari hisobidan 68,3 milliard so‘m sarflanishi mo‘ljallanmoqda. Muzey ishga tushirilganidan so‘ng, Ark qo‘rg‘onida saqlanayotgan noyob eksponatlar mazkur muzeyga ko‘chiriladi⁵⁴. Mazkur sa‘yi -harakatlar esa o‘z navbatida Ark qo‘rg‘onini asl ko‘rinishini saqlash va uni tiklash ishlarini jadallashtirilishidan darak beradi.

Muzey eksponatlari yildanyilga oshib bormoqda. Muzey qo‘riqxonasi Fransiyaning Luvr, Rossiyaning Davlat ermitaji hamda Xitoyning “G‘arbiy Sian bozori” muzeylari bilan olib borayotgan hamkorligi, arxeologik tadqiqotlari davlatchiligimiz borasida ko‘plab yangi ma‘lumotlarni fanga ma‘lum qilmoqda.

5.2. 1998-yil 12-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muзейlar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasidagi muzeylar va tarixiy me‘moriy

⁵⁴ Ёдгоров У. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Арк қўрғонига ташрифи // Вухоронома. 2017 йил 12 март.

yodgorliklar millatning madaniy uygʻonishi, milliy gʻoyani targʻib etish, xalq ongida milliy gʻurur va qadriyatlarni kuchaytirishda, mustaqillik gʻoyalariga sodiqligini, demokratiya va taraqqiyotga ishonchni mustahkamlashda muhim rol oʻynaydi. Muzeylar nafaqat tabiat va jamiyatning noyob hamda xilma-xil ashyolari xazinasini, balki muhim ilmiy, maʼrifiy-tarbiyaviy, ijtimoiy kommunikatsiyaning muhim halqasi va markazlari hamdir. Oʻzbekistonda muzeylarga eʼtibor mustaqillik davrida yanada kuchaydi. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 23-dekabrda qabul qilingan “Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi va 1996-yil 14-martda qabul qilingan “Temuriylar tarixi davlat muzeyini tashkil etish toʻgʻrisida”gi qarori shular jumlasidandir. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1998-yil 12-yanvarda qabul qilingan “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish toʻgʻrisida”gi Farmoni⁵⁵ hamda ularni amalga oshirish boʻyicha Vazirlar Mahkamasini qarorlari muzeylar tizimida katta oʻzgarishlar yasash, yangilarini rivojlantirishda muhim asos boʻlib xizmat qildi.

Mazkur farmon 13 banddan iborat boʻlib, unda quyidagilar aks etgan edi. Oʻzbekiston hududida qadimdan shakllangan muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, ularning xalq maʼnaviy-axloqiy kamolotida tutgan oʻrnini oshirish, muzey fondlarida saqlanib kelayotgai xalqimizning boy tarixini, mustaqilligimiz odimlarini aks ettiruvchi, noyob, nodir eksponatlarni avaylab asrash, oʻrganish, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va targʻib qilish, ulardan xalqimiz ongida milliy gʻurur va iftixor, istiqloq va Vatanga sadoqat tuygʻularini kuchaytirish yoʻlida keng foydalanish, muzeylarni zamon talablariga mos yuqori malakali mutaxassislar bilan taʼminlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlab, jahon muzeyshunosligi tajribalarini qoʻllashga zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

⁵⁵Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1998 йил 12 январда қабул қилинган “Музейлар фаолиятини тубдан яхшилаш ва такомиллаштириш тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи, 1998 йил 13 январь; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 5-мартда қабул қилинган “Музейлар фаолиятини тубдан қўллаб-қувватлаш масалалари тўғрисида”ги қарори // Халқ сўзи, 1998 йил 15 март.

1. Respublikamizdagi Madaniyat ishlari vazirligi, boshqa vazirlik va idoralarga tegishli barcha turdagi mavjud muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, qoʻllab-quvvatlash va ularga zarur ilmiy-uslubiy yordam koʻrsatishni taʼminlash maqsadida Madaniyat ishlari vazirligi qoshida Muzeylarni qoʻllab-quvvatlash respublika “Oʻzbekmuzey” jamgʻarmasi tashkil etilsin.

Davlat organlari va jamoat tashkilotlari hamda turli muassasalar, shuningdek, xorijiy tashkilotlar jamgʻarma hammuassislari boʻlishi mumkinligi inobatga olinsin.

Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi jamgʻarma Nizomini belgilangan tartibda roʻyxatdan oʻtkazsin.

2. “Oʻzbekmuzey” faoliyatining asosiy yoʻnalishlari etib quyidagilar belgilansin: muzeylarda oʻzbek xalqining boy madaniy merosi, uning insoniyat tarixidagi oʻrni, taraqqiyot bosqichlarini haqqoniy aks ettirish hamda zamonaviy rivojlanish istiqbollarini chuqur oʻrganib, milliy mustaqillik gʻoyalariga mos ekspozitsiyalar yaratish, muzeyshunoslikda umummilliy siyosatning amalga oshirilishini taʼminlash;

mamlakatimiz fuqarolarini chet ellarda saqlanayotgai tariximizga oid osori-atiqalar bilan keng tanishtirish hamda muzeylarimizdagi noyob eksponatlar orqali xalq ongida umumbashariy qadriyatlarga, ulkan va boy milliy madaniy merosimizga hurmat-ehtirom, Vatanimizning buyuk kelajagiga komil ishonch tuygʻularini tarbiyalash;

muzeyshunoslik sohasida xalqaro aloqalarni, oʻzaro foydali hamkorlikni rivojlantirish, Oʻzbekistonda va xorijda keng koʻrgazma faoliyati orqali mamlakatimizning boy tarixi, bugungi yutuqlarini dunyo jamoatchiligiga tanitish, muzeylarda saqlanayotgan noyob eksponatlarni jahon miqyosida targʻib etish;

hududiy, idoraviy boʻysunishidan va mulkchilik shaklidan qatʼiy nazar, muzey faoliyati bilan shugʻullanuvchi barcha tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish, ularga ilmiy-uslubiy rahbarlik qilish, ilmiy muassasalarni muzeyshunoslikni rivojlantirishda faol ishtirok etishga jalb qilish;

muzeylar fondidagi eksponatlarning yagona ro'yxatini yuritish, ularning muhofaza sharoitlarini doimiy, qat'iy nazoratga olish, bu sohada tegishli me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va bajarilishini ta'minlash;

muzeyshunoslikka zamonaviy texnik vositalarni tadbqiq etish, ulardan samarali foydalanishga oid dasturlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishga ko'maklashish.

3. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiyasi, "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg'armasi hamda tegishli vazirlik va hokimliklar bilan birgalikda:

ikki oy muddatda mamlakatimizdagi muzeylar faoliyatini yanada yaxshilash va takomillashtirishning ilmiy konsepsiyasini ishlab chiqsin va Vazirlar Mahkamasiga taqdim etsin;

bir oy muddatda mustaqil O'zbekistonning tarixi va bugungi kunini targ'ib-tashviq qilishdagi alohida ahamiyatini e'tiborga olib, O'zbekiston Tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Xalq amaliy san'ati muzeyi, O'zbekiston davlat san'atmuzeyi, Samarqand, Buxoro, Xiva, Farg'ona davlat muzey-qo'riqxonalarining rivojlanishi va moliyaviy ta'minoti bo'yicha alohida dastur ishlab chiqsin.

Dasturni amalga oshirishni muvofiqlashtirish "O'zbekmuzey" jamg'armasi zimmasiga yuklansin.

4. Adliya, Madaniyat ishlari vazirliklari, Davlat bojxona qo'mitasi, Fanlar akademiyasi va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda noyob madaniy boyliklarni saqlash, mamlakatdan olib chiqish, mamlakatga olib kirish va shu masalalar bilan bog'liq bo'lgan boshqa munosabatlarni tartibga soluvchi qonun loyihasini ishlab chiqsin.

5. Noyob madaniy boyliklarni saklash, mamlakatdan olib chiqish, mamlakatga olib kirish va boshqa masalalar bilan bog'liq butun mas'uliyat Madaniyat ishlari vazirligi zimmasiga yuklansin.

6. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi, Badiiy akademiyasi va Davlat matbuot qo'mitasi mamlakatimiz aholisining

muzeyshunoslik madaniyatini oshirish, ularni merosimiz va qadriyatlarimizdan xabardor qilib borish hamda mutaxassislar, muzey xodimlarining muzeyshunoslik sohasidagi ilmiy ishlarini chop etish, bu sohadagi yutuqlarni targ'ib qilish, muzey xodimlarining kasbiy malakasini oshirish maqsadida uch oyda bir marta o'zbek, ingliz va rus tillarida chop etiladigan ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy, rangli "Moziydan sado" jurnalini ta'sis etsinlar. Shundan so'ng, 1999-yildan boshlab, ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy "Moziydan sado" jurnali rangli, uch oyda bir marta o'zbek, ingliz va rus tillarida chop etila boshlandi.

7. "O'zbekmuzey", uning bo'lim va korxonalari, muzeylarning asosiy va qo'shimcha faoliyatidan olinadigan daromadlari 5 yil muddatga barcha turdagi davlat soliqlaridan, bojxona va boshqa to'lovlardan ozod etilsin.

Soliqdan ozod etilishi natijasida yig'ilgan mablag'larning sohani yanada rivojlantirishga, uning moddiy-texnik negizini mustahkamlashga, shuningdek, xodimlarni ijtimoiy-iqtisodiy muhofaza qilish ishlariga sarflanishi nazarda tutilsin. Turli tashkilot va homiylarning daromaddan to'laydigan soliq bo'yicha bazasi ularning muzeylar faoliyatini yaxshilash uchun o'tkazadigan pul mablag'lari miqdoriga monand qisqartirilishi belgilab qo'yilsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va Moliya vazirliklari Madaniyat ishlari vazirligi bilan birgalikda muzey xodimlarini ijtimoiy himoyalash va oylik maoshlarini oshirish yuzasidan takliflarni ishlab chiqib, bir oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga taqdim etsin.

9. "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi, "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda yetakchi muzey va qo'riqxonalarni o'z ichiga olgan maxsus xalqaro turistik yo'nalishlar (turlar) tashkil etsinlar hamda ularga xorijiy sayyohlarni jalb etish yuzasidan zarur tadbirlarni amalga oshirsinlar.

10. Muzeylarning davlat hamda mahalliy budjetlardan mablag' bilan ta'minlanishining amaldagi tartibi saqlab qolinsin.

11. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi, Madaniyat ishlari vazirligi bilan birgalikda muzey inshootlarini

qurish va to'liq ta'mirlash hamda ularni zamonaviy jihozlash uchun zarur bo'lgan texnika vositalarini sotib olish va Farmonda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur mablag'larni 1998-1999-yillarda ajratsin.

12. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bir hafta muddatda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga zarur o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflarni ishlab chiqsin.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda ushbu Farmonning bajarilishini ta'minlash yuzasidan tegishli qaror qabul qilsin.

Ushbu hujjat O'zbekistondagi muzeylar faoliyatida burilish nuqtasi bo'lib, ularning tarixida yangi davr boshlanganini anglatadi. Shuningdek, endigina mustaqillikka erishgan yosh davlatning muzeyshunoslik va muzey ishiga katta e'tibori timsolidir. Hozirgi kunda tarixiy durdonalarni asrab-avaylash, o'tmish osori-atiqalari, nodir qo'lyozmalarni ilmiy jihatdan o'rganish, har tomonlama tadqiq etishga jiddiy e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Farmoni muzeylar maqomini yuksaltirishga qaratilgani bilan qimmatlidir.

Mazkur Farmonda O'zbekiston hududida qadimdan shakllangan muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, xalqning ma'naviy-axloqiy kamolotida ularning tutgan o'rnini yuksaltirish, muzey fondlarida saqlanib kelinayotgan xalqning boy tarixini, mustaqillik odimlarini aks ettiruvchi noyob, nodir eksponatlarni avaylab-asrash lozimligi ta'kidlandi. Ularni o'rganish, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va targ'ib etish, xalq ongida milliy g'urur va iftixor, istiqlol va Vatanga sadoqat tuyg'ularini kuchaytirish yo'lida keng foydalanish lozimligi ko'rsatildi. Muzeylarni zamon talablariga mos, yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlab, jahon muzeyshunosligining eng ilg'or tajribalarini qo'llash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish lozimligi uqtirildi. Albatta, Farmonni hech mubolag'asiz O'zbekistonda muzeyshunoslik va muzey ishida, uning rivojlanish istiqbollari belgilashda dasturilamal hujjat ekanligini ta'kidlash lozim.

5.3. 2008-yil iyun va avgustdagi O‘zbekiston Respublikasining muzeylar to‘g‘risidagi qonuni. Oradan o‘n yil o‘tib O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomondan 2008-yil 26-iyunda qabul qilingan va Senat tomonidan 2008-yil 28-avgustda ma’qullangan “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Qonunning maqsadi muzeylarning tashkil etilishi va faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Mazkur Qonun yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi qator loyihalar ishlab chiqib, muhokama uchun bir necha vazirlikka taqdim etdi. Ushbu Qonun 8 bob, 36 moddadan iborat bo‘lib, ularda muzeyning faoliyati qonuniy asoslanib, sohadagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

1-bob. Umumiy qoidalar deb nomlanib, uchta moddadan iborat. Unda qonunning maqsadi, muzeylar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari va muzeyning asosiy tushunchalari to‘g‘risida ma’lumotlar o‘rin olgan.

2-bob. Muzeylarni boshqarish deb nomlanib, u 4-6-moddalarni o‘z ichiga olgan. 4-moddada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining muzeylarni boshqarish sohasidagi vakolatlari to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi: muzeylar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, takomillashtirishga doir dasturlar va qarorlar qabul qiladi; muzeylarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilaydi; davlat muzeylarining toifalarini belgilaydi; Milliy muzey fondi to‘g‘risidagi va Milliy muzey fondining Davlat katalogi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

Muzey ashyolari va kolleksiyalarini Milliy muzey fondi tarkibiga kiritish hamda uning tarkibidan chiqarish tartibini belgilaydi;

Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va kolleksiyalarini hisobga olish hamda saqlash tartibini belgilaydi;

Milliy muzey fondining davlatga tegishli qismi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va kolleksiyalarini boshqarish tartibini belgilaydi;

Milliy muzey fondi holati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibini belgilaydi;

Muzey mutaxassislarini tayyorlash hamda muzey xodimlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibini belgilaydi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

5-modda: O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining muzeylarni boshqarish sohasidagi vakolatlari deb nomlanadi va ularga quyidagilar kiradi:

Milliy muzey fondining Davlat katalogini yuritadi; muzey ashyolari va kolleksiyalarini belgilangan tartibda Milliy muzey fondi tarkibiga kiritadi hamda uning tarkibidan chiqaradi;

Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va kolleksiyalarini tasarrufdan chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qiladi;

Milliy muzey fondi holati ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va kolleksiyalarini kirib ko‘rish tartibi va shartlarini tasdiqlaydi;

Muzey xodimlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni tashkil etadi;

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

6-modda: Mahalliy davlat hokimiyati organlarining muzeylarni boshqarish sohasidagi vakolatlari deb nomlangan.

3-bob. Milliy muzey fondi deb nomlangan bo‘lib, 7-modda: Milliy muzey fondining tarkibi, 8-9-moddalar: Muzey ashyolari va kolleksiyalarini Milliy muzey fondi tarkibiga kiritish va chiqarish, 10-modda: Milliy muzey fondining Davlat katalogini yuritish, 11-modda. Muzey ashyolari va kolleksiyalarini O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqish, 12-modda: Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va kolleksiyalarining fuqarolik muomalasi xususiyatlari, 13-modda: Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va kolleksiyalariga bo‘lgan mulk shakllari kabi masalalar qonuniy yoritilgan.

4-bob. Milliy muzey fondining davlatga tegishli qismi deyilib, uchta moddani o‘z ichiga olgan.

5-bob. Milliy muzey fondining davlatga tegishli bo'lmagan qismi deb nomlanib, olti moddani o'z ichiga oladi.

6-bob. Muzeylarni tashkil etish deb nomlanib, unga muzeylarni tashkil etish maqsadlari, shartlari, muzeylarning turlari va toifalari, qayta tashkil etish va tugatish tartibi, ularni moliyalashtirish va beriladigan imtiyozlar hamda xalqaro hamkorliklar qonun yo'li bilan belgilab berilgan. Bular 24-30-moddalarda o'z ifodasini topgan.

7-bob. Milliy muzey fondining ochiqligini ta'minlash deb nomlanib, 31-32-moddalarni o'z ichiga oladi. 31-modda Muzey ashyolari va kolleksiyalarini kirib ko'rish:

Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan hamda muzeylarda turgan muzey ashyolari va kolleksiyalari fuqarolar kirib ko'rish uchun ochiqdir. Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan hamda muzeylarda turgan muzey ashyolari va kolleksiyalarini kirib ko'rish quyidagi asoslarga ko'ra cheklanishi mumkin: muzey ashyolari va kolleksiyalarining butun saqlanish holati qoniqarsiz bo'lganda; restavratsiya ishlari amalga oshirilayotganda; muzey ashyolari va kolleksiyalari muzey zaxiraxonasida bo'lganda.

Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan hamda muzeylarda, shu jumladan muzey zaxiraxonasida turgan muzey ashyolari va kolleksiyalarini kirib ko'rish tartibi va shartlari qonun hujjatlarida belgilanadi.

32-modda: Muзей ashyolari va kolleksiyalarini e'lon qilish:

Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan hamda ularda turgan ashyolar va kolleksiyalarni birinchi marta e'lon qilish huquqi mulkdor tomonidan mazkur ashyolar va kolleksiyalarni biriktirib qo'yilgan muzeyga tegishlidir.

Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan hamda muzeylarda turgan ashyolar va kolleksiyalarni takrorlashdan tijorat maqsadlarida foydalanish huquqlarining boshqa shaxsga o'tkazilishi ashyolar va kolleksiyalarning mulkdori belgilagan tartibda muzeylar tomonidan amalga oshiriladi.

Muzey ashyolari va kolleksiyalari, muzeylarning binolari, muzeylar hududida joylashgan obyektlar tasvirlaridan foydalangan holda tasviriy, bosma,

Test topshiriqlari

1. O'rtta Osiyo vaqfnomalarning asl nusxalari bugungi kunda qayerda saqlanmoqda?
 - A. O'z Res Markaziy davlat arxivida
 - B. O'z Res kino-fotofono hujjatlar Markaziy davlat arxivida
 - S. Asl nusxalari saqlanib qolmagan
 - D. Chet el arxivlarida
2. "Kolleksiya" so'zining ma'nosini toping?
 - A. "qadimgi va hozirda yaratilgan ashyolarni yagona nusxalarining yig'indisi"
 - B. "narsalar yig'indisi"
 - S. "rasmlar yig'indisi"
 - D. "tosh buyumlar yig'indisi"
3. Qaysi javobda Muzeylarning Xalqaro kengashi to'g'ri ko'rsatilgan?
 - A. IKOM
 - B. BMT
 - S. Yunisef
 - D. Nato
4. Muzeylar O'zbekiston Respublikasining qaysi vazirligiga qaraydi?
 - A. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga
 - B. O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat vazirligiga
 - S. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligiga
 - D. O'zbekiston Respublikasi Maorif vazirligiga
5. Buxoro muzeyi 1945-1969-yillarda Buxoro tarixiy-o'lkashunoslik muzeyi deb nomlanib, respublikada qaysi kategoriyaga kiritilgan?
 - A. 3
 - B. 2
 - S. 1
 - D. 4
6. 1927-yil Buxoro muzeyi qaysi binoda ochilgan?
 - A. Timi Abdullaxon

B.Ark

S.Sitorai Moxi Xosa

D. Ko'kaldosh madrasasi

7. P.E.Kornilov Buxoro muzeyida nechanchi yillar faoliyat ko'rsatdi?

A.1930-1935

B.1941-1945

S.1930-1933

D.1930-1932

8. Inventarizatsiya nima?

A. Ashyolarni ro'yxatdan o'tkazish

B. Ashyolarni yangilash

S. Ashyolarni namoyishga qo'yish

D. Hammasi to'g'ri.

9. Buxoro muzeyining birinchi "Ilmiy maqolalar to'plami" qachon nashr etilgan?

A. 1968 -yil

B.1967-yil

S.1966-yil

D.1965-yil

10. T.F.Gelax va S.N.Yurenevning kolleksiyasi qachon Buxoro muzeyiga topshirilgan?

A.1960-yil

B.1990-yil

S.1970-yil

D.1973-yil

6-mavzu. Buxoro davlat muzey qo‘riqxonasi va muzey filiallari

Reja:

- 6.1. Buxoro davlat muzey qo‘riqxonasining tarix, numizmatika, tabiat hamda arxeologiya bo‘limidagi ekspozitsiyalar.
- 6.2. Sitorai Mohi Xosa saroyining muzeyga aylantirilishi va yangi ekspozitsiyalarining tashkil qilinishi.
- 6.3. Amirlik qamoqxonasi, zindoning muzeyga aylantirilishi va uning ekspozitsiyasi.
- 6.4. Fayzulla Xo‘jayev uyining muzeyga aylantirilishi va unda tashkil qilingan ekspozitsiya.

***Tayanch so‘z va iboralar:**Ark, arxeologiya, Vardonze, Varaxsha, Poykent, zindon, kanaxona, muzey, masjid, mahbus, numizmatika, otxona, salomxona, Sitorai Mohi Xosa, tarix, tabiat, tanga, Ermitaj, etnografiya, epigrafika, ekspozitsiya, qamoqxona, qo‘shbegi, qo‘lyozma, Uzkomstaris, uy-muzey.*

6.1. Buxoro davlat muzey qo‘riqxonasining tarix, numizmatika, tabiat hamda arxeologiya bo‘limidagi ekspozitsiyalar. Buxoro muzey-qo‘riqxonasi jamg‘armalari millat xazinasi hisoblanab, eng qadimgi zamonlardan to hozirgi vaqtlargacha Buxoro hududida istiqomat qiluvchi xalqlarning moddiy va ma‘naviy madaniyati yig‘indisini o‘zida namoyon etadi. Buxorodagi Ark muzey qo‘riqxonasida tashkil etilgan ko‘rgazmalar vohaning barcha sohalarini qamrab oladi. Muzey nafaqat Buxoroda balki butun respublikada eng ko‘p tashrif buyuriladigan muzeylardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunga u joylashgan binoning tarixiy ahamiyat kasb etishi va undagi eksponatlarning keng qamrovli ekanligi bilan izoh berish mumkin. Muzeyda bir necha bo‘limlar mavjud bo‘lib, bo‘limlarning o‘zi ayni vaqtda bir qancha ekspozitsiyalardan iborat. Jumladan:

- Arxeologiya bo‘limi;
- Tabiat bo‘limi;

➤ Qo‘lyozmalar bo‘limi (arab yozuvidagi yozma yodgorliklarni o‘rganish Ilmiy Markazi);

➤ Epigrafika va numizmatika bo‘limi;

➤ Tarix bo‘limi

Bu bo‘limlarning har birining ochilish tarixi va ahamiyati mavjud bo‘lib quyida ular haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Tabiat bo‘limi haqidagi ma‘lumotlar turli manbalarda turlicha keltirilgan. Ba‘zi manbalarda ushbu bo‘limning 1951-yilda tashkil etilgani aytiladi, ammo muzey xodimlari tomonidan tayyorlanadigan yillik hisobotlarga qaraydigan bo‘lsak, bo‘lim ekspozitsiyasi 1952-1954-yillarda Ark qo‘rg‘onida qurilganini bilib olishimiz mumkin. 1990-yilda bino avariya holatiga kelganligi sababli vaqtinchalik ekspozitsiya yopib qo‘yiladi. 1993-yilda boshlangan ta‘mirlash ishlari 1995-yilning aprelida tugaydi. Vohaning tabiiy salohiyati va qadim davrlardagi hayvonot olami ko‘rinishlarini ochib beruvchi ushbu bo‘lim ta‘mirlash va reekspozitsiyadan keyin qayta ochildi.

2008 -yilning noyabrida tabiat bo‘limining ekspozitsiyasi anchadan beri ta‘mirlanmaganligi va zax urib eksponatlarning saqlanish talablariga javob bermaganligi sababli, Ark-o‘lkashunoslik muzeyi Qo‘shbegi hovlisining shimoliy qismidagi xonalarga ko‘chiriladi. 2009-yilning 12-yanvarida tabiat bo‘limining yangi tashkil etilgan “Buxoro viloyatining tabiati va tabiiy boyliklari ekspozitsiyasi” boyitilib qaytadan ochildi. Bo‘limda uch nafar ilmiy xodim faoliyat olib boradi. Ko‘rgazma zallarida 530 dan ortiq eksponatlar namoyishga qo‘yilgan.

Bo‘limda “Buxoro viloyatining tabiati va tabiiy boyliklari” ko‘rgazmasi namoyish etilmoqda. Ushbu ko‘rgazma 5 ta xonadan iborat bo‘lib ular quyidagilar:

1 xona - Relyef va Geologiya

2 xona- Foydali qazilmalar va zilzilalar.

3 xona - Buxoro iqlimi va suvlari.

4 xona - O‘simliklar dunyosi va tuproq.

5 xona - Hayvonot dunyosi va tabiat muhofazasi.

Tarix bo‘limi - “Qadimiy va so‘nggi o‘rta asrlarda Buxoro vohasining tarixi” (era. avv. III ming yillik - XX asr boshi) deb nomlangan ekspozitsiya 1976 - yil Arkdagi Salomxon hovlisida tashkil etilgan. Bo‘limning “Buxoro vohasining qadimiy tarixi” qismi 1981-yilda qayta qurildi hamda 1986-, 1992-, 1995-, 2000 - yillarda qayta ta‘mirlash va reekspozitsiya ishlari o‘tkazildi.

Tarix bo‘limiga tegishli “X-XX asr boshi yozma yodgorliklari” ko‘rgazmasi Arkdagi Jome masjidida ochilgan. Arkda joylashgan jome’ masjidi Subhonqulixon (1680-1702) hukmronligi davrida qurilgan bo‘lib, oxirgi ta‘mirlash ishlari Olimxon davrida (1911-1920) amalga oshirilgan. Ta‘mirlash ishlarini mashhur me‘mor, ganch o‘ymakori usta Shirin Murodov va usta G‘affor tomonidan amalga oshirilib, duradgorlik ishlarini usta Abdusalom amalga oshiradi.

Masjidning qishki zali 8 ta eshikdan iborat bo‘lib, ayvonning shimoliy va janubiy qismlarida 3 tadan, sharqiy qismida esa 2 ta eshik joylashgan. Kirish eshiklari ayvonning sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, janub qismida ham kirish uchun ajratilgan maxsus joy bo‘lgan. Janubiy ayvonning shifti sakkizburchakka ajratilgan bo‘lib, markazida osma shift ajralib turadi. Shift yog‘och o‘ymakorligi naqshlari bilan bezatilgan. Shift o‘rtasida gumbazcha bo‘lib, yirik muqarnaslar bilan to‘ldirilgan, uning markazidan muqarnas va oynalar bilan to‘ldirilgan chiziqlar o‘tgan. Chetlari esa 2 ta bezatilgan chiziq bilan qoplangan: yuqorisi “girix” bezagi bilan bezatilgan, quyi qismi takrorlanuvchi islom ramzlarini anglatuvchi yozuvlari bilan “Ollohdan o‘zga tangri yo‘q, Muhammad esa uning elchisi” – deb yozilgan. Masjidning yuqori qismidagi “muqarnas” murakkab karniz bilan qurshab olingan. Quyi qismida esa yozuv joylashgan bo‘lib, hijriy 1338 -yil sanasi qayd qilingan, ya‘ni yozuv ta‘mirlash davriga tegishli ekanidan dalolat beradi.

Masjid qishki zalining shimoliy, sharqiy va janubiy tomon devorlarida derazalar bo‘lib, ular ichki tomondan yog‘och eshikchalar bilan, tashqi tomondan esa ganch panjaralar bilan bezatilgan. Devorlar chizig‘i bo‘ylab unchalik baland bo‘lmagan tokchalar bo‘lib, to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi chuqur ravoqlardan iborat.

Ushbu ko‘rgazmadagi qo‘lyozma kitoblar uchun asosan yozuv xomashyosi sifatida papirus, pergament va qog‘ozdan foydalanishgan, pergament qimmatbaho bo‘lishiga qaramasdan qo‘zi, buzoq, echki terisidan, aniqrog‘i, I asrdan boshlab keng foydalanishgan. Arab qo‘lyozmalarining deyarli hammasida pergamentdan foydalanilgan, ularning har birida bitta yoki bir nechta varaqlar ishlatilgan. VIII asrdan boshlab O‘rta Osiyoda qog‘oz tayyorlanadigan asosiy markazlar Samarqand, Buxoro va Qo‘qon edi. Yozuv qog‘ozi bir nech navlarda ishlab chiqarilgan bo‘lib, eng ko‘p tarqalgani “qog‘ozi nimkatoni”dir. Qog‘oz tayyorlashda xomashyo sifatida kanopdan foydalanilgan bo‘lib, qog‘oz ishlab chiqarish jarayoni qiyin va ko‘p vaqtni, kuchni talab qiladigan kasblardan biri bo‘lgan.

Ekspozitsiya maydonida 250m² tashkil etib, unda 41 ta asosiy fond eksponati qo‘yilgan edi. 2000-yil masjid ichida qisman ta‘mirlash ishlari amalga oshirildi va yoritish sistemalari almashtirildi hamda vitrinalar baxmal bilan qoplandi.

Arxeologiya bo‘limining tashkil qilinishibevosita vohadagi qazishma ishlari bilan bog‘liq bo‘lib, 2003-yilda Madaniyat vazirligi va O‘zbekiston FA Arxeologiya institutining qo‘llab-quvvatlashi tufayli tarix bo‘limi va arxeologiya fondi hisobidan alohida bo‘lim sifatida tashkil topdi. Bo‘limning umumiy maydoni 197,7 m², ekspozitsiya maydoni esa – 113,9 m² dan iborat bo‘lib, 2003-yilning 26-sentabrida Arkdagi Qo‘shbegi hovlisida ochildi. Buxoro vohasini arxeologik o‘rganishi amirlik davrida Rossiya protektorati o‘rnatilgandan so‘ng rus tadqiqotchi olimlari tomonidan boshlangan edi. Vohadagi dastlabki arxeologik izlanishlar 1913-1914-yillarda Turkiston havaskor arxeologlar to‘garagi a‘zosi, sharqshunos L.A.Zimin tomonidan Poykentda o‘tkaziladi.

Navbatdagi tadqiqotlar 1934- va 1939-1940-yillarda Davlat Ermitajining Zarafshon ekspeditsiyasi bilan Uzkomstaris hamkorligida, professor A.Yu.Yakubovskiy rahbarligida davom ettirilgan. Ekspeditsiya Poykentda qazuv ishlarini amalga oshirdi. Keyingi yillarda vohadagi arxeologik yodgorliklarni taniqli tadqiqotchi V.A.Shishkin o‘rgandi. Uning rahbarligida ekspeditsiya 1937-

,1939- va 1947-1954-yillarda Buxoro vohasining gʻarbiy qismidagi yodgorliklarni, xususan, Varaxshadagi Buxorxudotlar saroyini izchil oʻrgandi. Natijada VII asrlarga oid mahobatli obidalarni, rangli devoriy suratlarni va ganchkorlik namunalarini aniqladi.

Buxoro arxeologiyasining oʻrganilishiga munosib hissa qoʻshgan tadqiqotchilardan yana biri Ya.Gʻ.Gʻulomovdir. U 1950-yillarda vohaning janubi-gʻarbiy qismida Zarafshonning qurib qolgan irmoqlari havzasidagi Zamonbobo koʻli atrofida bronza davriga oid qabristonni ochib oʻrgandi.

Keyinchalik bu ishlar taniqli olimning shogirdlari Oʻ.I.Islomov va A.Asqarov tomonidan davom ettiriladi. Natijada vohaning neolit, eneolit va bronza davrining Andronovo madaniyatiga oid yodgorliklari aniqlangan. Aynan shu yillarda O.V.Obelchenko tomonidan Buxoro vohasining sharqiy va shimoli-sharqiy sarhadlaridagi mozorqoʻrgʻonlarda oʻtkazilgan tadqiqotlarda voha moddiy madaniyatida koʻchmanchi chorvadorlar madaniyatining oʻziga xos ulushi borligi aniqlandi.

1970-yillarda asosiy arxeologik tadqiqotlar Buxoro shahri tarixini oʻrganishga qaratildi. Natijada, I.Ahrorov va A.R.Muhammadjonov rahbarligida sermashaqqat izlanishlar oʻz samarasini berdi, shahar yoshi va uning boy tarixiy madaniyati aniqlandi.

1981-yildan boshlab asosiy arxeologik tadqiqotlar vohaning ikkinchi urbanistik markazi Poykentga koʻchirildi. Bu erda OʻzR FA Arxeologiya instituti bilan (rahbarlari-A.R.Muhammadjonov, J.K.Mirzaahmedov) Rossiya Davlat ermitaji (rahbari G.L.Semyonov) hamkorligida qazuv ishlari boshlandi. Poykent Arkida otashparastlar ibodatxonasi, shahristonda aholi turar joy mahallalari, rabod hududida karvonsaroy va kulollar guzarlari ochib oʻrganildi.

XX asrning 90-yillaridan boshlab Buxoroning qadimgi madaniyatini oʻrganish xalqaro darajaga koʻtarildi. Varaxsha massivi hududidagi Uchquloch qalʼaqoʻrgʻonini oʻrganish Rim Universiteti (prof. Kyara Silvi Antonini) olimlari bilan hamkorlikda oʻtkazilmoqda. Natijada qalʼa qoʻgʻonning mudofaa inshootlari, moddiy-madaniyati izchil oʻrganilmoqda.

O'rganishlar natijasida to'plangan tarixiy ashyolarning aksariyati muzey ko'rgazmalaridan o'rin olgan. Xususan, Arxeologiya ko'rgazmasining alohida xonasida Poykand shahrining o'rganilishiga atab tayyorlangan ko'rgazma mavjud.

Bundan tashqari xalqaro hamkorlik dasturi Fransiya bilan ham mavjud bo'lib, O'zbekiston – Fransiya arxeologik ekspeditsiyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti, O'zbekiston madaniyati va san'ati Forumi jamg'armasi va Fransiyaning Luvr muzeyi (Fransiya Ilmiy tadqiqotlar milliy Markazi) hamkorligida 2009-yilda tashkil etilgan.

Ekspeditsiya tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlari Buxoro vohasidagi qadimiy va o'rta asrlarga oid manzillar xususiyatlarini o'rganishdan iborat. Tadqiqotlar aholi manzillarini arxeologik qazishmalar vositasida o'rganish, ularning moddiy madaniyatini, aholi manzillarining geomorfologiyasini⁵⁶, demografiyasini tadqiq etish asosida GIS (geografik axborotlar tizimi)ni yartishga qaratilgan. Bu tizimdan foydalanish arxeologik tadqiqotlar natijalarini jamlash va vohaning arxeologik xaritasini yaratishga imkon yaratdi.

Ekspeditsiya arxeologik qazishmalari vohaning yirik shahar xarobalari bo'lmish Poykend va Romitan yodgorliklarida olib borilmoqda. Poykentdagi tadqiqotlar 2009-yilda, Romitondagi tadqiqotlar esa 2012-yildan boshlangan.

Numizmatika va epigrafika bo'limning ekspozitsiyasi 1986-yil Arkdagi Salomxonahovlisida ochilgan. Numizmatika bo'limida xronologik jihatdan ikki ming yildan ortiqroq davrga tegishli bo'lgan tangalar saqlanmoqda. Numizmatika bo'limida miloddan avvalgi III-II asrlarga oid yunon-baqtriya tangalari, milodiy I-III asrlarga tegishli kushonlar tangalari, sasoniyalar tangalari (V asr), VII-VIII asrlarga oid buxorxudotlar, IX-X asrlarga oid somoniylar, XII asr qoraxoniylar, XIV-XV asr temuriylar, XVI asrga oid shayboniylar va undan keyingi sulolalarga tegishli tangalar saqlanmoqda. Bu tangalar O'rta Osiyo hududidagi o'sha davr pul muomalasini yoritib beradi. O'tgan davr davlatlarining siyosiy tuzilishi hamda odamlarning qiyofalari, soch turmaklari, kiyimlari, qurol-yarog'lari haqida

⁵⁶Geomorfologiya (geo..., yunoncha "morphe" shakl va ...logiya)- er yuzasining relyefi haqidagi fan. Geomorfologiya quruqlik hamda okean va dengizlar tubining tashqi qiyofasini, kelib chiqishini yoki tarixiy taraqqyoti, hozirgi dinamikasi va tarqalish qonuniyatlarini o'rganadi.

ma'lumot beradi. Tangalar o'sha davrda mavjud bo'lgan zarbxonalar, jihozxonalarning texnik saviyasi va tangalarni zarb qilishda mavjud bo'lgan shart-sharoitlar haqida ma'lumot beradi. Bo'limning ikkinchi qismi esa, ya'ni epigrafika mavzusi XIV-XX asr boshalaridagi tarixiy jarayonlarni qamrab oladi.

Ekspozitsiyada XIV asrga oid mis qozon namoyish qo'yilgan. Bu qozonda o'yilgan yozuvlar olimlar tomonidan o'rganilib uning kimga tegishli ekanligi va yasalgan yili aniqlandi. Hozirda epigrafika va numizmatika ko'rgazmasi namoyish etilayotgan ushbu zal aslida Rahimxon mehmonxonasi bo'lib, XVIII asr o'rtalarida bu xonada oltin va kumush tanga aylanalariga zarb tushirilgan.

Hozirgi zamon tarixi va etnografiya bo'limi – 3ta xonadan iborat. Ayni paytda Buxoro amirlarining Qo'shbegi va Otxona hovllilarida ham ekspozitsiyalar tashkil etilgan. Doimiy va davriy ekspozitsiyaning maqsadi barcha eksponatlarni ularning badiiy va ilmiy qiymati, tarixiy badiiy jarayondagi o'rni, materiallarning ahamiyatini mukammal yoritib berishdir. Ekspozitsiya erkin yoki tomoshabinlarning tanishish yo'nalishlarini hisobga olgan holda tuziladi. Zamonaviy sharoitda ekspozitsiya eksponatlarni saqlash qoidalariga javob beradigan maxsus uskunalar, eksponatning qisqacha xarakteristikasi hamda ekspozitsiya xususiyatlari, asarlari bayon qilingan ixcham matnlar bilan ta'minlanadi.

Biz yuqorida keltirib o'tgan ma'lumotlarni umumlashtiradigan bo'lsak, bugungi kunda Buxoro Ark muzey qo'riqxonasida quyidagi ko'rgazma zallari hamyurtlarimiz va shahrimiz mehmonlariga namoyish etilmoqda:

Buxoro xonligi-amirligi tarixi (qadim davrdan – 1920-yilgacha) – bu ko'rgazma salomxona hovlisining quyi va yuqori xonalarini egallagan va 2 xonaga ajratilgan. Quyi zalda “Buxoro vohasining qadimgi va o'rta asrlar tarixi” namoyish etilsa, yuqori zallarda esa “Buxoro xonligi-amirligining tarixi” ko'rgazmasi namoyish etilmoqda;

Tangashunoslik va epigrafika – bu ko'rgazma salomxona hovlisining yuqori qismi – Rahimxon mehmonxonasida joylashgan bo'lib, yagona ko'rgazma zalidan iborat;

Buxoroning yozma yodgorliklari – ushbu ko‘rgazma Ark qo‘rg‘oni ichidagi masjidida joylashgan va uning eksponatlari XVII-XX asr boshlariga tegishli;

Buxoro madaniyatining qayta tiklangan durdonalari-ko‘rgazmadagi eksponatlar “Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi jamlanmalaridagi arxeologik artefaktlarni asrash” grant loyihasi doirasida madaniy merosni saqlash bo‘yicha AQSH elchisining jamg‘armasi moliyaviy ko‘magida hamda AQSHning O‘zbekistondagi elchixonasi ko‘magida ta‘mirlangan;

XIX asr oxiri - XX asr boshlari Buxoro harbiy va ot anjomlari-mazkur ko‘rgazma zali taxtxona yoki marosim zalining ro‘parasida joylashgan sayisxona hovlisida joylashgan;

Buxoroning arxeologik o‘rganilishi tarixi ko‘rgazmasi qo‘shbegi hovlisi tapchan qismida 4 ta xonada namoyish etilmoqda;

XIX asr oxiri - XX asr boshi Buxoro uy-ro‘zg‘or va etnografiya buyumlari-mazkur ko‘rgazma qo‘shbegi saroyi ichki hovlisidan o‘rin olgan;

Buxoro vohasi tabiati – ushbu ko‘rgazma qo‘shbegi hovlisining quyi qismida joylashgan bo‘lib 5 ta xonadan iborat.

Demak, tarixiy hududda tashkil etilgan ushbu muzeyning ahamiyati va qamrovi respublikamiz va qo‘shni davlatlar muzeylari orasida takrorlanmas namuna desak adashmaymiz.

6.2. Sitorai Mohi Xosa saroyining muzeyga aylantirilishi va yangi ekspozitsiyalarining tashkil qilinishi. Buxoro o‘lkashunoslik muzeyi 1922-yilda tuzilgan bo‘lsa, uning o‘lkadagi filiallarini tuzish ishlari ham orqada qolmadi. Bu sohadagi ishlar 1927-yildan boshlandi.

Amirning yozgi qarorgohi Sitorai Mohi Xosa 1931-yilda Buxoro muzeyining filialiga aylantiriladi. Sitorai Mohi Xosa muzeylar ro‘yxatida 2066 raqam ostida qayd qilingan. Aslida bu ishlar ancha oldinroq boshlangan edi. U yerda “Keyingi amirlarning turmushi tarzi” mavzusida yangi ko‘rgazma tashkil qilingan⁵⁷ va u uchta bo‘limdan iborat bo‘lgan. Birinchi bo‘lim “Shahar

⁵⁷ Ўз МА 94-фонд, 5-рўйхат, 735-иш, 6-варақ.

hunarmandlari”, ikkinchi bo‘lim “Buxoro inqilobi tarixi” va uchinchi bo‘lim “Amirning turmush tarzi” deb nomlangan⁵⁸. Ko‘rgazmada misgarlik, zardo‘zlik va boshqa amaliy san‘atashyolari namoyish etiladi. Q.Jumayevning fikricha, Sitorai Mohi Xosa muzeyi 1927-yilda ochilgan va u erda uch qismdan iborat ekspozitsiya tashkil qilingan. Mazkur muzey ochilishining tashkilotchilaridan biri, birinchi o‘zbek muzeyshunos va o‘lkashunos olimi Muso Saidjonov edi deb qayd qiladi⁵⁹.

1933-yilda Buxoro muzeyi tumanlararo o‘lkashunoslik muzeyi maqomi beriladi va uning ekspozitsiyasi yangilanadi. Sitorai Mohi Xosa filialining ko‘rgazmasi ham qayta tashkil etiladi. Ushbu ko‘rgazma 1947-yilgacha namoyish qilinadi.

30-yillarning boshida muzeyni ilmiy tashkil etish va me‘moriy yodgorliklarini tadqiq etish maqsadida O‘rta Osiyo davlat universiteti huzuridagi Sharq tillari instituti bitiruvchisi P.A.Goncharova va san‘atshunos L.I.Rempel Buxoroga kelib, etnografiya sohasida samarali ish olib bordilar. Ularning tavsiyasiga asosan, 1937-1938-yillarda Sitorai Mohi Xosa muzeyida XVIII-XIX asrlarga mansub 320 ta turli kattalikdagi idishlar “Xitoy chinnisi” ekspozitsiyasi namoyish etiladi⁶⁰.

Viloyat xalq ta‘limining 1941-yil 8-fevraldagi №29 buyrug‘ida Sitorai Mohi Xosa muzey filialining faoliyatini jonlantirish va mustahkamlash, qo‘shimcha xodimlar uchun o‘rin ajratish kerakligi qayd qilinadi.

Sitorai Mohi Xosadagi ekspozitsiyada Buxoro amirining roli bo‘rttirib ko‘rsatilgani va amirlik davri targ‘ib qilingani bahonasida 1947-yil muzeyning filiali yopib qo‘yiladi. 1-noyabrdan Sitorai Mohi Xosada nazorat kuchaytirilib, tekshirish ishlari boshlandi. Bu voqealardan so‘ng, tematik-ekspozitsion rejalar yuqorida turuvchi tashkilot tomonidan tasdiqlangandan keyingina ekspozitsiya ochish mumkin bo‘ladi⁶¹.

⁵⁸ Садыкова Н.С. Музейное дело в Узбекистане. –Ташкент: Фан, 1975. – С.92.

⁵⁹Жумаев Қ. Ситораи Моҳи Хоса халқ амалий санъати музейи //Мозийдан садо.– Тошкент: 2003.- №1.-Б.25

⁶⁰ Жумаев Қ. Ситораи Моҳи Хоса. –Тошкент: Фан, 2005. –Б.36.

⁶¹ Альмеев Р.В. Бухара город-музей. –Ташкент: Фан, 1999. –С.22.

Davr talabi va jamiyat taraqqiyoti muzeylar ekspozitsiyasining mazmunini tubdan o'zgartirishni taqazo etdi. 1948-1950-yillarga kelib, Sitorai Mohi Xosa muzeyining ko'rgazmasi batamom yangilandi va "Xalq ijodi va Buxoro san'ati" deb yuritila boshlandi. Bu ekspozitsiya: "Buxoro monumental san'ati", "Amaliy san'at", "Xalq musiqa san'ati", "Kalligrafiya va miniatura san'ati" va "Buxoroning qardosh qo'shni davlatlar bilan madaniy aloqalari" kabi bo'limlardan iborat edi⁶².

1950-yilda o'lkashunoslik muzeyi rahbariyatining taklifi bilan yetakchi mutaxassis, olim O.A.Suxareva Buxoroga keladi va muzey ekspozitsiyalariga yuqori baho beradi. Sitorai Mohi Xosa saroyining hashamatli bezatilgan zallariga yuksak did bilan eksponatlar joylashtirilgan edi.

1954-yilda Sitorai Mohi Xosa saroyida sho'ro hukumati qarori bilan kasaba uyushmalar tasarrufidagi dam olish uyining ochilishi muzeyning butunlay tugatish xavfini kuchaytirdi. Uzoqni ko'ra olmaydigan, tuban ma'naviyatli sobiq sho'ro xodimlarining savodsizlarcha ish yuritishi O'rta Osiyoda yagona saroy majmuasi bebaho osori-atiqalarining izsiz yo'qolishiga sabab bo'ldi.

Bu ishlarga javoban 1956-yil 9-mayda Buxoro o'lkashunoslik muzeyi direktor Muhsin Yoqubov O'zbekiston Kompartiya Markaziy qo'mitasi kotibi R.Melnikovga shikoyat maktubini jo'natadi. Sitorai Mohi Xosa filiali direktori K.Em O'zbekiston Madaniyat vaziri A.Qo'chqorov nomiga shikoyat xati yo'llaydi. Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida katta qiyinchiliklar bilan Sitorai Mohi Xosa saroy majmuasi asosiy binosining to'qqizta zalida "Xalq ijodi muzeyi" saqlab qolindi. Ammo saroydagi yodgorlik binolari, ayvonlar yiqitilib talon-toroj qilinadi.

Q.Jumayev ma'lumotiga ko'ra, XX asr 50-yillarida bebaho madaniy merosimiz mafkuralashtirilib, Sitorai Mohi Xosa saroyi va uning atrofidagi chorbog'ga tiklab bo'lmas darajada shikast yetkazildi, ko'pgina nodir ashyolar talon-toroj qilindi, bog'dagi noyob daraxtlar, o'simliklar va hayvonlar yo'q qilib tashlandi⁶³.

⁶²Жумаев Қ. Ситорай Моҳи Хоса халқ амалий санъати музейи //Мозийдан садо. – Тошкент: 2003. –№1. – Б.26.

⁶³Жумаев Қ. Ситорай Моҳи Хоса. –Тошкент: Фан, 2005. –Б.35.

1968-yilda Sitorai Mohi Xosada “Xalq ijodiyoti” nomli ekspozitsiya tashkil etiladi. 1975-yil muzeyda “Buxoro xalq amaliy bezak san`ati muzeyi” tashkil qilinadi. Unda sakkizta bo‘lim mavjud bo‘lib, ular kulolchilik, badiiy kashtachilik, zargarlik, zardo‘zlik, kandakorlik, chitgarlik, yog‘och o‘ymakorligi, Xitoy va Yaponiya chinni buyumlari bo‘limiga bo‘linar edi.

1978-yil Sitorai Mohi Xosaning amaliy san`atbo‘limida yangi ekspozitsiya tashkil etiladi.

Sitorai Mohi Xosa⁶⁴ muzeyi Ministrlar sovetining 1983-yil 16-maydagi 308-sonli qaroriga asosan Buxoro davlat badiiy – me‘morchilik muzey – qo‘riqxonasi tarkibiga kiritiladi.

1987-yil Sitorai Mohi Xosaning yaqinda ta‘mirlangan mehmonxona binosi “Xonai hisht”da “XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Buxoro shahri aholisining milliy kiyimlari” deb nomlangan yangi ekspozitsiya tashkil etiladi. Ekspozitsiyaga erkaklar, ayollar va bolalarning o‘tgan asrda tayyorlangan kiyimlari qo‘yilgan bo‘lib, ular mahalliy matolardan, gazlamalardan tikilgan. Ko‘rgazmada 120 dan ortiq eksponatlar namoyish etiladi⁶⁵.

1991-yil Buxoro viloyati hokimi Damir Yodgorovning qarori bilan saroyning bog‘i va sanatoriya ixtiyorida bo‘lgan bir qism binolari qaytarib berildi. Saroy bog‘ida qurilishi boshlanayotgan sanatoriya tarkibidagi 180 o‘ringa mo‘ljallangan oilaviy pansionat barpo etish to‘xtatildi. Shuningdek, sanatoriya ixtiyoriga berilgan “Xonai Hisht” ham muzeyga qaytarildi⁶⁶.

1992-yilda Dekorativ – xalq amaliy san`ati, saroy pavilyonida “XIX – XX asr boshlarida buxorolik shaharliklar milliy kiyimi”, saroy yotoqxonasining birinchi qavatida “XIX – XX asr boshida badiiy kashtachiligi va uy-ro‘zg‘or buyumlari”, 1993-yil 6-noyabrda yotoqxona ikkinchi qavatida “Saroy mebellari” ko‘rgazmasi ochilgan.

⁶⁴ Hozirgi kunda "Sitorai Mohi-Xosa" - xalq amaliy bezak san`ati muzeyi nomi ostida faoliyat olib bormoqda.

⁶⁵ Жумаев Қ. Музейнинг янги кўргазмаси //Бухоро ҳақиқати. 1987, 17 ноябр.; Шу мауаллиф. Дурдоналар хазинаси// Бухоро ҳақиқати. 1986, 17 май.

⁶⁶Жумаев Қ, Ситорай Моҳи Хосса. –Бухоро: Бухоро, 2010. –Б.48.

6.3. Amirlik qamoqxonasi, zindoning muzeyga aylantirilishi va uning ekspozitsiyasi. “Zindon”-fors tilidan olingan bo‘lib, jinoyatchilar saqlanadigan joy, ya’ni “Qamoqxona” degan ma’noni anglatadi. Buxoro Zindoni XVIII asrda, Ark qo‘rg‘oni yaqinida, Shahristonning shimoliy-g‘arbiy tomonida joylashgan tepalikda qurilgan. Bu qamoqxona ko‘pi bilan 100 kishiga (maxbusga) mo‘ljallangan. Qamoqxona XX asrning 20-yillarigacha, ya’ni inqilob davrigacha faoliyat ko‘rsatib kelgan.

Zindon eshigi juda mustahkam qurilgan bo‘lib, XVIII asrda gujum, ya’ni qayrag‘och daraxtidan, ostonasi esa atayin tut daraxtidan, (tut daraxti suvda chidamliligi tufayli) yasalgan va temir zanjir va qulflar o‘rnatilgan. Kiraverishda o‘ng va chap tomonda qorovul-askarlar bilan qo‘riqlangan.

Qamoqxona 4 xonadan iborat bo‘lib, har bir xonaning o‘z nomi bo‘lgan. Kirganda o‘ng tomonda 1-xona “Uchrashuv” xonasi joylashgan. Bu xonada mahbuslar qo‘riqchilar nazoratida, o‘z yaqinlari bilan uchrashgan va mahbuslarning yaqinlari ularga kiyim-kechak, oziq-ovqat keltirib berishgan.

O‘ng tomondagi 2-xona ikki gumbazli, ikkita ichma-ich xonadan iborat bo‘lib, uning ichki qismida tahoratxona-hojatxona joylashgan bo‘lgan. Xona eshiklarida temir panjaralar o‘rnatilgan bo‘lib, “Qarzdorlar” xonasi deb nom olgan. Chunki bu xonada asosan poraxo‘rlar, tovlamachilar, jazo muddatini o‘tashgan.

3-xona ham “Qarzdorlar” xonasi deb nom olgan bo‘lib, bu xonada davlat solig‘ini to‘lab bilmaganlar, asosan, hunarmandlar jazo muddatini o‘tagan. Bu xonadagi mahbuslarga hunarmandchilik bilan shug‘ullanish uchun ruxsat berilgan. Shuning uchun hunari bor mahbuslar o‘zlarining hunarlari bilan shug‘ullanishgan. Hunari yo‘q jinoyatchilar esa mardikorlik yo‘li bilan qarzlarni uzishgan. Bu mahbuslarni ba’zan mardikorlik qilish uchun qorovul boshchiligida Zindondan olib chiqilgan. Bu xonaning eshiklarida ham temir panjaralar o‘rnatilgan bo‘lib, faqat 2 ta pastdagisi ochilgan va bu xonaga kirish-chiqish qiyin bo‘lgan. Lekin hozirgi kunda bu panjaralar olib tashlangan. Shu xonaning ichkarisida tahoratxona-hojatxona ham joylashgan.

Hozirgi kunda bu xonada muzey-ekspozitsiyasi joylashgan. Shu xonaning chap tomondagi 1-panoda Buxorolik ma'rifatparvar Sadridin Ayniy o'zi haqida yozilgan kitobdan bir parchasi namoyish etilgan. Yozuvchi o'sha davrda podshoga qarshi maqola yozganligi va 1917-yil aprel namoyishida qatnashganligi hibsga olinib, 75 darra bilan jazolangan va terisi shilib tushgan. Og'ir ahvolda uni Kogon vokzali yonidagi kasalxonaga olib borib, orqasini 25 marotaba operatsiya qilishadi. Keyinchalik Ayniy Samarqandga borib o'z ilmiy faoliyatini davom ettirgan.

Chap tomondagi devorda, 1-suratda Tojikistonda joylashgan Baljuvon qishlog'i ko'rsatilgan. O'sha yillarda bu viloyat Buxoro amirligiga qarashli bo'lgan (sharqiy Buxoro deb atashgan) va eng yirik qo'zg'olonlardan biri, Baljuvon bekligida, 1885-yilda Vose qo'zg'oloni bo'lib o'tgan. Yaxshi tayyorgarlik ko'rmagan dehqonlar armiyasi mag'lubiyatga uchraydi va qo'zg'olonchilarning barchasini, jumladan, Vosening o'zini ham qatl etiladi.

2-3-suratlarda esa rus fotografi Prokudin-Gorskiy tomonidan olingan mahbuslar suratlari aks ettiriladi (1863-1944-yillar).

O'ng tomondagi 1-rasm ham yog'-bo'yoqda ishlangan bo'lib, taniqli usta naqqosh, Usto Shirin Murodovning portreti osilgan. Usta Shirin Murodov ham amirlik davrida g'ayri din deb zindonga tashlanadi va keyinchalik ozod etiladi.

O'ng tomondagi oxirgi panoda 2ta jinoyatchilarning rasmi ko'rsatilgan. Bular-Saidov Rustam namoz o'qimaganligi uchun orqasida 27 darra qamchin bilan savalashgan va Soliev Sharif 1917-yili Ark oldidagi namoyishga qatnashganligi tufayli zindonga tashlangan. Shuningdek, shu panoda Qozi Burxoniddin muhri (1882-yil) va Muzaffarxonmuhrlari (1861-1885-yillar) ham ko'rsatiladi.

Kiraverishda o'ng qo'lda XIX asr oxiri XX asr boshlari Buxoroda Sud jarayoni tasvirlangan rasm osilganligini ko'rish mumkin. Bu rasm 1980 -yilda rassom Muhammadiev tomonidan yog'-bo'yoqda ishlangan.

3-xonaning ro'parasidagi hovlida XX asrning boshlariga qadar kichik ayvoncha bo'lib, uning ostida Zindon boshlig'i "Mirg'azab" o'tirgan va nazorat ishlarini olib borgan.

4-xona “O‘lim xonasi” bo‘lib, ikkinchi nomi “Kanaxona” deb ham aytilgan. Bu yerda o‘ta xavfli jinoyatchilar, ya’ni odam o‘ldirganlar, amir siyosatiga qarshi chiqqanlar, qisqacha qilib aytganda, o‘limga mahkum qilingan mahbuslar jazo muddatini o‘tashgan. Bu xonaga kirib borishda avval qorovullar o‘tiradigan xona va ichkarida 20 kishiga mo‘ljallangan choh, ya’ni quduq shaklida kovlangan chuqurlik bo‘lib, uning chuqurligi 6,5 metrni va kengligi 5 metrni, devor qalinligi ham 5 metrni tashkil etadi. Aslida bu chohning chuqurligi 11,5 metrni tashkil etgan. Bu choh ichiga arqon yordamida kirib chiqiladi. Hatto mahbuslarga ovqat ham arqon yordamida berilgan. Bu chuqurlikning usti gumbaz bo‘lib, gumbazni o‘rtasi ochiq bo‘lgan va yorug‘lik faqat tepadan tushgan. Mahbuslarga kuniga 1 marta ovqat berilgan va 2 oyga bir marta tashqariga olib chiqib, hovlini aylantirilgan.

1838 -yilda amir Nasrulloxon buyrug‘iga ko‘ra kapitan Artur Konolli va podpolkovnik Charls Stoddart degan Buyuk Britaniyalik josuslar shu “Kanaxona”ga tashlanadi va 1842-yilda Registon maydonida qatl qilinadi.

Hozirgi paytda qorovullar o‘tiradigan xonada muzey ekspozitsiyasi joylashgan. Bu xonada bir nechta rasmlarni ko‘rishimiz mumkin.

Masalan: Chap tomondagi 1-rasmda eski zindoning surati aks etgan va pastki ko‘rgazmada, XVI-XVIII asrga mansub arxeologik sopol buyumlar qo‘yilgan.

2-rasmda zindon oldida mahbuslar bilan uchrashuvni kutib o‘tirganlar tasvirlanadi va pastki ko‘rgazmada 1621-yilda Abu Ali al-Marg‘iloniyning “Hidoya-i-Sharif” qo‘lyozmasini ko‘rishimiz mumkin. Bu qulyozma huquqqa oid kitob bo‘lib, unda asosan oila kodeksi haqidagi ma’lumotlar aks etadi.

3-rasmda zindondagi askarlar harbiy libosi va qurollari bilan tasvirlanadi. Pastida Hindistonda, Laknaidada chop etilgan, huquqqa asoslangan kitob qo‘yilgan. O‘sha paytlarda Hindistonda kitob chop etish avj olgandi.

4-rasm-Panorama, ya’ni ko‘rinish deb aytiladi. Bu yerda asosan eski zindon atrofidagi uylar, ko‘chalar va ark qo‘rg‘onining orqa qismi tasvirlangan.

Shu xonaning peshtoqida esa qozikalonning liboslari, ya'ni yaktagi va sallasi eksponat shaklida qo'yilgan. Yaktak-fors tilidan olingan bo'lib, bir qavatli taglik degan ma'noni bildiradi. Salla musulmonlarning bosh kiyimi hisoblanib, 7 metrda 21 metrgacha bo'lgan. Oxirgi o'ng tomondagi rasmda qozikalonlar rasmi qo'yilgan va pastgi ko'rgazmada qozilarning qog'oz-hujjatlarda urilgan muhrlari ko'rsatilgan.

Zindon hovlisining orqa qismida bir qabr joylashgan. Hikoya qilishlaricha, Zindonda 40 yillik umrini bag'ishlagan, ya'ni jazo muddatini o'tagan, Qo'chqor ota qabri joylashgan. U odamni Zindonning piri deb ham atashgan.

6.4. Fayzulla Xo'jayev uyining muzeyga aylantirilishi va unda tashkil qilingan ekspozitsiya. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro aholi turar joylari orasidagi eng ko'zga ko'ringan hovlilardan biri bu yirik amaldor va savdogar Fayzulla Xo'jayev uyi hisoblanadi. XX asr boshlarida Buxoro amirlikning poytaxti hisoblangan. Bu yerda uylar shahar sharoitidan kelib chiqqan holda, kichikroq qilib, ko'cha shakliga mos ravishda qurilgan. Shuning uchun ham Buxorodagi uylar 2-3 qavatli bo'lgan. Uylarning “berun” deyilgan tashqari qism, “durun” deyilgan ichkari qismi va yordamchi binolardan iborat bo'lgan. Buxoro turar joylari “tobiston” – shimolga qaragan yozgi xonalar, “zimiston” – janub yoki g'arbga qaragan qishki xonalarga bo'lingan. Har bir xonalar majmui eshiklar orqali markaziy xonaga birlashgan. Baland shiftli yozgi xona mehmonlar uchun mo'ljallangan. Bino ichki devorlarini somonli loy va ganch bilan silliqlab suvab uning ustidan oq naqshlar bilan pardozi berilgan.

Fayzulla Xo'jayev uyi XIX asr oxirida (Uy 1891-yilda qurilgan, hovlining umumiy maydoni 1880 kv.m. bo'lib, 557 kv. metrda uy qurilgan. Hovli uch qismdan iborat: Ayollar-hovli durun, erkaklar-hovli berun va xo'jalik hovlisiga bo'lingan. Hozirgi muzey ko'rgazmasi erkaklar va ayollar hovlisida tashkil topgan) qadimiy G'oziyon ko'chasida barpo etilgan⁶⁷. Bu uy aslida Fayzulla Xo'jayev otasi Ubaydulla Xo'jayevga tegishli bo'lgan. Hovli 3 qismga bo'lingan bo'lib, uy 2

⁶⁷Пулатова М. Некоторые сведения из истории дома-музея Ф.Ходжаевы. Сборник. Из истории культурного наследия Бухары. Вып. 9. Бухара.2004. – С.14.

qismdan iborat: bular-tashqi (erkaklar uchun) va ichki (ayollar uchun). Bundan tashqari uy yozgi va qishki xonalarga ham bo'lingan. Toshidan qurilgan keng zinapoyalar orqali ichkari hovliga kirish mumkin. Xonalar tagida katta yerto'lalar mavjud. Har bir xonaga dahliz orqali kiriladi va har bir xonada yana kichkina xona mavjud bo'lib, bu uycha "madon" deb ataladi. Madon cho'milish va kiyim almashtirish uchun foydalanilgan. Uyning ayvoni, mehmonxonalari va alohida xonalarining o'zbek amaliy san'atturlari, ya'ni yog'och o'ymakorligi, ganch o'ymakorligi, naqqoshlik bilan bezatilganligi diqqatga sazovordir. Har bir uyning naqshi qunt va mahorat bilan ishlangan, xonalarning naqshi boshqasinikiga o'xshamasligi bilan ajralib turadi.

1925-yilda Fayzulla Xo'jayev oilasi Samarqandga ko'chib ketishadi va bu uy davlat hisobiga topshiriladi. Uy 1980-yilgacha maktab, o'quvchilar uchun kurslar, ped uchilish, arxiv, poliklinika, bolalar musiqa maktabi bo'lgan. Uy bir necha marta qayta ta'mirlangan va ta'mirlash natijasida uyning naqshlari yo'qolgan. Binoda 1989-yil muzey xodimlari restavratsiya ishlarini boshlaydi va 1991-yildan uy-muzey o'z faoliyatini boshladi. Fayzulla Xo'jayev uyining ayollar va erkaklar hovlisidagi ayvon shimolga qaragan. Xonalar oldida ikki qavatga teng ayvon ko'tarilgan. Bu ayvon 33 bolordan iborat bo'lib, uning o'lchami 100 kv.metr. Ayvonnin to'rt ustun ko'tarib turibdi. Ustunlar yog'och o'ymakorligi naqshlari bilan bezatilgan. Xonalar shunday holatda qurilganki, qishda sovuqdan, yozda issiqdan saqlanadi. Hovlidagi xonalar ostida keng yerto'lalar mavjud bo'lib, ularda oilaga tegishli bo'lgan va savdo-sotiq uchun kerakli buyumlar saqlangan. Ma'lumotlarga qaraganda yerto'lada qorako'l terilari ham oshlangan.

1989-yil muzey xodimlari binoda restavratsiya ishlarini boshlaydi. Mahoratli usta-restavrator Sayfulla Zoirov rahabarligidagi 15 kishilik guruh ikki yil davomida binoda katta ta'mirlash ishlarini olib bordilar. 1991-yil Fayzulla Xo'jayev uy-muzeyda yangi ekspozitsiya tashkil etish uchun ish boshlanadi va ekspozitsiya "XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Buxorolik savdogarning uy-

muzeyi” nomi ostida tashkil etiladi⁶⁸. Ko‘rgazmadagi qishki uyda o‘sha paytdagi ayollar turmush tarzi aks etgan: XIX asrda ishlangan gilam, har xil buyumlar va sandali mavjud. Uzun qishning sovuq tunlarida ayollar sandali atrofida o‘tirishib, kitob mutolaa qilishgan va ko‘p vaqtlarini kashta tikish hamda mehmon kutish bilan o‘tkazishgan. Ekspozitsiyada uzoq o‘lkalardan keltirilgan buyumlar ham o‘rin olgan bo‘lib, Buxoroga temir yo‘lining kelishi Yevropadan keltirilgan buyumlar kira boshlashiga sabab bo‘lgan. Keltirilgan buyumlarning bir qismi fabrikada va bir qismi zavodlarda ishlab chiqarilgan. Bular Rossiya va Olmoniyada ishlab chikarilgan qandillar, lampa shishalar, katta yotoq(krovat), rus samovarlari, rumush qoshiqlar va pichoqlardir. Ashyolardan qo‘l soati, devor soatlari, grammofon plastinkalari Polsha, Fransiya va Shveysariyadan keltirilgan.

Asosiy katta va kichik tokchalarda xalq orasida o‘zining chiroyi bilan ajralib turgan Xitoy, Yaponiya, Rossiya va Olmoniya chinni buyumlari o‘rin olgan. Bular orasida guldon, choynak, kosa, piyolalar mavjud bo‘lib, ularda gullar, jonivorlar, odamlar, meva va sabzavotlar aks ettirilgan. Ko‘rgazmada ularning soni 120 tani tashkil etadi.

Ikkinchi xona markazida xontaxta va uning ustida shirinlik solingan buyumlar, pastida ko‘rpachaning bir chetida sandiq, musiqa asboblari, rus grammofon plastinkalari o‘rin olgan. Bular 1909-yilda ishlatilgan bo‘lib, Rossiyadan keltirgan. Stol ustida kitoblar joylashtirilgan bo‘lib, shu stolda 1920-1924-yillar Buxoro Xalq respublikasining raisi F.Xo‘jayev o‘zining maqolalari va kitoblarini yozgan.

Katta yozgi mehmonxona 50 kv.m.dan iborat bo‘lib, mehmonlar uchun ajratilgan. Ikkinchi yashash xonasi 40 kv.m. bo‘lib, bo‘yi 8 metr. Uyning Bog‘dod usulida yasalgan eshik va derazalar xonaga chiroy qo‘shib turibdi. Ekspozitsiya xonalarida XX asrning boshlarida hayot tarzi aks ettirilgan bo‘lib, birinchi chorakning o‘zida muzeyga 91 ta ekskursiya tashkil etiladi.

⁶⁸Пулатова М. Некоторые сведения из истории дома-музея Ф.Ходжаевы. Сборник. Из истории культурного наследия Бухары. Вып. 9. Бухара.2004. – С.14.

Hovlining burchagida chuqurligi 9 metrdan iborat quduq joylashgan bo‘lib, quduqdan suv ichish, hovliga suv sepish maqsadida foydalanishgan.

1996-yil 22-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Fayzulla Xo‘jayev tavalludining 100 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinadi. Buxoro viloyat hokimligida shu qaror asosida ishchi guruhi tuziladi va 1996 -yil muzeyda yangi ko‘rgazma tashkil etiladi. Muzeyga Fayzulla Xo‘jayev uy-muzeyi nomi beriladi⁶⁹.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda 975-son qaroriga binoan “2017-2027-yillarda qayta tashkil etiladigan davlat muzeylari” ro‘yxatida Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasining Fayzulla Xo‘jaev uy-muzeyi “Boy savdogar xonadoni uy muzeyi” nomi ostida qayta tashkil etish rejalashtirilgan.

Xulosa qilib aytganda, Ark muzey qo‘riqxonasi, Sitorai Mohi Xosa saroyi, Zindon muzeyi va Fayzulla Xo‘jayev uy-muzeylari XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi eng ko‘rkam ko‘rinishga ega bo‘lgan turar-joylardan biri hisoblanib, muzeylar o‘zining devorlaridagi bezaklari, ajoyib ko‘rinishdagi ranglar jilosi bilan e‘tiborni o‘ziga tortadi. Buxoro o‘lkasi tarixini va aholi turar joylari xususiyatlarini o‘rganishda bu muzeylarning roli katta. Muzeylardagi eksponatlar ham mintaqaviy, ham umummilliy ahamiyat kasb etib, mamlakatimiz tarixi va boy madaniy merosi hamda jahon miqyosidagi ahamiyatini ochib ko‘rsatib beruvchi dargoh desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu boy meroslarni asrab-avaylash, uni o‘rganish, ilm-fan va milliy madaniyat yutug‘i sifatida ko‘rsatish biz yosh avlodga ham qarz, ham farzdir.

Nazorat uchun savollar

1. Buxoro Arkida joylashgan Tarix bo‘limidagi ekspozitsiya haqida gapirib bering?
2. Sitorai Mohi Xosa saroyi qachondan boshlab muzey sifatida faoliyatini boshladi?
3. Numizmatika va epigrafika bo‘limidagi eksponatlar haqida fikr yuriting?
4. Fayzulla Xo‘jayev uy-muzeyi qachondan boshlab faoliyat yuritmoqda?

⁶⁹Халқ сўзи //1996 йил 23 феврал. Бухоро вилоят хокимининг 62-сон қарори. 1996 йил 20 март.

5. Kapitan Artur Konolli va podpolkovnik Charls Stoddart degan Buyuk Britaniyalik josuslar qayerda saqlangan?
6. Zindon so‘zining ma’nosi nima?
7. Tabiat bo‘limi qachon tuzilgan?

Test topshiriqlari

1. 1987-yil muzey fondiga ashyolar qanchaga etdi?
 - A. 10 ming
 - B. 70 mingga yaqin
 - S. 70 mingdan ko‘p
 - D. 100 ming
2. Buxoro davlat badiiy-me’morchilik muzey-qo‘riqxonasi tomonidan 1988-yil aprel oyida viloyatdagi qaysi tumanga ilmiy ekspeditsiya tashkil etildi?
 - A. Shofirkon
 - B. Romitan
 - S. Jondor
 - D. Buxoro
3. Buxoroda San’atmuzeyi qachon ochilgan?
 - A. 1982-yil
 - B. 1989-yil
 - S. 1987-yil
 - D. 1988-yil
4. F.Xo‘jayev uy –muzeyi qachon ochilgan?
 - A. 1982-yil
 - B. 1989-yil
 - S. 1987-yil
 - D. 1988-yil
5. 1998-yil 12-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qanday farmonni imzoladi?
 - A. “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida”gi

- B. “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilamaslik va takomillashtirish to‘g‘risida”gi
- S. “Arxiv faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida”gi
- D. “Rassomchilik ishini yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida”gi
6. Prezident Shavkat Mirziyoev 2017-yil 10-11-mart kunlari Buxoroga tashrifi chog‘ida Ark qo‘rg‘oni majmuasida viloyatning turizm salohiyatini yanada oshirish dasturi taqdimoti bilan tanishgan va muzey qurilishi uchun qancha mablag‘ ajratgan?
- A. 68,3 milliard
- B. 100 milliard
- S. 200 milliard
- D. 10 milliard
7. Arkda joylashgan Arxeologiya bo‘limi qachondan boshlab o‘z faoliyatini boshladi?
- A. 2003-yil
- B. 2005-yil
- S. 2010-yil
- D. 2019-yil
8. Numizmatika va epigrafika bo‘limning ekspozitsiyasi arkning qayerida joylashgan?
- A. Salomxonahovlisida
- B. Otxonahovlisida
- S. Marosimxonadi
- D. Jome masjidida
9. Zindon qaysi tilidan olingan?
- A. fors
- B. arab
- S. o‘zbek
- D. lotin
10. Aleksey Fayzullayevich Nurullaev kim bo‘lgan?
- A. *Kolleksioner-o‘lkashunos

B. Artist

S. Muzey xodimi

D. Tadbirkor

7-mavzu. Muzei fondini boyitishda kolleksionerlarning o'zini

Reja:

- 7.1. M.Y.Saidjonov va S.N.Yurenev kolleksiyalarining Buxoro muzeyiga topshirilishi.
- 7.2. Mustaqillik yillarida A.Nurullaev va H.Hamidovlarning o'z kolleksiyalarini muzeyga topshirilishi.

Tayanch so'z va iboralar: Kolleksionerlik, kolleksiya, kitob, kutubxona, la'li, lagan, yavlog'u, shamdon, manqal, tufdon, qozon, kapgir, qoshiq, choynak, oftoba, ko'za, sopol, qo'lyozma, tanga, pochta ochiq xatlari, marka, kundalik, ekspeditsiya, eksponat, ashyo, o'lkashunos.

7.1. M.Y.Saidjonov va S.N.Yurenev kolleksiyalarining Buxoro muzeyiga topshirilishi. Bizning o'lkamizda kolleksionerlik⁷⁰ va kolleksiya⁷¹ yig'ish ishlari XIX asrning 90-yillaridan keyin boshlandi. Bunga Turkistonda tuzilgan rus ilmiy jamiyatlari sabab bo'lib, ular huzuridagi o'lkashunoslik to'garaklari faoliyati sohani shakllanishiga olib keldi. O'lkamizdagi birinchi kolleksionerlar bu rus harbiy zobitlari bo'lib, ular Turkiston bosqini davrida qo'lga kiritilgan moddiy madaniyat yodgorliklarini kolleksiya sifatida to'plashgan.

O'lkada ilmiy jamiyatlar tuzilgandan keyin ko'plab rus olimlari bu hududni o'rganish uchun tashrif buyurdi. Rus tadqiqotchilari, kolleksionerlari va ilmiy to'garaklar ta'siri ostida o'lkada qadimiy ashyolarni yig'adigan mahalliy havaskor kolleksionerlar paydo bo'la boshladi.

XX asr boshlarida Buxoro mahalliy aholisining aksariyatida qo'lyozmalar kolleksiyasi mavjud edi. Sovet tuzumining dastlabki yillarida mahalliy aholidan ko'plab kitoblar tortib olingani bois mahalliy kolleksionerlar faoliyati ancha

⁷⁰ Kolleksioner deganda moddiy madaniyat, san'at, yozma yodgorliklar va hokazolarni to'plovchi, saqlovchi o'rganuvchi va tartibga soluvchi shaxs tushuniladi. Kolleksionerni o'ziga yoqqan buyum yoki ashyolarni o'rganish, bir-biri bilan solishtirish va har birida o'ziga xoslikni kashf etish, ularning yangi qirralarini ochish to'plovchiga zavq bag'ishlaydi, uni yangi topilmalar qidirishga undaydi.

⁷¹ Kolleksiya (lot. sollectio-to'plash, to'plam)-bir turdagi yoki umumiy mavzuda birlashtirilgan narsalar yoki san'at asarlari (jumladan, kitob, qo'lyozma, kartina, gravyura, chinni, marka, tanga va h.k.) to'plamidir.

susayadi. XX asrning ikkinchi yarmidan bu soha yana jonlandi va hozirgacha davom etmoqda.

Kitob kolleksiyasi bilan shug'ullangan shaxslardan biri Muso Saidjonov (1893-1937) bo'lib, umrining ko'p qismini BXSRS va O'zbekiston SSR hukumat boshqaruv tizimi sohalariga bag'ishladi (Buxoro Xalq Sovet Respublikasi oziq-ovqat noziri, iqtisodiyot nozirining muovini, Moliya noziri, Maorif noziri, Buxkomstaris raisi, Uzkomstaris raisi va hokazolar). Shunday bo'lishiga qaramay olim hech vaqt ilmiy tadqiqot ishidan to'xtamadi hamda o'zining kolleksiya (manbalar) to'plash ishlarini davom ettirdi. 1937-yil bir guruh jadid ziyolilari qatorida qatag'onga uchradi.

Sho'ro davridagi og'ir ahvol, yashash sharoitining qiyinligi sababli hali yerining ustidan hukm chiqarilmay Rizvonxon (Muso Saidjonov xotini) tirikchilik ilinjida bir xona to'la nodir kitoblarga xaridor izlashga majbur bo'ldi. Bundan xabar topgan va Muso Saidjonovni shaxsan tanigan Toshkent davlat universiteti tarix fakul'tetining dotsenti Po'lat Soliev Buxoroga kelib, uning kutubxonasida saqlanayotgan kitoblarni ko'zdan kechiradi. U Toshkentga qaytganidan keyin hamkasblari Abdurahmon Hamroyev va Qodir Usmonovga murojaat qilib, birgalikda mazkur kutubxonadagi barcha kitoblarni xarib qilib olish va shu yo'l bilan Muso Saidjonovning oilasiga moddiy yordam ko'rsatishni taklif qiladi, ammo, ular bunday xatti-harakatlar tufayli xalq dushmani oilasiga yordam berishga ayblanishdan qo'rqib taklifdan voz kechadilar. Po'lat Soliyev fakul'tet dekani Ibrohim Mo'minov va rektor Fayzullayevga murojaat qiladi. Afsuski, ular o'quv yurti kutubxonasini nodir kitoblar bilan boyitishni juda istasalar-da, xalq dushmani deb ayblanayotgan o'lkashunos olim oilasiga yordam ko'rsatishga jur'at eta olmaydilar.

1940-yil Tojikiston SSRdan Buxoroga ilmiy tadqiqotlar o'tkazish maqsadida kelgan O.D.Chexovichni O.A.Suxareva Buxoro shahrining Arabon ko'chasiga olib borib, Muso Saidjonovning kutubxonasi va unda saqlanayotgan kitoblar kolleksiyasini ko'rsatadi. Rizvonxonning ruxsati bilan Muso Saidjonovdan meros qolgan qadimiy kitoblarni ko'zdan kechirdi. Ushbu manbalar XV-XVIII

asrlarga mansub bo‘lgan nodir qo‘lyozma asarlar edi. O.D.Chexovich Dushanbega qaytgach ustozi A.A.Semyonovga bu kutubxona to‘g‘risida ma’lumot berdi. Uzoq yillar mobaynida Muso Saidjonovni tanigan hamda u bilan hamkorlikda faoliyat olib borgan A.A.Semyonov darhol Toshkentga kelib, bu masalada O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Prezidiumi rahbariyatiga murojaat qiladi. Shundan so‘ng akademiya Muso Saidjonovning oilasidan mazkur kutubxonani to‘laligicha sotib oldi. Ushbu kitob kolleksiyasi haqidagi ma’lumotlar ilmiy adabiyotlarda qayd qilinmaydi.

Shuningdek, Buxoro muzeyida saqlanayotgan hujjatlarni o‘rganish jarayonida Muso Saidjonovning avlodlari tomonidan muzeyga olimning kutubxonasidagi bir qancha kitoblari sotilganligi qayd qilinadi. Demak, akademiya olimning hamma kitoblarini ham olib ketmagan uning bir nechtasi oila a‘zolari tomonidan saqlangan hamda 1974-yildan 1980-yillar oralig‘ida muzeyga sotilgan. Quyida biz ularning umumiy sonini berishga harakat qildik.

1974-yilda Saidjonov Narzullo Musoevich⁷² tomonidan o‘lkashunoslik muzeyiga 60 ta kitob va bitta gazeta (Turkiston 1924-yil 14 ta soni), bitta jurnal (Maorif va o‘qituvchi 1925 -yil № 1-12) 81 rublga sotiladi. Dalolatnomada bu kitoblar Buxoro xalq sho‘ro hukumati Maorif noziri Muso Saidjonov fondidan ekanligi qayd qilinadi.

1976-yilda Sadulla Yo‘ldoshevich Saidjonov⁷³ tomonidan o‘lkashunoslik muzeyiga ikkita plastinka, ikkita shaxmat qutisi donalari bilan hamda 6 ta kitob. O‘sha yilning noyabr oyida yana bir nechta kitoblarni Sadulla Saidjonov o‘lkashunoslik muzeyiga keltiradi. Bular ichida 5 ta tojik tilidagi, 15 ta o‘zbek tilidagi (“Mehrobdan chayon”, “Tamilla”, “Qamar” romani va boshqalar) kitoblardir. Shuningdek, “История татарское литературе”, “Доч фараока”, “История Казани и Булгара”, “Rux al’ jamoat”, “Ravzat un Naziri” ikki qismdan iborat, lug‘at ruscha-o‘zbekcha, Xorazm tarixiga bag‘ishlangan ikkita kitob. Jami

⁷²Muso Saidjonovning o‘g‘li.

⁷³Muso Saidjonovning nevarasi Shuxrat Saidjonov ma’lumotiga ko‘ra, bu kishi Muso Saidjonovning ukasi.

39 ta kitobni 200 rublga sotgan. Kitoblarning aksariyatida Muso Saidjonovning muhri bosilgan.

1980-yilda Sadulla Saidjonov tomonidan 13 ta kitob, Maorif va o'qituvchi jurnalining №5-6-9-10 sonlari, Rus arxeologik jamiyatiga tegishli ilmiy to'planning 1915 -yil chiqqan soni Buxoro o'lkashunoslik muzeyiga sotilgan edi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan shuni anglash mumkinki, Muso Saidjonov xonadonida katta kutubxona mavjud bo'lib, unda ko'proq tarixiy kitoblar jamlangan. Muso Saidjonov Buxoro Xalq Sovet Respublikasi(BXSR) hukumati davrida turli lavozimlarda ishlagan bo'lsa-da, o'lkashunoslik tadqiqotlarini ham amalga oshirgan, vaqf hujjatlarini o'rgangan hamda o'z kutubxonasida manbalar to'plagan. Keyinchalik uning avlodlari tomonidan kitoblarning anchasi o'lkashunoslik muzeyiga topshiriladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Buxoroda kolleksiya to'plash ishlarida mahalliy aholiga nisbatan chetdan kelganlar faoliyati ancha jonlandi. Misol uchun bular ichida eng mashhuri Sergey Nikolaevich Yurenyev⁷⁴ bo'lib, u o'tgan asrning 50-yillarida o'zi sevgan tarixiy shahar - Buxoroga kelib qoladi va umrining qolgan qismini shahardagi XVI asrga oid Modarixon madrasasining ikki hujrasida o'tkazadi⁷⁵. Birida o'zi yashagan bo'lsa, ikkinchisida yiqqan nodir tarixiy buyumlarini saqladi. Uning "Buxoro dunyodagi eng yaxshi shahar, mening hujram esa Buxorodagi eng yaxshi xonadir", - degan so'zlarida bu o'lkaga bo'lgan muhabbati o'z ifodasini topdi. Buxoroliklar S.N.Yurenyevni bo'yi basti va uzunligiga nisbat berib - "Minor bobo", "Kalon bobo" deb atadilar. Ushbu taxallusning boshqa ma'nosi Minorayi Kalondek ulug'vorlikni ifoda etgan. Buxoro ko'chalarida, me'moriy obidalar oldida S.N.Yurenyevni ko'rgan keksalar hozir ham hayot va ular bu insonning o'sha davrdagi ajabtovur va zohidona hayot tarzini yaxshi eslashadi. Modarixon madrasasida istiqomat qilgan paytda o'z

⁷⁴S.N.Yurenyev 1896 -yil 30 may Lipesko uezdi Vitebsk guberniyasida davlat banki xizmatchisi oilasida tug'iladi. U 1918-yil Moskva Arxeologiya institutini tugatib, 1920-yildan Tver (hozirgi Kalinin) shahridagi muzeyda rahbar bo'lib ishlay boshladi. 1924-1931-yillarda SSSR xalqlari san'ati va musiqa folklori materiallarini to'plovchi ekspeditsiya tashkil etadi. 1931-yildan e'tiboran S.N.Yurenyev O'zbekistonga taklif qilinadi. U Farg'ona pedagogika instituti, Marg'ilon davlat paxtachilik instituti va Buxoro pedagogika institutlarida rus tili o'qituvchisi bo'lib ishlaydi va unga ibratli faoliyati uchun dosent unvoni beriladi. Onasining betobligi tufayli 1934-yil oxirida Kalinin shahriga qaytadi.

⁷⁵ Сергей Николаевич Юренев. Составитель Б.Я.Ставиский. –Бухарский музей, 1996. – С. 8.

kolleksiyasini shu madrasa hujralaridan birida saqlagan. O'lkashunos olim vafotidan keyin uning kolleksiyasi vasiyatnomasiga binoan Buxoro o'lkashunoslik muzeyiga topshiriladi. S.N.Yurenyev hali hayotlik paytida o'z kolleksiyasini muzeyga topshirish ishlarini boshlaydi. 1961-yil 84 ta ashyoni Rossiya ermitaj muzeyiga, 1970-yil sopol ashyolar kolleksiyasini O'zbekiston Davlat San'atmuzeyiga topshiradi. S.N.Yurenyev vasiyatnomasida bir qism kolleksiyani Buxoro muzeyi xodimi F.I.Vodopshinga topshirish haqidagi ma'lumotlar qayd qilingan.

S.N.Yurenyev vasiyatnomasini o'rganish natijasida Modarixon madrasasining ikki hujrasida uning katta kolleksiyasi saqlanganligi aniqlandi. Vasiyatnomada usta Ibodulla Narzullayev va Usmon Umarovga tegishli sopol ashyolar, Vobkent tumani O'ba qishlog'idan bo'lgan usta hunarmandlar Hamro Rahimova va usta Fathulla tomonidan yasalgan sopol buyumlar, 1950-1970-yillarda Buxoroda ijod qilgan rassomlarning ijod namunalari, Buxoroda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar paytida yig'ilgan sopol bo'laklari kolleksiyasi mavjudligi ko'rsatilgan.

O'lkashunos kolleksiyasida Buxoro viloyati arxeologik yodgorliklari fotosuratlari, yaqinlari, do'stlari, olimlar va turli shaxslardan kelgan xatlar mavjudligi ham aniqlandi. S.N.Yurenyev vasiyatnomasida uning boy kutubxonasini Buxoro pedagogika institutiga topshirish kerakligi, agar institut qabul qilmasa, viloyat o'lkashunoslik muzeyi ixtiyoriga o'tkazish zarurligi haqidagi fikrlar ilgari suriladi.

Buxoro viloyat arxiv hujjatlaridagi ma'lumotlarga ko'ra, S.N.Yurenyevning quyidagi ashyolar kolleksiyasi Buxoro o'lkashunoslik muzeyiga topshirilgan:

- O'rta Osiyo xalqlarining tarixi, arxeologiyasi, san'ati va etnografiyasiga doir 131 dona kitob;
- Buxoro viloyat ustalarining sovg'a yozuviga ega 24 dona kulolchilik buyumi;
- 30 dan ortiq arxeologik kundalik va hisobotlar;

- arxeologiya, arxitektura va san'atsohasiga oid mingdan ortiq fotosurat;
- Buxoro shahridagi arxeologik yodgorliklarda qazuv va restavratsiya ishlari ketayotgan paytda topilgan bir necha ming sopol bo'laklari.

Ushbu materiallar muzey xarid komissiyasining bayonnomasi va dalolatnomalari bilan qabul qilingan.

Ayni paytda o'lkashunos olimning chinni, mis, yog'ochdan tayyorlangan buyumlari, uy-ro'zg'or anjomlari kolleksiyasi o'lkashunoslik muzeyining fondlarida saqlanmoqda.

7.2. Mustaqillik yillarida A.Nurullayev va H.Hamidovlarning o'z kolleksiyalarini muzeyga topshirilishi. XX asr boshlarida boshlangankolleksionerlik ishi Mustaqillik yillarida hamdavom etmoqda. Shundaylardan biri buxorolik mahalliy kolleksioner-o'lkashunos Aleksey Fayzullayevich Nurullayevni alohida ta'kidlash darkor. U 1953-yil Buxoro viloyati Jondor tumanida tug'ilgan. Kolleksioner Ukraina pedagogika instituti filologiya yo'nalishini tamomlagandan so'ng, o'z ona-yurtiga qaytadi va uzoq yillar Jondordagi 2-son maktabda tarix fanidan o'qituvchilik qiladi. Tarix fanini sevish va unga qiziqish otasidan o'tgan edi. Otasi ham tarixchi edi. Mana shu muhitning ta'siri natijasida o'lkaga bo'lgan qiziqish unda bir necha barobar ortdi.

Uning tashabbusi bilan maktabda "Yosh sayyohlar va o'lkashunoslar" to'garagi tashkil etildi. To'garakda har yili 40-45 nafar o'quvchi qatnashar edi. To'garak rahbari o'quvchilarni Buxoroning qadimiy joylariga va arxeologik tadqiqotlar bo'layotgan obyektlarga olib borardi. Fidoyi o'lkashunos va kolleksioner to'garak a'zolarini tumandagi Varaxsha, Ashuraktepa, Laylaktepa, Tali Po'ppi, Podshotepa, Romushtepa va boshqa o'nlab tepaliklarga olib borgan. O'quvchilarga tepaliklar tarixini so'zlab berib ularda o'lka tarixiga qiziqish uyg'otgan.

To'garak rahbarining tashabbusi bilan Jondor tumanida 1992-yil "Qadrdon qishlog'im" nomli muzey tashkil etildi. Muzeyni tashkil etishda shogird-o'quvchilar ham yordam berdi. Tangalar, sopol bo'laklari va uy-ro'zg'or ashyolari muzeyga qo'yildi. Ko'rgazma uchun 4 xona ajratildi va unda 2500 dan ortiq

eksponat qo'yildi. A.F.Nurullayev ko'p yillar o'sha muzeyga direktorlik qildi. Keyinchalik bu ko'rgazma va undagi eksponatlarning tarixiy-badiiy qimmatini hisobga olgan holda viloyat o'lkashunoslik muzeyi ixtiyoriga o'tkazildi.

A.F.Nurullayevning ma'lumotiga ko'ra, to'garaklar o'rtasida viloyat va respublika miqyosida bellashuvlar o'tkazilgan. Uning o'quvchilari bir necha bor respublika miqyosidagi bellashuvlarda birinchi o'rinni egallagan. Bu sohadagi fidokorona mehnati uchun unga 2004-yil O'zbekiston Respublikasi Xalq o'qituvchisi unvoni berilgan.

A.F.Nurullaev kolleksiyasida 3000 dan ortiq tangalar mavjud. Kolleksiyada eron shohi Doro davriga oid tangalarning mavjudligi uning qiymatini yanada oshiradi. Shuningdek, yunon-baqtriya podsholaridan Dimitriy, Evtidem, Kushon podsholaridan Kanishka, Vasudev, Kadfizlar tomonidan zarb qilingan tangalar ham kolleksiyadan o'rin olgan. O'lkashunos kolleksiyasidan juda ko'p olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida foydalanishgan. Masalan, E.A.Davidovich, A.A.Musakayeva va boshqalar.

A.F.Nurullayev o'z faoliyati natijasi ko'plab arxeologik ekspeditsiyalarda qatnashdi. Olingan ma'lumotlarni matbuotda ham e'lon qilib turdi. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida kolleksionerning "Buxoro pul tizimi" haqida ma'lumoti ham o'rin olgan.

Tangalardan tashqari, A.F.Nurullayevning pochta ochiq xatlar(otkritka) kolleksiyasi ham mavjud bo'lib, unda 1000 dan ziyod pochta ochiq xatlari jamlangan. Kolleksioner bergan ma'lumotga ko'ra, 1978-yildan boshlab pochta ochiq xatlarini yig'adi. Unda bu sohaga qiziqish toshkentlik tarixchi, kolleksioner va yozuvchi Boris Golenderning "Окно в прошлое" kitobini o'qigandan keyin paydo bo'lganini qayd qiladi. A.F.Nurullayev Boris Golenderni o'ziga ustoz deb biladi. Kolleksioner 2018-yilning 27-sentabrida Buxoro tasviriy san'atmuzeyida "Buxoro va Turkiston o'lkasi ilgarigi pochta ochiq xatlarida" ko'rgazmasini tashkil etdi. Bundan sal oldinroq 21-iyulda "Bonum Factum" galereyalar uyida "Коллекционные открытия. Туркестан и Бухарский эмират" mavzuida ko'rgazma tashkil etgan edi.

Kolleksioner tashkil etgan ko'rgazmasi orqali Buxoro tarixi va o'lka tarixini pochta ochiq xatlari yo'nalish bilan ochib berishga harakat qildi. Pochta ochiq xatlari ko'rgazmasining birinchi zalida Turkiston, Chor Rossiyasi davrida Buxoro, O'rta Osiyo va Buxoro amirligi davri aks etgan noyob (otkritka) suratlari qo'yilgan. Ikkinchi zaldagi beshta vitrinada Sirdaryo viloyati, Samarqand viloyati, Farg'ona viloyati, Kaspiyorti (Tukmaniston) viloyati va Semirechi (qozoq va qirg'iz) viloyatidagi tarixiy joylar, yodgorliklar, o'zbek aholisining yashash sharoiti, kiyinishi, bozorlar, tepaliklar va XX asr boshlaridagi ijtimoiy ahvol lavhalarda aks etgan. A.F.Nurullaev kolleksiyasida qo'shni respublikalar – Turkmaniston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikistonning tarixiy lavhalari aks etgan pochta ochiq xatlari ham mavjud. Ko'rgazmada 400 dan ortiq pochta ochiq xatlari namoyish etildi.

A.F.Nurullayevning fikricha, har bir kolleksiya ishlashi kerak, ya'ni egasining albomida chang bosib yotishi kerak emas, uni ko'proq odam ko'rishi, tomosha qilishi kerak.

Pochta ochiq xatlari kolleksiyasida o'lkaning 140 yil oldingi tarixi aks etgan. Rossiyada 1894-yildan birinchi marta pochta ochiq xatlari ishlab chiqarish boshlandi. Dastlab pochta ochiq xatlarining orqa tomonida faqat manzil yozilgan. 1904-yildan boshlab ochiq xatlar orqa tomonining yarmiga qisqa xat yozish uchun joy ajratilgan. A.F.Nurullayevning ma'lumotiga ko'ra, pochta ochiq xatlari juda oz tirajda nashr qilingan. Bitta pochta ochiq xati 80 donadan 100 donagacha nashr etilgan. Shuning uchun ular kamyob va qimmatbahodir. Pochta ochiq xatlarini quyidagi nashriyotlar nashr qilgan: Yevropada B.A.Shnayder (Odessa), Sank-Peterburgda N.Litvintsev va V.Lentovskiy, Kontragensva, A.S.Suvarina, Moskvada Sherer va Nabgolts, Toshkentda Bek-Nazarov, E.K.Xubina, M.I.Svishulskiy va Samarkomstaris.

Bulardan tashqari, A.F.Nurullayev kolleksiyasida ko'krak nishonlari, markalar ham mavjud. H.Asadov A.Nurullayev kutubxonasi to'g'risida shunday yozadi: "A.Nurullayevning shaxsiy kutubxonasiga kirsangiz, bu yerda

o‘tmishimizga, tarixga doir yuzlab kitoblar jamlanganini ko‘rib, hayron qolasiz”. Demak A.F.Nurullayev durustgina bibliofil ham bo‘lgan.

Kolleksionerning ma’lumotiga ko‘ra, mustaqillikkacha va undan keyin ham yurtimizda kolleksionerlar uyushmasi faoliyat yuritgan. A’zolariga guvohnomalar ham berilgan va ular erkin kolleksiya yig‘ish ishlari bilan shug‘ullanishgan.

A.F.Nurullayev shu o‘tgan davr mobaynida viloyatimiz gazetalarida ko‘plab maqolalar e’lon qildi. Aksariyat maqolalari o‘lka tarixi bilan bog‘liq bo‘lib, ularda tarixiy yodgorliklar, obidalar, muqaddas qadamjolarini asrash, ta’mirlash, tepaliklar buzilishini oldini olishga e’tibor qaratish kerakligi ta’kidlanadi.

Kolleksiya yig‘ishga qiziquvchi o‘lkashunoslar safida H.Hamidovning ham borligini ta’kidlash joiz. Bu qiziqish unda yoshlik chog‘laridan boshlanadi va bunga buvisi turtki bo‘ladi. Uyida avvalgi davrlardan qolgan mis buyumlar, jumladan, shamdonlar bo‘lajak kolleksionerni o‘ziga mahliyo qiladi va shundan mis buyumlar kolleksiyasini yig‘ishni boshlaydi. Qurilish texnikumi va Buxoro pedagogika institutining Tarix fakultetida tahsil olib yurgan yillari misdan yasalgan uy-ro‘zg‘or buyumlarini yig‘ib, kolleksiya holiga keltirgan.

Kolleksioner uzoq yillar Buxoro o‘lkashunoslik muzeyida ilmiy xodim bo‘lib ishladi va shu davr mobaynida S.Yurenyev, F.Vodopshin kabi o‘lkashunoslar maslahati bilan o‘z kolleksiyasini boyitib bordi.

H.Hamidov kolleksiyasi asosan mis buyumlardan iborat. Jumladan, la’li, lagan, yavlog‘u, shamdon, manqal, tufdon, qozon, kapgir, qoshiq, choynak, oftoba, ko‘za va h.k. H.Hamidov kolleksiyasining katta qismini shamdonlar tashkil etadi. Kolleksionerning ma’lumotiga ko‘ra, hozirgi vaqtda uning kolleksiyasida 500 dan ortiq shamdon mavjud va shundan 100 dan ortig‘i ayrim qiziquvchi shaxslarga sotilgan.

Kolleksiyadagi materiallarning aksariyati XIX va XX asr boshlariga oid. Mis ashyolarning ayrimlarida arab yozuvi ham mavjud bo‘lib, ular Buxoro o‘lkasining moddiy-madaniy tarixidan bahs yuritadi.

Kolleksionerning bu ashyolarni yig'ishdan ko'zlagan maqsadi – mis buyumlar tarixini o'rganish, asrash va kelajak avlodga qoldirish. Kolleksioner bilan Buxoro muzey qo'riqxonasi o'rtasida shartnoma rasmiylashtirilgan va H.Hamidov o'z kolleksiyasining katta qismini muzeyga topshirish arafasida. Ro'yxatga e'tibor qaratsak, 141 nomdagi 500 dan ortiq shamdon, 16 nomdagi 50 ga yaqin sartaroshlik ashyolari va boshqa buyumlarning mavjudligiga guvoh bo'lamiz. Hozirgi paytda ularni muzeyga topshirish rejalashtirilgan. Bunday katta kolleksiya, shubhasiz, Buxoro muzeyi fondini yanada boyitadi.

Xulosa qilib aytganda, kolleksiya va kolleksionerlik tarixiy o'lkashunoslik sohasini rivojlanishiga hamda muzey fondlarini boyitishga katta hissa qo'shdi. Bu sohaning o'lkadagi noyob ashyolarni yig'ish va asrab qolishdagi hissasi katta. Kolleksionerlar tomonidan tashkil etilgan ko'rgazmalar, namoyish etilgan eksponatlar tomoshabinlarni o'z o'lkasining tarixini bilishga va unga qiziqishining ortishiga olib keladi.

Nazorat uchun savollar

1. Kolleksiya nima?
2. Kolleksionerlik nima?
3. M.Saidjonov kolleksiyasi haqida ma'lumot bering?
4. S.N.Yurenev kolleksiyasi haqida ma'lumot bering?
5. Bukinist kolleksioner deganda nimani tushunasiz?
6. O'lkamizda kolleksionerlikning paydo bo'lishi haqida fikr yuriting?
7. Kolleksiya yig'ishdan maqsad nima?

Test topshiriqlari

1. O'rta Osiyo vaqfnomalarning asl nusxalari bugungi kunda qayerda saqlanmoqda?
A. O'z Res Markaziy davlat arxivida
B. O'z Res kino-fotofono hujjatlar Markaziy davlat arxivida
S. Asl nusxalari saqlanib qolmagan
D. Chet el arxivlarida

2. “Kolleksiya” so‘zining ma’nosini toping?
- A. “qadimgi va hozirda yaratilgan ashyolarni yagona nusxalarining yig‘indisi”
 - B. “narsalar yig‘indisi”
 - S. “rasmlar yig‘indisi”
 - D. “tosh buyumlar yig‘indisi”
3. Qaysi javobda Muzeylarning Xalqaro Kengashi to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
- A. IKOM
 - B. BMT
 - S. YUnisef
 - D. Nato
4. Muzeylar O‘zbekiston Respublikasining qaysi vazirligiga qaraydi?
- A. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga
 - B. O‘zbekiston Respublikasi Ma’naviyat vazirligiga
 - S. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligiga
 - D. O‘zbekiston Respublikasi Maorif vazirligiga
5. Buxoro muzeyi 1945-1969 -yillarda Buxoro tarixiy-o‘lkashunoslik muzeyi deb nomlanib, respublikada qaysi kategoriyaga kiritilgan?
- A.3
 - B. 2
 - S. 1
 - D. 4
6. 1927-yil Buxoro muzeyi qaysi binoda ochilgan?
- A. Timi Abdullaxon
 - B. Ark
 - S. Sitorai Mohi Xosa
 - D. Ko‘kaldosh madrasasi
7. P.E.Kornilov Buxoro muzeyida nechanchi yillar faoliyat ko‘rsatdi?
- A.1930-1935
 - B.1941-1945
 - S.1930-1933

D.1930-1932

8. Inventarizasiya nima?

A. Ashyolarni ro‘yxatdan o‘tkazish

B. Ashyolarni yangilash

S. Ashyolarni namoyishga qo‘yish

D. Hammasi to‘g‘ri.

9. Buxoro muzeyining birinchi “Ilmiy maqolalar to‘plami” qachon nashr etilgan?

A. 1968-yil

B. 1967-yil

S. 1966-yil

D. 1965-yil

10. T.F. Gelax va S.N. Yurenevning kolleksiyasi qachon Buxoro muzeyiga topshirilgan?

A. 1960-yil

B. 1990-yil

S. 1970-yil

D. 1973-yil

Seminar mashg‘uloti mavzulari:

1. O‘zbekistonda muzey ishi tarixi.
2. Muzeylarni tashkil etish maqsad va vazifalari.
3. Muzey tashkil etishning tartibi.
4. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish tartibi.
Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash tartibi.
5. Davlat muzeylari toifalari, ularni belgilash kursatkichlari.
6. Buxoro o‘lkashunoslik muzeyning shakllanishi.
7. 1925-1927-yillarda Buxoro o‘lkashunoslik muzeyining faoliyati.
8. XX asr ikkinchi yarmidan Buxoro o‘lkashunoslik muzeyi rivojlanish bosqichida.

9. XX asr 30-40-yillarida Buxoro o'lkashunoslik muzeyining yangi bosqichga o'tishi va rivojlanishi.
10. XX asr ikkinchi yarmidan Buxoro o'lkashunoslik muzeyi rivojlanish bosqichida.
11. Muzeyning maktab bilan hamkorligi hamda maktablarda o'lkashunoslik to'garaklarining tashkil etilishi.
12. Buxoro muzeyini ashyolar bilan to'ldirish ishlari va muzeyda ilmiy tadqiqot ishlari.
13. XX asr 80-90-yillardagi Buxoro muzeyi faoliyati.
14. Mustaqillik davrida muzey ishi.
15. Mustaqillik davrida Arkda tashkil qilingan ekspozitsiyalar.
16. Sitorai Moxi Xosa muzeyi.
17. Fayzulla Xo'jayev uy muzeyi.
18. Zindon muzeyi.

2- modul. Buxoro arxivshunosligi

8- mavzu: Xiva va Qo‘qon xonliklarida arxiv hujjatlari

Reja:

8.1. Sharq qo‘lyozmalari va hujjatlarini yig‘ish hamda Xiva xonligi hujjatlarining kolleksiyasi va taqdiri

8.2. Qo‘qon xonligi arxiv hujjatlari

Tayanch so‘z va iboralar: yozma manbalar, K.P.Kaufman, oqsoqollar, kolleksiya, vaqf hujjatlari, devonbegi hisobotlari, Ost-Indiya, mirzaboshi, mehtar devonxonasi, patta, shikoyat yorliqlari.

8.1. Sharq qo‘lyozmalari va hujjatlarni yig‘ish hamda Xiva xonligi hujjatlarining kolleksiyasi va taqdiri. Ma’lumki, har bir davlat tarixini yoritishda arxiv hujjatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Tarixiy tadqiqotlarning manbaviy asosini shakllantirish va milliy-madaniy boylik hisoblangan yozma va tasviriy hujjatlarni muntazam ravishda jamlab borish va ularni but saqlanishini ta’minlashda davlat arxivlarining o‘rni muhimdir.

O‘rta Osiyo mintaqasida mavjud bo‘lgan davlatlar va ularning davlatchilik tarixini o‘rganish bugungi kun tarixchilari oldida turgan muhim masalalardan biridir. Mintaqada tashkil topgan qadimgi davlatlarning boshquruv tizimi va xo‘jalik hayotini o‘rganish uchun o‘sha davrda yuritilgan hujjat va manbalarning ahamiyati beqiyos.

O‘rta Osiyoning o‘rta asrlar va yangi davr tarixi “Xonliklar davri tarixi” deb qayd etilgan. Xiva va Qo‘qon xonligi, shu bilan birga Buxoro amirligi o‘zbek davlatchiligi tarixida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu davlatlar va ulardagi boshqaruv an‘analari xususidagi ma’lumotlar mazkur davr hujjatlarda o‘z aksini topgan. Xonliklardagi markaziy va mahalliy boshqaruv tizimlarida rasmiy idoraviy hujjatlarni yuritish, saqlash, tartiblash kabi xususiyatlarni o‘rganish muhimdir. Xon, devonbegi, qushbegi, mingboshi, yasovulboshi, qozikalon, bek, munshiy, mirzaboshi, muftiy kabi lavozimlar va ularning faoliyat doiralarida ko‘rib

chiqilgan masalalar va ularning yechimlari bilan bog‘liq ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan hujjatlarning jamlanmasi - arxiv muassasalari tarixini o‘rganishda ham ahamiyatga molikdir.

Rossiya imperiyasi tomonidan Xiva xonligining XIX asr so‘nggi choragida harbiy harakatlar asnosida egallanishidan keyin xonlik siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o‘zida aks etgan hujjatlar imperiya hukumati ma‘murlari ixtiyoriga o‘tdi. Ular bu kabi ma‘lumotlarni qo‘lga kiritish maqsadida harbiy harakatlarni amalga oshirishdan oldin maxsus ekspeditsiyalar uyushtirgan va bu yo‘nalishda dasturlar ishlab chiqqan.

Dasturlarda tarixiy geografiyaning alohida bo‘limlari va yozma manbalar majmuasi mujassamlashtirilgan. Ular o‘z navbatida xonlikda mavjud va ilmiy ahamiyatga molik sharq qo‘lyozmalarini (kitob rastalari, bozorlar, mansabdor shaxslar) qo‘lga kiritish, shu bilan birga rasmiy hujjatlarni jamlash, to‘plash naqadar muhimligini ta’kidlagan edi.

Dasturning 4-bandida shunday deyilgan: “Shak-shubhasiz, hujjatlar faqat rasmiy shaxslar xonadonida emas, balki oddiy odamlar xonadonida ham topiladi, chunki qachonlardir o‘sha oddiy odamlarning ajdodi mansabdor shaxs bo‘lganlar. Ularda yorliqlar, shartnomalar yoxud ularning nusxalarini uchratish mumkin. Masalan, oqsoqollar soliq tushumlarini qayd etib borishgan. Bu kabi hujjatlarning hammasi ilmiy ahamiyat kasb etadi⁷⁶. Mazkur dastur bandlarining ijrosini ta’minlash maqsadida Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman Xiva xonligiga uyushtirgan harbiy yurishlari davrida sharqshunos A.L.Kunning ishtirok etishi xususida tegishli ko‘rsatma bergan.

A.Kun 1873-yil 5-oktabrda Turkiston general-gubernatori nomiga yo‘llagan hisobot xatida ekspeditsiya va o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalar ijrosi xususida atroflicha ma‘lumotlarni taqdim etib: 1) xonlik haqidagi statistik-etnografik materiallar; 2) Xiva saroyini egallanishidan so‘ng sharq qo‘lyozmalari, tanga va hujjatlar musodara qilinishi; 3) ayollarning kumush taqinchoqlari, ularning bir qismi tijorat, bir qismi kontributiv mol-mulklar ekanligi, turkman va

⁷⁶ Исакова М. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. Т.: Университет, 2012.-С.34.

turkmanlar ayolining kostyum kolleksiyalari (jamlanmalari); 4) Xiva xoni taxti musodara qilingan; 5) chaqa tanga so‘qish uchun mo‘ljallangan xon muhrlari, shtamlari; 6) Ko‘hna Urganchda chiqarilgan tamg‘alar qo‘lga kiritilganligini ta’kidlagan.

Sharq qo‘lyozmalari kolleksiyalarning bir qismi va Xiva xoni taxti Osiyo muzeyiga⁷⁷, kitoblar, hujjatlar, kumush buyumlar, kiyim-kechaklar, qadimiy tangalar, muhrlar Imperator ommaviy kutubxonasiga⁷⁸ yuborildi. A.Kun ta’rifiga ko‘ra saroyni musodara qilishning ikkinchi kunida 300 tagacha qo‘lyozma yig‘ib olindi. Ular orasida 140 tomlik 129 tarixiy insholar, 30 tomli 20 dan ortiq sharq shoirlarining ijodiy majmuasi 40 huquqiy - sha’riy insholar (50 tom), Qur’oni Karimning 18 nusxasi, hamda 50 dan ortiq darsliklar bor edi⁷⁹.

A.Kun fikricha, Yunus Mirabning “Xiva xonlari tarixi” risolasi qo‘lga kiritilgan barcha qo‘lyozmalar ichida eng bebahosi edi. Yunus Mirab xon saroyida rasmiy tarixnavis bo‘lib faoliyat yuritgan. Ushbu qo‘lyozmada Rossiya imperiyasi bosqinidan ancha oldin hukmronlik qilgan Qo‘ng‘irotlar sulolasi asoschisi, Eltuzarxondan boshlangan xonlik shajarasi tarixi o‘z aksini topgan edi. Bu qo‘lyozma o‘z navbatida Xiva xonligi davlat an’anasiga binoan avloddan avlodga meros bo‘lib qoluvchi lavozim-rasmiy tarixnavislar tomonidan yozilgan.

Xivaga yurish vaqtida mazmuniga ko‘ra quyida aks ettirilgan arxiv ma’lumotlari ham to‘plangan: 1) moliyaviy masalalar (xonlik daromadi va xarajatlari) ; 2) vaqf va mulk shakldagi yer hujjatlari; 3) rasmiy nomalar (turli xil diplomatik yozishmalar, iltimosnomalar). Birinchi (guruhda) o‘rinda salg‘ut solig‘i

⁷⁷Osiyo muzeyi - 1818 -yil noyabr oyida Rossiya imperatori Pyotr I davridan boshlab o‘z faoliyati boshlagan. Muzey asosan Rossiyadagi eng yirik sharq qo‘lyozmalar, kitoblar va tangalar fondiga ega bo‘lgan. 1917 -yilda eng yirik kutubxonali muzeyga aylangan.1921 -yildan muzey huzurida sharqshunos olimlar Kollegiyasi ta’ sis etiladi. 1926 -yilga kelib uning fondlarida 200 mingdan ziyoda turli sharq tillardagi kitoblar, jurnalar va qo‘lyozmalar to‘plangan. 1930 -yilga kelib esa muzeyning sharqshunoslar Kollegiyasi SSSR FA Sharqshunoslik insitutini tashkil etishda asosiy rol o‘ynagan. Muzeyda X.D.Fren (birinchi direktor), B.A.Dorn, S.F.Oldenburger, V.V.Bartold, I.Yu.Krakovskiy faoliyat yuritganlar. 1992 -yildan mazkur muzey Rossiya davlat sharq muzeyi maqomida faoliyat olib bormoqda. Qarang: http://enc-dic.com/enc_spb/Aziatski-muze-2032.html, http://enc-dic.com/enc_sovet/Aziatski-muze-67185.html. [http:// ru.wikipedia.org/wiki/Институт_восточных_рукописей_РАН](http://ru.wikipedia.org/wiki/Институт_восточных_рукописей_РАН).

⁷⁸ Imperator ommaviy kutubxonasiga - 1795 -yilda quricha Yekaterina II tomonidan Sankt-Peterburg shahrida asos solindi. 1925 -yildan boshlab Rossiya jamoat kutubxonasi deb nomlangan. 1932 -yildan boshlab kutubxona M.Ye.Saltikov-Shedrin nomi bilan yuritila boshlangan. 1992 -yil 27 mart sanasidan boshlab bu muassasa Davlat jamoat kutubxonasi deb o‘zgartirilgan.Qarang: [https:// ru.wikipedia.org/wiki/ Российская_национальная_библиотека](https://ru.wikipedia.org/wiki/Российская_национальная_библиотека).

⁷⁹Исакова М. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. Т.: Университет, 2012.-С.35.

qaydnomalar kitobiga e'tibor qaratilgan. Ikkinchi – xonlik xarajatlari haqidagi devonbegi Matmurod hisobotlari turgan. Uchinchi - Buxoro, Kralinsk, Konstantinopolda yashovchi xivalik savdogarlarining Xiva xoniga yuborgan iltimosnomalari. Ma'lum yerga ega bo'lish uchun yer masalalarini kengaytirishga nisbatan aytilgan fikrlar kiradi. Diplomatik yozishmalar orasida Ost-Indiya kompaniyasi general-gubernatori Nors Bruk nomasi, turk sultonlari nomalari, ruxsatnomalar bor bo'lib ular rus elchisi Danilevskiy, Xiva xoni hamda Turkiston general-gubernatori bilan olib borgan yozishmalari ham o'rin egallagan.

A.Kunning yuqorida keltirgan muhim arxiv materiallarining tarkibi mukammal emas degan fikri asosli bo'lib, ushbu arxiv hujjatlarni tadqiq etganida ikki muhim vaziyatni qayd etgan. Birinchidan, Rossiya imperiyasining bosqinchilik siyosati va siyosiy vaziyatlari bilan bo'g'liq chigalliklar. Ikkinchidan, O'rta Osiyo xonliklarida davlat arxivlari va yozma hujjatlarni saqlash an'analari shakllanmaganligi hamda bu kabi hujjatlarni saqlash maqsadida maxsus joylar ajratilmaganligini ham alohida ta'kidlaydi.

Biroq shuni ta'kidlash lozimki, A.Kun tomonidan sharq qo'lyozmalari to'plangan bo'lsa-da, ular orasida Xiva xonligining hujjatlari achinarli ahvolda bo'lgan. N.P.Ostroumovning kundalik qaydlarida yozilishicha, 1891-yili 5-sentabr kuni Xiva xonligi bosh kotibi Mirza Boshi Polvon bilan uchrashganida u Kunning Xiva xonligidan 1500 turli xil mazmundagi hujjatlarni olib ketib, qayiqda qaytayotganini bildiradi. Shu paytda hujjatlarni ma'lum qismi suvda namlanib qolganidan madrasadan 150 mulla so'raganini, mullalar yordamida hujjatlarni quritishga harakat qilganini aytib beradi. Shunda ayrim hujjatlar mullalar tomonidan olib qo'yilib yashirilganligini va Mirzaboshi ushbu hujjatlarning ma'lum qismi Buxoroda ekanligini ham qayd etgan⁸⁰.

Xiva xonlari arxivi asosan qo'shbegi, devonbegi, mehtar devonxonalari hujjatlarining yig'indisidan tashkil topgan. 1948-yilning iyul oyida Xorazm viloyati davlat arxivi "Xiva xonligi konselyariyasi" fondida saqlangan hamda 1874-1917-yillar voqealarini qamrab olgan 98 jamlanmadan iborat arxiv hujjatlari

⁸⁰ Исакова М. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. Т.: Университет, 2012.-С.36.

O‘zbekiston Markaziy davlat arxiviga topshirildi. Bular asosan Amudaryo bo‘limi boshlig‘ining Xiva xoni devonxonasi bilan soliq yig‘imi, jinoiy va fuqaro ishlari xususida olib borgan yozishmalaridan iborat bo‘lgan.

Bir yildan so‘ng mazkur fond Qoraqalpog‘iston hududidan olingan turli xildagi qozilik, vaqf mulklari hujjatlari, xonlik aholisining murojaati, devonxona kitoblari (soliq tushumlari, muayyan yer egalarining yer hajmlari, suv inshootlarini tozalashda ishtirok etgan ishchilar xususidagi statistik ma‘lumotdan iborat hujjatlar bilan to‘ldirilgan.

1960-yillarda respublika Arxivi ishi boshqarmasi rahbarligida Xiva xoni arxiviga tegishli hujjatlarning aholi orasida izlashi, sotib olish ishlari olib borish maqsadida ekspeditsiya tashkil qilinadi. Xorazm viloyati davlat arxivi ishchilaridan iborat ekspeditsiya tarkibiga MDA xodimi S.Davletshina boshliq etib tayinlangan. Bu ekspeditsiya 1961-yilning iyun oyida amalga oshirilgan tadbirlari natijasida mahalliy aholidan 111 ta hujjat sotib oldi va 120 tasini bepul qo‘lga kiritdi. Shu bilan birga Qaraqalpog‘iston mintaqasida yashovchi aholidan 35 ta hujjat sotib olindi, 15 ta hujjat esa bepul qo‘lga kiritildi⁸¹.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi(hozirda esa ushbu muassasa O‘zbekiston Milliy arxivi deb nomlanadi)ning Xiva xonligi konselyariyasi fondi 1962-yilga kelib. M.E.Saltikov – Shedrin nomidagi Davlat ommaviy kutubxonasi, (avvalgi Imperatorlik jamoat kutubxonasi hozirgi paytda Rossiya Milliy Kutubxonasi deb nomlangan) – tomonidan 10158 varaqdan iborat arxiv hujjatlari bilan to‘ldirildi.

Keyingi yillarda hujjatlarga ilmiy texnikaviy ishlov berildi, hujjatlarning izohi tuzilib, ish hujjatlari tartibga keltirildi. 1988-yil 20-aprelda fond to‘liqligicha qimmatli ekanligi ekspertlar tomonidan belgilandi. Hozirgi kunda arxiv fondida 1269 birlikdagi hujjatlar saqlanmoqda.

8.2. Qo‘qon xonligi arxiv hujjatlari. O‘rta Osiyo xonliklari ichida Qo‘qon xonligining ham alohida o‘rni bor. Xonlik mintaqamizning ham ichki, ham tashqi

⁸¹ Исакова М. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане.Т.: Университет, 2012.-С.37.

hayotida muhim rol o'ynagan. Dastlab xonlik boshqaruvi ierarxiyasi (ketma-ketligi) Buxoro amirligi boshqaruvi namunasida tashkil etilgan edi.

Ish hujjatlarini yuritish xonlik devonxonasini boshqaruvchi devonbegiga topshirilgan. XIX asrning 50-60-yillaridan uning vakolatlari boshqa amaldorga – mirzaboshiga yuklatilgan. Devonbegi qo'l ostidagi eng kichik mansabdor shaxsdan tortib(mirza) eng katta mansabdorlargacha faoliyat yuritgan. Devonbegi devonxonasida kirim-chiqim daftari, g'azna tushumlarning hisobotlari (vaqf mulkidan kelgan tushumlar), masjid-madrasa mulklari, aholi tomonidan xonga tortiq qilingan sovg'alar bo'yicha hisobotlar olib borilardi.

A.L.Troitskayaning yozishicha, daftardagi hisobotlar patta hujjatidan ko'chirib yozilgan (patta mazmunan qadimgi rus "qaydnomasiga" o'xshaydi.). Patta (bildirish)lar xonlik devonxonasi nomidan xo'jalik ma'muriyatiga va mahalliy aholiga yer solig'i to'g'risida yuborilgan bildirishnomalardir. Bunday bildirishnomalar soliq yig'uvchilar tomonidan tuzilib ular tomonidan saqlangan, ba'zida "daftar" hisobot qaydnomalariga ilova sifatida yopishtirilgan⁸².

Yer mulklari qaydnomalari ulardan farqli yuritilgan. Har uch yilda xon tomonidan tayinlangan "komissiya" tashkil etilgan. Komissiya boshida muftiy va a'lamlar turgan. Tanob ro'yxati maxsus yuborilgan yozib oluvchi tomonidan tuzilgan. Ularning haqiqiyliги muftiy va a'lamlar tomonidan tasdiqlangan va hujjatga tasdiqlovchi imzo va muhrlar qo'yilgan. Bu ro'yxatda yer egalari va ularning yer miqdori ko'rsatilgan. Ular adabiy tilida "parcha", "bo'lak" deb nomlangan. Bir-biriga ketma-ket ulangan o'ramlar shaklida rasmiylashtirilgan².

Xon devonxonasida xatlar, yozishmalar guruhlanib bir-biriga ketma-ket ulangan ustun shakldagi hujjatlar ham yuritilgan. Boshqa O'rta Osiyo xonliklari kabi bu xonlikda ham hujjatlar rasmiylashtirilayotganda xon nomiga yuborilgan xat va murojaatlarga shaxs ism-sharifi ko'rsatilmagan, faqat xatning orqa tomonida yuboruvchi ismi ko'rsatilgan. XIX asr 60-yillarida hujjatlar 2 xil qog'ozda mahalliy Qoqon va rus qog'ozlarida yozilgan. Xonlik va bek devonxonalarining

⁸² Исакова М. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. Т.: Университет, 2012.-С.37.

vakolatli hujjatlari, shikoyat yorliqlari, ga'zna ko'rsatmalari rus qog'ozida, qolgan hujjatlar mahalliy qog'ozda amalga oshirilgan.

Yettisuv viloyati ilmiy muassasasi yetakchi rahbari N.Pantusov xonlik devonxonasi hujjatlarini birinchilar qatorida o'rganib shunday degan edi: rus harbiylari Qo'qon shahridagi faoliyati natijasida xonlik saroyida arxiv qoldiqlari topilgan. Ular qipchoqlar hujumidan omon qolgan edi. Arxiv qog'ozlarining ko'pchilik qismi o'ram shaklida saqlangan. Bu hujjatlar xiroj, tanob, zakot kabi soliqlarning sobiq xonlik aholisidan yig'ilganligi, soliqlar miqdori va ularning o'zgarishi kabi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Bu daftarlarning mingdan ortiq nusxasi saqlangan; ular orasida eng eskisi 10 yil oldinroq yaratilgan bo'lsa kerak. (o'sha davrga nisbatan). Hujjatlar bir-biriga qo'shilgan, ba'zi hujjatlarning boshi, oxirgi qismlari yo'qolgan. Xonlikning sobiq mansabdor shaxslari tomonidan siyosiy g'alayonlar davrida rasmiylashtirilgan hujjatlar o'g'irlangan. Arxiv o'zida o'lka tashkilotlari uchun o'ta muhim bo'lgan hujjatlarni saqlagan. Jumladan, aholi statistika ma'lumotlari, armiya, yer egaligi boshqaruvi, turli xil in'omlar jamlanmasi va hokazolar⁸³.

Quyidagi hujjatlar ham saqlangan: 1.Xonlik yerlarining miqdori va o'lchami. 2. Mansabdor shaxslar soni (soliq to'lovidan ozod qilinganlar). 3.Soliq imtiyozlariga ega bo'lgan diniy tashkilot mansabdor shaxslari. 4.Qo'shimcha xiroj va tanob in'omlari. 5.Xonlik lashkari soni. 6.Lashkar saqlash xarajatlari. 7.Mahsulotdan undiriladigan xiroj miqdori. 8.Hosildan xiroj yig'imi (paxta, bug'doy, tamaki). 9.Xon xonadoni, saroy qurilishlarida bo'ladigan xarajatlar. 10.Qurol-yarog' tayyorlash xarajatlari. 11.Chorvadan olinadigan zakot yig'imi miqdori. 12.Paxtadan xiroj to'lashda kamomadlik. 13.Tanob yig'imi miqdori. 14.Ma'lum mahalliy yerlarga egalik qilish to'g'risidagi hujjatlar. 15.Harbiy qochoqlar soni. 16.Xon xazinasiga kelib tushgan sovg'a va in'omlar. 17.Vaqf mulklari haqida. 18.Qo'qon hududi aholisidan yig'ilgan tushumlar⁸⁴.

⁸³ Исакова М. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане.Т.: Университет, 2012.-С.38.

⁸⁴Shu kitob. -B.39.

Xiva xonligi arxivi kabi Qo‘qon xonligi devonxona materiallari ham Rossiya imperiyasi tomonidan xonlikning bosib olinishi natijasida musodara qilingan. Hujjatlarni yig‘ish va ularni mamlakatdan olib chiqish ishlariga A.Kun ishtirok etgan edi. Unga Sharq qo‘lyozmalarini yig‘uvchi va barcha ilmiy ishlarni nazoratchisi sifatida K.P.Kaufman bilan birgalikda Qo‘qonda harbiy harakat olib borayotgan bosh qarorgoh harbiylari tarkibida bo‘lish vakolati berilgan.

Sharq qo‘lyozmalari va hujjatlarini yig‘ish xonlik bosib olingandan keyin ham davom etdi. 1876-yil 5-fevral kuni K.P.Kaufman general-leytenant Gerasim Kalpakov (1819-1896-y.) nomiga telegramma yuboradi. Unga ko‘ra Qo‘qon, Andijon, Marg‘ilondan sharq qo‘lyozmalari va soliq tushumlari yozib boriluvchi qaydnomalar, turkcha atalgan daftarlarni talab qilib olish vakolati general-leytenantga taqdim etish kerakligini ta’kidlaydi. O‘z navbatida, G. Kalpakov bunday vazifani Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori M.Skobelevga yuklaydi ³.

Buning oqibatida huquqshunoslik, tibbiyot, geografiya, boshqa sohalarga tegishli bo‘lgan sharq qo‘lyozmalari va hujjatlarining ma’lum bir qismi yig‘ilgan. Ular dastlab Toshkent xalq kutubxonasiga yuborilgan. Keyinchalik 1876-yil noyabr oyida K.P.Kaufman rahbarligida sharqshunos A.Kun tomonidan Qo‘qon xonlari arxiv hujjatlari va sharq qo‘lyozmalari Peterburgdagi Imperator xalq kutubxonasiga taqdim etilgan.

Qo‘qon xonlari arxiv hujjatlari Xiva xonlari arxiv hujjatlari kabi Peterburgga yuborilgandan so‘ng, 80 yil mobaynida o‘rganilmagan, unga noaniq tadqiqot obyekti sifatida qaralgan, kutubxonaga qanday holda kelgan bo‘lsa shunday holda qoplar ichida o‘ramlar shaklida saqlangan.

1939-yilda Sank-Peterburgda sharqshunos P.P.Ivanov Xivadan yuborilgan hujjatlar bilan ishlayotganida ular orasida tojik tilida yozilgan Farg‘ona hujjatlarini topib oladi. Keyinchalik M.Yu.Yo‘ldoshev ham Imperator xalq kutubxonasi fondida Qo‘qon xonlarining arxiviga mansub hujjatlar mavjudligini ta’kidlaydi. 1962-yilda Qo‘qon xonligi arxiviga aloqador 5026 varaqdan iborat 3 800 jamlanma hujjatlar va 151 o‘rama hujjatlar Sankt-Peterburg kutubxonasidan hozirgi O‘zbekiston Milliy arxiviga topshirildi.

Imperiya hukumatining O'rtta Osiyoda mavjud xonliklar xususida ma'lumotlar yig'ishi xonliklar arxiviga daxl qilish orqali amalga oshirildi. Sharq olamidagi boshqaruv tizimi, davlatlararo va mamlakat ichida hujjat yuritish an'analari alohida va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Xonliklardagi markaziy va mahalliy ma'muriyatlarda olib borilgan ish yuritish hujjatlari markazlashmagan holda edi. Shundan bo'lsa kerak xon va beklar, devonbegi kabi yuqori martabali kishilarga mansub hujjatlar alohida-alohida kotibiyatlarda saqlangan.

Nazorat uchun savollar

1. A.L.Kunning Xiva xonligi hujjatlarini yig'ishdagi faoliyati haqida ma'lumot bering?
2. Rossiya imperiyasining Xivaga amalga oshirgan harbiy yurishi vaqtida mazmuniga ko'ra qanday hujjatlar arxivi aniqlangan?
3. Xiva xonlari arxivi qaysi mansabdorlarning devonxona hujjatlaridan tarkib topgan?
4. Xiva xonlari arxiv hujjatlari qachon O'zbekistonga qaytarildi?
5. Qo'qon xonligida soliq yig'uvchilar tomonidan tuzilgan hisobot hujjatlari qanday nomlanadi?
6. Qo'qon xonligida devonxona ish hujjatlarini yuritish vazifasiga mas'ul shaxs kim edi?

Test topshiriqlari

1. A.L.Kun fikricha, qaysi asar o'zi qo'lga kiritgan barcha qo'lyozmalar ichida eng bebahosi bo'lgan.

A "Mutaxab ut- tavorix"

B "Buxoro tarixi"

C "Xiva xonlari tarixi"

D "Shajarai Xorazmshohi"

2. 1948-yilning iyul oyida Xorazm viloyati davlat arxivi “*Xiva xonligi kanselyariyasi*” fondida saqlangan nechta hujjat jamlanmasi O‘zbekiston Markaziy davlat arxiviga topshirildi.

A 150 ta

B 80 ta

C 1500 ta

D 98 ta

3. O‘z SSR Arxivi ishi boshqarmasi rahbarligida nechinchi yilda Xiva xoni arxiviga tegishli hujjatlarning aholi orasida izlashi, sotib olish ishlari olib borish maqsadida ekspeditsiya tashkil qilinadi.

A 1960-yillarda

B 1870-yillarda

C 1940-yillarda

D 1970-yillarda

4. 1939-yilda Sank-Peterburgda qaysi sharqshunos olim Xivadan yuborilgan hujjatlar bilan ishlayotganida ular orasida tojik tilida yozilgan Farg‘ona hujjatlarini topib oladi.

A A.L.Kun

B P.P.Ivanov

C V.A.Shishkin

D A.A.Semenov

5. 1962-yilda Qo‘qon xonligi arxiviga aloqador 5026 varaqdan iborat 3 800 jamlanma hujjatlar va 151 o‘rama hujjatlar qaysi muassasadan hozirgi O‘zbekiston Milliy arxiviga topshirildi.

A London qirollik kutubxonasidan

B Sankt-Peterburg Imperator xalq kutubxonasidan

C AQSh Kongress kutubxonasidan

D Berlin xalq kutubxonasidan

6. 1876-yil noyabr oyida qaysi sharqshunos olim tomonidan Qo‘qon xonlari arxiv hujjatlari va sharq qo‘lyozmalari Peterburgdagi Imperator xalq kutubxonasiga taqdim etilgan.

A V.A.Shishkin

B P.P.Ivanov

C A.L.Kun

D A.A.Semenov

7. A.Kun ta‘rifiga ko‘ra qaysi xon saroyini musodara qilishning ikkinchi kunida 300 tagacha qo‘lyozma yig‘ib olindi. Ular orasida 140 tomlik 129 tarixiy insholar, 30 tomli 20 dan ortiq sharq shoirlarining ijodiy majmuasi 40 huquqiy - sha‘riy insholar (50 tom), Qur‘oni Karimning 18 nusxasi, hamda 50 dan ortiq darsliklar bor edi.

A Buxoro xonligi

B Xazar xonligi

C Xiva xonligi

D Qo‘qon xonligi

8. “*Xiva xonlari tarixi*” risolasi kimning qalamiga mansub.

A Muhammad Rahimxon II

B Komil Xorazmiy

C Ogahiy

D Yunus Mirob

9. Xiva xoni arxiviga hozirgi kunda arxiv fondida nechta birlikdagi hujjatlar saqlanmoqda.

A 1500 ta

B 1269 ta

C 10158 ta

D 980 ta

10. Qo‘qon xonligida yer egalari va ularning yer miqdori ko‘rsatilgan ro‘yxatda adabiy tilida qanday nomlangan.

A “jul”

B “parcha”

C “ushr”

D “muboraknoma”

9- mavzu: Buxoro viloyatida arxiv ishining tashkil etilishi

Reja:

- 9.1. Buxoroda sovet tuzumining o‘rnatilishi va arxiv ishi
- 9.2. O‘zbekiston Milliy arxividagi I-126 fondi Buxoro amiriligi qo‘shbegi arxivi topilishi va tartibga solinishi
- 9.3. Rossiya imperatori siyosiy agentligining arxivi tushunchasi
- 9.4. Buxoro viloyatining tashkil etilishi va arxiv tizimi

Tayanch so‘z va iboralar: arxiv byurosi, Zarafshon viloyatida arxiv muassasalari, Amir Olimxon madrasasi, V.L. Vyatkin, siyosiy agentlik, qaydnoma kitobi, Turkiston general-gubernatori, rasmiy hujjatlar, Buxoro viloyati, hujjat saqlovi, ijroqo‘m, ilmiy-texnik ishlov, saqlov birligi, Ko‘kaldosh madrasasi.

9.1. Buxoroda sovet tuzumining o‘rnatilishi va arxiv ishi. Ma'lumki, har bir davlat tarixini yoritishda arxiv hujjatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Tarixiy tadqiqotlarning manbaviy asosini shakllantirish va milliy-madaniy boylik hisoblangan yozma va tarixiy hujjatlarni muntazam ravishda jamlab borish va ularni but saqlanishini ta'minlashda davlat arxivlarining o‘rni muhimdir.

Buxoro shahrining vatanimiz tarixida tutgan o‘rni haqida ortiqcha ta’rif berish shart emas. Xo‘sh, bu hududda tariximiz uchun qimmatli bo‘lgan hujjatlar, qadimiy qo‘lyozmalar saqlanadigan muassasa – arxivlar qachondan boshlab tashkil etilgan va qanday faoliyat yuritgan? Qadim-qadimdan hukmdor saroyida kutubxonalar va devonxonalar mavjud bo‘lsa-da, ular zamonaviy arxiv vazifasini bajarmas edi. XIX asr oxirida tojdorlik qilgan amirlar hujjatlar saqlanadigan devonxonani o‘z qarorgohlarida olib yurganlar. Amir devonxonasiga parvonachi javobgar bo‘lgan. Saroy kutubxonasidan esa faqat amirning ruxsati bilan foydalanilgan.

Buxoroda arxiv muassasalarini tashkil etilishi hududda sho‘ro tuzumining o‘rnatilishi bilan bog‘liq. 1925-yil oxirida Zarafshon, Toshkent, Samarqand, Farg‘onada viloyat arxiv byurolari va 1926-yil boshida Xorazm, Qashqadaryo va

Surxondaryoda viloyat arxiv byurosi tashkil qilindi. 1927-yil okrug maqomi berilishi munosabati bilan viloyat arxiv byurolari okrug nomi bilan qayta nomlandi.

O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komitetining 1935-yil 21-dekabrda qabul qilgan qaroriga ko‘ra Samarqand, Buxoro, Farg‘onadan tashqari hamma shahar va tumanlarda shahar va tuman arxivlari tashkil qilindi. O‘zbekiston SSR Markaziy Arxiv Boshqarmasi (MAB)dan O‘zbekiston SSR Markaziy Davlat Arxivi o‘zining Samarqand, Buxoro, Farg‘ona bo‘limlari bilan ajralib chiqdi.

Buxoro viloyat Davlat arxivi 1925-yilda Zarafshon viloyat arxiv byurosi sifatida tashkil topgan bo‘lib, 1927-yilda Buxoro okrug arxiv byurosiga aylantirilgan.

Buxoroda dastlab arxiv ishini yo‘lga qo‘yish uchun asosiy hujjatlar bazasi sifatida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, Zarafshon viloyati, Buxoro okrugi va Buxoro viloyati ijroya qo‘mitalarining hujjatlari xizmat qilgan.

Agar arxiv tashkil topgan dastlabki davrlarga qaraydigan bo‘lsak, uning og‘ir ahvolda ish boshlaganini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston Milliy Arxivining R-400 fondida saqlanayotgan hujjatlar bunga guvohlik beradi. O‘zSSR MABning 1926-yilgi hisobotida aytilishicha sobiq Buxoro viloyati(oblasti) va TojikistonASSRda arxiv ishi yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan. Eski Buxoroda Zarafshon arxiv byurosi sifatida arxiv organlari tashkil etilgan edi, lekin bu organ ishchilarining to‘liq tasniflanmaganligi, sharoitning yomonligi, mablag‘ yo‘qligidan hujjatlarni tartibga solinmaganligi uchun MAB ularni O‘zMABga topshirishni lozim biladi. O‘zMABda ularni saqlash, tartibga solish ishlari olib boriladi. Bu hujjatlar sobiq Buxoro Respublikasining tugatilgan muassasalari hujjatlari bo‘lib, ular mutlaqo tartibsiz holda saqlangan. Bir qismini Toshkentga yuborish kerak edi.

Birinchi navbatda yuqori ilmiy qimmatga ega bo‘lgan hujjatlar – Nozirlar Kengashi, Harbiy Nozirlik, Xo‘jalik Nozirliqi hujjatlari, bundan tashqari

diplomatik hujjatlar va sobiq Buxoro Amiri arxivi topshirilishi ko‘zda tutilgan⁸⁵. Ko‘rinib turibdiki arxiv fondlari anchagina “boy” bo‘lgan.

Milliy chegaralanish natijasida MAB sobiq Buxoro va Xorazm Respublikalari tarkibidan chiqqan, arxiv ishi umuman yo‘lga qo‘yilmagan yangi viloyatlarda yuqori qimmatga ega hujjatlarning yo‘qolib ketishini oldini olish uchun kam miqdorda kreditlar ajratish orqali ba’zi shtatlarni rivojlantirdi. Chunki bu hujjatlar inqilobgacha bo‘lgan davr va Xalq Respublikalari haqidagi ma’lumotlarni yoritadi. Bu yerlarda arxiv byurolari tashkil etildi.

Lekin ish bu bilan hal bo‘lib qolmasdi. Qilingan ishlar mavjud ahvolni butunlay yaxshilay olmagan. Joylardagi arxiv muassasalari maxsus kadrlar va mablag‘ borasida ko‘p qiyinchiliklarga duch kelgan edi. MAB bosh boshqaruvchisi Ivanov BXSRS tugatilgandan so‘ng u yerlardagi arxiv muassasalarini tekshirib chiqadi va natijalarini yozma ravishda hisobot tarzida O‘z MIK bosh kotibi Cheloguzovga bildirgan edi. Ivanov o‘z hisobotlida quyidagilarni keltiradi: “Zarafshon viloyatidagi arxiv ishi haqida ba’zi ma’lumotlarni 1924-yilgi dokladimga qo‘shimcha qilmoqchiman. Bularga MIK Prezidiumining majlisidagi chiqishim va shaxsiy suhbatlarimni kiritaman.

Gap shundaki, sobiq Buxoro Respublikasida arxiv organlari bo‘lmagan va arxiv materiallari muassasalarda saqlangan. Qisman Zarafshon viloyatining Xalq ta’limi bo‘limi tomonidan to‘plab qolingan. 1924-yil dekabr oyining oxirgi kunlarida Buxoroda bo‘lganimda Zarafshon viloyat arxiv byurosi bilan muzokara olib bordim va buning natijasida Viloyat ijroiya qo‘mitasi arxivchilar shtatini 4 kishiga yetkazishdi (rahbar va 3 ta arxivchi). Yaxshimi-yomonmi guruh Toshkentdan qo‘llanmani qabul qilib olib ishga kirishdi. Lekin ular orasida arxiv qonunchiligini biladigan birorta ham ishchi yo‘q edi. Bundan tashqari ular o‘zbek va rus tillari bilan umuman tanish emas edi va buning oqibatida arxivchilar ishni noto‘g‘ri bajarar edilar. Mening ikkinchi tashrifim ham diqqat markazida bo‘ldi.

Hujjatlar saqlanadigan maxsus xonalarning kamligi, tajribali mutaxassislarning yo‘qligi va ularni boshqa shaharlardan olib kelish masalasi meni

⁸⁵Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.17.

iyun oyida yana Buxoroga tashrif buyurishimga majbur qildi. Viloyat ijroiya qo‘mitasi huzurida ushbu masalani ko‘tarib Ijroqo‘mning diqqatini qaratish kerak edi. Mening rasmiy iltimosimga javoban u: “Shtatlar sonini yana ko‘paytirish ehtiyojdan ortiq. Ularni ko‘paytirish uchun pul yo‘q, ahvolimiz og‘ir. Undan ko‘ra arxiv byurosini Viloyat ijroiya qo‘mitasi huzurida mustaqil bo‘lim sifatida tashkil qilish kerak” deb aytdi. Shunda men Zarafshon viloyat Davlat Reja Qo‘mitasi raisi va viloyat ijroiya qo‘mitasining boshqa a‘zolari bilan hech bo‘lmaganda sobiq Buxoro amirining qimmatli arxivi va butun boshli nozirliklar hujjatlarini talon-taroj qilishdan saqlash haqida kelishib oldim. Buning uchun ularni MAB saqloviga, Toshkentga jo‘natish kerak edi. O‘shanda yuborish sistemasi ishlab chiqildi va viloyat Davlat Reja Qo‘mitasi raisi o‘rtoq Galay muammoni ijobiy hal qilishga va‘da berdi.

Shu bilan muammo davlat nuqtayi nazaridan hal qilingan bo‘ldi. Qimmatli arxiv materiallari talon-tarojdan va tajribasiz arxivchilarning “ishlov”laridan olib qolindi. Viloyat Ijroqo‘mi esa Arxiv byuroning bir inspektoriga maosh to‘lashdan ozod bo‘ldi. Bu inspektor muassasalarga arxivshunoslik bo‘yicha xizmat qilardi. Lekin MABning olib borgan fidokorona muzokaralariga qaramay Zarafshon viloyat Ijroqo‘mining bildirishnomasini qabul qildi, unda viloyat Ijroqo‘m raisi o‘rinbosari o‘rtoq Galayning qaroriga ko‘ra arxivlar faqat MABning pul to‘laganidan so‘ng Toshkentga yuborilishi mumkin. Sobiq Buxoro amiri va sobiq Buxoro Respublikasi Nozirliklarining qimmatli arxivlarini saqlab qolish uchun men XKSdan o‘sha summani so‘ramoqchi bo‘ldim. XKS viloyat Ijroqo‘midan tegishli smetani yuborishni talab qildi. Talabnomaning qat‘iyligiga qaramay ikki oy javobsiz qoldirildi. Viloyat Ijroqo‘mi qaroriga ko‘ra arxiv byuroning ishchilari soni ikki kishi qilib qo‘yildi: rahbar va arxivchi. Shularni bayon qilmoqchimanki, bular mening kasbiy xizmat vazifam hisoblanadi. Menimcha, Zarafshon viloyatida arxiv ishi viloyat Ijroqo‘mi tomonidan to‘xtatib qo‘yilgan. Chunki men 2 kishi bilan yo‘lga qo‘yilgan arxiv ishini ish deb hisoblamayman. Arxiv hujjatlarining orasida tugatilgan eski muassasalarning 1000 puddan ortiq materiallari bor. Agar ikki kishi saqlash ishi bilan shug‘ullansa - hujjatlarga ishlov berish, tizimlashtirish,

ma'lumotnoma berish, yangi arxivlarni qabul qilish ishlarini bajaradigan odam qolmaydi.

Agar bunga viloyat arxiv byurosining volost va uyezdlardagi arxivlarini tartibga solish vazifasini qo'shadigan bo'lsak, Zarafshon viloyatidagi arxiv ishi dastlab to'xtab qolgan va arxiv byurolari hali tashkil qilinmagan Surxandaryo, Qashqadaryo viloyatlari bilan tenglashib qolgan. Boshqa viloyatlarda (Toshkent, Samarqand, Farg'ona) yo'lga qo'yilgan va ishchilar shtatiga munosabatni ko'rib yana bir marta Zarafshon viloyat Ijroqo'miga Arxiv ishiga to'g'ri va Davlat nuqtayi nazaridan qarashini aytish kerak. Bu vaqtda ularda Ijroqo'mning ko'rsatmasiga binoan arxiv muassasalarida ish to'g'ri yo'lga qo'yilib, saqlash va ishchilar soni 4-5 kishini tashkil qilardi (boshliq, inspektor, 1 ta yoki 2 ta arxivchi, mashinistka va qorovul). Zarafshon viloyatida arxiv muassasalari butunlay qarovsiz, ro'yxatga olinmagan, yarmi talon-taroj holda, yig'ilgan materiallarning asosiy massasini eski varaqlar tashkil qiladi. Ular arxiv materiali emas, buning ustiga shtatlarni qisqartirish bilan ovora. Uni texnik qo'riqlash holatiga keltirib qo'yilganligi ko'rinib turibdi. Yuqoridagilarga Ijroqo'mning diqqatini tortish kerak. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Zarafshon viloyatidagi arxiv ishiga yaxshi baho berib bo'lmaydi. Ijroqo'm arxiv byurosi ishchilarini ishga qaytarishi kerak, ularda ishga qiziqish yo'qolgan va bundan faqat arxiv zarar ko'rmoqda. Buni sizga yetkazishni o'z xizmat vazifam deb bilaman"⁸⁶.

Bundan ko'rinib turibdiki, dastlabki paytlarda arxiv ishi rivojiga nafaqat mablag' yoki kadrlar masalasi, balki mahalliy davlat organlar va mansabdor shaxslarning loqaydliklari, beparvoliklari ham to'siq bo'lgan. Bunda arxiv idorasining Markaziy Arxivga emas viloyat Ijroqo'miga ko'proq bo'ysunishi ham rol o'ynagan.

Shunday bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan byuro arxivchilari iloji boricha arxiv ishini yaxshilash uchun harakat qilishgan. 1925-yilning oxiriga kelib arxiv byuroda rahbar o'zgaradi va yangi tayinlangan rahbar – U.Haydarov 1926-yil 17 yanvardagi o'z hisobotida arxivning mavjud ahvoli haqida aytib o'tgan.

⁸⁶ Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2015. –B.29.

Hisobotdan quyidagilarni o‘qish mumkin: “Viloyat Ijroqo‘mining 1925-yil 3-dekabrda buyrug‘iga ko‘ra men viloyat arxiv byurosi boshlig‘i etib tayinlandim. 8-dekabrda o‘z vazifamni bajarishga kirishdim. Sizga arxiv holati haqida qisqacha bayonot bermoqchiman. Hozirgi kunda arxivda 600 birlikda arxiv materiallari saqlanadi. Shulardan 150 birlikda yuqori qimmatli hujjatlar bo‘lib, ular tartibga solingan, lekin tegishli tartibga solingan, ilmiy-texnik ishlov berilgan hujjatlarni uchratmadim. Arxiv byuro shtati hozirda ikki kishidan iborat: rahbar va arxivchi, buni men yetarli deb o‘ylamayman. Viloyat Ijroqo‘mi bilan aloqa sust yo‘lga qo‘yilgan. №4022 sirkulyar hayotga tadbiriq qilinmagan. Hozirgi kunda Viloyat Ijroqo‘mi bilan hamkorlikda №4022 sirkulyarga muvofiq viloyat arxivlarini tartibga solish zarur. Dokladimda yana shuni aytmoqchimanki, 1926-yil 28-yanvarda bo‘ladigan muhokamada Viloyat Ijroqo‘midan arxivchilar shtatini oshirishini va arxiv saqlovxona uskunalarini uchun 200 rubl so‘ramoqchiman. Shuning uchun meni qo‘llab-quvvatlashingizni so‘rayman. Arxiv haqidagi to‘liq ma‘lumotni yig‘ma jildlar bilan tanishganimdan so‘ng jo‘natman. Yuqoridagi ish plankom huzurida ko‘rib chiqiladi”⁸⁷.

Biroq arxiv ishini yaxshilash uchun qilingan bu rasmiy iltimos hech qanday e‘tiborga olinmagan va rahbar bu ishni hal qilish uchun MABning o‘zidan yordam so‘rashga majbur bo‘lgan. Buni biz quyidagi yozishmalardan bilib olishimiz mumkin. Zarafshon viloyat arxiv byurosi rahbarining 1926-yil 23-yanvarda yo‘llagan №160 xatida shunday deyilgan: “Sizga shuni ma‘lum qilmoqchimanki, mahalliy budjetning tanqisligi tufayli mening ikkinchi arxivchi masalasida qilgan murojaatimni Reja komiteti shtat komissiyasi ijobiy hal qilmadi. Azbaroyi arxiv byuro ishiga g‘amxo‘rligimdan sizdan ikkinchi marta davlat budjetidan yil oxirigacha 537 rubl 60 tiyin ikkinchi arxivchi uchun, devonxona xarajatlari uchun 56 rubl ajratishingizni so‘rayman.

Mahalliy tilda yozilgan O‘zMIQning №4022 sonli sirkulyari uyezdlarga jo‘natildi. Ko‘rinib turibdiki, yangi tayinlangan rahbar ilgariyularidan farqli ravishda o‘z kasbiga o‘ta mas‘uliyatli ravishda yondashgan, lekin mavjud tuzum

⁸⁷Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.30.

rahbarlari bunga sovuqqonlik bilan qaraganlar. Bu o'z navbatida arxiv ishi, umuman o'sha davr qimmatli hujjatlari uchun salbiy hol edi, albatta. MABning javobi esa quyidagicha bo'ldi: "Sizning davlat budjetidan 537 rubl 60 tiyin - ikkinchi arxivchi uchun, devonxona xarajatlari uchun - 56 rubl ajratishni so'rab qilgan murojaatingiz umumiy qonun-qoidalarga to'g'ri kelmaydi. Chunki barcha viloyat muassasalari mahalliy budjetdan ta'minlanadi. MABning o'zida 2 000 000ga yaqin tartibga solingan, 1000 puddan iborat ilmiy-texnik ishlov berilmagan hujjatlar bo'la turib shtatlar 14 kishiga keltirib qo'yilgan.

Mart oyining ikkinchi yarmida Qashqadaryo va Surxondaryoga tashrif buyuraman. Yo'l-yo'lakay Buxoroga ham kirib o'taman va Ijroqo'm bilan arxiv byuroda ish sifatini oshirish masalasida ham gaplashaman". Shu bilan bu masala mavjud holicha qolib ketgan. Arxivdagi shtatni ko'paytirish uchun inspektor lavozimini qisqartirmoqchi bo'lishgan. Lekin, inspektor lavozimi katta va ko'p ishlarni bajargani uchun u tugatilsa uning ishini direktor qilishi kerak edi.

Faqatgina bir yildan so'ng arxiv byurosi yangi xodim olishga muvaffaq bo'lgan. Arxiv byurosi rahbari U.Haydarovning 1927-yil 7-yanvarda yo'llagan maktubida bu haqda shunday deyiladi: "Buxoro viloyat arxiv byurosi shuni mamnuniyat bilan bildiradiki budjet yilining ikkinchi kvartalida kredit evaziga yangi uchinchi inspektor shtati ochildi. Buning natijasida arxiv byurosining ishi yanada yaxshilanishi kutilmoqda⁸⁸.

Yuqoridagi hujjatlar va hisobotlardan Buxoroda dastlabki yillarda arxiv ishi yaxshi yo'lga qo'yilmaganini bilib olish mumkin. Lekin XX asrning 20-yillarning oxirlariga kelib ham bu holat yana takrorlanganini kuzatish mumkin. Masalan MABning Zarafshon viloyat arxiv byurosi rahbariga 1927-yil yanvar oyida yuborgan xatlarining birida shunday yoziladi: "Bir necha martalik buyruq va yozishmalarga qaramay navbatdagi oylik hisobotlar sizning viloyat arxiv byurongizdan yoki kelmaydi yoki kechikib keladi. Bu hol Respublika bo'yicha navbatdagi ma'lumotlarni o'z vaqtida berishda qiyinchilik tug'diradi. Bundan keyin ma'lumotlarni o'z vaqtida "A" va "B" shaklida topshiring".

⁸⁸Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2015. –B.31.

Bunga javoban Zarafshon viloyat arxiv byurosi quyidagi mazmunda javob yuborgan: “Zarafshon viloyat arxiv byurosi bundan buyon ma’lumotnomalarni “A” va “B” shaklida topshiradi. Bir vaqtning o‘zida yana shuni aytish kerakki ma’lumotlarimiz tartibsiz bo‘lgani uchun baribir kechikadi”. Bu holat mutaxassislarning yo‘qligidan dalolat beradi, albatta.

Agar arxivning xizmat ko‘rsatish sohasidagi natijalariga qaraydigan bo‘lsak, uning “istemolchilar”i juda ham kamligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, 1926-yil dekabrda hisobotga ko‘ra viloyat arxiviga atigi ikkita tashkilotdan so‘rov tushgan bo‘lib, ularning talablari bajarilgan. Ular quyidagilar:

Zarafshon viloyat ta’lim bo‘limiga – sobiq BXSR davrida Germaniyada o‘qiganlarning ro‘yxatidan 1 nusxa;

Viloyat shahar turar-joy xo‘jaligiga – BXSRning sobiq amaldorlari va sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat ishtirokchilarining ko‘chmas mulklarini musodara qilish haqidagi farmonidan 1 nusxa berilgan.

Fuqarolardan esa 1 ta so‘rov tushgan bo‘lib, Muqmiddin Muiz degan shaxs “Uzbektorg”ning Buxoro bo‘limi haqida ma’lumot so‘ragan va uning talabi qondirilgan. Xuddi shu davrda Zarafshon viloyat arxiv byurosida shtatlar tarkibi – rahbar, 2 ta arxivarius, qorovul-xizmatchidan iborat bo‘lgan⁸⁹.

Ko‘rilayotgan davrimizda arxiv ishini markazlashtirish ishi ham muammolardan xoli bo‘lmagan. Buni quyidagi misollardan bilish mumkin. Zarafshon viloyat arxiv byurosi rahbari Haydarovning 1927-yil 13-dekabrda MABga yo‘llagan xatida quyidagilar yozilgan: “To‘g‘risini aytamizki, O‘zMIKning 19.XI.1926-yildagi qarori va Zarafshon viloyat Ijroya Komitetining qaroriga ko‘ra viloyatning barcha muassasalariga talab qilingan ma’lumotlar ro‘yxatini topshirish buyurilgan edi. Lekin hozirgacha ularning atigi 18 tasi topshiriqni bajargan xolos. Ularga tegishli chora ko‘rishingizni so‘raymiz”.

Boshqa bir hujjatda ham shu holatni qayd etish mumkin. Unda shunday deyilgan: “O‘zMIKning №38 qaroriga asosan 1926-yil 19-dekabrda Zarafshon viloyatidagi barcha muassasa, tashkilotlarga o‘ta qattiq tartibda o‘zlarida

⁸⁹Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.32.

saqlanayotgan amir, sobiq BXSR va milliy chegaralanishdan keyingi arxiv materiallarining opisini 1926-yil 25-yanvardan kechiktirmay topshirish talab qilingan edi. Hozirgi (1927-yil 11-dekabr) kunga qadar Yangi va Eski Buxorodan atigi 16 ta tashkilot talab qilingan hujjatlarni topshirdi. Uyezdlardan esa umuman hech narsa kelgani yo‘q. Eslatib o‘tamizki, O‘zMIKning qaroriga ko‘ra yig‘ilgan materiallarning ro‘yxati va ma‘lumotnomalarni yuborish 1927-yilning 15-fevralidan kechikmasligi kerak edi. Yuqoridagilar munosabati bilan bu ish o‘z vaqtida bajarilmay qoldi. Zarafshon viloyat arxiv byurosi sizdan tashkilot-muassasalarga hujjatlarni o‘z vaqtida topshirishlari uchun tegishli choralarni qo‘llashingizni so‘raydi”⁹⁰. Bundan bilish mumkinki tashkilot-muassasalar arxiv byuro murojaatlariga sovuqqonlik bilan qaraganlar.

1927-yilning boshida MAB barcha viloyatlarga “Arxiv materiallarini tartibli saqlash bo‘yicha qisqacha qo‘llanma”lar tarqatgan. Shuningdek, Zarafshon viloyat arxiv byurosiga ham bu qo‘llanmadan berilgan. Lekin bu qo‘llanmalarni tashkilot-muassasalar va tumanlarga tarqatish masalasida qiyinchiliklarga duch kelingan. Qo‘llanmani tarqatish uchun Ijroya Komitetining bosmaxonasida 150 nusxada chop etish kerak bo‘lgan. Buning uchun Ijroqo‘mdan ruxsat olish kerak bo‘lgan.

Oktabr inqilobining 10 yilligiga bag‘ishlab, Buxoro Respublikasi hayotini yorituvchi hujjatlar Toshkentda e‘lon qilinishi munosabati bilan Adliya Xalq komissarligi sobiq Buxoro Respublikasi tribunali arxiv materiallarini tartibga solish uchun Buxoro okrug sudiga murojaat qilgan. Chunki bu hujjatlar Buxoro okrug sudida saqlanayotgan edi. Tartibga solish mobaynida ularning bir qismini O‘zSSR yuqori sudining Tojik bo‘limiga topshirish nazarda tutilgan. Bu ishlar xarajati uchun 600 rubl mablag‘ talab etilgan. Yustitsiya Xalq komissarligi buncha mablag‘ga ega bo‘lmaganligi sababli Yustitsiya Xalq komissari Gaziyev sobiq Buxoro Respublikasi tribunali arxiv materiallarini tartibga solish uchun Zarafshon okrug sudidan yuqoridagi mablag‘ni ajratishni so‘ragan.

⁹⁰Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.32.

Lekin, ish shu bilan yakuniga yetmagan, yana bir hujjatda MAB boshqaruvchisi Ivanov bu haqda yana Zarafshon okrug sudiga murojaat qilib so‘rov ijrosini tezlatishini so‘ragan. Bularning bir qismi O‘zSSR yuqori sudining Tojik bo‘limiga topshirilishi, qolgan qismi esa Inqilobning 10 yilligiga tayyor bo‘lishi kerak edi.

1927-yil sarhisoblariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin. Aprel oyi davomida faqat 2 muassasadan so‘rov tushgan bo‘lib, ulardan biri O‘rta Osiyo Harbiy okrugining 6-bo‘limi hisoblanadi. Ularga qizil komandir Demchukning “Qizil yarim oy” ordeni bilan taqdirlanganligi haqida ma’lumotnoma berilgan. Yana biri UzSSR Bojxona inspeksiyasi bo‘lib, unga chorizm davrida fuqaro Gandaning bojxonada xizmat qilganligi to‘g‘risida ma’lumotnoma berilgan. O‘quv zali xizmatiga esa hech kim murojaat qilmagan.

1927-yilning 1-choragida hisobot davrining boshida arxivda hammasi bo‘lib 1036 bog‘lam yig‘ma jild va 44 qopda yig‘ma jild va kitoblar bo‘lgan. Hisobot davrida 55 bog‘lam hamda 65 qop yig‘ma jild va kitoblar qabul qilingan. Hisobot davrigacha hech qanday fond kartotekaga kiritilmagan. Hisobot davrida ham bu ish qilinmagan. Olingan materillar bo‘yicha hammasi bo‘lib 5 ta: to‘rtta muassasa va tashkilotlarga, bitta jismoniy shaxsga ma’lumotnoma berilgan⁹¹.

1927-yil may oyida ham o‘quv zalida hech kim ishlamagan. Tashkilotlardan esa Okrug sudining tergov bo‘limiga – Ichki Ishlar Nozirligi moliya bo‘limining 1924-yilgi moliyaviy vedemostlari berilgan. Jismoniy shaxslardan Baqojon Muhammadsharipovga Eski Buxoro qozilari ishidan Sharipovlarning ko‘chmas mulklari bo‘yicha qarorlaridan ma’lumotnoma so‘ralgan. Iyun oyida esa arxivga umuman ariza bilan murojaat qilinmagan. Bundan bilish mumkinki arxiv hali ilmiy-tadqiqot muassasasi sifatida umuman faoliyat yuritmagan.

Shu yilning 2-choragada arxivga 81 bog‘lam va 4 quti(yashik) hujjat qabul qilingan. 85 ta yig‘ma jild tartibga solingan.

⁹¹Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.33.

Arxiv ishi hali to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagan paytlarda hujjatlar vazniga qarab qabul qilingan. Buni biz quyidagi dalolatnomalardan ham bilishimiz mumkin. ”Biz quyida imzo chekuvchilar – Okrstatbyuro rahbari o‘rtoq Kurbanovskiy, ish yurituvchi o‘rtoq Deberdeyev, Arxiv byuro inspektori o‘rtoq Meltser ishtirokida 1927-yil 9-iyunda akt tuzdik. Bunga binoan Okrug Arxiv Byuro qaroriga asosan Buxokrstat byuroga tegishli barcha arxiv hujjatlari Okrug Arxiv Byuroga topshirildi. Hujjatlar 1927 -yil 13- iyun vazniga qarab bog‘lamlarda topshirildi. 3 yashik – 12 pud 17 fut”⁹².

Vaqt o‘tishi bilan arxivga hujjat topshirish keng miqyosda o‘sib borgan. Buni biz Buxoro okrug arxiv byurosining 1928-29-yilning 1-choragi bo‘yicha berilgan hisobotidan bilishimiz mumkin. Hisobot davrining boshida arxiv saqlovxonalarida 2892 bog‘lam, 142 qop, 4 yashik miqdorda hujjatlar bo‘lgan. Hisobot davrida 439 bog‘lam, 7 qop hujjatlar qabul qilingan. Bundan tashqari arxiv byurosi muassasalarning idoraviy arxivlarini ham tartibga solish ishlarini amalga oshirgan. Masalan, hisobot davrida sobiq tribunal arxivining 99 bog‘lam – shundan 3621 sudlov hujjatlari va 654 ta devonxona hujjatlariga ilmiy-texnik ishlov berildi.

Arxiv muassasasida hammasi bo‘lib 9 kishi band, hisobot davrida sakkiztasi tashkilotlarning arxiv materiallariga ishlov berishda ishtirok etdi. 5 ta muassasa va tashkilotlarga, 7 ta jismoniy shaxsga ma‘lumotnoma berilgan.

Arxivga hujjatlarning ommaviy ravishda topshirilishi natijasida byuroga berilgan bino xonalari to‘lib qolib, torlik qila boshlagan. Chunki viloyat arxiv byurosi alohida binoga ega emas edi, balki Okrug Xalq Ta‘lim Bo‘limi bilan bitta binoda joylashgan bo‘lib, binoning katta qismi Okrug Xalq Ta‘lim Bo‘limi hisobida bo‘lgan. Bu bino Minorayi Kalon yonidagi sobiq Amir Olimxon madrasasi⁹³ bo‘lgan. Arxiv byuro rahbari Haydarovning 1928-yil 4 - martda MABga yo‘llagan №-191 sonli xatida shunday deyiladi: “Saqlovxonaga ajratilgan bino hozirgi kunda to‘lib qolgan. Yana fond joylashtirishning iloji yo‘q. Bizning

⁹²Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.34.

⁹³ Amir Olimxon madrasasi-XIX asr oxirida bunyod etilgan bino. Madrasada 63 ta xona bo‘lib, ularning 57 tasi hujralardan tashkil etilgan. Bu inshoot sho‘ro davrida omborxonaga, keyinchalik binoda Ibn Sino nomidagi viloyat kutubxonasi joylashgan edi. Mustaqillik yillarida qayta ta‘mirlangan va bugungi kunga kelib madaniy meros obyektlarni muhofaza qilish inspeksiyasi ro‘yxatiga kiritilgan.

okrug ijroqo‘mi nomiga bir necha martalik qilgan murojaatlarimiz natijasiz qolmoqda. Okrug Xalq Ta’lim Bo‘limidan xona so‘ralgan edi⁹⁴. Lekin Okrug Xalq Ta’limi Bo‘limi xonalarning ko‘pchiligi bo‘sh yotganligiga qaramay buni rad qilib kelmoqda. Okrug Xalq Ta’limi Bo‘limi bu xonalarni o‘z xodimlariga turar joyi (kvartira) qilib bergan. Kelgusida bizning oldimizda arxivlarni qabul qila olmaslik xavfi turibdi. Va biz qabul qilingan hujjatlarni qo‘pol ravishda joylashtirish orqali muammoni hal qilishimiz mumkin”⁹⁵.

Yuqoridagi masalani hal qilish uchun MAB okrug Prokuraturasiga murojaat qilgan. Uning 1928-yil 28-martda Prokuraturaga yo‘llagan xatida quyidagilar yozilgan: “UzSSR MAB sizdan Okrug Arxiv Byurosiga Politprosvet va Okrug XTBDan bo‘sh turgan xonalarni olishiga yordam berishingazni so‘raydi. Biz diqqatingizni ko‘rsatilgan xonalarning mutlaqo bo‘sh yotganligiga qaratishingizni so‘raymiz. Arxiv byuro esa bunga muhtojlik sezmoqda. Chunki hozirgi vaqtda ommaviy ravishda arxiv materiallari qabul qilmoqda”⁹⁶.

Lekin masala bu yo‘l bilan ham o‘z yechimini topmagan. Yana bir necha muddat arxiv byurosi shu muammo bilan qolib ketgan. Bu masala yuzasidana bir necha marta okrug Ijroqo‘miga ham murojaat qilingan. Arxiv byurosi rahbari 1928-yil 27-mayda ijroqo‘mga yo‘llagan 480 sonli xatida shunday degan: “Sizning “Okrug Arxiv Byuro va Okrug Xalq Ta’limi Bo‘limining egallab turgan binosini bo‘shatish to‘g‘risida”gi qaroringiz munosabati bilan Okrug Arxiv Byurosi sizdan beriladigan bo‘lajak binoda quyidagi sharoitlar bo‘lishini so‘raydi: 1) byuro atrofida kvartiralar bo‘lmasin va uning hududidan qatnov o‘tmasin; 2) betonlari yorilgan, sinchli bino bo‘lmasin; 3) binoda yaxshi darvoza va mustahkam eshiklar, panjarali derazalar bo‘lsin. Agar unaqasi bo‘lmasa, darhol tayyorlash kerak. Arxiv fondlarini joylashtirish uchun quyidagicha xonalar zarur:

a) siyosiy seksiya. Siyosiy, inqilobga oid, vaqf hujjatlari, fotosuratlar va negativlar uchun - 15 ta xona; b) harbiy seksiya. Harbiy muassasalarning hujjatlari uchun - 5 ta xona; c) iqtisodiy seksiya. Iqtisodiy va yuridik xarakterdagi hujjatlar

⁹⁴ Okrug Arxiv byuro Xalq Ta’lim Bo‘limi bilan bitta binoda joylashgan edi.

⁹⁵ Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.34.

⁹⁶ Shu kitob.-B.35.

uchun - 20 ta xona; d) o'quv zali uchun - 1 ta xona; e) devonxona uchun - 1 ta xona; f) ombor uchun - 1 ta xona; j) zaxira uchun - 10 ta xona".

Bino masalasi yana bir muddat hal bo'lmagan. Lekin arxiv rahbarining o'z ishiga g'amxo'rliqi, mas'uliyatliligi sababli iyun oyiga borib muammo qisman ijobiy hal bo'lgan. Buni biz Haydarovning 1928-yil 11-iyunda MAB Bosh Boshqaruvchisiga yo'llagan 505-raqamli xatidan bilishimiz mumkin. Unda shunday deyiladi: "Bino masalasida qilgan so'rovlarimizga quyidagilarni qo'shimcha qilamiz: ikki hafta oldin Mukamilovning Moskvadan qaytishi bilan yana bizning bino haqidagi masalamiz ko'tarildi.

Biz Okrug XTB egallab turgan binoning 10 ta xonasini so'ragan edik. Bu so'rov esa mutlaqo rad etilgan edi. Chunki uning bir tomoni Siyosiy Maorif Kengashiniki hisoblanadi, ikkinchidan uning ichiga ta'mirlash jihozlari kirgizib qo'yilgan edi. Shuning uchun okrug ijroqo'mi bizga boshqa arxivga to'g'ri keladigan bino qidirishimizni aytdi. Shahar hududidagi hamma madrasalarning ahvolini tekshirib chiqib, arxiv byurosi shunday to'xtamga keldiki bizga mos keladigan binoning o'zi yo'q. Faqat Hibsxona(Arestoviy dom) sal-pal to'g'ri keladi. Shundan so'ng okrug prokurori bilan Eski Buxoro shahar soveti Hibsxonaga to'g'ri keladigan bino qidira boshlashdi. Bir necha binolarni tekshirgandan so'ng Arxiv byurosi va Okrug Xalq ta'limi Bo'limi egallab turgan binoga to'xtashdi.

Arxiv byurosi bu binoda arxiv saqlovxonasini kengaytirib bo'lmashligini tan oladi. Boshqa tomondan binoni Hibsxona binosi bilan almashtirish agar ozgina ta'mirlanib oqlansa, arxivni ko'chirish uchun kerakli mablag' berilsa e'tiroz qilmaymiz. Okrug ijroqo'mi o'zidan pul ajratishga rozi bo'ldi.

Shahar soveti Okrug Xalq ta'limi Bo'limiga markaziy kutubxona va shahar markazida joylashgan Siyosiy Maorif Kengashining omborini taklif qildi. Ko'chish xarajatlarini qoplash evaziga Okrug Xalq Ta'lim Bo'limi bunga rozi bo'ldi.

Hibsxona egallab turgan bino haqida quyidagilarni aytishimiz mumkin: bino yangi pishiq g'ishtdan tiklangan, 2 qavatli, 2 ta katta hamda 32 ta o'rta o'lchamdagi xonalardan iborat, 3 xonali devonxonasi mavjud. 1 ta xona juda

yaxshi jihozlangan (ambulatoriya) hamda oshxonasi bor. Xonalarning umumiy soni 46 tani tashkil etadi. Bu bino bizga yana 5-8 yilga yetishi mumkin.

Eshiklari mustahkam, derazalari panjara bilan qoplangan. Bino arxivdan uncha uzoq emas va yana elektr yoritish tizimi bilan ta'minlangan.

Agar bizning ko'chishimizga e'tiroz bildirmasangiz Okrug ijroqo'midan bizning quyidagi talablarimizni bajarishiga ko'rsatma berishingizni so'raymiz:1) Arxivni ko'chirishimiz uchun bizni kerakli ishchi kuchi va transport bilan ta'minlash; 2) Mazkur budjet yilining oxirigacha qorovul shtati uchun kredit berish. Ko'chish davrida bizga qorovul zarur; 3) Byuro ko'rsatmasi bilan ba'zi xonalarni oqlab, kichik ta'mirlash; 4) Elektr uzatish tizimini hozirgi holicha qoldirish; 5) Polkalarni yig'ish, eskilarini tuzatish hamda yangi jihozlar uchun kamida 15 rubl ajratish⁹⁷".

Bino muammosi shu bilan tugamagan. 1928-yilning oktabr va noyabr oylarida ham bu masala muammoligicha qolib ketgan. Aftidan Okrug ijroqo'mi bino masalasini ijobiy hal qilib bermagan ko'rinadi. Arxiv byurosi rahbari 1928-yil 29-oktabrdagi №16 va 1928-yil 20-noyabrdagi №26-sonli xatlarida ham bu borada MABga murojaat qilgan.

Yuqoridagiga o'xshash muammolarning bo'lishiga qaramay Buxoro arxivchilari ishga nisbatan munosabatni hech ham susaytirmaganlar. Faqatgina muassasalar tomonidan topshiriladigan hujjatlar bilan chegaralanmay, boshqa turdagi tarixiy ahamiyatga ega hujjatlarni arxivga jalb qilishga harakat qilganlar. Bunga arxiv rahbari Haydarovning MABga yozgan 1928-yilgi xatini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bunda shunday deyiladi: "Arxiv Byuro Okrug ijroqo'mi tashabbusi bilan barcha fotografiya, tipografiya namunalari Buxkomstarisga, bosma nashrlar va fotosuratlarni "Ozod Buxoro" gazetasi tahririyatiga ro'yxatga olishni taklif qilgandi.

Arxiv byurosining fotosuratlarni ro'yxatga olish va foydalanish munosabatlari GPUning siyosiy-nazorat bo'limi tomonidan belgilab qo'yilgan. Hozirda aniqlanyaptiki, fotografiyalarning katta qismida faqat negativlar (plyonka

⁹⁷Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2015. –B.37.

va shishalar) saqlangan. Negativlar arxiv byurosida saqlanadimi, yo‘qmi? Ularni qaysi muddatgacha qabul qilishimiz kerak. Okrug litografiyasida va tahririyatda qimmatbaho va qo‘lyozmalarning klishesi saqlanib kelingan. Klishelar bizning ro‘yxatimizda turadimi, yo‘qmi? Okrug muassasalarining katta qismida o‘z kutubxonasi bo‘lib, ularda bosma nashrlar(adabiyotlar), broshura, to‘plamlar, qonunlar bor. Ularning hammasi bizning ro‘yxatimizda turishi kerakmi? Korxonalar tugatilgandan so‘ng ularni qabul qilishimiz kerakmi? Savollarning javobi muhimdir. Javobingizni kutamiz⁹⁸”.

MAB bu masalaga 1928-yil 25-martda yozgan 396-sonli xatida oydinlik kiritib o‘tgan. Unda shunday deyiladi: “UzSSR Xalq Komissarlar Sovetining №37 qaroriga binoan sovet bosma nashrlari, adabiyotlarga ham tegishli, nafaqat ommaviy-tarixiy ahamiyatga ega, balki ilmiy-tarixiy ahamiyatga ega materiallar ham arxivlar ro‘yxatida turishi va topshirilishi kerak.

Fotosuratlar keladigan bo‘lsak, Arxiv byurosi ulardan bir nusxasini kartochka qilib olishi kerak, negativilarni emas, chunki ularni saqlash uchun maxsus bino, yashiklar, moslamalar kerak bo‘lib, ular sizda yo‘q. Negativilarni ko‘rib chiqib, tarixiy lavhalar aks ettirilganlaridan bittadan nusxa chiqarib olinishi kerak.

Shuning uchun negativlar talab qilingan suratlar qabul qilingunga qadar ro‘yxatda turishi kerak. Korxonalar huzuridagi kutubxonalarga kelsak, ular ro‘yxatda turadi. Agar muassasalar tugatiladigan bo‘lsa, hamma bosma materiallar arxivga berilishi kerak. Kitoblar, broshuralar, sotuvda bor bo‘lgan badiiy adabiyotlarni esa Kasaba uyushmasi yoki biron bir umumiy kutubxonaga berish mumkin⁹⁹”.

Arxiv byuroning 1928-yilgi umumiy faoliyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, o‘sha yildagi hisobotda quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin. Hisobotgacha fondlarning umumiy miqdori 498 bog‘lam, 108 qop, 4 yashikni tashkil qilgan. Hisobot davrida 261 bog‘lam qabul qilingan. Hisobotgacha 80 ta fond kartotekaga

⁹⁸Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.38.

⁹⁹ Shu kitob.-B.39.

kiritilgan. Hisobot davrida esa 93 ta muassasaning fondlari 358 varaq qilib kartotekaga kiritilgan. Birorta ham fond nomlanmagan. Jismoniy shaxslardan 6 kishiga, muassasalarning ham oltitasidan so'rov tushgan bo'lib, barchasi qondirilgan. Bu esa 1927-yilgi ko'rsatkichlardan ancha yuqori hisoblanadi.

O'tgan asrning 30-yillarida ham byuro xodimlari shaxsiy fotosuratchilardan tarixiy ahamiyatga molik fotosuratlarni qabul qilishni davom etganlar. Arxiv byuro rahbari Haydarovning MAB bosh boshqaruvchisiga 1930-yil 27-fevralda yo'llagan 138-sonli xatida shunday yozgan: "Hozirgi kunda fotograf Ivan Xmelovdan negativlarni saralab olish yakunlandi. Hammasi bo'lib 581 ta negativ va 1 dona portret (Amirning podsho amaldorlari bilan o'z saroyida tushgan surati, 40x50) olindi. Hammasi bo'lib 21 quti ko'rildi. Qismlarga bo'lib pavilyonga - saqlanadigan joyga olib keldik. Qo'lga kiritilgan negativlarning opis-ro'yxatlari tuzildi, lekin ularning yarmiga sana qo'yilmadi. Chunki o'rtoq Xmelev suratlarni qachon olganini unutgan ekan, ba'zilarini hatto o'ziniki ekanini eslolmaydi. Bizga qaysi yo'l bilan bo'lmasin ularning aniq sanasini aniqlash va to'liq ma'lumot yozishga to'g'ri keladi. Undan so'ng tuzilgan opislarni sizga yuboramiz.

Bir vaqtning o'zida shuni yana ma'lum qilmoqchimizki, 1924-1926-yillarda Buxoroda Bochkaryov fotografiyasi bo'lgan (Buxorodagi eng yirik fotografiya). Bochkaryov 1926-yilda vafot etgan. Vafotidan oldin o'z arxivini xotiniga meros qilib qoldirgan. Aniqlanmagan ma'lumotlarga ko'ra bu arxivning bir qismi Buxoroda kimningdir qo'lida saqlanayotgan emish (Bularni Xmelev yozma ravishda bildirdi)¹⁰⁰.

Markaziy Arxiv ham o'z navbatida bu masalaga o'z munosabatini bildirgan. MAB bosh boshqaruvchisi Ivanovning Buxoro okrug arxiv byurosiga 1930-yil 8 martda yo'llagan 428-sonli javob xatida quyidagilar yozilgan: "Okrug arxiv byuro inspektori o'rtoq Melsler tomonidan fotograf Xmelevdan olingan fotomateriallarni qimmatligini hisobga olib, zudlik bilan ularni tartibga solinishini hamda opisi tuzilib 1 nusxasini UzSSR MABga ko'rib chiqish uchun

¹⁰⁰Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2015. –B.39.

yuborishni taklif qilamiz. Bir vaqtning o'zida UzSSR MAB sizdan o'zingizda mavjud bo'lgan fotomateriallarning opisini tuzishni tezlashtirib, ularni ham birgalikda MABga yuborishingizni so'raymiz.

Fotomateriallar paketlarda(nomlari yozilgan) saqlanishi kerak. Bundan tashqari fotohujjatlarni saqlashga mo'ljallangan shkaflar bo'lishi kerak. Asosiysi bu turdagi hujjatlar yong'indan ehtiyot qilinishi zarur. MAB sizdan arxivdagi ahvol talabga javob berish bermasligini ma'lum qilishingizni so'raydi.

Bir vaqtning o'zida Bochkaryov haqidagi so'rovingizga ham javob berib o'tamiz. Bochkaryovga tegishli fotohujjatlarga nisbatan UzSSR XKS qarori("Tarixiy, siyosiy va maishiy ahamiyatga ega fotomateriallarni tartibga solish to'g'risida") bo'yicha ish tuting. Agar arxiv byuro buni mustaqil ravishda amalga oshira olmasa okrug yuqori organlariga va Prokuroturaga murojaat qilinsin. Agar bu organlar tomonidan yordam ko'rsatilmasa yoki ularning yordamiga ham qaramay tortib olinolmasa, darhol markaziy arxivga xabar qilinsin"¹⁰¹.

1931-yilga kelib arxiv ishi yana sustlashib ketgan desak xato bo'lmaydi. 1931-yilning 24-28 - avgust kunlari MAB inspektori S.V.Volin xizmat safari bilan Buxoroda bo'lgan. Xizmat safari davomida mavjud ahvol haqida doklad tuzgan va dokladiga quyidagilarni kiritgan: "Men 24-avgustda Buxoroga kelib tushdim. Lekin arxiv byurosiga taqiqlangani uchun darrov kira olmadim. Faqatgina 26-avgustdagina men buning tagiga yetishga muvaffaq bo'ldim. Arxiv byurosi rahbari Haydarovning ta'tildan qaytishi bilan u bo'shsh haqida ariza berdi. Arxiv avval ZAGS xodimlaridan biriga, keyin Okrug Xalq Ta'lim Bo'limiga qoldirilgan. Men kelgan paytda esa vaqtincha o'rtoq Boboqulov rahbar qilib tayinlangan edi. U arxiv ishi bilan umuman notanish kishi edi.

Bizning "Shtatlarni oshirish to'g'risida"gi qarorlarimiz shahar sovetiga allaqachon yetib kelgan. Lekin e'tiborsiz qoldirilgan. U hech kimni qiziqdirmagan. 27-avgust kuni men Haydarovni ham, Boboqulovni ham topib arxivni ko'zdan kechirdim. Arxiv amir madrasasining 14 ta katta bo'lmagan xonalarini egallagan. Binoning qolgan qismini kutubxona egallagan. Bino anchadan beri ta'mirlanmagan

¹⁰¹Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2015. –B.40.

bo'lsa-da, ancha mustahkam bo'lib, ba'zi tuzatishlar qilingan. Xonalarning ba'zilari stellajlar bilan jihozlangan. Ba'zilarida hujjatlar polda yotibdi. Barcha arxiv materiallari tartibli holda, opislari bor, 1923-1927-yillarga oid katta qismini makalaturaga ajratish kerak.

28-avgustda Shahar soveti raisi va uning o'rinbosari bilan Haydarovni arxiv rahbari etib tayinlash haqida kelishib oldik. Unga Markaziy Arxiv Boshqarmasi hisobidan 150 rubl, ikkinchi shtat birligiga esa Shahar sovetining Okrug Xalq Ta'lim Bo'limiga beradigan mablag'idan haq to'lanadigan bo'ldi. Men Haydarovga remont va makulatura masalasini tezroq hal qilish taklifini bildirdim"¹⁰².

Sho'ro tuzumi davridagi dastlab tashkil etilgan arxiv ishiga umumiy baho beradigan bo'lsak turli xil muammolar, kamchiliklar, yetishmovchiliklarning talaygina ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bular – mablag', bino, mutaxassis kadrlarning yo'qligi va shunga o'xshash kamchiliklardan iborat bo'lgan. Bularning yechimi ko'p hollarda davlat hokimiyati vakillarining ixtiyorida bo'lgan. Lekin xodimlarning o'z kasblariga bo'lgan sadoqatlari va mehrlari sababli arxiv materiallari bizgacha saqlanib qolgan.

9.2.O'zbekiston Milliy arxividagi I-126 fondi Buxoro amirligi qo'shbegisi arxivi topilishi va tartibga solinishi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligining iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotini aks ettirgan O'zbekiston Milliy Arxivining I-126 "Buxoro amirligi qo'shbegisi"deb nomlangan va I-3 -"Buxorodagi rus siyosiy agentligi" fondlari o'ziga xos tarixga ega.Bu kabi fondlarni ilmiy muomalaga kiritish orqali nafaqat amirlikning ijtimoiy siyosiy hayot tarixini o'rganish, balki amirlik hukumat idoralarning ish yuritish tartibi va muassasalari tarixini tadqiq etish mumkin.

Yozma ma'lumotlarga ko'ra Qo'shbegi arxivi Buxoro Arkidan o'tgan asrning 30-yillarida topilgan bo'lib,uning Toshkentda faoliyat yuritgan Markaziy

¹⁰²Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2015. –B.41.

Davlat Tarix arxiviga topshirilishi, ya'ni markaz Toshkentga olib kelinishi o'sha davrdagi murakkab iqtisodiy-siyosiy vaziyatda amalga oshirilgan¹⁰³.

BXSR ma'naviy ishlar Noziri Musojon Saidjonov tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro amirligida ikki turdagi arxiv hujjatlari mavjud bo'lib, ular: 1) amirlik devonxonasi arxiv hujjatlari; 2) Buxoro amirligi qo'shbegisi arxividan iborat bo'lgan.

Amirlik devonxonasi arxiv hujjatlarini hukmdor o'z qarorgohida saqlagan. Masalan, amir Muzaffar ularni Sherbudinda saqlagan bo'lsa, uning o'g'li Abdulahad arxiv hujjatlarini o'zi bilan Karmanadagi qarorgohiga olib ketgan edi. Amir Olimxon davrida esa hujjatlar Buxoro shahriga olib kelingan va amir devonxonasida parvonachi javobgarligida saqlangan.

Taniqli samarqandlik o'lkashunos va sharqshunos olim V.L.Vyatkinning XIX asrning oxirida V.V.Bartoldga yozgan xatida amirlikda davlat hujjatlarining saqlovi xususida quyidagilar bayon etilgan: "Men to'plagan ma'lumotlarimga ishonib shuni aytamanki, amirning o'z kutubxonasi mavjud. Men shubha uyg'otmaslik uchun samarqandlik bir sart bilan Arkka borib, ehtiyotkorlik bilan so'ragan savollarimga saroy amaldorlari Arkda haqiqatan ham kutubxona borligi, lekin amirning boshqa ichki xonalari kabi uni faqat amirning shaxsiy ruxsati bilan ko'rsatish mumkinligini aytdilar. Keyinchalik amir saroyini ta'mirlagan bir tatarning menga bergan ma'lumotiga ko'ra, u kitob, o'rama va qog'ozlar bilan to'ldirilgan uch katta xonalarni ko'rgan ekan. Arkdan kelgan muqovachilardan biri kitob va qo'lyozmalarni muqovalab turgan. Keyinchalik eshitishimcha, amir bir vaqtning o'zida davlat arxivi sanalgan o'z kutubxonasini ruslarga ko'rsatishni xohlamagan. Chunki kutubxonada ruslarga yoqmaydigan biror narsa yoki umuman boshqalarga ko'rsatilmadan sir saqlanishi lozim ma'lumotlar bo'lganligidan amir xavfsiragan. Umuman amir ularni ko'rsatishdan ko'ra, yashirishni ma'qul ko'rgan"¹⁰⁴. Atoqli tarixchi M.A.Abduraimovning fikriga ko'ra,

¹⁰³ To'rayev H.H. Bir arxiv tarixi. //Buxoro haqiqati. 1987 -yil. 4 aprel.

¹⁰⁴ Лунин Б.В. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении.-Ташкент:Наука,1965.-С.178.

Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlari Buxoro bosqini vaqtida qizil askarlar tomonidan olib ketilgan va uning keyingi taqdiri noma'lumligicha qolib ketgan.

Bugungi kunga kelib O'z MA ning I-126 fondida Buxoro amirligi devonxonasiga tegishli 5000ga yaqin hujjat saqlanib, ularning hammasi qo'shbegi nomiga yuborilganligi uchun qo'shbegi arxivi hujjatlari tarkibiga kiritilgan¹⁰⁵.

Buxoro amirligi qo'shbegisi arxivi o'z davrining ilg'or kishisi bo'lgan qo'shbegi Mirzo Nasrullo davridan boshlab tizimlashtirilib, tartibga solingan. Hujjatlar yerto'ladagi sandiqlarda saqlangan. Biroq undan keyingi qo'shbegi Usmonbek hujjatlarni saqlashga sovuqqonlik bilan yondashganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud.

Buxoro amirligi sovet hokimiyati tomonidan bosib olinishi vaqtida militsiya va XKK(Xalq komissarlari kengashi) organlari Ark yerto'lasidan bir necha hujjatlar saqlangan sandiqlarni topganlar. Hujjatlarning bir qismi tokchalar va yerda yotgan bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra, mazkur hujjatlar amir amaldorlari tomonidan tashlab ketilgan davlat hujjatlari bo'lgan. Nazorat organlari ushbu hujjatlarni tartibsiz hamda hech qanday ro'yxatsiz qutilarga joylab, Xalq Nozirlar Kengashiga yuborgan. Ushbu hujjatlar Tashqi ishlar nozirligi binosining yer to'lasida O'zSSR tuzilgunga qadar saqlangan. 1924 -yilgi milliy-hududiy chegaralanish paytida Muso Saidjonov raisligida hujjatlarning ma'lum qismiga dalolatnoma tuzilib, Buxoro davlat kutubxonasiga topshirilgan.

Dalolatnomada 69 bog'lam, 52 daftar, 50ta kitob shaklida sharq hujjatlari kiritilgan. Davlat kutubxonasida saqlanib kelingan qo'shbegi arxivining bir qismi M.R.Hakimov tomonidan tartibga solingan. 1932-yil 1-dekabrda Kutubxona sharq sho'basi vakili Nurullayev tomonidan Buxoro viloyat arxiv byurosiga topshirilgan¹⁰⁶. Keyinchalik, Buxoro viloyat arxiv byurosi mudiri Haydarov yuqoridagi hujjatlarga qo'shimcha tarzda qo'shbegining ikki daftarini Buxoro davlat muzeyiga topshirgan.

¹⁰⁵ O'z MA, I-126-fond, 1-ro'yxat, kirish so'zi, 4-varaq.

¹⁰⁶Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.18.

Arxivning ikkinchi qismi Buxoroda sovet hukumati oʻrnatilgandan soʻng 1920-yil sentabr oyining boshlarida BXSrga yuborilgan Markaziy arxiv ishi boshqarmasi(MAIB) bosh boshqaruvchisi D.I.Nechkin boshchiligida sharqshunoslar: akademik V.V.Bartold va A.E.Shmid, Maorif xalq komissariati (Narkompros) kutubxona boʻlim boshligʻi A.A.Garitskiy, Sharqshunoslik institutining direktori M.S.Andreyev, arxeolog va MAIB ning ilmiy xodimi V.L.Vyatkinlardan iborat maxsus komissiya tomonidan shakllantiriladi¹⁰⁷. Komissiyaga zudlik bilan hududdagi arxiv hujjatlari, qoʻlyozma kitoblar, qadimgi sanʼat namunalari asrash boʻyicha choralar koʻrish vazifasi yuklatiladi. Agar komissiya tomonidan tarixiy manbalarni talon-taroj qilish yoki yoʻq boʻlish xavfi aniqlangan hollarda Buxoro inqilobiy qoʻmitasi bilan hamkorlikda bunday holatni oldini olish ular ichidagi alohida qimmatli hujjatlarni Toshkentga olib kelib, Xalq Maorif Komissariyati tasarrufiga topshirishni tashkil etishi kerak edi. 1920-yilning 30-sentabridayoq olib borilgan oʻrganishlar asosida tarixiy-madaniy merosni saqlash masalasini muhokama qilish uchun komissiya majlisi oʻtkaziladi.Unda Buxorodagi barcha vaqf hujjatlari va qoʻlyozmalarni maʼlum bir ishonchli xonada yigʻish toʻgʻrisida kelishib olinadi. Buxoro hukumatidan toʻplangan hujjatlarni hech bir boshqa muassasalarga bermaslik soʻralgan edi. Mazkur taklifni BXSr hukumati tomonidan qabul qilinishi bilan birga arxiv hujjatlarini respublikadan olib chiqib ketish oʻrniga ulardan nusxa olish haqida kelishib olindi. Keyinchalik ushbu qaror Turkkomissiya tomonidan maʼqullandi. Bundan tashqari D.I.Nechkin BXSr nozirlar Kengashi raisi Fayzulla Xoʻjayev bilan Buxoro hukumatining mablagʻi evaziga hududda alohida arxiv muassasasini tashkil etishga ham kelishib oladi.

Maʼlum bir vaqt mazkur arxiv hujjatlari va kelishuv shartlari unutilib ketadi. Arxivning birinchi qismi 1931-yilning dekabr oyida Arkning bekitib tashlangan yertoʻlasidan topilib, Buxoro Davlat muzeyi saqlovida topshiriladi. Bu arxiv 50 pud tartibsiz, yirtilgan, uzilgan, gʻijimlangan, loy qogʻozlar uyumi koʻrinishiga ega edi. 1932-yilning 22-avgustida hujjatlarni tartibga solish uchun

¹⁰⁷Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.18.

Buxoro Davlat muzeyi MAIBga yuborishi belgilab qo'yilgan edi. Shartnomaga asosan Qo'shbegi arxivi hujjatlarini tartibga solish uchun 4000 rubl mablag' ajratilgan¹⁰⁸.

Mazkur mablag' muzey rahbariyati tomonidan: qog'ozlarni chang, loy va dog'lardan tozalash, yirtilganlarni ta'mirlash, shu bilan birgalikda hujjatlarni guruhlariga ajratish ishlariga sarflangan. Hujjatlarni dastavval 1931 -yil dekabrda Buxoro Davlat muzeyi direktori Ashurov, arxeolog V.A.Shishkinlar quyidagi tarzda guruhlagan: 1.Amirga beklar va yirik amaldorlardan yuborilgan xabarlar, ma'lumotlar: a) viloyat va tumanlardan yuborilgan xabarlar; b)qo'shbegining ma'lumotlari; c) munshining (davlat kotibi) taqdimnomalari. 2.Amirning o'z qo'li bilan yozgan yozuvlari: a) maxsus; b) shaxsiy. 3.Amirning har xil shaxsiy hujjatlari. 4.Siyosiy ishlar bo'yicha har xil xabarlar. 5.Amir nomiga maxfiy ma'lumotlar (har xil ishlar bo'yicha). 6.Rus siyosiy agentligi bilan yozishmalar. 7.Beklardan qo'shbegi nomiga yuborilgan xabarlar. 8.Qo'shbegining rus ma'murlari bilan yozishmalari. 9.Moliyaviy hujjatlar: a) kirim va chiqim ma'lumotlari; b) pul hujjatlarining har xil turlari. 10.Harbiylar, ruhoniylar va amaldorlarning ro'yxati. 11.Mulkka egalik hujjatlari (vasiqalar).12.Yer-suv ishlari bo'yicha hujjatlar. 13.Temir yo'l hujjatlari va pochta-telegraf vedemostlari. 14.Har xil qog'ozlar: gazeta va jurnallar, guvohnomalar, pasportlar, ma'lumotnomalar¹⁰⁹.

Biroq hujjatlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, belgilangan muddatda shartnomaning barcha bandlarini Buxoro Davlat Muzeyi to'liq bajara olmagan. Masalan, muzey rahbariyati mahalliy manfaatlardan kelib chiqib pulning katta qismini hujjatlarni suratga olish va nusxa ko'chirishga sarflagan.

Keyinchalik Buxoro qo'shbegisi arxivini guruhlash maqsadida 1933-yilda maxsus komissiya tuzilgan. Uning tarkibiga Buxoro Davlat Muzeyi direktori vazifasini bajaruvchi A.S.Dmitrov, Buxkomstaris vakili – V.A. Shishkin, muzey konsultanti va Buxoro Davlat Muzeyi ilmiy kengashining kotibi N.E Shmidt hamda qo'shbegi arxivini tekshirayotgan M.R.Hakimovlar kirgan.

¹⁰⁸Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2015. –B.19.

¹⁰⁹ Shu kitob.-B.20.

Komissiya muzeydagi qo‘shbegi arxivi hujjatlarini tekshirib chiqib 16 guruh: 1.Moliyaviy hujjatlar: a) kiritim va chiqim farmonlari; b) moliyaviy hujjatlarni tasdiqlaydigan farmonlar. 2.Amir nomiga iltimos va ma’lumotlar: a) viloyat va tumanlardan; b)kotiblarning ma’lumotlari; c)qo‘shbegi va boshqalarning bayonnomalari. 3.Harbiy xizmat amaldorlarining ro‘yxati: a)ruhoniylar va boshqalar. 4.Amir yozishmalari va uning farmonlari. 5.Qo‘shbegi nomiga iltimos va xabarlar. 6.Qo‘shbegining javoblari. 7.Siyosiy agentlik bilan yozishmalari. 8.Biletlar, ma’lumotnomalar, guvohnomalar. 9.Telegrammalar, gazetalar va jurnallar. 10.Har xil qog‘ozlar. 11.Siyosiy agentlik bilan olib borilgan muhim yozishmalar. 12.Amirning shaxsiy hujjatlari.13.Amirning siyosiy ma’ruzalari. 14.Amirning iqtisodiy ma’ruzalari. 15.Maxfiy ma’lumotlar. 16.Qo‘shbegining siyosiy agentlik amaldorlari bilan ba’zi yozishmalariga ajratgan¹¹⁰.

Mazkur ishlarni amalga oshirish uchun muzey direktori vazifasini bajaruvchi A.S.Dmitrov arab tili va amir devonxonasi ishi xususiyatini yaxshi bilgan sobiq amir amaldorlari: Qori Ahmad Muhammedov va Ibrohim Xalilovlarni amirlik hujjatlarini guruhlariga bo‘lib ro‘yxatlari(opis)ni tuzishga taklif etadi¹¹¹. Mutaxassislar hujjatlarning aksariyatida sana bo‘lmaganligi sababli ularni guruhlashda xronologik tartibdan voz kechish hamda qog‘oz shakli har xil bo‘lgan (ba’zi hujjatlar bir necha metrlik o‘ramlardan iborat)ligi uchun muqovalarga joylashtirmaslikka qaror qiladi. Arxiv saqlov birligi sifatida kanop bilan bog‘langan har bir bog‘lamlarni qabul qilishga kelishib olingan edi.

Hujjatlarni tartibga keltirish 1934-yilning 14-mayida yakunlanib, hammasi bo‘lib ro‘yxatga kiritilgan 77 764 ta hujjat 54 mavzuga va 268 ta bog‘lamga ajratilgan¹¹². Buxoro amirligi qo‘shbegisi arxivining bir qism hujjatlari Qori Ahmad Muhammedov va Ibrohm Xalilovlar tomonidan tuzilgan opislar bilan 1938-yilda Toshkentga, O‘zSSR Markaziy Davlat Tarix arxiviga yuboriladi.

O‘zSSR Markaziy Davlat Tarix arxivida amirlik hujjatlariga tuzilgan ro‘yxatlardan foydalanishda anchagina qiyinchiliklarga duch kelingan.Yuqorida

¹¹⁰Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.20.

¹¹¹O‘z MA, I-126-fond,1-ro‘yxat,515a-ish,8-varaq.

¹¹²O‘z MA, I-126-fond,1-ro‘yxat,515a-ish,9-varaq.

qayd etilganligidek, muzeyda saqlov birligi sifatida butun bog‘lam olingan bo‘lib, ularning ichidan tadqiqotchilarga hujjatlarni mavzu bo‘yicha qidirib topishda jiddiy qiyinchiliklar tug‘dirar edi.

Arxivda olib borilgan uzoq muhokamalar va sharqshunoslarning maslahatlari bilan 1955-yilning mayida O‘z SSR Ichki ishlar Ministrligi Arxiv bo‘limi huzurida faoliyat yuritgan Ilmiy kengash majlisi qaroriga asosan har bir hujjat annotatsiyasini tuzish ishlari boshlangan edi. 1958-yilga kelib O‘zSSR Markaziy Davlat Tarix arxivi Oktabr Revolyutsiyasi Markaziy Davlat arxivi bilan birlashtirilishi natijasida yagona Markaziy Davlat arxivi tashkil etiladi.

1959 -yilning 10- dekabrda Buxoro muzeyidan O‘zbekiston Markaziy Davlat arxiviga qo‘shbegi arxivining qolgan hujjatlari ham topshiriladi¹¹³. 1967-yilning yozida O‘zSSR MDA xodimlari K.Ubaydullayev va A.Babayans tomonidan “Buxoro amirligi qo‘shbegi arxivi” fondining inventar katalogini tuzish bo‘yicha ishlar to‘liq tugatiladi. Amalga oshirilgan ishlar o‘z vaqtida tarix fanlari doktori M.Abdurahimov tomonidan yuqori baholandi. Ikki yildan keyin mutaxassislar tomonidan I-126 fondning oxirgi variantdagi ro‘yxatini tuzish ham nihoyasiga yetkaziladi. 1988 -yilning aprelida fond tarkibiga kiritilgan barcha hujjatlar alohida qimmatli hujjatlar tarkibiga kiritilgan. Hozirgi kunda fondda jami 9500ga yaqin sharq tilidagi arxiv hujjatlari saqlanib, ular Buxoro amirligining XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi tarixini yoritishda muhim manba sanaladi.

9.3. Rossiya imperatori siyosiy agentligining arxivi tushunchasi.

Imperiya hukumati O‘rta Osiyoda o‘z mavqeyini mustahkamlash maqsadida vakillik muassasalarini tashkil etgan. Bu kabi muassasalar Xiva xonligida Amudaryo bo‘limi boshlig‘i zimmasiga yuklatilgan bo‘lsa, Buxoro amirligi hududida bu vazifani 1886-yilda tashkil etilgan Rossiya imperatori siyosiy agentligi bajargan.

Buxorodagi rus siyosiy agentligi tashkil etilganidan so‘ng bu tashkilotning rasmiy idoraviy va xo‘jalik hujjatlarini yuritish uchun maxsus devonxona faoliyat

¹¹³O‘z MA, I-126-fond, 1-ro‘yxat, 515a-ish, 11-12-varaq.

olib borgan. Devonxonada bevosita rasmiy hujjatlar yuritilishi sababli agentlik faoliyati doirasidagi hujjatlar jamlanmasi shakllangan.

Bu hujjatlar jamlanmasi siyosiy agentlik huzurida tashkil etilgan arxivda saqlangan. Buxorodagi siyosiy agentligida arxiv ishini tashkil etishdan asosiy maqsad, agentlikdan joʻnatiladigan va agentlikka kelib tushadigan hujjatlarni jamlash va tartibga solib turish boʻlgan. Shu bilan birga, arxiv faoliyatining muhim tomoni Tashqi ishlar vazirligi, Turkiston general-gubernatorligi, general-gubernatorlik huzuridagi diplomatik amaldor kabi muassasalarning rasmiy murojaatiga asosan agentlik arxivida saqlanilayotgan kerakli hujjatlarning asl yoki nusxasini taqdim etish edi.

Siyosiy agentligi arxivining tashkil etilishi dastlab Turkiston general-gubernatorligi huzuridagi diplomatik qism amaldori vazifasida, keyinchalik amirlikdagi birinchi rus siyosiy agenti lavozimida faoliyat olib borgan N.V.Charikov nomi bilan bogʻliq¹¹⁴. N.V.Charikov siyosiy agentligi ishini tashkil etish maqsadida Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi va oʻzi faoliyat olib borgan general-gubernatorlik huzuridagi diplomatik qismda saqlangan va bevosita Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bogʻliq boʻlgan hujjatlarni oʻzi bilan birga Buxoroga olib kelgan(qarang: jadval №1).

Siyosiy agentlik arxivi ikki qismdan, yaʼni umumiy va maxfiy hujjatlardan iborat boʻlgan¹¹⁵. Aynan shunday tasniflash siyosiy agentlik hujjatlarini roʻyxatga olish uchun belgilab qoʻyilgan.

Bu kabi tadbirlar siyosiy agentlikda har yili oʻtkaziladigan boʻlib, unda buyum va hujjatlar roʻyxati qayd etilgan. Ushbu roʻyxat qaydnomalariga binoan siyosiy agentlik arxivida saqlanayotgan hujjatlarning davriy chegarasi 1888 -yil bilan boshlangan. Mazkur sana bevosita Buxorodagi rus siyosiy agentligi faoliyatini tashkil etishdan keyingi davrga oid hujjatlar jamlanmasiga asoslanib belgilangan boʻlishi mumkin.

¹¹⁴Charikov N.V.-1855-1930-yillarda yashagan. 1883-1885-yillarda Turkiston general-gubernatori Diplomatik qism amaldori. 1886-1890-yillarda Buxorodagi rus siyosiy agenti, 1896-1897 -yillarda Bolgariyadagi diplomatik agent, 1897-yilda Berlin elchixonasida maslahatchi sifatida ishlagan.1900-yildan Serbiyada, 1905-Niderlandiyada elchi, 1907-1909 Tashqi ishlar vaziri, 1909-1912 Konstantinopolda elchi lavozimlarda faoliyat koʻrsatgan.

¹¹⁵Oʻz MA, I-3-fond, 1-roʻyxat, 753-ish, 22-23-varaq.

Rossiya imperatorining Buxorodagi siyosiy agentligi
Arxivini tashkil etishga asos bo'lgan hujjatlar jamlanmasi¹¹⁶

T/r	Yili	Raqami	Hujjat nomi
Turkiston general-gubernatorligi huzuridagi diplomatik qismdan			
1	1885	№15	Buxoro shahri bilan olib borilgan pochta aloqalari
2	1885	№24	Doktor Loserning Qarshi, G'uzor, Shahrisabzda 1884-yilda tarqalgan epidemik kasalliklar xususiyatini o'rganish maqsadidagi safari
3	1885	№31	Buxoro amirligida qulchilik
4	1885	№32	Buxorodagi Rossiya imperiyasi hukumati
Turkiston general-gubernatorligi Devonxonasidan			
1	1878	№74	Qarshi fuqarosi Muhammad Xoji Mo'minboyevning Rossiya fuqaroligini olish to'g'rida murojaati
2	1885	№9	Kaspiyorti temir yo'lining Buxorodan Samarqandgacha davomi nisbati
3	1885	№23	Buxoro amirligida rus fuqarolariga ko'rsatilgan yordam
4	1885	№25	Buxoroda rus fuqarosi Tankachovni tunaganliklari
5	1885	№59	Toshkent va Kaspiy dengizi o'rtasidagi temir yo'l
6	1886	№73	Pojar korpusida ta'lim olayotgan Buxoro shahzodasi Said Mir Mansur xususida
7	1886	№84	Buxorodagi rus siyosiy agentligi drogomani lavozimiga kollej kotibi Klemning tayinlanishi xususida
8	1886	№86	Buxoroda Rossiya imperatori siyosiy agentining tayinlanishi masalasi

¹¹⁶Bu hujjatlar jamlanmasi keyinchalik Turkiston general-gubernatori devonxonasi boshqaruvchisining talabnomasi asosida qaytarib berilgan. Qarang: Turkiston general-gubernatori devonxonasi boshqaruvchisining 1887-yil 9-iyul sanasida Buxoro amirligidagi rus siyosiy agenti nomiga yuborgan № 346 raqamli xati. O'z MA, I-3-fond, I-ro'yxat, 14-ish, 22-24-varaq.

Siyosiy agentlik arxivi faoliyatining yana bir tomoni bu hududdagi tashkilot va muassasalar hujjatlarini ma'lum muddatda saqlashdan iborat edi. Shunday muassasalardan biri Yangi Buxorodagi harbiy garnizon hujjatlari bo'lib, hujjatlar qisqa muddatda agentlik arxivida saqlangan¹¹⁷. Bu hujjatlar harbiy garnizon boshlig'ining talabi asosida qabul qilinib, keyinchalik shu tartibda qayta taqdim etilgan.

Siyosiy agentlik arxivi tarkibida bevosita Yangi Buxoro (Kogon)dagi siyosiy agentligining binosini qurilishi bilan bog'liq yozishmalar-bildishnoma, aktlar, o'ziga xos xatlar jamlanmasidan iborat Lebsror arxivi ham saqlangan. Bu arxiv va hujjatlar jamlanmasi keyinchalik Buxorodagi rus siyosiy agentligi arxivi tarkibiga kirgan. Siyosiy agentligi arxivini - kassa qaydnoma kitobi, xarajat qaydnomalari kitobi, kirish va chiqish hujjatlarini ro'yxatga olish kitobi, ijtimoiy masalalarga doir turli xildagi iltimosnoma xatlari, jinoiy ishlarga oid hujjatlar jamlanmasi tashkil etadi. Mazkur arxivning katta qismi siyosiy agentlikning Tashqi ishlar vazirligi, Turkiston general-gubernatorligidagi muassasalar va asosan amirlik hukumati bilan turli masalalarga doir rasmiy yozishmalaridan iborat.

Yuqorida qayd etilgan fikr va ilmiy ma'lumotlar tahlili O'rta Osiyo xonliklarida va xususan, Buxoro amirligida faoliyat olib borgan ish yuritish tartiblari o'ziga xos tarixga ega ekanligini ko'rsatadi. Davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot masalalarini o'zida mujassam etgan tarixiy hujjat jamlanmalari, vaqfnomalar va rasmiy yozishmalardagi ma'lumotlar bugungi kunga kelib nafaqat tarixchi olimlarning tadqiqot obyektiga, balki arxivshunos olimlarning ilmiy izlanishlari mahsuliga aylanmoqda.

9.4. Buxoro viloyatining tashkil etilishi va arxiv tizimi. 1938-yilning 15-yanvarida Buxoro viloyatining tashkil qilinishi hududdagi arxiv ishiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Arxiv ishida sodir bo'lgan sezilarli o'zgarishlar birinchilardan bo'lib kadrlar sohasida bo'ldi. Ilgarilari viloyat arxivida ikkitadan ortiq xodim ishlamagan bo'lsa, endilikda ularning soni asta-sekinlik bilan ortib ularga to'lanadigan maosh ham ko'tarila boshlagan. Bu o'zgarishlar, albatta, arxiv

¹¹⁷ O'z MA, I-3-fond, 1-ro'yxat, 660-ish. 3-varaq.

ishi va hujjatlar saqlovini yaxshilash uchun ijobiy xizmat qilgan. Chunki ilgari birgina inspektor yoki rahbarning o‘zi barcha yumushlarni ya’ni hujjatlarni qabul qilish, tartibga solish, ularga ilmiy-texnik ishlov berish, aholiga va tashkilotlarga ma’lumotnomalar berish singari ishlarini o‘zi bajarishiga to‘g‘ri kelgan. Buning ustiga arxivda xo‘jalik ishlarini bajaradigan xodimlar – qorovul, xizmatchi kabilar mavjud bo‘lmagan. Bu esa o‘z navbatida ishga salbiy ta’sir qilgan. 1938-yildan boshlab bu borada sezilarli ishlar qilingan. Masalan, shtatlar sonidagi o‘zgarishlar va oylik ish haqining oshib borganligini quyidagi jadvallardan bilishimiz mumkin:

Jadval №2¹¹⁸

**Buxoro viloyat Arxiv Boshqarmasining shtat jadvali
(1938-1939-yil)**

Lavozimi	1938-yil		1939-yil	
	Shtatlar soni	Maosh qiymati	Shtatlar soni	Maosh qiymati
Boshqaruvchi	1	600	1	550
Katta ilmiy xodim	-	-	1	500
Katta inspektor	-	-	1	400
Inspektor	1	350	1	325
Katta arxivchi-texnik xodim	1	175	1	250
Kichik arxivchi-texnik xodim	-	-	1	175
Hisobchi-kassir	-	-	1	275
Sekretar-mashinistka	1	150	1	200
Xizmatchi	1	98	1	88
Qorovul	1	100	1	100
Jami:	6	1473	10	2863

¹¹⁸ Buxoro viloyat davlat arxivi (*keying o‘rinlarda- Buxoro VDA*), F-15 fond, 1-ro‘yxat, 5 ish, 9-10 varaq.

Bundan ko‘rinib turibdiki, viloyat davlat arxivida ko‘zga ko‘rinarli ishlar qilingan. 1938-yilda mavjud bo‘lmagan katta ilmiy xodim, katta inspektor, kichik arxivchi-texnik xodim, hisobchi-kassir, sekretar-mashinistka kabi lavozimlar joriy qilingan. Bu esa o‘z navbatida ish unumdorligiga o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmagan, albatta.

1934-yil dekabrda RSFSR hukumatining “Tuman arxivlarini tashkil qilish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan edi. 1935-yil 21-dekabrda esa O‘zSSR MIKning qabul qilgan qaroriga ko‘ra hamma shahar va tumanlarda shahar va tuman arxivlari tashkil qilinishi kerak edi¹¹⁹. Lekin qarorning ijrosi hamma joyda ham birday ta‘minlanmagan. Buxoro viloyatida bu borada anchagina sustkashliklarga yo‘l qo‘yilgan. Hatto 1939-yilga kelib ham tuman arxivlari ayrim sabablarga ko‘ra o‘z faoliyatlarini to‘liq yo‘lga qo‘ymagan edilar.

Bunday holatlarni viloyat davlat arxivi rahbarining tumanlarga qilgan xizmat safarlari, tekshirishlari, tuman arxivlari rahbarlarining hisobotlaridan bilish mumkin. Barcha tumanlarda ahvol deyarli bir xil bo‘lib, ular bino va mablag‘dan tanqislik sezganlar. Viloyatning eng katta tumanlaridan biri bo‘lgan G‘ijduvonda esa arxiv ishi butunlay qarovsiz holatda tashlab ketish darajasiga kelgan. Arxiv butunlay boshqa soha vakili zimmasiga tashlab qo‘yilgan. Bu holat esa “yangi rahbar”ni o‘z navbatida “yuqoriga” murojaat qilishga majbur qilgan. U MABga yo‘llagan xatida quyidagilarni bayon qilgan: “O‘zSSR Markaziy Arxiv idorasiga G‘ijduvon tuman vaqtincha arxiv mudiri shuni yozib ma‘lum qilamanki, bundan olti oy oldin Isimbetova degan ayol arxivda ishlardi. Men G‘ijduvon tuman Ijroya qo‘mitasida kuryerlik vazifasida ishlardim. Isimbetova menga ikki oylik arxivchilar tayyorlaydigan kursga o‘qishga ketishini, arxiv kalitlarini vaqtincha menga topshirmoqchi ekanligini aytdi. Men bunga rozi bo‘lmadim. Shundan so‘ng devonxona boshlig‘i Salomov ishga aralashib, menga kalitni olishimni, ikki oydan so‘ng o‘zi qaytib kelib olishini, agar biror delo(yig‘ma jild)ni so‘rashesalar hech qanday javob bermaysan degan shart bilan kalitni oldirdi. Bu ikki oy to‘rt oy bo‘libdiki Isimbetovadan darak yo‘q. Oqibatda bu arxiv mening zimmamga tushib

¹¹⁹Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.43.

qoldi. Men esa arxivchilar maktabini bitirgan emasman, ma'lumotim ham oliy emas.

Texnik ishlarni biladigan biror kishi arxivni qabul qilishni xohlamaydi. Chunki maoshi juda oz – 134 so'm, lekin idoralarga xat tashiganimda o'sha idoralarning arxivini tekshirib turaman. Deyarli hammasi yaxshi ahvolda, yig'ma jildlar muqovalangan va shkaflarda saqlanadi. Lekin tekshirilgan idoralarning ba'zi birlarida arxiv materiallari yomon ahvolda saqlanmoqda. Tuman moliya bo'limining hujjatlari muqovalanmagan, papkaga tikilmagan, eng yomoni idoradagi sandiqning yonida, yerda yotibdi. Men bu holat yuzasidan bir necha marta murojaat qilganman, lekin berilgan va'da har doim unutilib ketadi. Vakolatli komitet ham shu ahvolda – hujjatlarning yarmi idorada bo'lsa, qolgan yarmi avtogarajda yotibdi. Agar haydovchisi qo'l artishga latta topa olmasa delolarning ichidan qog'oz olib artaveradi”¹²⁰. Shundan so'ng bu holat yuzasidan 1939-yil 14-yanvarda G'ijduvon tuman ijroiya komiteti prezidiumining majlisi o'tkaziladi.

Majlisda tumanda arxiv ishi va hujjatlarni tartibli saqlash yuzasidan Vakolatli komitet boshlig'i Zaripov, rayzorahbari Asilov, viloyat davlat arxivi inspektori Karapivinning axborotlari eshitildi. Bundan tashqari tuman Ijroiya qo'mitasi raisi Hasanov ham so'zga chiqqan.

Prezidiumda rayondagi mavjud ahvol qattiq tanqid qilinadi. Chunki tumandagi arxiv ishi va hujjatlarni saqlash juda ham yomon ahvolda, ayniqsa tuman moliya bo'limida hisobxona hujjatlari tartibli saqlangan bo'lsada, boshqa hujjatlar har yoqda tartibsizlik bilan tashlab qo'yilganligi alohida qayd qilingan. Vakolatli komitet ham shu ahvolda bo'lib, arxiv materiallarini hovlida, pechkaga yaqin joyda saqlamoqda. Rayzoda ham ahvol xuddi shunaqa bo'lgan. Tuman arxivi binosining yomon ta'mirlanganligi, buning ustiga yomon hududda joylashganligi eng asosiy muammolardan biri edi.

Yuqoridagi muammolarni hisobga olgan holda prezidium quyidagilarni qabul qilgan:

¹²⁰ Buxoro VDA. F-15 fond, 1-ro'yxat, 14 ish, 5-varaq.

1) tuman Vakolatli komiteti va moliya bo'limida ayrim hujjatlarning tartibsiz saqlab kelinganligi qayd etilsin;

2) hamma bo'lim boshliqlariga, qishloq sovet raislariga, kolxoz pravleniyalariga arxiv ishini yo'lga qo'yish va hujjatlarni saqlash uchun alohida xodim tayinlash topshirilsin;

3) yomon hududda joylashgan deb topilgan arxivlarning joyi o'zgartirilsin. Tuman Ijroiya qo'mitasining umumiy sho'ba mudiri o'rtoq Yo'ldoshevga uch kun ichida joy topib tuman arxivini ko'chirish yuklatilsin;

4) tuman Ijroiya qo'mitasining raisi o'rtoq Hasanovga arxiv ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida 1939-yilda ishlab chiqilgan arxiv smetasini qaytadan ko'rib chiqish yuklatilsin;

5) barcha tashkilot rahbarlariga, qishloq sovet raislariga, kolxoz raislariga 1925-yildan 1928-yilgacha bo'lgan hujjatlarni tuman arxivlariga opislari bilan topshirish yuklatilsin;

6) ushbu qarorning bajarilishi yuzasidan qilingan ishlar haqida 1939-yil 24-yanvarda bo'ladigan tuman Ijroiya qo'mitasining prezidium majlisida tashkilot rahbarlari axborot bersinlar;

7) kadrlar bo'limi mudiri o'rtoq Navro'zova zimmasiga uch kun ichida arxiv mudirligiga munosib xodim topib qo'yish yuklatilsin¹²¹.

O'zSSR yuqori soveti 1938-yil 14-aprelda "Tuman arxivlari, qishloq sovetlari, kolxozlar, sovxozlardagi arxiv materiallarini tartibga solish va to'g'ri saqlash to'g'risida"gi qarorni qabul qilgan. Ushbu qarorning ijrosini tekshirish maqsadida Viloyat Arxiv Boshqarmasi boshqaruvchisi Axadov 1939 may oyida Buxoro viloyatining qator tumanlariga xizmat safari bilan tashrif buyuradi. Shu yilning 20-may kunida tekshirishlar natijasi bo'yicha hisobot (doklad) yozgan. Uning hisobotida aytilishicha, Shofirkon, G'ijduvon, Kogon, Sverdlov (hozirgi Jondor tumani) va Buxoro viloyatidagi boshqa qator tumanlar O'zSSR MIQning bir necha martalik ogohlantirishlari va arxiv bo'limi boshqarmasi xodimlarining tashrif buyurishlariga qaramasdan O'zSSR yuqori soveti prezidiumining qarorini

¹²¹ Buxoro VDA. F-15 fond, 1-ro'yxat, 14 ish, 14-varaq.

bajarmaganlar va shu kunga qadar ham tuman arxivlari tuzilmagan, ularga hech qanday mablag‘ ajratilmagan¹²².

Aslida 1938-yil aksariyat tumanlarga arxiv rahbari lavozimiga MAB tomonidan arxiv kurslarini bitirgan kishilar xizmat safari bilan yuborilgan edi. Lekin tuman Ijroqo‘mlari ularga hech qanday bino ham, hech qanday mablag‘ ham ajratmaganlar. Buning oqibatida ular boshqa ishlarga o‘tib ketganlar. Bunga misol sifatida G‘ijduvon tumaniga yuborilgan – Ashurov, Romitanga yuborilgan – Botirov, Qiziltepaga yuborilgan – Azimovlarni aytish mumkin¹²³.

Tuman Ijroqo‘mlari o‘z vaqtida kolxoz, sovxoz, qishloq sovetlari, MTSlar, davlat muassasalari va tashkilotlariga arxiv materiallarining davlat ahamiyatidagi hujjatlar ekanligi va tartibli holda saqlash lozimligi haqida bildirilmaganlar. Natijada hujjatlar saqlovi yomon holatga kelib qolgan.

Tekshirishdan shular aniqlanganki, tuman Ijroqo‘mlarining o‘zining arxiv materiallari tartibsiz, ro‘yxatsiz, hech qanday ishlov berilmagan qog‘ozlar uyumi holida yotgan bo‘lgan. Bu haqda esa hisobotlarda hech qanday ma‘lumot berilmagan. Mavjud holat markazdan yashirib kelingan.

O‘zSSR MIKning Buxoro viloyat bo‘yicha prezidiumi yuqoridagi holatlarni bartaraf qilish uchun quyidagilarni qabul qilgan:

1) tuman Ijroqo‘mlari prezidiumlariga ikki dekadalik muddat ichida tuman Ijroqo‘mlari huzurida tuman arxivlari tuzish va uni yetarli bino bilan ta‘minlab, sinalgan bir kishini arxiv rahbari lavozimiga tayinlash;

2) Surxandaryo okrugidan tashqari viloyatning barcha tuman arxivlarida 1 tadan shtat birlikda xodim tayinlanib, 250-300 rublgacha maosh to‘lash;

3) tuman Ijroqo‘mlari prizidiumi zimmasiga arxiv materiallarini tartibga solish bo‘yicha barcha muassasalar, kolxozlar, sovxozlar va MTSlarga buyruqlar yuborishni yuklatish hamda arxiv hujjatlariga 1939-yil 1-iyulgacha ishlov berish va tartibga solish;

¹²² Buxoro VDA. F-15 fond, 1-ro‘yxat, 9 ish, 8-varaq.

¹²³ Buxoro VDA. F-15 fond, 1-ro‘yxat, 9 ish, 10-varaq.

4) viloyat arxiv boshqarmasi zimmasiga arxivlardagi hujjatlarga ishlov berish yuzasidan tuman arxivlarini qo'llanmalar bilan ta'minlash, tuman Ijroqo'mlari va tuman arxivlariga yordam berish uchun inspektorlarni xizmat safari bilan joylarga yuborishni tashkil etish;

5) viloyat arxiv boshqarmasi boshqaruvchisi zimmasiga besh kun ichida viloyat Moliya bo'limi bilan hamkorlikda barcha rayonlar arxivlari uchun smeta ajratib, uni tuman Ijroqo'mlariga taqdim etishni yuklash;

6) viloyat arxiv boshqarmasi vakilini Surxondaryo okrugiga okrug arxivini tekshirish va natijalarini okrug Ijroqo'miga bildirish uchun yuborish¹²⁴.

Ushbu qaror viloyatdagi arxiv ishining rivojlanishi uchun ijobiy holat edi. Lekin uning ijrosi ba'zi holatlarda bajarilmay ham qolib ketgan. Bunga hududdagi ma'muriy rahbarlarning loqaydliklari va arxiv ishiga sovuqqonlik bilan qarashlari sabab bo'lgan.

O'zSSR IIXK Arxiv bo'limi boshlig'i Buxoro viloyat Arxiv boshqarmasiga 1939-yil 16-mayda yo'llagan №39 xatida viloyatdagi tuman idoraviy arxivlari haqida ma'lumot berish so'ralgan. Buxoro viloyat Arxiv boshqarmasi rahbari Axadov 1939-yil 17-iyunda yozgan javob xatida aytilishicha, viloyat arxiv boshqarmasida oxirgi paytlarda inspektor bo'lmagan, shuning uchun tashkilotlarni uning o'zi tekshirib chiqqan. Romitan va Vobkent tumanidagi muassasa va tashkilotlarning arxivlari tekshirilgan. Tekshirishlar natijasida Axadov o'z hisobotida quyidagilarni qayd etgan:

1. Romitan tumanida: tuman yer bo'limi, "Kommuna" kolxozi, Laqlaqa qishloq soveti, Romitan Ijroiya qo'mitasi.

2. Vobkent tumanida: Ijroiya qo'mitasi, Latif Saburgskiy (Sobungar) qishloq soveti, MTS, "Yosh Kommuna" kolxozi, tuman kommunal xo'jaligi, qishloq oziq-ovqat tashkiloti.

Yuqorida aytilgan muassasalarda uning ishtirokida tekshirish o'tkazilib, dalolatnoma tuzilgan. Tekshiruv natijalarida u quyidagicha yozadi: "Romitan tuman arxivining ahvoli og'ir, hujjatlarga ishlov berilmagan, ro'yxatga olinmagan,

¹²⁴ Buxoro VDA. F-15 fond, 1-ro'yxat, 9 ish, 10-11 varaq.

buning ustiga tartibsiz holatda. Masalan: kolxozlar, qishloq sovetlarining arxiv materiallari yirtilgan qog'ozlar uyumi holida bo'lib, hech qanday nazoratsiz omborlardagi eski shkaflarda yotibdi. Boshqa muassasalarning ham ahvoli xuddi shunaqa. Men bu tuman Ijroqo'miga zudlik bilan bu holatni oldini olish bo'yicha choralar ko'rishini so'radim.

Vobkent tumanida barcha kolxozlarning hujjatlari tartibga solingan bo'lib, arxivga topshirishga tayyor. 3 ta kolxoz va 2 ta qishloq soveti hujjatlarini tuman arxiviga topshirgan. Lekin Vobkentdagi davlat muassasalarining hujjatlari og'ir ahvolda bo'lib, tuman kommunal xo'jaligining arxiv materiallariga 1931-yildan beri ilmiy-texnikaviy ishlov berilmagan. Uning hujjatlari ombordagi qutilarda saqlanadi. Qishloq oziq-ovqat tashkiloti va MTSlarning arxivlari ham shu ahvolda. Tumanlardagi muassasalarni tugatgach, viloyat tashkilotlariga o'tamiz. Umumiy natijalar haqida 1-iyulda bildiramiz"¹²⁵. Ko'rinib turibdiki, bu ikki tumanda ham ishlar yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Bu tumanlarda ham ishlarni yo'lga qo'yish uchun kerakli choralar belgilab berilgan.

1939-yil 21-iyunda Axadov arxiv ishini tekshirish uchun Qorako'l tumanida bo'lgan. O'zSSR IIXK Arxiv bo'limi boshlig'iga yo'llagan hisobotida u quyidagilarni yozgan: "Yana men Qorako'l tuman Moliya bo'limi, tuman sog'liqni saqlash bo'limi, tuman XTB, tuman Ijroiya qo'mitasi, Qozon qishloq soveti va "Bolshevik" kolxozidagi arxivlarning ahvoli bilan ham tanishdim. Natijalar sifatida quyidagilarni qayd etaman:

1. Qorako'l tuman arxivida 1938-yil 10-sentabrdan rahbar lavozimida o'rtoq Yunusov ishlab kelmoqda. U o'z xizmat faoliyati davrida 71 ta kolxoz va muassasalarda tekshirishlar olib borib, arxivga 531 yig'ma jilddan iborat 1 ta fond qabul qilgan.

2. Arxiv binosi 8 m dan iborat bo'lib, uning yarmisiga stelaj-jovonlar joylashtirilgan². Bino tuman Ijroiya qo'mitasi ichidagi umumiy yotoqxona yonida joylashgan. Shuning uchun yong'inga qarshi vositalar va qorovul talab qilinadi.

¹²⁵ Buxoro VDA. F-15 fond, 1-ro'yxat, 9 ish, 19- varaq.

3. Tuman Ijroqo‘mi hech qanday moddiy va ma‘naviy yordam ko‘rsatmaydi. Masalan: arxiv rahbari atigi 162 rubl miqdorda maosh oladi. Saqlovxona jihozlari va konselyariya ishlari uchun umuman mablag‘ ajratilmaydi.

Arxiv rahbari tomonidan oylik maosh to‘g‘risida qilingan qator murojaatlarga tuman Ijroiya qo‘mitasi hech qanday chora ko‘rmagan. Umuman mablag‘ ajratilmasligi oqibatida 1939-yilda Yunusov tomonidan hech qanday ish amalga oshirilmagan. Yunusov esa mablag‘ ajratilishini so‘rab bir necha marta murojaat qilgan. Yunusov ish haqining kamligi uchun ishdan bo‘shash to‘g‘risida ariza bergan. Buning natijasida arxiv saqlovi qarovsiz qolishi xavfi oldida turibdi. Hujjatlarga ishlov berish va muassasalardan hujjat qabul qilish ishini aytmasa ham bo‘ladi. Buning hammasi tuman Ijroiya qo‘mitasining arxiv ishiga nisbatan loqayd munosabatidan kelib chiqqan. Dalolatnomada men bularni bartaraf etish uchun aniq muddat belgilab berdim”¹²⁶.

Bundan bilinib turibdiki, arxiv rahbari o‘z kasbiga iloji boricha mas‘uliyat bilan yondashgan. Lekin moliyaviy qiyinchilik uni ancha qiynab qo‘ygan. Tuman ijroqo‘mi esa uning bir necha martalik murojaatlariga hech qanday javob qaytarmagan. Arxiv muassasasining iqtisodiy jihatdan MABga emas mahalliy hokimiyatga qaramligi uning ahvolini yanada o‘g‘irlashtirgan.

Viloyatning barcha tumanlarida arxivlar tashkil etish va ularning faoliyatini muntazam ravishda yo‘lga qo‘yish uchun viloyat IIXKB rahbari IIXK tuman bo‘limi boshliqlariga quyidagicha buyruq bergan: “Buxoro viloyat IIXKB Arxiv bo‘limi shuni ma‘lum qiladiki, O‘zSSR MIKning 1938-yil 14-iyundagi qarori va SSSR MABning qaroriga ko‘ra har bir tumanda mahalliy budjet, ya‘ni tuman Ijroiya qo‘mitasining hisobiga tuman arxivi tashkil qilinishi kerak edi. Lekin, bu qarorlar hali ham bajarilmaganligi uchun kolxoz, sovxoz, MTS va tuman tashkilotlarining arxivlari tartibsiz va arxiv rahbarlarining mavjud emasligi sababli nazoratsiz yotibdi.

¹²⁶ Buxoro VDA. F-15 fond, 1-ro‘yxat, 9 ish, 29-varaq.

Shuning uchun siz tuman Ijroya qo‘mitasining tezroq tuman arxivi tuzishiga, unga maxsus bino ajratishiga va rahbar tayinlashiga erishishingiz kerak. Buni o‘z nazoratingizga olishingiz zarur.

Tuman arxivlari 1936-yilgacha tuzilgan kolxoz, sovxoz va MTSlarning arxiv hujjatlarini qabul qilishi va davlat muassasalari arxivlarining ahvolini doimiy ravishda tekshirib turishi kerak. Umuman tuman arxivi hududdagi barcha muassasalardagi idoraviy arxivlardagi hujjatlar saqlovini nazorat qilib turishi kerak.

IIXK tumanlardagi bo‘limlarining har biri tuman arxivini tashkil etilishiga erishishi kerak. Har bir muassasaning (kolxoz, sovxoz, MTS va boshqalar) hujjatlari doimo tartibli holatda turishi kerak¹²⁷. Aftidan bu hujjat ham oldingilariga o‘xshab qog‘ozda qolib ketavergan. Chunki vaqt o‘tishi bilan tuman arxivlarining faoliyati yana o‘z holiga tashlab qo‘yilganini ko‘rish mumkin. 1938-1939-yillardagi xatti-harakatlarga qaramay tuzilgan tuman arxivlarining hammasi 1943-yilga kelib o‘z faoliyatini to‘xtatgan edi. Buning sabablari yana o‘sha bino- yer va mablag‘ masalasi edi. 1943-yil yana Buxoro viloyat IIXK arxiv bo‘limi rahbari Astrovning tashabbusi bilan beshta tumanda qayta arxiv tuzilishiga erishiladi. Bular – Kogon, Vobkent, Shofirkon, Qiziltepa va Qorako‘l bo‘lib, Vobkent bilan Shofirkon arxivlari o‘z binosiga ega emas. Qorako‘l arxivida esa hali ham rahbar yo‘q edi¹²⁸.

Jadval №3

1938-yilda tuzilgan tuman va shahar arxivlari ro‘yxati¹²⁹:

- | | |
|--------------|-----------------|
| 1. G‘ijduvon | 19. Shaxrisabz |
| 2. Shofirkon | 20. Yakkabog‘ |
| 3. Buxoro t. | 21. Boysun |
| 4. Vobkent | 22. Denov |
| 5. Kogon | 23. Jarqo‘rg‘on |
| 6. Qorako‘l | 24. Sherobod |

¹²⁷ Buxoro VDA. F-15 fond, 1-ro‘yxat, 9 ish, 67-varaq.

¹²⁸Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.49.

¹²⁹ Buxoro VDA. F-15 fond, 1-ro‘yxat, 9 ish, 5-varaq.

- | | |
|------------------------------|-------------------------|
| 7. Qizil-tepa | 25. Sho‘rchi |
| 8. Romitan | 26. Sari-Osiyo |
| 9. Karman | 27. Termiz |
| 10. Konimex | 28. Qamashi |
| 11. Sverdlosk | Shahar arxivlari |
| 12. Qarshi | 1. Temiz |
| 13. Beshkent | 2. Buxoro |
| 14. G‘uzor | 3. Kogon |
| 15. Dehqonobod (eski Qarshi) | 4. Qarshi |
| 16. Koson | 5. Shahrisabz |
| 17. Kitob | 6. G‘ijduvon |
| 18. Chiroqchi | |

XX asr 40-yillarga kelib arxiv tizimida yana mutaxassis kadrlarning muammosi “bosh ko‘targan”. Markaziy davlat arxivining 1940-yilgi hisobotida aytilishicha, Fargo‘na va Buxoro viloyat davlat arxivlarida kadrlar masalasi bo‘yicha muammolar yuzaga kelgan. Buning oqibatida Buxoro arxiv bo‘limi yillik hisobotlarni topshirmagan va yillik ma’lumotlarda qayd etilmagan¹³⁰.

Buxoro viloyat IIXKB davlat arxivining 1941-yilgi hisobotida aytilishicha, Buxoro viloyat davlat arxivining 1941-yilgi faoliyati asosan doimiy kadrlarni saralash, tekshirish va mustahkamlashdan, tartibga solingan arxiv materiallarini davlat arxiviga to‘plash, yangi arxiv fondlarini yaratishdan, tuman arxivlarini tuzish va muassasalardagi arxiv materiallarini tartibga solishdan iborat bo‘ladi.

Lekin Buxoro viloyat davlat arxivi katta umidlar bilan boshlagan ishlarini 1941-yilda oxiriga yetkaza olmagan. Buning sabablari ko‘p bo‘lib, ular quyidagilardan iborat bo‘lgan:

- Arxivda rahbariyat o‘zgarib - viloyat arxiv rahbari Toshmatov o‘rniga o‘rtoq Majidov tayinlandi. Lavozimlarni topshirish – qabul qilish natijasida, hamda arxiv-texnik ishini tashkil etishda ko‘p vaqt yo‘qotilgan. Shuning uchun 1941-yilgi ishlab chiqilgan reja bajarilmay qoladi.

¹³⁰Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.50.

- Rejada 1941-yilda 12 000 saqlov birlikda yangi fondlarni tartibga solish va umumiy tarkibdan 16 000 saqlov birlikda makalaturaga ajratish nazarda tutilgan edi.

Haqiqatda esa arxiv materiallariga ishlov berish ustida faoliyat olib borilgan. Hammasi bo'lib 6471 saqlov birlikdagi 60 ta fondga ishlov berildi. Makalaturaga 17 000 saqlov birlikdagi hujjatlar topshirilib, reja orttirib bajarilgan. Yo'q qilishga ajratilgan hujjatlarning ro'yxati O'zSSRning Arxiv bo'limiga tasdiqlash uchun yuborilgan.

- 15 000 saqlov birlikda arxiv hujjatlarini yig'ish ham rejaga kiritilgandi. Amalda esa tugatilgan muassasalardan: 1)Buxoro viloyat qurilish tresti; 2)Yuqori toifadagi kolxoz-ishchilar maktabi; 3)Kogondagi Buxoro bazasi; 4)Buxoro shahar qurilish idorasi; 5)1-Buxoro Qurilish uchastkasi; 6)Vobkent qurilish uchastkasi; 7)2-Kogon Qurilish uchastkasi hujjatlari qabul qilindi.

Bundan tashqari muassasalardagi muddati tugagan arxiv materiallaridan: Buxoro viloyat tayyorlov idorasi, Buxorodagi kunduzgi rabfak, yana Oziq-ovqat xalq komissariatining qaroriga ko'ra Kogon yog' zavodining 160 saqlov birlikdagi hujjatlarini qabul qildi. 88 saqlov birlikda Turkmaniston SSRdan Buxoro bojxonasi arxiv materiallari fondi qabul qilindi. 1941-yilda hammasi bo'lib 1985 saqlov birlikda arxiv materiallari jamlangan¹³¹.

- 113 ta so'rov tushgan bo'lib, ularning 80 tasiga ijobiy, 33 tasiga rad javobi berilgan. Arxivda Buxoro studiyasi va radiosi bilan hamkorlikda ilmiy hamda publikatsion ishlar ham amalga oshirilgan;

- inspektorlik ishiga keladigan bo'lsak, rejada 27 ta tuman arxiv tashkilotlari va 10 ta tuman muassasalarini tekshirish nazarda tutilgan edi. Aslida 19 ta tuman arxivi va 4 ta shahar: Kogon, Shahrisabz, G'ijduvon, Karmana shahar arxivlarida tekshirishlar o'tkazilgan. Ko'rsatilgan tumanlarda ham tuman va shahar arxivlari tuzilgan bo'lib, arxivchilar tayinlangan. Ishlar birmuncha ijobiy yo'lga

¹³¹ Buxoro VDA. F-15 fond, 1-ro'yxat, 33 ish, 1-varaq.

qo'yilgan. Kolxoz, sovxoz, MTS, qishloq sovetidagi arxiv materiallari esa jamlanmagan¹³².

Buxoro shahridagi 80 ta tashkilot va muassasa arxivlarida tekshirishlar o'tkazilib, arxivlari tartibga solingan. Ularning 30 tasida maxsus arxivchi xodimlar bor ekanligi qayd etilib, mavjud ahvol to'g'risida akt tuzildi.

1.Yana viloyat arxivi shu yili muvaffaqiyatli ravishda idoraviy arxivlar uchun 10 ta yosh kadrlarni seminarlar o'tkazish yo'li bilan tayyorlab chiqaradi¹³³.

2.Rejada hamma fondlarni ro'yxatga olish nazarda tutilgan bo'lib, lekin ro'yxatga olish bo'yicha mutaxassis kadrlarning yo'qligi sababli amalda faqat 200 ta fond ro'yxatga olingan.1941-yildagi 21 ta fond, 242 saqlov birlikdagi hujjatlar ustida ish olib borilib, ular alohida qilib ajratiladi.

3.Hamma fondlarning ro'yxatga olinmaganligi sababli ro'yxat jadvali to'ldirilmagan, jadval hisobga olish ishlari tugatilgandan keyin to'ldirilishi aytilgan. Bundan tashqari viloyat arxiviga Farg'ona viloyat IXXK Arxiv bo'limi bilan ijtimoiy shartnoma tuzish ham topshirilgan. Lekin bu shartnomaning qanaqa mazmunda ekanligi aytilmagan. Bu haqda boshqa ma'lumotlar uchramaydi.

Majidov hozirgi kunda Arxiv bo'limining boshlig'i hisoblanadi, u bir vaqtning o'zida Viloyat davlat arxivining direktori ham hisoblanadi. Boshqa shtatlar o'zgarishsiz qoladi¹³⁴.

Yuqoridagi ko'rsatilgan eng katta muammolardan biri –bino masalasi 50-yillarda ham kun tartibida turgan. O'sha yillarda Buxoro viloyat davlat arxivi biri yevropacha, ikkinchisi Ko'kaldosh madrasalari hujralaridan, jami 380 m/kv dan iborat ikki xonada joylashgan bo'lib, undagi sharoit hujjatlarni saqlash tartiblariga javob bermagan.

¹³²Shahar xalq ta'limi, №3 maktabgacha bilim yurti, Viloyat sog'liqni saqlash bo'limi, Poliklinika, Feldsherlik maktabi, Qizil yarim oy jamiyati, Musiqa bilim yurti, Tikuv fabrikasi, Viloyat xalq ta'limi, №15 Bilim yurti, Madaniyat uyi, Shahar sog'liqni saqlash bo'limi, Davlat musiqa-drama teatri, Qorako'l zavodi, Viloyat non tresti, Tayyorlov idorasi(go'sht), Limonad zavodi,Ipakchilik fabrikasi, Shahar kommunal xo'jalik xizmati, Viloyat ijroya qo'mitasi,Davlat banki, Omonat kassasi, Shahar moliya bo'limi, Viloyat moliya bo'limi, "Oydin" arteli, Uztrans bazasi, Viloyat ijtimoiy ta'minot bo'limi, Shuningdek, xalq sudi, prokuratura va boshqa muassasalarda arxiv hujjatlariga munosabat to'g'ri yo'lga qo'yilganligi e'tirof etilgan.

¹³³ Buxoro VDA. F-15 fond, 1-ro'yxat, 33 ish, 3-varaq.

¹³⁴ Buxoro VDA. F-15 fond, 1-ro'yxat, 33 ish, 2-varaq.

Buxoro viloyat davlat arxivining 1955-1956-yillaridagi rahbari Valitova Maryam Garifovna tomonidan viloyat va respublika rahbar organlariga arxiv muassasasiga normal ish sharoitini yaratish maqsadida 1958-yilda viloyat davlat arxivining yangi binosi qurilishini boshlash, o‘quv va uslubiy xonasi, ta‘mirlash ustaxonasini tashkil qilish taklifi kiritiladi.

Taklifni amalga oshirish borasida Maryam Valitovaning uzoq yillik sa‘y-hakatlari natijasida 1976-yilda viloyat davlat arxivining hozirgi binosining qurilishi tugallanib, foydalanishga topshiriladi.

XX asrning 60-yillarga kelib arxivlar faoliyatida o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. 1962-yil 24-dekabrda O‘zSSR yuqori sovetining “Tumanlarni yiriklashtirish to‘g‘risida”gi buyrug‘i chiqadi. Shu munosabat bilan Arxiv boshqarmasi ministrlar kengashiga “Tugatilgan tumanlar arxiv materiallarining saqlanishini ta‘minlash to‘g‘risida”gi qaror loyihasini topshiradi. Bu qaror ministrlar kengashi tomonidan 1963-yil 3-yanvarda qabul qilinadi¹³⁵.

1966-1970-xo‘jalik yilida Andijon, Xorazm, Qashqadaryo, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent va Buxoro viloyat davlat arxivlarini qurib bitkazish nazarda tutilgan edi. Lekin ularning hammasi ham qurib bitkazilmagan. Bu davrga kelib barcha arxivlar kabi Buxoro viloyat davlat arxivining faoliyati ham jonlanib qolgan. 1965-yil davlat arxivlari tomonidan 104 ta har xil maqolalar e‘lon qilingan bo‘lib, ularning katta qismini Andijon, Sirdaryo, Toshkent, Namangan, Farg‘ona va Buxoro arxivchilari ikkinchi jahon urishi g‘alabasining 20 yilligiga bag‘ishlab chiqarganlar. Shu yili Andijon va Buxoro viloyat davlat arxivlari fotohujjatlarni komplektatsiya qilish bo‘yicha boshqa arxivlarga nisbatan yaxshi natijalarni qo‘lga kiritganlar. Markaziy arxiv boshqarmasi Qoraqalpog‘iston, Surxondaryo, Toshkent va Buxoro viloyat davlat arxivlarining ishini tekshirib chiqadi. Bu tekshirish natijasida shu ma‘lum bo‘ldiki, Sirdaryo va Buxoro viloyat davlat arxivlariga jiddiy yordam ko‘rsatish kerak bo‘lgan. Ularga yordam berish uchun Andijon, Farg‘ona, Samarqanddan kasbdoshlari birlashtiriladi. Buning natijasida Buxoro,

¹³⁵Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.53.

Sirdaryo, Xorazm, Namangan va Samarqandda kolxozchi-pensionerlarga ma'lumotnoma berish muammosi ijobiy hal qilinadi.

Shu yili Buxoro viloyat davlat arxivi ko'pgina qurilish korxonalarining arxiv hujjatlarini tartibga solishda yordam beradi. Masalan: "Gazlineftgazsanoat" boshqarmasining hujjatlari va boshqalar.

1970-yil Buxoro viloyat davlat arxivi mahalliy va respublika gazetalarida xalq xo'jaligi yutuqlarini yorituvchi 105 ta fotosuratlarini chop etganliklarini kuzatish mumkin. Shu yilda Surxondaryo, Namangan va Buxoro viloyat davlat arxivlarida qabul qilingan fotosuratlarini ro'yxatga olish ishlari aniq va o'z vaqtida bajarilganligi ijobiy baholanadi. Lekin ba'zi viloyat davlat arxivlari o'z yillik va besh yillik rejalarini bajara olmaganlar. Bular sirasiga Qashqadaryo va Buxoro arxivlarini aytishimiz mumkin.

1970-yilda muassasalardagi arxivlar nazorati bo'yicha Qashqadaryo, Surxondaryo, Andijon va Buxoro viloyati arxivchilari respublika bo'yicha yaxshi natijalarni qo'lga kiritganlar. Bevosita ularning natijalariga nazar tashlaydigan bo'lsak quyidagilarni ko'rishimiz mumkin:

- Andijon viloyatida – 616 ta nazoratga olingan muassasadan 572 tasi yig'ma jildlar nomenklaturasiga ega;
- Buxoro viloyatida – 603 ta nazoratga olingan muassasadan 524 tasi yig'ma jildlar nomenklaturasiga ega;
- Surxondaryo viloyatida – 494 ta nazoratga olingan muassasadan 400 tasi yig'ma jildlar nomenklaturasiga ega;
- Qashqadaryo - viloyatida – 365 ta nazoratga olingan muassasadan 346 tasi yig'ma jildlar nomenklaturasiga ega;

Hujjatlar saqlovi, ya'ni bino masalasi doimgiday Xorazm, Sirdaryo, Buxoro va Qoraqalpog'iston MDAsining filiallari avariya holatidagi binolarda joylashgan. Qashqadaryo va Qoraqalpog'iston MDAlari to'liq ta'mirdan chiqarilgan¹³⁶. Toshkent viloyat davlat arxivi esa umuman o'z binosiga ega emas. Malakali mutaxassis ishchilar viloyatlarda umuman bo'lmagan.

¹³⁶Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2015. –B.54.

Buxoro viloyatining tashkil etilishi munosabati bilan viloyat arxiv ishiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi, albatta. Bu davr arxiv ishi sohasidagi o'zgarishlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning nisbatan ijobiy tomonga yuz tutganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, soha ishchilarining oylik maoshlari oshirilib, ularning soni oshirilgan. Tuman arxivlari nazoratga olinib, ularning faoliyatini tartibga solish bo'yicha salmoqli ishlar qilinganligini ko'rishimiz mumkin. O'tgan asrning 60-yillardan boshlab viloyat arxivchilari matbuotda arxiv materiallari asosida turli mavzular bo'yicha maqolalar e'lon qila boshlaydilar. 70-yillarga kelib viloyat arxivining eng katta muammosi – bino masalasi hal qilindi. 1976-yilda yangi bino qurilib, foydalanishga topshirildi. XX asrning 80-yillarida viloyat arxivi turli tashkilotlarning so'rovlari javob berish va hujjatlarni qabul qilishni davom ettirgan.

Nazorat uchun savollar

1. Buxoroda arxiv muassasalarining tashkil etilishi qaysi davrga to'g'ri keladi?
2. Buxoroda dastlab arxiv ishini yo'lga qo'yish uchun asosiy hujjatlar bazasi sifatida qaysi hujjatlar xizmat qilgan?
3. Buxoro amirligida necha turdagi arxiv hujjatlari mavjud bo'lgan?
4. Buxorodagi rus siyosiy agentligida arxiv ishini tashkil etishdan asosiy maqsad nima edi?
5. Rossiya imperatorining Buxorodagi siyosiy agentligi arxivi dastlab qanday hujjatlardan iborat bo'lgan?
6. Buxoro viloyati tashkil topganidan so'ng arxiv sohasida qanday o'zgarishlar amalga oshirilgan edi?
7. XX asrning 30-40-yillarida Buxoro viloyat arxivida hujjat saqlovi xususida ma'lumot bering.
8. Buxoro viloyat davlat arxivlari joylashgan dastlabki binolar haqida nima bilasiz?

Test topshiriqlari

1. Buxoro viloyat davlat arxivi nechinchi yilda Zarafshon viloyat arxiv byurosi sifatida tashkil topgan edi?

- A 1927-yilda
- B 1925-yilda
- C 1931-yilda
- D 1932-yilda

2. BXSР ma'naviy ishlar Noziri Musojon Saidjonov tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro amirligida qanday turdagi arxiv hujjatlari mavjud bo'lgan?

- A Qozikalon arxiv hujjatlari va Rais arxivi
- B Amirlik devonxonasi arxiv hujjatlari va Buxoro amirligi qo'shbegisi arxivi
- C Topchiboshi hamda Qo'shbegi arxivlari
- D Amirning shaxsiy arxiv hujjatlar

3. Buxoro amirligi qo'shbegisi arxivi o'z davrining ilg'or kishisi bo'lgan qaysi qo'shbegi davridan boshlab tizimlashtirilib borilgan?

- A Mirzo Nasrullo
- B Jon Mirzo biy
- C Ostonaqul
- D Muhammad Sharif

4. 1924-yilgi milliy-hududiy chegaralanish paytida kimning raisligida Buxoro qo'shbegisi hujjatlarning ma'lum qismiga dalolatnoma tuzilib, Buxoro davlat kutubxonasiga topshirilgan?

- A Muso Saidjonov
- B D.I.Nechkin
- C F.Xo'jayev
- D V.A.Shishkin

5. Buxoro qo'shbegisi arxivini guruhlash maqsadida nechinchi yilda maxsus komissiya tuzilgan?

- A 1931-yilda

B 1932-yilda

C 1933-yilda

D 1935-yilda

6. Buxoro qo'shbegisi arxivini guruhlash maqsadida tuzilgan komissiya muzeydagi qo'shbegi arxivi hujjatlarini tekshirib chiqib uni necha guruhga ajratgan?

A 19 guruhga

B 18 guruhga

C 20 guruhga

D 16 guruhga

7. 1967-yilning yozida kimlar tomonidan tomonidan "Buxoro amirligi qo'shbegi arxivi" fondining inventar katalogini tuzish bo'yicha ishlar to'liq tugatiladi?

A K.Ubaydullayev va A.Babayans

B V.A. Shishkin va M.R.Hakimov

C Qori Ahmad Muhammedov va Ibrohim Xalilov

D M.Abdurahimov va N.V.Charikov

8. Kimning uzoq yillik sa'yi-hakatlari natijasida 1976-yilda viloyat davlat arxivining hozirgi binosining qurilishi tugallanib, foydalanishga topshiriladi?

A K.Ubaydullayev

B M.Valitova

C S.Abbosova

D M.Abdurahimov

9. O'zSSR yuqori soveti nechinchi yilda "Tuman arxivlari, qishloq sovetlari, kolxozlar, sovxozlardagi arxiv materiallarini tartibga solish va to'g'ri saqlash to'g'risida"gi qarorni qabul qilgan?

A 1939-yil 14-mart

B 1940-yil 15-aprel

C 1938-yil 15-yanvar

D 1938-yil 14-aprel

10. Buxoro viloyatining tashkil etilgan sanani aniqlang

- A 1939-yil 14-mart
- B 1940-yil 15-aprel
- C 1938-yil 15-yanvar
- D 1938-yil 14-aprel

10- mavzu: Mustaqillik yillarida Buxoro viloyatidagi arxiv ishi

Reja:

- 10.1. Arxiv ishida amalga oshirilgan islohotlar
- 10.2. Viloyat arxiv ishini rivojlantirish istiqbollari
- 10.3. Viloyat davlat arxivining so‘nggi yillardagi qo‘lga kiritgan natijalari

***Tayanch so‘z va iboralar:** moddiy-texnik bazasi, shaxsiy tarkib hujjatlari, shaxsiy fondl, kataloglashtirish, shaxsiy tarkib hujjatlari, fotoko‘rgazmalar, konsullik so‘rovlari, idoraviy arxivlar, hujjatlarning qimmatdorligini ekspertizasi, hujjatlarining ilmiy-ma‘lumot apparati, davlat saqlovi, hujjat restavratsiya, hujjatli ko‘rgazmalar, normativ-huquqiy hujjatlar ,tender tanlovi, ekspozitsion ko‘rgazma, axborot-kommunikatsiya vositalari.*

10.1. Arxiv ishida amalga oshirilgan islohotlar. Yurtimiz istiqloqlga erishganidan so‘ng arxivlar faoliyatida ham jonlanishlar ro‘y bera boshladi. Endilikda belgilangan istiqbolli rejalarni to‘liq bajarish uchun sharoitlar yaxshilana boshladi. Ilgari ko‘rib o‘tgan davrlarimizda uchraydigan bino, mablag‘ va boshqa shu kabi muammolar arxivchilarni kamdan kam hollardagina bezovta qiladigan bo‘ldi. Muammolarning asta-sekin bartaraf qilinishi arxiv ishi rivojiga ,albatta, o‘z ta’sirini ko‘rsata boshlagan. Natijada rejalar to‘liq bajariladigan bo‘ldi. Bunday natijalar mustaqillikning dastlabki -yillaridan boshlab qo‘lga kiritila boshlandi.

Buxoro viloyat davlat arxivida 1992-yilda asosiy ishlar rejasi bo‘yicha barcha ko‘rsatkichlar ortig‘i bilan bajarildi. Qoniqarsiz holatdagi hujjatlar restavratsiyaga topshiriladi. Bundan tashqari maxfiy hujjatlar bilan ishlash davrida restavratsiyaga muhtoj materiallar borligi ham aniqlanib, ular ta’mirlangan.

Arxivga tashkilotlar va fuqarolardan hujjatlarni qabul qilish ishlari davomida quyidagi jismoniy shaxslarning shaxsiy arxiv fondi hujjatlari davlat saqloviga qabul qilingan:

- 1.Saidov B – urush va mehnat faxriysi, SSSR jurnalistlar soyuzining a’zosi.
- 2.Habibulin – urush va mehnat faxriysi (Kogon filiali)

3.Gʻaniyev – II jahon urushi qatnashchisi, SPTUning sobiq direktori (Qorakoʻl filiali)

4.Shodiyev – Afgʻon urushi qatnashchisi (Vobkent filiali)

5.Sh.Gadoyeva– OʻzSSRda xizmat koʻrsatgan oʻqituvchi (Vobkent filiali)

Viloyat davlat arxivida sogʻliqni saqlash fondlari qimmatdorligini ekspertiza qilish bilan bir qatorda ularning roʻyxatlari qayta ishlanib takomillashtiriladi. Qayta ishlash va takomillashtirish jarayonida ularga soʻzboshilar qoʻyiladi, sarlavhalari oydinlashtirilib tarjima jadvallar tuziladi.

Quyidagi fondlar qayta ishlanib takomillashtiriladi:

- 1) №168 “Buxoro kasalxonasi”;
- 2) №1117 “Buxoro shahar yuqumli kasalliklar shifoxonasi”;
- 3) №1106 “Buxoro sanepidstansiyasi”.

Filiillarda bu ish uchinchi kategoriya fondlari boʻyicha olib borilgan. Asosan, opislari mavjud boʻlmagan kolxozlarning hujjatlari ustida olib borilgan.

Viloyat davlat arxivida hujjatlarni kataloglashtirish ishlari №1023 “Buxoro viloyat Ijroqoʻmi” fondida amalga oshirildi. Bu yerda “1941-1945 II jahon urushi yillarda Buxoro viloyatiga koʻchirib kelinganlar”, “Polshalik shaxslarning kelib chiqishi” mavzulari boʻyicha aynan alfavitli kataloglar yaratildi¹³⁷. Yana “Buxoro shahar koʻchalarini qayta nomlash toʻgʻrisida”, “Buxoro viloyat aholi punktlarini qayta nomlash toʻgʻrisida” hujjatlari ustida ham kataloglashtirish ishlari amalga oshirilgan. Bundan tashqari №36 “BXSR iqtisodiy kengashi” fondi ham kataloglashtiriladi. Unda “BXSRda paxtachilik, ipakchilik, chovachilik, yer taqsimlash va irrigatsiyaning tashkil etilishi va rivojlanishi toʻgʻrisida”, “BXSRning RSFSR, Afgʻoniston va Turkiston ASSR bilan savdo munosabatlarining rivojlanishi” mavzulari boʻyicha sistemali kataloglar tuzilgan.

Filiillarda bu ish Ijroqoʻm fondlari boʻyicha amalga oshirilgan. Viloyat davlat arxivida va filiillarda ftohujjatlarni qabul qilish davom etib, oldin qabul qilinganlarga opis va kartochkalar tuzilgan.

¹³⁷Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.57.

Arxiv materiallarini tartibga solish masalasiga kelsak, birinchi o‘rinda shahar va tumanlardagi tugatilgan xalq nazorati komitetining hujjatlari butlangan. Bu materiallar 1991-yilda davlat saqloviga qabul qilingan edi. Bundan tashqari qayta tashkil etilgan Buxoro viloyat Ijroiya qo‘mitasining hujjatlari saqlovga qabul qilinadi. Filialarda bu ish “Moliyalashtirish”, “Qishloq xo‘jaligi”, “Davlat boshqaruvi va hokimiyati muassasalari” fondlari ustida olib boriladi¹³⁸.

Mazkur yilda arxiv xodimlari tomonidan “Buxoro sporti”, “Бухарские известия”, “Советская Бухара” va “Buxoro haqiqati” gazetalarida o‘zbek va rus tillarida o‘ndan ortiq maqolalar e‘lon qilingan bo‘lib, bu maqolalar 1920-1944-yillarda Buxoroda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi, 1923-yilda Buxoroda Mehnat birjasining tuzilishi, Xarkov harbiy velozavodining Buxoroga ko‘chirilib olib kelinishi, davlat arxivining hayoti haqida ma‘lumotlar berib o‘tgan.

Viloyat davlat arxivi xodimlari arxiv materiallari bo‘yicha quyidagi mavzular bo‘yicha radioeshittirish tashkil qildilar:

- 1) “Buxoro tovar fond birjasi tarixidan lavhalar” (rus tilida);
- 2) “Buxoroga evakuatsiya”(Xarkov harbiy velozavodi to‘g‘risida) rus tilida;
- 3) “Buxoroda savdoning rivojlanishi” (rus tilida);
- 4) “Yaxshidan nom qoladi”;
- 5) “Dunyoga dong‘i ketgan Buxoro zardo‘zlari”(Buxoro zardo‘zlik san‘ati to‘g‘risida);
- 6) “О деятельности детских домов Бухарской области в годы Великой Отечественной войны”;
- 7) “Hujjatgoh faoliyatidan”.

Bundan tashqari arxiv xodimlari tomonidan ekspozitsion – mavzulik ko‘rgazmalar tashkil qilinadi. Ekspert komissiyasi faoliyati uchun qo‘llanmalar tashkil qilinib, yig‘majildlar nomenklaturasi tasdiqlangan. Qayta tashkil etilgan tashkilotlarda arxiv ishini yo‘lga qo‘yish uchun yordam ko‘rsatilgan.

¹³⁸Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.57.

Yana viloyat davlat arxivi xodimlari muassasalarning arxivlarini sistemali tarzda tekshirib chiqadilar. Tekshiruvlar oxirida ma'lumotnomalar tuzilib, muassasa, tashkilot va korxonalariga aniq tavsiyalar beriladi. Hujjatlar saqlovi talab darajasida bo'lmagan, arxiv ishini yaxshilash uchun hech qanday ish amalga oshirilmagan korxonalar, tashkilotlar haqida viloyat hokimiyatiga xabar qilingan.

Buxoro viloyat hokimi arxiv bo'limi bunga chora sifatida 1992-yil 14-dekabrda №238 sonli "Viloyatdagi tashkilot, muassasa, korxonalaridagi arxiv materiallari saqlovining ahvoli to'g'risida" qarori qabul qiladi. Bu qaror o'z vaqtida shahar va tuman hokimliklariga ham yuborilgan¹³⁹.

1992-yilgi ijobiy o'zgarishlardan yana biri viloyat davlat arxivi filiallarining moddiy-texnik bazasi yaxshilanishi bo'ldi. Qorako'l filialida yong'inga qarshi muhofaza tizimi yangilanib, binosining bir qismi qayta quriladi. Kogon filialining saqlovxonasi kapital ta'mirdan chiqariladi.

Shu yili Buxoro viloyat davlat arxivi ma'rifatparvar Abdurauf Fitrat hayoti va faoliyati haqidagi tarixiy hujjatlarni taqdim qilish bilan unga hujjatli film olish ishiga o'z hissasini qo'shdi.

1993-yilda O'zbekiston respublikasi davlat arxivi fondi hujjatlari saqlovini ta'minlash va yong'inga qarshi choralar ko'rish bo'yicha qator tadbirlar amalga oshirdi. To'qimachilik tuman o't o'chirish bo'limi inspektorlari vaqti-vaqti bilan viloyat davlat arxivi xodimlarini qo'llanmalar bilan tanishtirib turdilar. Saqlovxonalardagi hamma yoritish tizimlari himoya vositalari bilan niqoblandi. Bu hujjatlar xavfsizligini yana bir marta ta'minlar edi. Qorako'l filialida o't o'chirgichlar qayta zaryadlanib, yog'ochdan qilingan stellajlar yong'inga qarshi vositalar bilan ta'minlandi. Kogon filiali binosining tomi shifer bilan qayta qoplandi.

Profilaktika ishlaridan viloyat davlat arxivida R-37—"Buxoro shahar Ijroiya qo'mitasi" va R-80—"Buxoro okrug prokurori" fondlari hujjatlari restavratsiya qilindi.

¹³⁹Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2015. –B.58.

Viloyatdagi arxiv muassasalarida boshqaruv, sud, prokuratura, sanoat va qishloq xo‘jaligi, madaniyat va sog‘liqni saqlash, transport va jamoat tashkilotlarining hujjatlari bilan bir qatorda, xizmat ko‘rsatgan fan va madaniyat xodimlarining shaxsiy tarkib hujjatlari ham saqlanadi.

1993-yilda viloyat davlat arxiviga jurnalist Abdumajid Fozilovning R-860 va Abdullo Mo‘minovning R-859 shaxsiy fondlari qabul qilinadi.

Kogon filialiga – urush va mehnat faxriysi Esim Madaminovning R-12 shaxsiy fondi topshiriladi; Qorako‘l filiali – sobiq Qorako‘l qishloq sovetining raisi G‘oipovning R-141 qabul qilib olgan; Vobkent filiali – II jahonu rusi qatnashchisi va mehnat faxriysi Said Tursunovning R-62, II jahon urushi qatnashchisi Shodi Ashurovning R-65, II jahon urushi qatnashchisi Homid Tursunovning R-78, II jahon urushi qatnashchisi Ilyos Xolovlarning R-188 shaxsiy fondlarini qabul qilgan.

Shofirkon filialiga esa SSSR yuqori kengashining sobiq deputati, kolxoz raisi Sharif Hamroyevning R-98 shaxsiy fondi qabul qilinadi. II jahon urushi qatnashchilari, mehnat faxriylarining, mashhur paxtakorlarning shaxsiy fondlari o‘z ichiga ularning tarjimai hollari, xizmat hujjatlari, shaxsiy yozishmalari, maqtoov yorliqlari, suratlari, taqdirlanganliklari, maqolalari, gazetalardagi chiqishlari kabi materiallarni o‘z ichiga olgan¹⁴⁰.

Bu hujjatli materiallar vatandoshlarimizning II jahon urushidagi ishtiroklari, qahramonliklari, ko‘rsatgan jasoratlari haqida ko‘pgina ma‘lumotlar beradi. Shu o‘rinda arxiv hujjatlari tarixiy manba ekanligini yana bir marta qayd etishimiz lozim.

Viloyat davlat arxivida saqlanayotgan shaxsiy fondlar yuzasidan maqolalar chop etish ishlari bu yilda ham ijobiy bajarilgan. Kogon filiali rahbari L.A.Shilkova tomonidan Esim Madaminovning shaxsiy arxiv hujjatlari asosida “Знамя труда” gazetasining 1993-yil 30-sentabr sonida maqola e‘lon qilindi.

Viloyat davlat arxivi va filiillardagi asosiy ishlaridan biri bu – hujjatlarni kataloglashtirish bo‘lgan. Mazkur yilda №1023–“Buxoro viloyat Ijroiya qo‘mitasi”

¹⁴⁰ Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.60.

fondi bo'yicha 1430 ta kartochka tuzildi. Filialarda ham bu ish mahalliy Ijroiya qo'mitasi fondlari ustida amalga oshirilgan.

1993-yilda qilingan eng katta ishlardan yana biri №1173 "Buxoro viloyat Ijroiya qo'mitasi kasaba uyushmasi" (1950-1980-yy) fondini ekspertiza qilish va opislarini takomillashtirish bo'ldi. Ish natijasida barcha hujjatlar uchun yagona ro'yxat tuzilgan¹⁴¹.

Bundan tashqari fondlar qayta ishlanib, ekspertiza qilish bilan bir qatorda 3-kategoriya hisoblangan, asosan, kolxozlarning saqlash muddati tugagan hujjatlari makulaturaga ajratirildi.

Hisobot davrida Buxoroning hujjatli merosidan o'lkashunoslik va ilmiy-tarbiyaviy maqsadlarida foydalanish bo'yicha tajribalar orttiriladi. Bu ishlarni rivojlantirish maqsadida arxivlarda ko'rgazmalar tashkil qilingan. Arxivda Buxoro davlat universiteti tarix fakulteti talabalariga ekskursiya uyushtiriladi. Hokimiyatlardagi majlislarda arxiv rahbarlari tomonidan chiqishlar qilinadi. Qilingan ishlar albatta o'z natijasini berib, o'quv muassasalaridan, maktablardan, muzeylardan ko'plab xatlar kelib tushganligi qayd etiladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, arxivning o'quv muassasalariga, madaniy muassasalarga ,qolaversa , keng ommaga o'ziga xos tashviqot va targ'ibot ishlari o'z samarasini bergan. Buni yuqoridagi misollardan bilishimiz mumkin.

Viloyat davlat arxiviga kelib tushgan so'rovlar asosan Bahovuddin Naqshband yodgorligi qurilishi haqidagi hujjatlar, Buxorodagi 1 – elektrostansiya, Yangi Buxoroning Kogon deb qayta nomlanishiga doir hujjatlar, buxorolik II jahon urushi ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlar mavzusidagi so'rovlardan iborat bo'lgan.

Arxiv materiallaridan o'quv-tarbiyaviy maqsadlarida foydalanishni keng yo'lga qo'yish uchun shu yilda viloyat davlat arxivi va Buxoro davlat universiteti rektorati o'rtasida talabalarning "Arxivshunoslik" fanidan amaliyot o'tashi to'g'risida shartnoma imzolangan. Buxoro davlat universiteti talabalari har yili muntazam ravishda arxivda amaliyot o'taydilar. Bu ,albatta, arxiv ishiga bo'lgan

¹⁴¹Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2015. –B.60.

qiziqishlarni oshishiga xizmat qiladi. Buning natijasida talabalar diplom ishlarini yozishda ham arxiv materiallaridan foydalanishni yoʻlga qoʻyganlar.

1993-yilda katta eʼtibor arxivga kelib tushgan konsullik soʻrovlarining bajarilishiga qaratildi. Oʻzbekiston respublikasi Bosh arxivi tomonidan 13 ta konsullik soʻrovlari joʻnatilgan boʻlib, ularning yettitasiga ijobiy javob qaytarilgan. Shu yili Buxoro sudlari oʻzlarining 70 yillik yubileylarini oʻtkazish uchun arxivda saqlanayotgan qator sud hujjatlaridan keng foydalanganlar. Buxoro sudi uzoq tarixga ega boʻlib, arxivda BXSР xalq tribunalidan tortib okrug sudlarining hujjatlarigacha saqlanadi.

Bundan tashqari Buxoroda birinchi elektrostansiyaning tashkil etilishi va rivojlanishi, Buxoroda radioning tashkil etilishi xususida maqolalar tayyorlanadi. Viloyat gazetalarida arxiv xodimlari tomonidan doimiy ravishda “Arxivlar soʻzlaydi” rukni ostida maqolalar eʼlon qilib kelish yoʻlga qoʻyildi.

1993-yilda ham radiodan “Hujjatlarni asrash muhim ish”, “Muhim masala”, “Korxonalar, muassasa, tashkilot rahbarlarining diqqatiga” nomli eshittirishlar eʼlon qilib borildi. Bunda asosan idoraviy arxivlarning hujjatlari saqlovini taʼminlash masalasida murojaatlar qilingan. Chunki hujjatlar muassasalarda saqlanib, soʻng muddati tugagach davlat arxivlariga topshiriladi. Ularning qay holatda saqlanishi davlat arxivlari uchun, albatta, muhim hisoblanadi.

Arxiv oʻquv zalida koʻrilayotgan yilda 28 kishiga xizmat koʻrsatilgan boʻlib, ulardan ikki kishi ToshDUda oʻqiydigan chet ellik talabalar boʻlgan. Ular oʻquv zalida №36, №42, №80, №332, №548, №640 fond hujjatlaridan foydalanib, 1920-1930 -yillarda Buxorodagi ayollar harakatiga oid maʼlumotlar toʻplaganlar. Bundan koʻrinib turibdiki, viloyat arxivida nafaqat mahalliy tadqiqotchlar va talabalar, balki viloyatlardan kelgan va chet ellik talabalar ham tadqiqot maqsadlarida izlanishlar olib borganlar.

Mazkur yilda Oʻzbekiston respublikasi Bosh arxiv boshqarmasining 1992-yil 22-apreldagi buyrugʻiga koʻra Buxoro viloyatidagi 10 ta arxiv 6 tonna makulatura topshirgan¹⁴².

¹⁴²Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.62.

1995-yil davlat arxivlarida yangicha xo‘jalik yuritish tizimi joriy qilinadi. Natijada Toshkent viloyatining 4 arxivi - Toshkent viloyat davlat arxivi va uning Chirchiq, Qibray, Olmaliq filiallari bu tizimga muvaffaqiyatli o‘tgan bo‘lsalar, Samarqand, Farg‘ona, Xorazm, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Qoraqalpog‘iston, Andijon, Surxondaryo va Buxoro viloyat davlat arxivlari bu borada ancha qiyinchiliklarga duch keldilar¹⁴³. Ular yangi tizimga juda ham sekinlik bilan o‘tganlar.

Shu yili respublika bo‘yicha Ekspert tekshiruv komissiyasining boshqaruv hujjatlari opislarini tasdiqlash bo‘yicha rejasi 18%ga oshirib bajariladi. Rejada ko‘rsatilgan 95310 hujjat o‘rniga 112080 saqlov birligidagi hujjatlar opisi tasdiqlanadi. Bu ish turi reja ko‘rsatkichlarini oshirib bajarishda O‘zR MDA (4 barobar), ITTH MDA (2 barobar), Qoraqalpog‘iston MDA (2,5 barobar), Toshkent va Buxoro viloyat davlat arxivlari (1,5 barobar) alohida o‘rnak ko‘rsatganliklari qayd etildi. Hujjatlarga ilmiy-texnik ishlov berish ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilganini yuqoridagi holatdan bilishimiz mumkin.

Hujjatlarni restavratsiya qilish bo‘yicha ham Toshkent va Buxoro arxivchilari belgilangan rejani 5 %ga oshirib bajarganlar. Bu ko‘rsatkich boshqa viloyatlarning natijalarida kuzatilmagan. Bundan ko‘rinib turibdiki, arxivchilar oldindan belgilab berilgan istiqbolli rejaga qarab turmay, barcha sohalar bo‘yicha bor imkoniyatdan foydalangan holda ishga o‘ta mas’uliyat bilan yondashganlar. Faqat kataloglashtirish ishlari to‘liq bajarilmay qolgan.

Yig‘ma jildlarni tikish va muqovalash bo‘yicha Jizzax, Andijon, Farg‘ona, Sirdaryo, Toshkent, O‘zR MDA va Buxoro viloyat davlat arxivlari belgilangan rejani 15 %ga oshirib bajarganliklarini alohida qayd etishimiz mumkin. Chunki bu ish ham o‘z navbatida arxiv xodimlaridan katta mehnat va mas’uliyat talab qiladigan ishlardan hisoblanadi. Shu yilda muvaffaqiyatli amalga oshirilgan ishlardan yana biri bu - “Viloyatmetalsanoat” (“Облметпром”) va “Buxoro viloyat iste’molchilar ittifoqi” (“Бухарский облпотребсоюз”) fondlarining qayta ishlanib, takomillashtirilgani bo‘ldi.

¹⁴³Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.62.

Filialarda mazkur ish uchinchi kategoriya hujjatlari bo'yicha amalga oshirildi. Bu ko'rsatkichlar viloyat arxivlarida ish yuritish bir maromga tushib borganligidan dalolat beradi. Endilikda arxivchilar arxivga hujjatlarni keng jalb qilish uchun turli tadbirlarni amalga oshirishni yo'lga qo'ya boshlaganlar. Viloyat davlat arxivi rahbarining "Buxoro haqiqati" gazetasi, radio va televideniye orqali chiqishlari natijasida II jahon Urushi ishtirokchilaridan Boboqulov O'ktam Hamroyevich, Shevtsov Dimitriy Ivanovich, Filina Yekaterina Nikonorovna, Elova Shaxlo, Murodov Ahad, Kenjayev Nor va boshqalarning shaxsiy tarkib hujjatlari arxivga qabul qilinadi.

1995-yilda arxiv materiallaridan foydalanish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilgan. Hujjatlardan foydalangan holda arxivning o'zida quyidagi maqolalar e'lon qilingan:

1. "Слёзы и боль" – 1995-yil 21-yanvar (Sevastopol urushi haqida).
2. "Бескорыстие и преданность" – 1995-yil 1-fevral (Viloyat kasalxonasining ochilishi haqida).
3. "Жит осталось чудом" – 1995-yil 22-fevral (Ye.N.Filina hayotidan qiziq lavhalar) va boshqalar shular jumlasidandir.¹⁴⁴

Bundan tashqari shu yilda arxiv rahbari televideniye orqali "II jahon urushi qatnashchilariga murojaat" hamda "II jahon urushi davrida Buxoro va Kogonda ochilgan gospitallar" mavzularida chiqishlar qilgan. Bu chiqishlarda arxiv hujjatlarining uzoq va yaqin o'tmishni o'rganishda muhim manbalardan biri ekanligi yana bir marta namoyon qilingan. Yana g'alabaning 50 yilligiga bag'ishlab arxiv materiallari asosida 12 ta radioeshittirish, oltita ko'rgazma tashkil qilingan. Viloyat davlat arxivi Buxoroning 2500 yillik tantanalariga tayyorgarlik ishlariga o'z hissasini qo'shish maqsadida 1929-yil noyabr oyida Buxoroda bo'lgan fransuz jurnalisti Andre Violis yozgan xatning asl nusxasini shahar hokimligiga vaqtincha berib turgan. Bu xat sayyohlar uchun tayyorlangan ko'rgazmalarning birida qo'yilgan. Arxivchilar tomonidan turli xil fotoko'rgazmalarning tashkil qilinishi ham e'tiborga loyiq. 1995-yilda

¹⁴⁴Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2015. –B.63.

O‘zbekiston-Hindiston do‘stligiga bag‘ishlangan hamda O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 4 yilligiga bag‘ishlangan fotoko‘rgazmalar tashkil qilinganligi buning yorqin misoli bo‘la oladi.

Viloyat davlat arxivi materiallari asosida qilingan ilmiy tadqiqot ishlarining eng e‘tiborlilaridan biri 1995-yilda nashr qilingan BuxDU dotsenti, tarix fanlari nomzodi Ochil Sirojevning “Buxoro fidoiylari” nomli kitobi bo‘ldi¹⁴⁵. Bu kitobda buxorolik II jahon urushi qatnashchilarining hayoti, faoliyatlari, urushda ko‘rsatgan qahramonliklari, urush xotiralari, qo‘mondonlik tomonidan taqdirlanganliklari batafsil va aniq yoritilgan. Shu yili arxivga 3 ta konsullik so‘rovlari kelib tushgan bo‘lib, ularning bittasiga ijobiy javob qaytarilgan. Viloyatdagi arxivlar katta e‘tiborni kelib tushgan ijtimoiy-huquqiy so‘rovlarning bajarilishiga qaratdilar. Bu ish bo‘yicha ko‘rsatkichlar oldindan belgilangan rejadagidan orttirib bajarilgan. Buning asosiy sabablaridan biri - aholi va tashkilotlardan kelib tushgan nafaqa va xususiylashtirish bo‘yicha so‘rovlarning katta miqdorda ekanligidan bo‘lgan.

1995-yilda arxiv ilmiy-metodik kengashining to‘rtta majlisi o‘tkazilib, unda – barcha idoraviy arxivlarning 1995-yilda bajargan ishlari, belgilangan istiqbolli rejaning bajarilganligi, G‘ijduvon, Shofirkon filiallarida o‘tkazilgan tekshiruv natijalari va boshqalar muhokama qilingan.

Ekspert tekshiruv komissiyasining o‘n ikkita majlisi o‘tkazilgan bo‘lib, davlat va idoraviy arxivlardagi hujjatlarning qimmatdorligi ekspertiza qilinib, ularning yuqori qimmatdorlarini bir joyda to‘plash kabi masalalar ko‘rilgan. Chunki idoraviy arxivlarda ham saqlov muddati doimiy bo‘lgan hujjatlar talaygina hisoblanadi. Muassasalarda maxsus kadrlarning yo‘qligi uchun ularga ko‘p holatlarda yo‘qolib ketish xavfi tahdid solib turgan. Shuning uchun ular tez-tez ekspertiza qilib turilgan.

Viloyat arxivining diqqat markazida yana eski muammo – kadrlar masalasi ko‘ndalang turgan. Bu muammo nafaqat viloyat davlat arxivi, balki filiallar uchun ham birday bo‘lgan. Maxsus arxivchi kadrlarning mavjud emasligi sababli hisobot

¹⁴⁵Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.64.

davrida G'ijduvon filialining direktori – Abdiyev X., Peshku filialining direktori – Hayitova R., Kogon filialining ishchisi – Nurova Umriya, Buxoro filialining ishchisi – Baqoyeva N., Vobkent filialining ishchisi – X.Teshayevalar viloyat hokimining arxiv bo'limiga kelib tajriba o'rganib ketganlar.

O'z navbatida viloyat davlat arxivi rahbari X.N.G'ulomxo'jayev “O'zR DAF hujjatlarining ilmiy-ma'lumot apparati va hisobga olish” mavzusida, Kogon filialining rahbari L.A.Shilkova va arxiv bo'limining bosh mutaxassisi K.A.Shamsuddinovlar “Rejalashtirish, ishni tashkil qilish, opislarni qayta ishlash va takomillashtirish” mavzusi bo'yicha O'zbosharxivda tajriba o'rganib qaytganlar. Shu yo'l orqali arxivchilarni sohaga ixtisoslashtirganlar. Bu, albatta, arxiv ishini yaxshilash va rivojlantirish uchun o'z samarasini ko'rsatmay qolmagan.

Buxorolik arxivchilarning 1996-yilgi natijalariga murojaat qiladigan bo'lsak, unda ularning barcha sohalar bo'yicha ko'rsatkichlarni orttirib bajarganliklarini ko'rishimiz mumkin. Shu yilda respublika bo'yicha boshqaruv hujjatlarini arxivlarga qabul qilish 24 %ga oshirib bajarilgan. Bu ishda O'zR MDA, Namangan, Surxondaryo va Buxoro viloyat davlat arxivlari alohida yuqori natijalarni ko'rsatganliklari qayd etiladi¹⁴⁶. Ularning sa'y-harakatlari bilan respublika bo'yicha jami 102 983 saqlov birlikdagi hujjatlar tez va oson qabul qilib olingan.

Fuqarolardan hujjatlarni davlat saqloviga qabul qilish bo'yicha Buxoro arxivchilari belgilangan rejani 10 barobarga oshirib bajarganlar. Bularning katta qismini - II jahon urushi qatnashchilari, mehnat faxriylari, olimlarning hujjatlari tashkil qiladi.

Hujjatlarni ta'mirlash rejasi ham 6 %ga orttirib bajarilgan – 90.000 dan ortiq hujjat restavratsiya qilingan. Bunda O'zR MDA, Namangan va Buxoro viloyat davlat arxivlari hissalarini katta bo'lgan. Mazkur yilda Qashqadaryo, Surxondaryo va Buxoro arxivchilari shaxsiy kelib chiqish hujjatlarini jamlash bo'yicha istiqbolli rejani 12 foizga oshirib bajarganliklari ham e'tiborga loyiq

¹⁴⁶Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdoni” nashriyoti, 2015. –B.65.

ishlardan hisoblanadi. Bu ishda o‘z vaqtida matbuot va televideniye orqali qilingan chiqishlar o‘z samarasini berganligi ma’lum, albatta.

Respublika bo‘yicha oldindan belgilangan boshqaruv hujjatlarini kataloglashtirish rejasi 48 foizga oshirib bajarilgan. Mazkur ishda O‘zR MDA, Samarqand, Toshkent va Buxoro viloyat davlat arxivlari yuqori ko‘rsatkichlarga erishganlar. Buxoro arxivida shu yili №1168 “Buxoro xalq xo‘jaligi” va №1186 “Buxoro viloyat Ijroiya qo‘mitasining ijtimoiy ta’minot bo‘limi” fondlarining opisi qayta ishlanib takomillashtirildi. Shu yilda O‘zR MDA, KSOH MDA va Buxoro viloyat davlat arxivi xodimlari tomonidan atoqli davlat va jamoat arbobi Fayzulla Xo‘jayev tavalludining 100 yilligiga bag‘ishlab “Fayzulla Xo‘jayevga 100 yil” mavzusida hujjatli ko‘rgazmalar tashkil qilganlar¹⁴⁷.

1996-yili hujjatlar saqlovini ta’minlash maqsadida viloyat arxivi va uning filiallarida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Masalan: Peshku va Vobkent filiallaridagi yog‘och stelajlarga yong‘inga qarshi vositalar bilan ishlov berildi, o‘to‘chirgichlar yangilandi. Shofirkon va Qorako‘l filiallarida isitish tizimi ta’mirlandi. Qorako‘l filialida elektr o‘tkazgichlar yangilandi. Bajarilgan ishlar yuzasidan “Бухарская известия” gazetasining 1996-yil 12-iyun sonida “Архив – в надёжные руки” degan maqola e’lon qilingan. Bundan tashqari shu mavzu yuzasidan radio va televideniye orqali dasturlar qilingan. Bunda arxivlarda olib borilayotgan o‘zgarishlar, yangilanishlar va ba’zi islohotlar haqida lavhalar e’lon qilingan.

Shu yili arxivchilar tomonidan 12 ta maqola, jumladan:

1. “Tarix takasaltanglikni yoqtirmaydi”.
2. “Bundan 70 yil muqaddam”.
3. “Архив – в надёжные руки”.
4. “Выработать новые подходы”.
5. “Мужской институт просвещения”.
6. “Рассказывают архивные документы” (Kogon filiali)
7. “Hujjatgohga e’tibor zarur” (Qorako‘l filiali).

¹⁴⁷Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.66.

8. “Bolalarimiz baxtimiz” (Peshku filiali).

9. “Eng yaxshi hamshira”.

10. “Mas’uliyatni unutmang” kabilar e’lon qilingan. Bundan tashqari 6 ta radioeshittirish va 4 ta ko’rgazma ham tashkil qilingan. Bular – Fayzulla Xo’jayevning 100 yilligiga bag’ishlangan mavzuli – ekspozitsion ko’rgazma, Buxoroning 2500 yilligiga bag’ishlangan va boshqa ko’rgazmalar shular jumlasidandir.

1996-yilda ham arxiv materiallari asosida qator ilmiy ishlar qilingan. BuxDU talabalari “Buxorodagi 1941-1945-yillardagi paxta tozalash zavodlari”, “II jahon urushi yillaridagi buxoroliklarning yordam fondlari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishlarini yozishda arxiv materiallaridan salmoqli foydalanganliklari qayd etiladi. Buxoro oziq - ovqat va yengil sanoat texnologiyalari instituti tadqiqotchisi o’zining “Пищевая и лёгкая промышленность в Узбекистане в период 1945-1965 гг” mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasini yozishda asosan viloyat davlat arxivining №2 - “Финансовый отдел Зеравшанского областного исполнительного комитета Совета рабочих, дехканских и красноармейских депутатов”fondidan foydalangan.

Bundan tashqari Buxoro davlat badiiy-arxitektura muzeyi qo’riqxonasi direktori tarix fanlari nomzodi R.Almeyer “Buxoro yahudiylari” mavzusi bo’yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan. “Gala Osiyo ovozi” gazetasi tahririyatidan O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a’zosi tadqiqot olib borgan bo’lib, unga №26 – “Исполнительный комитет Бухарского Окружного Совета рабочих, дехканских и красноармейских депутатов” (1927-1930уу) va №28 – “Исполнительный комитет Зеравшанского областного исполнительного комитета Совета рабочих, дехканских и красноармейских депутатов” (1924-1927-уу) fondlari taqdim qilingan. Foydalanilgan materiallar asosida “1924-1930-yillarda Buxoro tumani” nomli kitob tayyorlangan. Mazkur yilda arxivga 7 ta konsullik so’rovi tushgan bo’lib, ularning bittasiga ijobiy javob qaytarilgan¹⁴⁸.

¹⁴⁸Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.68.

Kadrlar masalasiga kelsak, oldingi tartibga ko‘ra filiallarning rahbar va xodimlari viloyat arxivida tajriba o‘rganib ketganlar. Hisobot davrida Vobkent filialining rahbari A.K.Karimov, Buxoro tuman filiali rahbari S.Hojiyeva, Qorako‘l filiali rahbari O.Hamroyev va viloyat arxivi xodimi M.Hamroyevalar tajriba o‘rganib, o‘z malakalarini oshirganlar. O‘zbosharxivga 1 kvartalda Kogon filiali arxivchisi Nurova Umriya tajriba o‘rganish uchun borgan bo‘lsa, 2 kvartalda Buxoro tuman filiali rahbari S.Hojiyeva hamda Peshku filiali rahbari R.Hayitova moliyaviy qiyinchiliklar sababli bora olmadilar¹⁴⁹. Bundan ko‘rinib turibdiki arxiv muassasalaridagi iqtisodiy ahvol bu davda ham to‘liq yaxshilanmagan.

Shunga qaramay 1997-yilgi istiqbolli rejalar to‘liq bajarilgan. Bu -yilda katta e‘tibor berilgan ishlardan biri bu – “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga o‘tish haqida”gi qonunni bo‘lim va joylarda ijro etish bo‘yicha dasturlar tuzilib, shu asosda ish olib borilgan. Barcha maqolalar, ma‘lumotnomalar, xatlarni o‘zbek tilida lotin yozuvi asosida tayyorlash yo‘lga qo‘yila boshlangan. Yana yozuvlarni lotin imlosiga o‘tkazish, xodimlarni o‘qitish kabi ishlar ham amalga oshirilgan.

1997-yilda ham hujjatlar saqlovini mustahkamlash borasidagi ishlar to‘xtamadi. Kogon filialida saqlovxonalaridagi yog‘och stelajlar metal stelajlarga almashtirildi. Qorako‘l filialida yangi isitish tizimi ishga tushirilib, qo‘shimcha yong‘inga qarshi jihozlar sotib olindi. Bu chora-tadbirlar natijasida hujjatlarning tashqi va favqulodda zarar ko‘rish xavfi bir muncha kamaytirildi. Chunki yaqin o‘tmishdagi Navoiy arxividagi yong‘inning oqibatlari katta zararlarga olib kelgan edi.

Buxoro viloyat davlat arxivi 1999-yilga kelib, Buxoro, Vobkent, Kogon, Shofiron, Qorako‘l va G‘ijduvon, Peshko‘ tumanlaridagi 7 ta fillialari faoliyat olib borgan. Mazkur yil hisobida arxivida 2240 ta fond mavjud bo‘lib, ular turli xil hujjatlar va foto materiallar jamlangan 260 mingdan ziyod yig‘ma jildlardan iborat edi. Bu materiallar asosan davlat hokimiyati va boshqaruv organlari turli davlat va

¹⁴⁹Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.69.

nodavlat korxonalar, tashkilot muassasalari, jamoat tashkilotlari, sud va prokuratura tomonidan topshirilgan hujjatlarni tashkil etgan.¹⁵⁰

Shu yili viloyat arxivi xodimlari belgilangan rejaga muvofiq №773 – “Зеравшанский облвоенкомат” (1920-1920), №669 – “Артель Соцтруда” (1943-1944), №1023 – “Бухарский облисполком” (1949-1979), №63 – “Бухарский окружной совет физкультуры” (1927-1929), №191 – “Бухарская нотариальная контора” (1978-1984) fondlarini restavratsiya qilganlar va qayta muqovalaganlar.

“Бухарская городская контора Узбекской госторговли”, “Бухарское областное дорожное управление”, “Бухарская шелкомотальная фабрика”, “Бухарский Педагогический Институт” fondlari opislarini qayta ishlash va takomillashtirish ishlari muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirdi. Filialarda bu ish uchinchi kategoriya hisoblangan fondlar bo‘yicha amalga oshirildi¹⁵¹.

Viloyat arxivi inspektorlari idoraviy arxivlarning faoliyatini tekshirib, ularga tegishli yordam ko‘rsatib turganlar. Yangi tashkil qilingan idoraviy arxivlarga yig‘ma jildlar nomenklaturasini tuzib berganlar. Ularning o‘z faoliyatini tashkil qilishi uchun qo‘llanmalar bilan ta‘minlab turganlar. Bosharxiv topshirig‘iga ko‘ra “O‘zbekiston temir yo‘llari” Davlat aksionerlik kompaniyasining ish yuritish tizimiga kiradigan tashkilotlarning arxivlari tekshirilib chiqilgan va kerakli ko‘rsatmalar berilgan. Shu yili arxivchilar tomonidan 16 ta maqola, 16 ta radio eshittirish, 10 ta ko‘gazma tashkil qilingan. Va yana 10 tashkilotga ularning so‘roviga binoan ma‘lumotnomalar yuborilgan.

Shu yilning iyun oyida BuxDU tarix fakulteti talabalari arxivda amaliyot o‘taganlar. Amaliyot davomida arxivchilar talabalarda qiziqish uyg‘otish uchun ish jarayoni bilan birgalikda qiziqarli arxiv materiallari bilan ham tanishtirilganlar.

Xalq ta‘limi tizimidagi muassasalar va arxiv o‘rtasida do‘stona aloqalar yo‘lga qo‘yilgan. Buxoro shahridagi №16 – maktabda muzey ochilishi uchun davlat va jamoat arbobi Fayzulla Xo‘jayevning chiqishlari aks etgan hamda

¹⁵⁰ Xalilov A Tariximizning bebaho manbai. //Buxoro haqiqati 1999 -yil 29 sentabr.

¹⁵¹Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –B.69.

Buxorodagi 1 – suvoqavanning tashkil etilishi haqidagi hujjatlardan nusxalar taqdim etilgan.

Buxoro viloyat arxivining tumandagi filliallari qatoriga 2002-yilda 292 ming saqlov birliklaridagi hujjatlar jamlanmasidan iborat Qoravulbozor filiali tashkil etilgan. Filialning tashkil etilishi shahar va tuman hokimliklari tomonidan arxivlarga bo‘lgan e’tibor natijasidir. Tuman hokimligi Qoravulbozor tumanida davlat arxivi filiali uchun maxsus bino taqdim etgan. Shu bilan birga, binoni ta’mirlash va jihozlash uchun tuman hokimligi tomonidan 2 mln 400 ming mablag‘ ham ajratilganligini ko‘rishimiz mumkin.¹⁵²

Istiqlolning qo‘lga kiritilishi natijasida arxiv sohasida ham muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bu borada ishlar anchayin tartibga solinib, qo‘-yilgan maqsadlarda erishila boshlandi. Biz buni Buxoro viloyat davlat arxivi tomonidan oldindan belgilab berilgan istiqbolli rejalarni to‘liq va hatto ko‘p hollarda ortig‘i bilan bajarganligidan ham bilishimiz mumkin. Mustaqillik yillarida ko‘pgina muammolarning bartaraf etilishi natijasida arxivda amalga oshiriladigan barcha ishlar deyarli qiyinchiliklarsiz kechdi. Bu davrga kelib tadqiqotchilar doktorlik va nomzodlik ilmiy izlanishlarida, oliy o‘quv yurti talabalari esa o‘z bitiruv malakaviy ishlarini yozishda arxiv materiallaridan keng ko‘lamda foydalana boshlaganliklarini ta’kidlash joiz.

10.2. Viloyat arxiv ishini rivojlantirish istiqbollari. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq davlat arxivi xizmati faoliyatida sezilarli ijobiy siljishlar ro‘y bera boshladi. Avvalo hukumat tomonidan sohani isloh qilish uchun qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “Arxivlar to‘g‘risida”gi Qonuni (15.04.1999 y), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Arxiv ishi bo‘yicha me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori (30.10.1999-yil, 482-son), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini boshqarishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori (03.02.2004-yil, 49-son), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

¹⁵² Vohidov A. Arxiv-bebaho xazina.//Buxoro oqshomi .2002 -yil 17 avgust.

Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori (26.08.2008-yil, 194-son), 2010-yil 15-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan yangi tahrirdagi “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi kabi qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 5-aprel sanasida “O‘zbekiston Respublikasi arxiv ishini takomillashtirish to‘g‘risidagi qarorlari ish yuritish va arxiv ishi faoliyatini tashkil qilishda o‘z vaqtida qabul qilingan muhim hujjatlar bo‘ldi.

Buxoro viloyat davlat arxivini ham o‘zgarishlar va yangilanishlar chetlab o‘tgan emas. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2008-yil 26-avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda 2010-yil 29-dekabrda qabul qilingan “2011-yil uchun Investitsiya dasturi to‘g‘risida”gi qarori Buxoro viloyat arxivi faoliyatini rivojlantirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Mazkur holatdan kelib chiqib, Buxoro viloyat davlat arxivi binosiga 190 000 saqlov birlikdagi hujjatlarni joylashtirishga mo‘ljallangan qo‘shimcha saqlovxonaga qurildi. Qo‘shimcha saqlovxonaga binosi R.Mavlyuberdin rahbarligidagi “Ariya-proyekt” MCHJ loyiha insituti tomonidan ishlab chiqilgan edi. Loyihani amalga oshirish uchun tender tanlovi e‘lon qilingan edi. Tanlovda Jondor tumanidagi “SDF” xususiy firmasi quruvchilari tomonidan 2012-yilda avgust oyida ishga tushirildi¹⁵³.

Bu binoning ishga tushishi va unda zamonaviy jihozlarning o‘rnatilishi natijasida korxonalar, tashkilot va muassasalarda saqlanayotgan tarixiy hujjatlarni davlat saqloviga topshirish imkonini yaratdi.

Bundan tashqari yana qator yangiliklar amalga oshirildi. Bularga misol qilib quyidagilarni aytishimiz mumkin:

¹⁵³Abdurahimova F. Arxivning qo‘shimcha binosi ishga tushdi //Zamon. 2012 -yil 22 - noyabr. Abbasova S.I., Rashidova O.A. Arxiv hujjatlari guvohlik beradi. Buxoro, 2013 -yil –B.18-19.

✓ Qo‘shimcha saqlovxonaga yer ajratish to‘g‘risida Buxoro shahar hokimining 2009-yil 27-maydagi 848-sonli qarori qabul qilindi;

✓ 2010-yilda 1 843 400 so‘mga “Arxiv binosining namunaviy loyihasi” loyiha hujjatlari sotib olindi;

✓ 2008-2009-yillarda viloyat davlat arxivi saqlovxonalaridagi hujjatlarni karton qutilarga joylashtirish uchun 711 ta karton quti sotib olindi;

✓ 2009-yilda saqlovxonalariga havoni mo‘tadillashtiruvchi zamonaviy koditsionerlar sotib olindi;

✓ 2009-yilda viloyat davlat arxivi o‘quv xonasi va saqlovxonalariga nazorat va video kuzatish tizimlari o‘rnatildi;

✓ 2010-yilda saqlovxonalariga yong‘inni o‘chirish va yong‘inga qarshi zamonaviy o‘t o‘chirish ogohlantiruvchi vositasi o‘rnatildi;

✓ 2010-yilda ikkita zamonaviy kompyuterlar sotib olindi;

✓ 2010-yilda 17 120 ming(o‘n yetti million bir yuz yigirma ming) so‘mga “Davlat arxividagi o‘ta qimmatli hujjatlarni konservatsiya qilish va sug‘urta nusxalarini yaratuvchi yuqori texnologiyadagi qurilma” sotib olindi;

✓ Viloyat davlat arxivining jamlash manbaini tashkil etuvchi korxonalar bilan bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar yuzasidan chora-tadbirlar rejasi kelishib olingan¹⁵⁴.

Mustaqillik yillarida Buxoro viloyat davlat arxivida zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish ham keng yo‘lga qo‘yilgan. Bu borada bir guruh tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Masalan, viloyat davlat arxiviga zamonaviy kompyuter va kompyuter texnologiyalari sotib olingan. 2012-yilda ular 16 tani tashkil etadi; Viloyat davlat arxividagi mavjud fondlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning elektron varianti yaratilgan va ular to‘ldirilib borilmoqda; Viloyat davlat arxividagi o‘ta qimmatli hujjatlarning 3000 varaqdan ortig‘ining elektron varianti yaratilgan; Viloyat davlat arxivining elektron pochta yaratilgan bo‘lib, internet tarmog‘iga ulangan hamda

¹⁵⁴ Buxoro viloyat davlat arxivi./O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligi bag‘ishlangan albom. Buxoro, 2011.-B.12-13.

elektron hujjat almashinuvi olib borilmoqda; Viloyat arxiv ishi boshqarmasining veb-saytiga muntazm ravishda ma'lumotlar berilib borilmoqda; Viloyat davlat arxividagi mavjud kompyuterlar lokal tarmoqqa ulangan. Viloyat davlat arxivining so'nggi yillardagi qo'lga kiritgan natijalarini kuzatadigan bo'lsak, quyidagilarni ko'rishimiz mumkin:

Jadval №4

Viloyat davlat arxivining faoliyat ko'rsatkichlari¹⁵⁵

№	Ko'rsatkichlar nomi	2009- yil	2010- yil	2011- yil	2013- yil	2014-yil (9 oyida)
1	Fuqarolar murojaati	1078	714	530	580	373
2	Hujjatlarni davlat saqloviga qabul qilish	6404	7290	10 400	9227	6850
3	Hujjatlarni Ekspert Tekshiruv Komissiyasida tasdiqlash	6520	6096	6100	6847	7526
4	Maqolalar chop etish	8	8	10	8	6
5	Idoraviy arxivlarda ish yuritish ahvolini o'rganish	39	37	41	51	35
6	Me'yoriy-uslubiy hujjatlarni tayyorlash	32	32	40	37	67

Bugungi kunda Buxoro viloyat davlat arxiviga fuqarolar ikki xil toifadagi, ya'ni mavzuli (yer ajratish to'g'risidagi qarorlar, idora yoki tashkilot tarixi to'g'risida, sudlanish to'g'risida) va ijtimoiy-huquqiy (mehnat staji va oylik ish haqi, evakuatsiyada bo'lganligi, meros va mulkchilik huquqi, orden va medallar bilan mukofotlanganligi, gospitalda davolanganligi va boshqalar to'g'risida) toifadagi so'rovnomalar bilan murojaat qilishadi.

¹⁵⁵ Buxoro viloyat davlat arxivi./O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 -yilligi bag'ishlangan albom. Buxoro, 2011.-B.12-13. Buxoro viloyat davlat arxivida Arxiv ishini rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari rejasining bajarilishi bo'yicha 2013 -yil va 2014 -yil hisobotlari.

Ijtimoiy-huquqiy toifadagi so‘rovlarning ijrosini o‘z muddatida bajarishni yengillashtirish maqsadida viloyat davlat arxividagi mavjud fondlarning shaxsiy tarkib hujjatlari aniqlanib, ularning elektron shakllari yaratilgan. Bundan tashqari mavzuli so‘rovlarni bajarishda o‘ta qimmatli hujjatlar ro‘yxatidan, ya’ni ularning elektron shakllaridan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan.

Viloyat davlat arxiviga murojaat qiladigan fuqarolarning qabul qilish jadvali tuzilgan bo‘lib, ko‘rinarli joyga osib qo‘yilgan. Viloyat davlat arxiviga kelib tushadigan so‘rovlarning mazmuni va tahlili harakatdagi uslubiy ko‘rsatmalar asosida bajariladi va to‘liq javob berilmoqda, ya’ni fondning raqami, ro‘yxat raqami, yig‘ma jild va betlar soni aniq yozib boriladi.

Viloyat davlat arxiviga og‘zaki murojaat qiladigan fuqarollarni ro‘yxatga olish alohida daftari mavjud bo‘lib, unda fuqarolarning familiyasi, murojaat mazmuni va davlat arxivining tavsiyasi yozib borilmoqda.

Ma’lumki, Buxoroda dastlab arxiv ishini yo‘lga qo‘yish uchun Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, Zarafshon viloyati, Buxoro okrugi va Buxoro viloyati ijroiya qo‘mitalarining hujjatlari xizmat qilgan.

Arxivdagi hujjatlar o‘zbek, rus, arab va lotin alifbosida yozilgan asl shakli va nusxalardan iborat. Arxivda saqlanayotgan hujjatlar davlat hokimiyati yuqori organlari, davlat boshqaruvi, jamoat, kooperativ muassasalar, viloyat va shahar ahamiyatiga molik sud va prokuratura organlari, o‘quv va madaniy-ma’rifiy muassasalar, kasaba uyushmalari va ko‘ngilli jamiyatlarning materiallaridan iborat hisoblanadi.

Bundan tashqari arxivda yozuvchilar, jurnalistlar, arxeologlar, hofizlar, xonandalar, tarixchilar, ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari va mehnat faxriylarining shaxsiy fondlari mavjud.

Buxoro viloyat ishchi xalq deputatlari kengashi ijroiya qo‘mitasining 1962-yil 27-fevraldagi 119 sonli qarori bilan ilmiy-tadqiqot muassasasi sifatida viloyatdagi arxivlar ishini yaxshilash maqsadida 1962-yil 1-martdan IIXKB arxiv bo‘limi va viloyat davlat arxivi Buxoro viloyat ijroiya qo‘mitasi huzuridagi davlat

arxiviga birlashtirilgan edi. Shu sanadan beri arxiv materiallaridan ilmiy ishlarda keng foydalanib kelinmoqda.

Mustaqillik yillarida bu jarayon ancha rivojlandi, deb aytishimiz mumkin. Viloyat davlat arxivi o'quv xonasida tadqiqotchilarning ishini yengillashtirish maqsadida mavjud mavzuli katalog alohida qimmatli hujjatlar bilan to'ldirilib borilmoqda.

Jami 2006-2014-yillarda "Adolat nuri", "Buxoro oqshomi", "Buxoronoma", "Buxoro muallimi", "Buxoro yoshlari", "Ibn Sino vorislari", "Xabarchi", "G'ijduvon ovozi", "Zamon", "Бухарский вестник", "Народное слово" va "Оракул Востока" kabi gazetalarda 100 dan ortiq maqolalar e'lon qilinib ularda turli sohadagi muammolar ko'tarilgan. Buxoro viloyat davlat arxivi 2008 -yilda "Краткий справочник по фондам государственного архива Бухарской области" nomli ma'lumotnoma kitobini nashr ettirgan. Bu kitobda viloyat arxiv fondlari xususidagi ma'lumotlar sohalarga bo'lingan holda tuzilganligi arxivda o'z ilmiy izlanishlarini olib borish uchun murojaat qiluvchi tadqiqotchilarga ijobiy hodisa sifatida baholandi.

2010-yil 15-iyunda qabul qilingan "Arxiv ishi to'g'risida"gi Qonunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zarxiv" agentligining, Mahalliy davlat hokimiyati organlarining arxiv ishi sohasidagi vakolatlari bilan birga tarixiy hujjatlarni jamlash va saqlashda nafaqat davlat arxivlarining, balki korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda arxiv hujjatlarini jamlash, saqlash, hisobga olish va ulardan foydalanish bo'yicha idoraviy arxivlar mas'uliyati belgilanganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

"Arxiv ishi to'g'risida"gi Qonun davlat arxivlarining idoraviy arxivlar bilan ish olib borish izchil tizimini shakllantirishni taqozo qiladi. Korxonalar, tashkilot va muassasalarda arxiv ishini takomillashtirish maqsadida idoraviy arxivlarda tez-tez bo'lib turish, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rishda ulardan to'g'ri yechim qabul qilish zarur.

Bugungi kunda Buxoro viloyat davlat arxivida har haftaning chorshanba kuni “Idoraviy arxiv kuni” tadbiri o‘tkazilib, arxiv xodimlari bevosita joylarda bo‘lib, ish yuritish va arxiv ishi sohasidagi ahvolni o‘rganishmoqda. Idoraviy arxivlarga ish yuritish bo‘yicha yo‘riqnoma, hujjatlarning saqlash muddati ko‘rsatilgan sohaviy ro‘yxat, hujjatlar yig‘ma jildlari nomenklaturasi, idoraviy arxiv va ekspert komissiyasi haqida nizom, tarkibiy bo‘linmalardan hujjatlarni qabul qilish reja-jadvali, davlat saqloviga hujjatlarni topshirish reja-jadvallarini ishlab chiqish kabi uslubiy-amaliy yordamlar berilmoqda.

Buxoro viloyat davlat arxivi xodimlarining jamlash manbai bo‘lgan idoraviy arxivlarning ish faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda o‘rni muhimligini ta’kidlab o‘tish joizdir. Hujjatlarga sifatli berilgan ilmiy-texnikaviy ishlov tarixiy manbalarning haqqoniyligi va serqirraligining garovi bo‘lib xizmat qiladi. Bular esa o‘z navbatida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy tajribalar uzviyligini, arxiv ishi sohasi bo‘yicha malakali mutaxissislarni tayyorlashni, xodimlar malakasini oshirishni, sohaga yosh kadrlarni kengroq jalb etishni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligi munosabati bilan 2011-yili “O‘zarxiv” tizimida “ Yilning eng namunali arxiv muassasi”, “Eng tashabbuskor rahbar”, “Eng ilg‘or tajribali va eng yaxshi arxivchi” nominatsiyalari bo‘yicha ko‘rik tanlovda Buxoro viloyat davlat arxivi xodimlari ishtirok etishdi. Arxiv xodimlarining sa’y-harakati natijasida “Buxoro mustaqillik yillarida” fotoalbomi chop etildi¹⁵⁶. Fotoalbomda “Ko‘hna va Boqiy Buxoro” madaniy markaz haqida hikoya qiluvchi lavhalar bilan qatorda 2008-2011-yillarda Buxoroning Talipoch, Samarqand, Shayx Jalol, Hazrat Imom(Haqrab), Sallohxona kabi qadim darvozalarining tiklash va shaharda mavjud boshqa tarixiy yodgorliklarning holatini o‘zida aks etgan rasmlardan iborat bo‘lgan.

Buxoro viloyat davlat arxivi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 -yil 20-martda qabul qilgan “Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi

¹⁵⁶Abdurahimova F. Yilning eng yaxshi arxivi //Buxoro oqshomi. 2011-yil 15- sentabr., Abbasova S.I., Rashidova O.A. Arxiv hujjatlari guvohlik beradi.Buxoro, 2013 -yil –B.21.

sinovi bo'yicha huquqiy eksperiment o'tkazish haqida" Farmoyish ijrosini taminlash tadbirida ham faol ishtirok etdi.

Viloyat hududida mavjud 80 dan ziyod subyektlar eksperiment shartlariga ko'ra viloyat davlat arxivi bilan uzviy ish olib borishdi. Qonun loyihasining 13-moddasiga binoan Viloyat arxiv ishi boshqarmasi Buxoro viloyatida huquqiy eksperiment o'tkazish subyektlari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga axborot-kutubxona va arxiv fondlarining ularga axborot taqdim etish bo'yicha Vaqtinchalik tartib ishlab chiqdi¹⁵⁷.

Bu tartibga asoslanib eksperiment ishtirokchilari o'z faoliyat doiralaridan kelib chiqib tushgan murojaat va ularning hal etilishi uchun amalga oshirilgan chora-tadbirlar xususidagi ma'lumotlarni elektron shaklda taqdim etganligi bugungi kunda viloyat arxivi zamonaviy manbalar jamlanmasi (elektron hujjatlar) bilan ta'minlanilayotganligidan dalolat beradi.

Buxoro viloyat arxivi respublikada faoliyat olib borilayotgan bir guruh ilmiy muassasalar bilan aloqalarini yo'lga qo'ygan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi FA huzuridagi Tarix insituti "O'zbekiston shaharlari tarixi, an'analari va urbanizatsiyalashtirish mavzuida ish olib boruvchi V.Xolov so'rovi bo'yicha hujjatlar nusxalari tadqim etilganligi, belorussiyalik filologiya fanlar doktori A.Belskiy murojaatiga asosan Buxoro pedagogika institutida faoliyat olib borgan Fom Belskiyga taalluqli material nusxalarining jo'natilganligi bunday hamkorlikning amaliy natijasidir¹⁵⁸.

Viloyat arxiv xodimlari 2010-yil 27-29-oktabr sanalarida "Sentral Asia axborot-kutubxona resurslardan fan, ta'lim, madaniyat va biznes sohalarida foydalanish mavzuidagi VI xalqaro konferensiya"sida "Arxiv tizimlarini boshqarishning dolzarb masalalari" ma'ruzalari bilan qatnashganlar¹⁵⁹. 2014-yil 24-26-sentabr sanalarida esa Qozog'iston Respublikasining Ostona shahrida "Актуальные проблемы в области обеспечения сохранности архивных документов" mavzusidagi Xalqaro Arxiv Kengashining Yevro-Osiyo

¹⁵⁷ Yodgorov E. Arxiv-axborot manbai // Buxoronoma. 2013 -yil 12 -oktabr.

¹⁵⁸ Abbasova S.I. Huquqiy tajribaga bag'ishlanadi.//Buxoronoma.2013 -yil 7 -sentabr.

¹⁵⁹ Abbasova S.I.,Rashidova O.A. Arxiv hujjatlari guvohlik beradi.Buxoro, 2013 -yil –B.11.

“YEVROAZIKA” mintaqaviy bo‘limining XV umumiy konferensiyasida O‘zbekiston Respublikasi delegatsiyasi tarkibida ishtirok etganlar¹⁶⁰.

Bu kabi xalqaro anjuman, uchrashuvlarning o‘tkazilishi va unda respublikamizdagi arxiv sohasi xodimlarining ishtirok etishi O‘zbekistondagi mavjud arxiv muassasalari va arxiv ishi yo‘nalishlaridagi faoliyat xalqaro darajada e‘tirof etilayotganligidan dalolat beradi.

10.3. Viloyat davlat arxivining so‘nggi yillarda qo‘lga kiritgan natijalari. Buxoro viloyat arxiv ishi hududiy boshqarmasi tizimidagi arxivlar rahbar va mutaxassislarining malakasini oshirish yo‘nalishidagi ishlar. Buxoro viloyat hokimligining 21.01.2015-yildagi №4 /271 sonli xatiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 27-oktabrdagi "Davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarining malakasi va ko‘nikmalarini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar hamda ularni ishda kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida"gi 289-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida "KBST" tizimi bo‘yicha 68 nafar davlat arxivlari rahbarlari va xodimlari 2015-yil 21-27-fevral kunlari attestatsiyadan o‘tkazilib sertifikatlar olindi. Shu yili Peshko‘ va G‘ijduvon tuman davlat arxivlaridan 4 ta xodim Buxoro davlat universitetida AKT bo‘yicha, 2015-yil avgust oyida Peshko‘ tuman davlat arxividan O‘zR. KFFH MDA da 2 ta xodim O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida 2015-yil 3-5-sentabr kunlari tashkil etilgan "O‘zbekiston Respublikasi "Axborotlashtirish to‘g‘risida"gi qonuni va axborot tizimlari va resurslari xavfsizligi talablarini ta‘minlash hamda "Axborot xavfsizligi siyosati"ni joriy etish" mavzusidagi o‘quv kursiga Jondor IHHSHT Arxividan 1 ta xodim hamda VDA 1 ta xodim malaka oshirib keldilar. 2015-yil oktabr oyida Kogon

¹⁶⁰ Программа общей конференции Евро-Азиатского регионального отделения «ЕВРАЗИКА» Международного Совета Архивов(МСА), Международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы в области обеспечения сохранности архивных документов», Консультативного Совета руководителей архивных служб государств-участников СНГ. Астана, 2014 год.

shahardavlat arxividan 1 ta xodim va Buxoro tuman davlat arxivlari 2 ta xodimlari ijro-intizom bo'yicha Toshkent Kinofonofoto arxivida malaka oshirib kelganlar¹⁶¹.

Boshqarma va uning tizimidagi davlat arxivlari O'zRVMning 2011-yil 27-oktabrdagi 289-son qarori asosida kompyuter savodxonligini baholash tizimi bo'yicha 2015-yil mart oyida 46 ta rahbar va xodimlar attestatsiyadan o'tkazilgan. AKTni rivojlantirish bo'yicha kompyuterlar sotib olinishi, xodimlarning TATUga malaka oshirishi kelasi yil davomida rejalashtirildi.

Xodimlarning malakalarini oshirish bo'yicha 2016-yil fevral oyining 15-19-kunlarida Markaziy davlat arxivida "Idoraviy arxivlar faoliyatini tashkil etish asoslari bo'yicha" 2 ta rahbar va 1 ta xodim, kompyuter markazida 1 ta rahbar va 2 ta xodim, 2016-yil iyun oyida 4 ta rahbar 4 ta xodim, 2016-yil 12-15-dekabr kunlari 14 ta rahbar va xodimlar Toshkent TATU o'quv markazida "Axborot xavfsizligi" bo'yicha malaka oshirib keldilar¹⁶².

2016-yil fevral 15-19-kunlarida Markaziy davlat arxivida "Idoraviy arxivlar faoliyatini tashkil etish asoslari bo'yicha" 2 ta rahbar va 1 ta xodim kompyuter markazida 1 ta rahbar va 2 ta, 2016-yil iyun oyida 4 ta rahbar 4 ta xodim o'quv kurslarida malaka oshirib keldilar.

Buxoro viloyat arxiv ishi hududiy boshqarmasining 2016-yil 24-maydagi "Buxoro viloyat arxiv ishi hududiy boshqarmasi tizimidagi arxivlar rahbar va mutaxassislarini korxonalar, muassasalar va tashkilotlar hujjatlarini tartibga keltirishga kompetentligi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish to'g'risida"gi 34-son ishlab chiqarish buyrug'iga asosan 16 nafar rahbarlar va 43 nafar xodimlar kompetentligi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 27-martdagi "Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliydavlat hokimiyat organlari xodimlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi bo'yicha malakasini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 73-son qarori ijrosi asosida AKT

¹⁶¹Buxoro viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi 2015 -yillik hisobotining tahliliy ma'lumotnomasi. Buxoro, 2015 -yil dekabr. -B.5.

¹⁶²Buxoro viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi 2016 -yillik hisobotining tahliliy ma'lumotnomasi. Buxoro, 2016 -yil dekabr. -B.8.

bo'yicha AXga mas'ul xodimlar TATU va Buxoro davlat universitetida 2018-yil uchun boshqarma tizimidagi arxivlardan 8 nafar rahbar va xodimlar "Axborot xavfsizligi" bo'yicha malaka oshirish uchun shartnomalar tuzildi. Ushbu yo'nalishdagi faoliyat bugungi kunga qadar ham izchillik asosida davom etmoqda.

Shu bilan birga viloyatdagi davlat arxiv xodimlari "Buxoronoma", "Buxarskiy vestnik", "Olot hayoti", "Olot ovozi", "Jondor ovozi", "Peshku ovozi", "Galaosiyo ovozi", "Shofirkon ovozi", "Qorovulbozor tongi", "Kogon hayoti", "Buxoro yoshlari", "Soliq nazorati" "G'ijduvon" gazetasi kabi davriy nashrlarida sohadagi yangiliklar xususida 2015-yilda 30 ta, 2016-2017-yillarda 35 tadan, 2018-yilda 37 ta, 2019-yilda 40 ta maqolalarni e'lon qilganlar.

Jadval №5

Buxoro viloyat arxiv ishi hududiy boshqarmasi tizimidagi davlat arxiv xodimlarining 2015-2019-yillarda radioeshittirishlardagi chiqishlari hamda teleko'rsatuvlardagi ishtirok to'g'risida miqdoriy jadval¹⁶³

Yillar	Radioeshittirishda chiqishlar	Teleko'rsatuvlardagi ishtirok
2015	16 ta	11 ta
2016	16 ta	9 ta
2017	16 ta	11 ta
2018	17 ta	11 ta
2019	17 ta	12 ta

Buxoro viloyati davlat arxivlari joylashgan tuman va shahar hokimliklariga davlat arxivlariga boshqa bino ajratish va balansiga berish yuzasidan ishlar.

2015-yili Viloyat davlat arxivi, Vobkent, Peshko',
 Olottumandavlat arxivlaribinolaridajoriy kapital ta'mirlashda 58 mln 205
 mingso'mmablag' ajratilib sarflandi. Qorovulbozortumandavlat arxivida 5 mln. 148
 mingso'mga qo'riqlov moslamalari hamda 6 mln 700

¹⁶³Ushbu raqamlar Buxoro viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasining 2015-2020 -yilning birinchi yarmiga doir tahliliy ma'lumotnomalarining "Arxivlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar" deb nomlangan bandiga asoslanadi.

mingsoʻmgakuzatuvkamasioʻrnatildi. Arxivlarda 19 mln 174 ming soʻmga texnika jihozlari hamda 8 mln. 493 ming soʻmga metall javonlar oʻrnatildi.

2015-yili Buxoro tuman davlat arxivi Buxoro tuman 47-son PMK binosiga foydalanish uchun koʻchirildi. Buxoro tuman idoralararo hokimlik huzuridagi shaxsiy tarkib arxivi hokimlik yertoʻlasida joylashgan edi. Buxoro tuman hokimining 2019-yil 24-sentabrdagi 8896-sonli qaroriga asosan, tuman hokimligi balansida boʻlgan avvalgi koʻp tarmoqli poliklinika binosi Buxoro tuman davlat arxivi balansiga oʻtkazildi.

Buxoro shahar shaxsiy tarkib hujjatlari boʻyicha arxivi 2017-yili Viloyat davlat arxivi binosiga koʻchirildi.

Vobkent tuman hokimi A.Javodov tomonidan 2015-yili tuman markazidagi "F.Xoʻjayev" koʻchasida joylashgan xalq taʼlimi muassasalari faoliyatini metodik taʼminlash va tashkil etish boʻlimiga qarashli 7-son "Navroʻz" maktabgacha taʼlim muassasasi bino-inshootlarini tuman Davlat arxivi balansiga toʻgʻridan toʻgʻri oʻtkazish toʻgʻrisidagi 2015-yil 30-dekabrdagi №1387 son tuman hokimi qarori qabul qilindi. Vobkent tuman davlat arxivi 2016-yil yanvar oyida mazkur binoga koʻchirildi. Vobkent tuman idoralararo hokimlik huzuridagi shaxsiy tarkib hujjatlari arxivi avariya holatida boʻlganligi sababli, davlat arxivi Vobkent tuman xalq taʼlimi boʻlimi balansida boʻlgan binoga, shaxsiy tarkib arxivi Vobkent tuman qishloq va suv xoʻjaligi binosiga koʻchirildi. Binolarni oʻz balansiga oʻtkazish uchun 2016-yili tuman hokimiga xat bilan murojaat qilingan edi.

Peshku tuman hokimi Sh.Mavlonov tomonidan 2016-yilda "Peshkoʻ tuman hokimligi balansida boʻlgan Yangibozor shaharcha fuqarolar yigʻini "Mustaqillik" koʻchasida joylashgan ikki qavatli "Maʼmuriy bino"ni Peshkoʻ tuman Davlat arxivi balansiga oʻtkazish toʻgʻrisida"gi 2016-yil 17-iyuldagi 648-son tuman hokimi qarori qabul qilindi. 2017-yili Oʻzbekiston Respublikasi Mustaqilligining 26 yilligi bayrami arafasida 2-sentabr kuni Peshkoʻ tuman davlat arxivi oʻzining balansiga berilgan va toʻla kapital taʼmirdan chiqarilgan binoga koʻchirib, davlat arxivi faoliyatini davom ettirayotgan mazkur binoda arxiv faoliyatini toʻgʻri yoʻlga qoʻyish, saqlovxonalarda Milliy arxiv fondi hujjatlarini joylashtirish, ulardagi

javonlarni, ishchi hamda jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish xonalarini to'g'ri taqsimlash, arxiv foydalanuvchilariga zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha amalga oshiriladigan asosiy tadbirlar to'g'risida sayyor tarzda ko'rgazmali seminar bo'lib o'tdi.

Qorako'l tuman davlat arxivi 2016-yilda o'zining binosiga ega bo'lib turib, joy yetishmaganligi sababli tuman hokimligi tomonidan budjetdan tashqari pensiya jamg'armasining eski binosiga ko'chirildi. Qorako'l tuman davlat arxivi o'zining eski binosi arxiv balansidan chiqarilmaganligi uchun Qorako'l tuman hokimligi tomonidan budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi davlat arxiviga vaqtincha bepul foydalanib kelindi. 2019-yili ushbu tuman hokimligi tomonidan Qorako'l tuman davlat arxiviga hamda Qorako'l tuman Idoralararo xo'jalik hisobidagi shaxsiy tarkib arxiviga bo'shagan harbiy qism binosi ajratildi.

Olot davlat arxivlari binolarni ham dastavval o'z balansiga olish borasidagi ishlar oxiriga yetmagan edi. 2019-yilda Olot tuman hokimligi tomonidan Olot tuman davlat arxiviga tuman qishloq xo'jaligi bo'limi binosidan qo'shimcha 48 kv.m. saqlovxonasi, Olot tuman Idoralararo xo'jalik hisobidagi shaxsiy tarkib arxiviga tuman madaniyat bo'limining bo'shagan binosi ajratildi¹⁶⁴.

Shofirkon tuman davlat arxiviga bino ajratish uchun 2008-yil 12-sentabr kuni 508-son qarori bilan Shofirkon tuman davlat arxiviga bino qurish uchun yer ajratilgan edi. 2016-2018-yillarda tuman hokimligiga xat bilan murojaat qilinib, yangi bino qurilishi bo'yicha takliflar kiritiladi. 2019-yili Kogon shahri, G'ijduvon, Shofirkon tuman davlat arxivlari uchun 2020-yilda yangi bino qurilishi rejalashtiriladi.

Kogon shahar davlat arxivi Buxoro viloyati hokimining 2018-yil 18-iyul kuni "Obod mahalla" dasturi ijrosi yuzasidan Kogon shahriga tashriflarini yakuni bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda arxiv joylashgan maktabgacha ta'lim muassasasida kapital ta'mirlash ishlari boshlanishi munosabati bilan binoni bo'shatish va arxivni ko'chirish bo'yicha viloyat hokimi tomonidan berilgan

¹⁶⁴Buxoro viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi 2019 -yillik hisobotining tahliliy ma'lumotnomasi. Buxoro, 2019 -yil dekabr. -B.6.

topshiriq ijrosini ta'minlash yuzasidan arxiv saqlovxonasidagi hujjatlar vaqtinchalik boshqa binoga tadbirkorlik subyekti bo'lgan Kogon shahar "M.Tarobiy" ko'chasi 66-uyda joylashgan xususiy korxonada joylashgan binoga ko'chirilgan edi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ushbu arxiv 2020-yili yangi binoga ko'chib o'tishi belgilangan.

Shuni ta'kidlash joizki, 2018-yilda Buxoro viloyatidagi 257 ta idoraviy arxivlar ishlarini o'rganish amalga oshirilgan. Buxoro, Vobkent, Qorovulbozor, Peshku, Shofirkon tuman davlat arxivlari hamda Vobkent, Olot tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari arxivlaridagi hujjatlarining sifatli saqlovini ta'minlash maqsadida saqlovxonalarga temir stellajlar o'rnatildi.

Shuningdek, Buxoro, Romitan, Olot, Vobkent idoralararo shaxsiy tarkib hujjatlari arxivi saqlovidagi arxiv hujjatlarining xavfsiz saqlovini ta'minlash maqsadida shaxsiy tarkib hujjatlari arxivlari joylashgan binoni arxiv balansiga o'tkazish choralari bo'yicha hokimliklarga o'rnatilgan tartibda xat bilan murojaat qilingan.

2020-2022-yilda Buxoro viloyatida davlat mablag'lari hisobidan quriladigan obyektlar manziliy dasturi loyihasiga 2020-yilda Kogon shahri, G'ijduvon, Shofirkon tuman davlat arxivlari yangi bino qurilishi, 2021-yilda Olot, Jondor tuman davlat arxivlari yangi bino qurilishi taklifi viloyat hokimligi tomonidan Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan.

Viloyat iqtisodiyot va hududlarni kompleks rivojlantirish bosh boshqarmasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabr PQ-4463-sonli qarorining 4 ilovasi bilan O'zbekiston Respublikasida 2020-2025-yillarda arxiv ishi va ish yuritishni yanada rivojlantirish dasturida Iqtisodiyot va sanoat, Investitsiyalar va tashqi savdo, Moliya, qurilish vazirliklari, "O'zarxiv" agentligiga 2020-2025-yillarda davlat arxivlari binolarini va saqlovxonalarini qurish dasturini shakllantirish bo'yicha topshirigi ijrosi yuzasidan, 2020-2022 - yillar uchun shakllantirilayotgan Investitsiya dasturi doirasida markazlashgan mablag'lar hisobidan Shofirkon tuman davlat arxiviga - 2020-yilda, G'ijduvon, Olot tuman davlat arxivlariga - 2021-yilda, Jondor, Romitan tuman davlat

arxivlariga - 2022-yilda yangi davlat arxivi binosi qurilishi taklifini ro'yxatga kiritishga amaliy yordam so'rab boshqarmaning 2019-yil oktabrdagi xati bilan murojaat qilindi¹⁶⁵.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5834-F-Farmonining 8-bandi ijrosi yuzasidan viloyatdagi barcha idoralararo xo'jalik hisobidagi shaxsiy tarkib hujjatlari arxivlari shahar, tuman hokimliklari qarorlariga asosan shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlariga aylantirilib, boshqarma bo'ysunuviga o'tkazildi.

So'nggi -yillarda Buxoro viloyatida arxiv muassasalarida ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmi. 2015-yilda ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmi 310 mln 664 ming so'mni, 2016-yilida 361mln 702 ming so'm bo'lib, 2015 -yilga nisbatan o'sish sur'ati 116% foizni tashkil qilgan. 2017-yilda bu ko'rsatgich 512 mln 032 ming so'mni tashkil etib 2016-yilga nisbatan o'sish sur'ati (142 %), 2018 -yilda esa bu qiymat 644 mln 375 ming 200 so'mdan iborat edi. Bu 2017 -yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati (126%)ni tashkil etgan. 2019 -yilda 860 mln 129 ming 010 so'mni, 2020-yilining birinchi yarmida bu qiymat hajmi 468,0 mln.so'mni tashkil etgan¹⁶⁶.

Moddiy texnik baza. Vazirlar Mahkamasining 2016-yilgi 53-son bayonnomasiga asosan Buxoro viloyatidagi 250 ta idoraviy arxivlar ishlarini o'rganish amalga oshirilgan. Arxivlarda kompyuterlar soni 45 tani tashkil etib, faks apparatlari o'rnatilgan. 2017-yilda viloyatdagi Arxivlarda kompyuterlar soni 60 tani tashkil etib, faks apparatlari o'rnatildi. Arxiv muassasalardagi moddiy texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirish bo'yicha 2018-yilda jami 13 ta: 5 ta kompyuter , 6 ta printer, 2 ta infokiosk apparatlari sotib olingan. 2019 -yilida ushbu maqsadlarda jami 24 ta: 10 ta kompyuter, 2 ta skaner, 8 ta printer, 1 ta faks va 3 ups apparatlari sotib olingan.

¹⁶⁵Buxoro viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi 2019 -yillik hisobotining tahliliy ma'lumotnomasi. Buxoro, 2019 -yil dekabr. -B.3.

¹⁶⁶Ushbu raqamlar Buxoro viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasining 2015-2020 -yilning birinchi yarmiga doir tahliliy ma'lumotnomalarining "Arxivlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar" deb nomlangan bandiga asoslanadi.

"Internet tarmog'ining milliy segmentida axborot resurslarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi to'g'risida"gi 2005-yil 26-iyuldagi №08/1-422-son qarori bilan belgilangan vazifalarning ijrosi yuzasidan viloyat arxiv ishi boshqarmasi tizimidagi arxivlarda ma'lum ishlar amalga oshirildi. Barcha arxiv muassasalari internet tarmog'iga ulangan. VDA va boshqarma yagona lokal tarmoqqa ulangan. "E-Xat" himoyalangan pochta tizimiga barcha arxiv tizimlari ulandi.

Buxoro viloyat arxiv ishi hududiy boshqarmasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi PQ-1989-son qarori bilan boshqarmaning rasmiy veb-sayt *buxoroarchive.uz* interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatish Internet tarmog'ida rasmiy veb-sayti mavjud bo'lib, unda tashkilot faoliyati sohasidagi muhim statistik va tahliliy axborotlar mavjud. Unda tashkilot faoliyati masalalari bo'yicha yagona telefon raqami, jismoniy va yuridik shaxslarning telefon orqali murojaatlarini hisobga olish imkoniyatiga ega bo'lgan ishonch telefonlari mavjud. Internet tarmog'iga ulangan. "O'zbekiston arxivlari" veb-portaliga va uning tarkibiga kiruvchi veb-saytlariga axborot berish tartibi"ga amal qilgan holda agentlikning elektron manziliga axborot, yangiliklar va maqolalar taqdim etib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasining (pm.gov.uz) "Onlayn maslahatchi" moduli orqali kelib tushgan murojaatlar bilan ishlashni tashkil etish uchun tashkiliy-texnik ("Onlayn maslahatchi" moduli orqali murojaatlarga doir masalalar bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarga real vaqt rejimida maslahat xizmatini ko'rsatishni tashkil etish yuzasidan Tavsiyalarga muvofiq) talablar ta'minlandi.

Buxoro viloyatidagi arxiv muassasalarida Milliy arxiv fondining saqlovini ta'minlash va hujjatlarni saqlash yanada takomillashtirilganligi, arxiv hujjatlarining elektron nusxalarini va ularning bazalarini yaratish bo'yicha qo'shimcha tadbirlar amalga oshirish bo'yicha ishlar ham amalga oshirilmoqda. 2015-yilda ushbu yo'nalidagi ishlar doirasida arxiv hujjatlarining, 619/52565 tasi, 2016 -yilda esa 1049/109180 s.b. arxiv hujjatlarining elektron nusxalar tayyorlandi. Buni quyidagi

jadvaldan ham bilsa bo‘ladi¹⁶⁷. Mazkur ishlar davomi sifatida 2017-yilda 1594/210005 nusxada arxiv hujjatlarining elektron nusxalari tayyorlangan bo‘lsa¹⁶⁸, bu ko‘rsatgich 2018-yilda ko‘paytirilgan. Buni quyidagi jadvaldagi ma’lumotlar ham tasdiqlaydi¹⁶⁹.

Jadval №6

№	Jami shaxsiy tarkib hujjatlari ro‘yxatlari (opislari) soni/ ro‘yxatdagi s.b. soni	Hisobot kuniga raqamlashtirilgan shaxsiy tarkib hujjatlari ro‘yxatlari (opislari) soni/ ro‘yxatdagi s.b. soni	qolgan raqamlashtirilishi lozim bo‘lgan shaxsiy tarkib hujjatlari ro‘yxatlari (opislari) soni/ ro‘yxatdagi s.b. soni	Shaxsiy tarkib hujjatlari ro‘yxatlari (opislari) bazasi yaratilgan sana/ ro‘yxatdagi s.b. soni	Raqamlashtirilgan ro‘yxatlar formati (Word, PDF, TIFF va b.), qidiruv imkoniyatlarini mavjudligi
	2913/ 222192	2212/ 214892	701//7300	2018йил 214892	PDF

2019-yilda 3113/223192 arxiv hujjatlarining elektron nusxalarini va ularning bazalarini yaratish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar.

2015-2019-yillarda Buxoro viloyati arxiv ishi boshqarmasi tizimidagi arxiv muassasalarida jami 25228 ta mavzuli so‘rovlar hamda ijtimoiy-huquqiy toifadagi kiruvchi 85350 ta so‘rovlarga javob berilgan.

¹⁶⁷Buxoro viloyat iarxiv ishi hududiy boshqarmasi 2016 -yillik hisobotining tahliliy ma’lumotnomasi. Buxoro, 2016 yi I dekabr. -B.5.

¹⁶⁸Buxoro viloyat iarxiv ishi hududiy boshqarmasi 2016 -yillik hisobotining tahliliy ma’lumotnomasi. Buxoro, 2016 yi I dekabr. -B.6

¹⁶⁹Buxoro viloyat iarxiv ishi hududiy boshqarmasi 2016 -yillik hisobotining tahliliy ma’lumotnomasi. Buxoro, 2016 yi I dekabr. -B.20.

**Buxoro viloyati arxiv ishi boshqarmasi tizimidagi arxiv muassasalarida
2015-2019-yillarda bajarilgan mavzuli hamda ijtimoiy-huquqiy mazmundagi
so‘rovlar bo‘yicha miqdoriy ma’lumot jadvali¹⁷⁰**

Yillar	Mavzuliso‘rovlar	Ijtimoiy-huquqiytoifadagiso‘rovlar
2015	2465 ta	8649 ta
2016	3429 ta	8425 ta
2017	5088 ta	23504 ta
2018	7287 ta	27826 ta
2019	6959 ta	16946 ta
	25228	85350

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-fevraldagi 72-son qarori bilan "O‘zbekiston Respublikasi "O‘zarxiv" agentligi to‘g‘risida"gi nizomi tasdiqlangan bo‘lib, mazkur nizomning 38-bandiga asosan shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari direktorlari arxiv ishi hududiy boshqarmalari rahbarlari tomonidan tegishli tuman, shahar hokimliklari bilan kelishgan holda lavozimiga tayinlanishi belgilangan.

Boshqarma tizimidagi shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari direktorlariga arxiv ishi hududiy boshqarmasi boshlig‘i tomonidan tegishli tuman, shahar hokimliklari bilan kelishgan holda tavsiyanomalar berildi hamda shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari nizomlarig 19-bandiga tegishli o‘zgartirishlar kiritildi. "O‘zarxiv" agentligining 2020-yil 14-maydagi "Namunaviy nizomlarni tasdiqlash" to‘g‘risidagi 106-son buyrug‘i bilan Arxiv ishi hududiy boshqarmasi to‘g‘risida namunaviy Nizom 1-ilovaga; Davlat arxivlari to‘g‘risida namunaviy Nizom 3-ilovaga muvofiq tasdiqlandi. Namunaviy Nizomlarga muvofiq boshqarma Nizomi loyihasini tegishli mahalliydavlat hokimiyat organlari bilan kelishilgan holda 2020-yil may oyida "O‘zarxiv" agentligi tomonidan tasdiqlandi.

¹⁷⁰Ushbu raqamlar Buxoro viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasining 2015-2019 -yillarga doir tahliliy ma’lumotnomalarining "IV. Buxoro viloyat arxiv ishi xududiy boshqarmasiga yuklatilgan asosiy vazifalarning bajarilishi" deb nomlangan bandiga asoslanadi.

Boshqarma tizimidagi 11 ta davlat arxivlari nizomlari o‘rnatilgan tartibda boshqarma boshlig‘i tomonidan tasdiqlandi.

Nazorat uchun savollar

1. Mustaqillikning dastlabki yillarida Buxoro viloyati arxivida kadrlar masalasi qanday hal etilgan?
2. Mustaqillik yillarida Buxoro viloyat davlat arxivining yangi binosining qurilishi xususida qanday ma’lumotlarga egasiz?
3. Buxoro viloyat davlat arxivida shaxsiy fondlarining shakllanishi haqida nimalarni bilasiz?
4. Buxoro viloyat davlat arxivi xodimlarining ilmiy hamda ommaviy axborot vositalariga qanday mavzu va mazmundagi maqolalar hamda chiqishlar bilan ishtirok etishgan?
5. Buxoro viloyat davlat arxivining filliallari haqida ma’lumot bering.
6. Mustaqillik yillarida arxiv sohasida qabul qilingan normativ- huquqiy hujjatlar haqida ma’lumot bering.

Test topshiriqlari

1. 1993-yilda viloyat davlat arxiviga jurnalist Abdumajid Fozilovning shaxsiy fondlari qaysi raqam ostida qabul qilingan
A R-860
B R-859
C R-141
D R-65
2. Nechinchi yilda Buxoro viloyati davlat arxivida i №1173 “Buxoro viloyat Ijroya qo‘mitasi kasaba uyushmasi” (1950-1980-yy) fondini ekspertiza qilish va opislarini takomillashtirish amalga oshirilgan.
A 1991-yilda
B 1992-yilda
C 1993-yilda
D 1995-yilda

3. 2012-yilda Buxoro viloyat davlat arxivi binosiga qancha saqlov birlikdagi hujjatlarni joylashtirishga mo'ljallangan qo'shimcha saqlovxonona qurilgan?

A 180 000

B 200 000

C 190 000

D 280 000

4. Buxoro shahar shaxsiy tarkib hujjatlari bo'yicha arxivi nechinchi yilda Viloyat davlat arxivi binosiga ko'chirildi?

A 2015-yil

B 2009-yil

C 2019-yil

D 2017-yil

5. Buxoro viloyatida 2021-yilda qaysi tuman davlat arxivlariga yangi bino qurilishi taklifi viloyat hokimligi tomonidan Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan?

A G'idevon va Vobkent tumanlari

B Olot va Jondor tumanlari

C Buxoro va Jondor tumanlari

D Peshku va Romitan tumanlari

6. Nechinchi yilda 17120 ming (o'n yetti million bir yuz yigirma ming) so'mga "Davlat arxividagi o'ta qimmatli hujjatlarni konservatsiya qilish va sug'urta nusxalarini yaratuvchi yuqori texnologiyadagi qurilma" sotib olindi?

A 2009-yil

B 2011-yil

C 2010-yil

D 2011-yil

7. Buxoro viloyatdagi davlat arxiv xodimlari ommaviy axborot vositalarida 2019 - yilda nechta maqolalarni e'lon qilganlar?

A 11 ta

B 40 ta

C 35 ta

D 30 ta

8. Boshqarma va uning tizimidagi davlat arxivlari O‘zRVMning 2011-yil 27-oktabrdagi 289-son qarori asosida kompyuter savodxonligini baholash tizimi bo‘yicha 2015-yil mart oyida Buxoro viloyatidan nechta rahbar va xodimlar attestatsiyadan o‘tkazilgan?

A 43 nafar

B 46 nafar

C 16 nafar

D 45 nafar

9. Buxoro viloyat arxiv boshqarmasi va Buxoro davlat universiteti o‘rtasidagi "Axborot xavfsizligi" bo‘yicha malaka oshirish uchun shartnomalar qachon tuzildi?

A 2016-yilda

B 2017-yilda

C 2018-yilda

D 2019-yilda

10. Qachondan boshlab viloyatdagi barcha idoralararo xo‘jalik hisobidagi shaxsiy tarkib hujjatlari arxivlari shahar, tuman hokimliklari qarorlariga asosan shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlariga aylantirilib, boshqarma bo‘ysunuviga o‘tkazildi?

A 2018-yilda

B 2017-yilda

C 2019-yilda

D 2016-yilda

Seminar mashg‘uloti mavzulari:

1. Xiva xonligida arxiv.
2. Qo‘qon xonligi tarixiga oid arxiv hujjatlari.
3. Buxoro amirligi qo‘shbegisi arxivi.
4. Buxoroda sovet tuzumining o‘rnatilishi va arxiv ishi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida I-126 fond va uning tarixiy davrlarni yoritishdagi o‘rni.

6. Rossiya imperatori siyosiy agentligi hujjatlari.
7. Buxoro viloyatining tashkil etilishi va arxiv tizimi.
8. Mustaqillik yillarida Buxoro viloyatida arxiv ishi
9. Buxoro viloyatida arxiv ishining rivojlantirish istiqbollari.
10. Buxoro viloyati davlat arxivining so‘nggi yillarda qo‘lga kiritgan natijalari.

GLOSSARIY

Alohida qimmatli hujjat - o'chmas tarixiy-madaniy va ilmiy qimmatga, jamiyat hamda davlat uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan, hisobga olish, saqlash va foydalanishning alohida tartibi belgilangan arxiv hujjati.

Anketa so'rovnomasi- tomoshabinlarning muzey haqidagi fikrini bilish uchun tayyorlangan so'roq varaqasi. Muzeyshunoslikda anketa so'rovnomasini olib borish ilmiy tadqiqot ishlaridan hisoblanadi.

Arxiv - hujjatlar saqlanadigan muassasa. Har bir muzeyning shaxsiy arxivi bo'lib, ular ilmiy yordamchi bo'lim hisoblanadi. U yerda muzey hujjatlari, hisobotlar, kengash qarorlari, taklif va mulohaza kitoblari va shunga o'xshash hujjatlar saqlanadi. Arxeolog - tegishli oliy ma'lumotga ega bo'lgan tadqiqotchi.

Arxiv fondi - yuridik yoki jismoniy shaxslar faoliyati natijasida yaratilgan, tarixiy yoki mantiqiy jihatdan o'zaro aloqador arxiv hujjatlari majmui;

Arxiv hujjatlari - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tegishli ekspertiza asosida arxiv ahamiyatiga molik deb topilgan matnli, qo'lyozma va mashinada o'qiladigan hujjatlar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinolentalar, suratlar, suratli grafiya plyonkalari, chizmalar, sxemalar, xaritalar, shuningdek turli moddiy ashyolardagi yozuvlar;

Arxiv hujjatlarini depozitar saqlash - ularni hujjatlar mulkdori bilan arxiv, muzey, kutubxona o'rtasidagi kelishuv (shartnoma) bo'yicha belgilanadigan shartlar asosida mulkdorning arxiv hujjatlariga nisbatan mulk huquqini saqlab qolgan holda arxivda, muzeyda, kutubxonada saqlash.

Arxiv hujjatlarini doimiy saqlash - ularni arxivda, muzeyda, kutubxonada cheklanmagan muddatlarda saqlash;

Arxiv hujjatlarini saqlash - arxivlarda arxiv hujjatlarining but saqlanishini ta'minlashga doir chora-tadbirlar majmui.

Arxiv hujjatlarini vaqtincha saqlash - ularni arxivlarda qonun hujjatlarida belgilangan davr mobaynida saqlash;

Arxiv hujjatlaridan foydalanish - arxiv hujjatlarini xizmat, ishlab chiqarish, ilmiy, madaniy, ma'rifiy, ta'lim maqsadida va qonun hujjatlarida

taqiqlanmagan boshqa maqsadlarda arxivlar tomonidan foydalanuvchilarga taqdim etish.

Arxiv hujjatlarining hisobi - arxivlar tomonidan arxiv hujjatlari va arxiv fondlarining muntazam ravishda kelib tushishi, mavjudligi va holatini belgilangan birliklar asosida aniqlash hamda ularni hisob hujjatlarida aks ettirish bo'yicha tizimli monitoring olib borish.

Arxiv ishi - arxiv hujjatlarini qabul qilish, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni tashkil etishga oid faoliyat;

Arxiv jamg'armasi - tarixiy yoki mantiqiy jihatdan bir-biri bilan aloqador arxiv hujjatlari majmui;

Arxivni jamlash manbai - arxiv hujjatlari bilan fondga tegishligiga ko'ra jamlanib boruvchi arxivning fond tashkil etuvchisi.

Arxivni jamlash manbalari - arxivlarni ularning yo'nalishi bo'yicha tarixiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa arxiv ahamiyatiga ega bo'lgan hujjatlar bilan tizimli ravishda to'ldirib boruvchi yuridik va jismoniy shaxslar (fondlarni tashkil etuvchilar).

Asl hujjat - hujjatning tuzilgan vaqti (sanasi) yoki joyi haqida, uni tuzuvchi muallif (qo'lyozma uchun esa dastxat) haqidagi ma'lumotlarni o'zida qayd etgan yoki biron bir yo'l bilan aniqlangan ma'lumot haqiqiylikini ko'rsatuvchi hujjat.

Audiovizual hujjatlar - tasviriy va ovoz axborotlaridan tashkil topgan, ularni o'qishda maxsus texnik vositalari talab etiladigan hujjatlar.

Arxeolog - tegishli oliy ma'lumotga ega bo'lgan tadqiqotchi.

Arxeologiya ashyosi - arxeologiya qidiruvlari, arxeologiya qazilmalari va arxeologiya nazoratini amalga oshirishda yoki xo'jalik va o'zgacha faoliyat jarayonida aniqlangan, shuningdek tasodifan topilgan (xazina) va identifikatsiyalashdan o'tkazilgan moddiy qoldiq.

Arxeologiya yodgorligi - moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga kiritilgan arxeologiya obyekti.

Arxeologiya obyekti - inson faoliyatining barcha ko'rinishlariga taalluqli hamda saqlanish holatidan qat'i nazar arxeologik, antropologik, etnografik

qimmatga yoki o‘zga tarixiy, ilmiy, badiiy, madaniy qimmatga ega bo‘lgan joy, inshoot (asar), imorat, majmua (ansambl), ularning bo‘laklari, ular bilan bog‘liq hududlar.

Atributsiya - badiiy asarning aslligini, muallifini, yaratilgan joyi, vaqtini aniqlash. Atributsiya muzey ishining eng muhim sohalaridan biridir.

Audiomateriallar - fonoyozuvlar, fonosharhlar (qo‘shiqchi, shoir, yozuvchi, tarixiy shaxslarning musiqali va hujjatli ovoqli yozuvlari, qushlar va hayvonlarning tovushlari, turli tabiiy shovqinlar).

Badiiy muzey - tasviriy va amaliy san’athamda me’moriy yodgorliklarni yig‘ish, ko‘rgazma qilish, saqlash va ommalashtirish bilan shug‘ullanuvchi ilmiy, ma’rifiy, tadqiqot muassasasi hisoblanadi.

Biennale - ikki yilda bir marta bo‘ladigan ko‘rgazma.

Birlashgan idoraviy arxiv - bir vazirlik, idoraga qarashli yoki davlat boshqaruviga tobeligi yoxud faoliyat yo‘nalishi bir xil bo‘lgan tashkilotlar guruhi hujjatlarini mujassamlashtiruvchi idoraviy arxiv va shuningdek turli idoralarda tashkil etilgan, ammo bir yo‘nalishdagi (masalan shaxsiy tarkibga oid) hujjatlarni birlashtirgan arxiv ham birlashgan idoraviy arxiv hisoblanadi. Bir-biri bilan tarixiy va/yoki mantiqiy aloqalarga ega bo‘lgan ikki yoki undan ortiq tashkilotlar, shuningdek o‘zaro tarixiy va yoki mantiqiy bog‘liq aloqalarga ega bo‘lgan fuqarolarning faoliyati jarayonida paydo bo‘lgan arxiv hujjatlaridan iborat arxiv fondi.

Brif - ekspozitsiya ochilishigacha bo‘lgan jarayonni tashkillashtiruvchi, yo‘naltiruvchi loyiha-reja.

Virtual muzey - “Virtual” dastlab “virtus” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “tasavvur” degan ma’noni anglatadi. Virtual muzey - bu muzey qonunlari asosida loyihalashtirilgan makonda muzey ashyolarining joylashtirilishidir. Internet tarmog‘i orqali virtual muzey ichiga kirganingizda ekspozitsiyani va eksponatlarni turli nuqtalardan tomosha qilish mumkin. Yana boshqa ko‘rinishda bu haqiqiy muzeyda monitorlarga muzey ashyolarining elektron tasviri joylashtiriladi. Bunda multimedia vositasi namoyish etilayotgan obyektning bir qismiga aylanadi.

Vitrina - san'at asarlari qo'yilgan oynavand javon, quti.

Galereya - (fran. galerie) o'rta asrlarda saroy va uylarning rasm va haykallar bilan bezatilgan yo'laklariga aytilgan bo'lsa, keyinchalik bu nom muzeylarda xam ishlatila boshlangan (Tretyakov galereyasi).

Davlat katalogi - milliy muzey fond tarkibiga kiritilgan har bir muzey ashyosi va har bir muzey kolleksiyasi to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar mavjud bo'lgan hisobga olish hujjati. Davlat katalogi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan yuritiladi. Davlat katalogi elektron va bosma ma'lumotlar bazasi ko'rinishida shakllantiriladi.

Davlat arxiv fondi - davlat arxivlarida va davlatning boshqa hujjatxonalarida doimiy saqlanayotgan hujjatlarni, shuningdek davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida, prokuraturalar, sudlar, davlat korxonalar, muassasalari va tashkilotlarida, banklarda, O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalarida vaqtincha saqlanayotgan arxiv hujjatlarining majmui.

Diaksatsiya - muzey ahamiyatiga ega bo'lmagan yoki muzey yo'nalishiga javob bermaydigan eksponatlarni sotish. Dastlabki diaksatsiya amaliyoti Gugenxeym muzeyi, Nyu-Yorkdagi Zamonaviy san'atmuzeyi, Baltimor san'atmuzeyi. Chikago badiiy muzeylarida amalga oshirilgan.

Diorama - Dioramadagi (grekchadan dia - orqali, ichidan, horama - ko'rinish) tasvir faqat oyna ortidan tomosha qilinadi (uch tomonlama, alkovli deb nomlangan dioramalar bundan mustasno). U gorizontning faqat bir qismini qamrab oladi va yarim aylana yoki to'g'ri burchak shaklidagi xonaga devorda joylashishi mumkin. Dioramalar, panoramaga o'xshab juda ko'p maydonni egallamaganligi bois, tabiiy-ilmiy muzeylarda unga nisbatan ko'proq qo'llaniladi.

Dublikat - hujjat yoki badiiy asarning asli bilan teng huquqli nusxasi.

Elektron arxiv - arxiv maqomiga ega bo'lgan tashkilot elektron hujjatlarini jamlovchi, hisobga oluvchi, saqlovchi va foydalanishni amalga oshiruvchi tashkilotning tarkibiy bo'limi.

Jonli ekspozitsiya - bunda ekspozitsiya asosini nomoddiy madaniy meros obyektlari tashkil etadi. Jonli ekspozitsiyada urf-odatlar, folklor, hunarmandchilikning ishlab chiqarish jarayoni (master-klass) ko'rsatilganligi uchun ko'proq etnografiya muzevlari uchun xosdir.

Jamlash - arxivni arxiv hujjatlari bilan muntazam to'ldirib borish maqsadida amalga oshiriluvchi arxiv fondi doirasida arxiv hujjatlarini fondlashtirish hamda tashkil etish va jamlash manbalaridan ularni qabul qilib olish maqsadida yo'nalishi va darajasi bo'yicha zaruriy arxiv hujjatlari bilan to'ldirib borishga doir ishlar majmui.

Zindon - fors tilidan olingan bo'lib, jinoyatchilar saqlanadigan joy, ya'ni "Qamoqxona" degan ma'noni anglatadi.

Idoraviy arxiv - yuridik shaxsning arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni amalga oshiruvchi tarkibiy bo'linmasi;

Ish yuritish - yuridik shaxsning hujjatlashtirish va rasmiy hujjatlar bilan ishlashni tashkil etish bo'yicha faoliyatini ta'minlab beruvchi jarayon;

Inventar kitob - (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish kitobi) olingan manbalarni ashyolar va kolleksiyalarning xillari va san'atturlariga qarab turkumlashtiriladi, ularni aniqlab, kitobda kengaytirilgan va aniq tavsiflar bilan aks ettiriladi.

Inventarizasiya- muzeydagi barcha eksponatlarni hisobga olish hamda bor-yo'qligini tekshirishdir. Inventarizasiya davlat mulkini qo'riqlashni, ularni sifatli asrashni, hisobga olish bo'limidagi hisobotni to'g'ri olib borishni nazorat qiladi. Inventarizasiya to'liq yoki qisman, rejali yoki to'satdan o'tkaziladi.

Kataloglar - arxiv fondlari, saqlov birligi/hisob birligi, arxiv hujjatlari (yoki ularning qismlari) mazmuni to'g'risidagi ma'lumotlar mavzu yoki soha bo'yicha belgilangan tasniflash sxemasi asosida joylashtirilgan arxivning fondlararo arxiv ma'lumotnomasi.

Kabinet - dastlab hujjatlar, taqinchoqlar, kimmatbaho buyumlarni saqlash juda qulay bo'lgan tortmali qutilar va kichik javonlarga nisbatan ishlatilgan. Bunday konstruksiyada antik tangalar, gemmalar, zargarlik buyumlarini saqlash qulay bo'lganligi uchun kolleksionerlarni o'ziga jalb qilgan. Keyinchalik ushbu

mebel bilan jihozlangan xonalar ham kabinet deb atalgan (Nemis tilida “kabinet” soʻziga sinonim boʻlib, “kamera” soʻzi ishlatiladi).

Kartoteka - har bitta boʻlimga tegishli boʻlgan eksponat haqida maʼlumotlar yozilgan va tartibga solingan kartochkalar yigʻindisi. Bu kartotekalar muzeyning kundalik ishida muhim oʻrin tutadi. Ular oʻziga xos maʼlumotnomachi vazifasini oʻtaydi. Muzeyda saqlanadigan ashyolarni hisobga olish va oʻrganish ishini osonlashtirishga yordam beradi.

Kirim kitobi - (KP) muzeyning bosh hisobga olish kitobi hisoblanadi. Muzeyga keltirilgan har bir eksponat qabul qilish-topshirish dalolatnomalari asosida darhol dastlabki kirim kitobiga qayd qilinadi. Muzeyga kelib tushgan eksponatlar kirim kitobiga kechiktirmasdan 2 kun ichida qayd qilinishi shart.

Kolleksiya-sanʼatarlari, ilmiy, badiiy, tarixiy yoki boshqa ahamiyatga ega boʻlgan va maʼlum tartibda saqlanadigan bir xil buyumlar majmui.

Konservatsiya - sanʼatarlari, arxeologik materiallar, arxiv hujjatlari va boshqa narsalarni uzoq vaqt yaxshi saqlash tadbiri. Buning uchun harorat, havoning namligi doimo bir xil, yorugʻlik va ventilyatsiya bir meʼyorda boʻlishi, chang va hashoratlar kirishiga yoʻl qoʻyilmasligi kerak. Konservatsiya muzeydagi taʼmirlash ishlari bilan uzviy bogʻliqdir.

Kunstkamera – (nem. Kunstkammer) tabiatning noyob buyumlari, sanʼatarlari saqlanadigan xona.

Kelib chiqishi shaxsiy (oila, urugʻ) arxiv fondi - ayrim shaxs, oila, urugʻ hayoti va faoliyati jarayonida shakllangan hujjatlardan tarkib topgan arxiv fondi.

Koʻrsatkichlar - arxiv hujjatlarida keltirilgan predmet nomlarining ular haqidagi maʼlumotlar arxiv shifrini koʻrsatgan holda, 10 alifboli, tizimli yoki boshqa biron-bir belgisiga koʻra tuzilgan arxiv maʼlumotnomalari.

Milliy arxiv fondi - Oʻzbekiston xalqining moddiy va maʼnaviy hayotini aks ettirgan, tarixiy, ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy ahamiyatga ega boʻlgan arxiv hujjatlarining tarixan tarkib topgan va doimo boyitib boriladigan majmui.

Milliy arxiv fondining davlat katalogi - arxiv hujjatlari Milliy arxiv fondining tarkibiga kiritilgan arxiv fondlarining hajmi va tarkibi to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar mavjud bo'lgan hisobga olish hujjati.

Muzey-madrasa - ayrim diniy yodgorliklarni muzeylashtirish asosida tashkil etilgan badiiy-me'moriy muzey.

Muzey-saroy - shahar yoki shahar tashqarisida yaratilgan saroy ansambli asosida tashkil etilgan tarixiy-badiiy muzey. Bunda me'moriy-badiiy va dekorativ ansamblni butunligicha saqlash va qayta tiklash muhim o'rin egallaydi.

Uy-muzey - madaniyat, davlat yoki jamoat arbobi, tarixiy shaxsga bag'ishlangan bo'lib, shu shaxs yashagan uy asosida tashkil etilgan memorial muzey.

Muzey to'plami - barcha muzey kolleksiyasiga aytiladi. Muzey kolleksiyasiga nafaqat ilmiy tashkillashtirilgan barcha muzey predmetlari, balki ilmiy yordamchi materiallar hamda muzeyda saqlanadigan turli ilmiy axborot bilan ta'minlovchi vositalar, qisman arxiv va kutubxonalar kiradi.

Muzey tomoshabinlari - zamonaviy ilmiy tadqiqotlarga ko'ra muzey tomoshabinlari uch turga bo'linadi:

1.Faktik tomoshabinlar- muzeyga kelgan tomoshabinlar.

2.Potensial tomoshabinlar - muzeyga jalb qilinmoqchi bo'lgan tomoshabinlar.

3.Virtual tomoshabinlar - internet yoki pochta orqali muzey faoliyati va eksponatlar to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'layotgan tomoshabinlar.

Muzey fondi - muzey tomonidan doimiy saqlash uchun qabul qilingan barcha ilmiy tashkillashtirilgan materiallarga aytiladi. Shu bilan birga ular nafaqat fond zaxiralarida balki ekspozitsiyada, ta'mirlashda yoki tashkilotlarga berilgan bo'lishi mumkin.

Muhofiz - muzeyning bosh muhofizi (fond mudiri) muzey ashyolari va kolleksiyalarini hisobga olish, saqlash, muhofazalash va ta'mirlash ishlariga bevosita yoki bo'lim mudirlari orqali rahbarlik qiladi hamda zaxiraxonalarga shaxslarni kiritish, muzey ashyolari va muzey kolleksiyalaridan foydalanishda

belgilangan qonun-qoidalarga rioya qilish, kalit xo'jaligini yurgizish ishlarini nazorat qiladi.

Nodavlat arxiv - Milliy arxiv fondining davlatga tegishli bo'lmagan qismiga kiritilgan arxiv hujjatlarini, shuningdek davlat mulki bo'lmagan boshqa arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni amalga oshiruvchi muassasa.

Nodavlat arxiv fondi - nodavlat yuridik shaxslarning faoliyati natijasida to'plangan arxiv hujjatlarni, shuningdek fuqarolarning shaxsiy arxivlari majmui.

Noyob hujjat - o'zida mavjud bo'lgan axborot va (yoki) tashqi belgilari bo'yicha o'xshashi yo'q, yo'qotilgan taqdirda o'zining ahamiyati va (yoki) asl qo'lyozmaligi nuqtayi nazaridan o'rnini to'ldirib bo'lmaydigan alohida qimmatli hujjat.

Panorama - (grekchadan pan-hammasi va horama-ko'rinish) - katta hajmdagi tasmasimon kartina bo'lib, silindrik shakldagi podramnining ichki tomoniga tortilgan polotnoga chiziladi. Undagi tasvirlar birinchi planga qo'yilgan predmetli plan, ya'ni maketlar, inshootlar, figuralar bilan uyg'unlashtiriladi. Panorama o'zining markazidagi maydonchadan tomosha qilinadi va tomoshabin o'zini xuddi tasvirlanayotgan muhitining ichida turgandek his qiladi. Birinchi panorama 1787-yili Irland rassomi R.Barker tomonidan yaratilgan bo'lib, Edinburg shahrining aylana tasvirini aks ettirgan.

Paramuzey - (xorijiy muzeylarda) tarixiy voqea va hodisalarni tasvirlash uchun maxsus yaratilgan muzey ashyolarining nusxalari: mum haykallar, san'atasharlarining yuqori sifatli reproduksiyalari, ashyolar kompleksi, novodellar va boshqa ashyolarni saqlovchi va ekspozitsiyada namoyish etuvchi muzey tipidagi muassasa.

Tematik kolleksiya - ma'lum bir mavzuni yoritishda turli xildagi muzey ashyolaridan tashkil topgan kolleksiya.

Tematik ekspozitsion reja (TER) - ko'rgazmani namoyish qilish uchun ishlatiladigan barcha jihozlar va ko'rgazmani tashkil etish yuzasidan amalga oshiriladigan barcha ishlarni o'z ichiga qamrab oluvchi hujjatlar majmui. Unga har

bir bo‘limning nomi, mavzusi, tematik majmui, bosh matnlar va fikrlar, jihozlarning va ko‘rgazma kompleksining nomi va shifri, o‘ziga xos xususiyatlari, belgilari, hajmi, saqlanish joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, etiketaj, eksponatni birinchi yoki ikkinchi planda joylashtirish, badiiy usullarni qo‘llash va ashyolarni saqlash yuzasidan ko‘riladigan choralar ham kiradi.

Saqlash - muzeyning ashyosi va kolleksiyasi but saqlanishini ta’minlash uchun moddiy va huquqiy sharoitlar yaratilishini nazarda tutuvchi faoliyat turi.

Saqlov birligi /hisob birligi - arxivdagi o‘z hisob raqamiga ega bo‘lgan (yig‘ma jild, loyiha, albom, fotohujjat, kinolentalar o‘rami, mikrofilm va h.k.) alohida hujjatlar guruhi (alohida hujjat).

Sug‘urta nusxa - alohida qimmatli hujjat yoki noyob hujjatning boshqa moddiy jismdagi, asl nusxada mavjud bo‘lgan axborotni o‘qish yoki ko‘rish (eshitish) imkonini beruvchi ko‘chirma nusxasi;

Fond egasi-o‘z ixtiyorida vaqtincha yoki doimiy foydalaniladigan hujjatli yoki arxiv fondiga ega tashkilot yoxud shaxsiy kelib chiqishdagi hujjatli fondga ega bo‘lgan shaxs.

Fond katalogi - fondlar varaqalaridan iborat bo‘lgan hamda arxiv hujjatlari MAF tarkibiga kiritilgan arxiv fondlarining hajmi va tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning markazlashtirilgan hisobini yuritish uchun mo‘ljallangan katalog.

Fond varaqasi - arxiv hujjatlarining soni, tarkibi, saqlanish joyi haqidagi ma’lumotlardan iborat bo‘lgan hamda arxiv ishi bo‘yicha hududiy boshqarmalardagi fondlarni va saqlov birliklarining umumiy sonini hisobga olish uchun mo‘ljallangan varaqa.

Fondni tashkil etuvchi- faoliyati jarayonida hujjatli jamg‘armani tashkil etadigan tashkilot yoki shaxs.

Fondlashtirish - arxiv hujjatlarining fondlarga tegishlilikini va arxiv fondlarining davriy chegaralarini aniqlash bo‘yicha ishlar majmui.

Foydalanish fondi - elektron ma’lumotlar bazasidan elektron ko‘rinishda berilgan negativ mikrofilmdan tayyorlangan pozitiv mikrofilm.

Xalqaro muzeylar kengashi (IKOM) - 1946-yilda Amerika muzeylari assosiatsiyasi prezidenti Chonsi Xemlin tashabbusi bilan Parijda asosan IKOM (International Council of Museums) nomi bilan mashhur bo'lgan Xalqaro muzeylar tashkiloti tuzildi. O'zbekiston ushbu tashkilotga 1993 -yilda a'zo bo'ldi.

Xalqaro muzeylar kuni - 1977-yil 18-maydan buyon har yili Xalqaro muzeylar kuni nishonlanib, shu kuni butun jahonda muzey va galereyalarga kirish bepul bo'ladi.

Hisobga olish - muzey ashyolari va kolleksiyalarini hisobga olishning asosiy huquqiy hujjatlari - eksponatlarni qabul qilib olish yoki berish dalolatnomalari, muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining kirim kitobi va inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitoblaridan iboratdir.

Hujjatlarni davlat saqloviga topshirish va ularni arxivlarga qabul qilish - tashkilotlar hujjatlarini saqlanish muddatlari tugaganidan so'ng ekspert-tekshiruv komissiyasi tasdiqlagan ro'yxatlarga muvofiq idoraviy arxivlardan davlat arxivlariga rasmiy dalolatnomalar bilan o'tkazilishi.

Hujjatlarni depozitga qo'yish - arxiv va hujjat egalari o'rtasidagi bitimga asosan MAF tarkibiga kirmaydigan yuridik va jismoniy shaxslar hujjat fondlariga oid hujjatlar yoki alohida hujjatlarning arxivda saqlanishi.

Hujjatlar saqlanishini ta'minlash - hujjatlarning yo'qolib ketmasligi va ularning talab etilgan jismoniy holatda bo'lishi uchun hujjatlar saqlanishiga maqbul shart-sharoitlar yaratish, me'yorlarga rioya etish va hujjatlar saqlanishini ta'minlash kabi tadbirlar majmuasi.

Ekspozitsiya - (lot. expositio so'zidan olingan bo'lib, expro- tomosha uchun ko'rsatmoq, terib qo'yish, sitio - ro'yxatga olish, bayon etish ma'nolarini anglatadi). Muzey ekspozitsiyasi - bu maqsadga yo'naltirilgan va ilmiy asoslangan muzey eksponatlarining namoyishi bo'lib, ular kompozision tashkillashtirilib sharhlar bilan to'ldirilgan, texnik va badiiy jihozlanib, umumiy muzeyning o'ziga xos xususiyatini yaratuvchi ijtimoiy ko'rinishdir. Muzey ekspozitsiyasi ilmiy xodimlar, rassomlar, dizaynerlar, muzey pedagoglari va muhandislar hamkorligida yaratiladigan murakkab ilmiy-texnik jarayon hisoblanadi.

EkspONENT- o‘z asari, ishini namoyishga qo‘ygan shaxs, tashkilot, buyum, mulk, xazina egasi, ko‘rsatuvchi.

Ekspонат - tomosha uchun qo‘yilgan va muzey ekspozitsiyasining asosi hisoblangan muzey ashyosidir. Muzey eksponati sifatida asl ashyolar bilan bir qatorda qayta tiklovchi (model, maketlar va h.k .) va ilmiy ko‘makchi materiallar (xarita, sxema, jadval va matnlar) bo‘lishi mumkin.

Ekskursiya - ekskursovod boshchiligida jamoa bo‘lib muzey, ko‘rgazma va diqqatga sazovor yerlarni tanishtiruv, ilmiy va ta‘limiy-tarbiyaviy maqsadlarda ma‘lum bir yo‘nalish bo‘yicha tomosha qilish.

Etiketka - bu predmet nomi va uning alohida belgilaridan tarkib topgan matn. U muallifi, tug‘ilgan yili, joyi, asarning yaratilgan vaqti, materiali, hajmi, yaratilish usuli, tarixiy va memorial ahamiyati to‘g‘risida qisqa ma‘lumot beradi. Pastki qismida esa, eng muhimi, ekspонатning asl yoki ko‘chirma ekanligi haqida yoziladi. Agarda ekspozitsiyada asosan asl nusxalar qo‘yilgan bo‘lsa, unda etiketkalarda faqatgina ko‘chirmalarni ko‘rsatish mumkin yoki aksincha (badiiy muzeylar uchun).

Yig‘majild - tashkilotning bir masala yoki faoliyatining biror tomoniga oid va jamlanib, alohida jildga solingan yoki muqovalangan hujjatlar to‘plami (yozma hujjatlarning saqlov birligi).


Yig‘majild (hujjat)lar ro‘yxati - saqlov birliklari hisob birliklari tarkibi va mazmunini ochib berish, ularning fondlar ichida tizimlashtirilishi va hisobini mustahkamlash uchun mo‘ljallangan arxiv ma‘lumotnomasi.

Yig‘majidlarni kartonlash- yig‘majidlarni arxiv shartli belgisiga muvofiq qalin qog‘oz, karton jildlarga joylashtirish.


Yo‘l ko‘rsatkich - muayyan tartibda foydalanuvchining arxiv fondlari tarkibi va mazmuni bilan umumiy tanishtirishga mo‘ljallangan arxiv fondlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar mavjud bo‘lgan arxiv ma‘lumotnomasi.

Shaxsiy tarkib bo‘yicha hujjatlar - xodimning ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarini aks ettiruvchi arxiv hujjatlari

*Birinchi modul
uchun ilovalar*




“Buxoro axbori” gazetasining 1922-yil 23-noyabr sonida e’lon qilingan “Buxoroda birinchi muzaxonaning ochilish marosimi” nomli maqola



“Buxoro axbori” gazetasi 1922-yil 12-noyabr sonida e’lon qilingan “Qori Yo’ldosh muzaxonasi” nomli maqola



***BXSR Maorif noziri Muso Saidjonov
Ko'kaldosh madrasasidagi Buxoro muzeyi binosi oldida (chapdan
birinchi) ¹⁷¹.***



***BXSR Maorif noziri Muso Saidjonov
Buxoro muzeyi xodimlari davrasida ¹⁷².***

¹⁷¹ ЎЗР КФФХ МДА, № 0-77550.

¹⁷² ЎЗР КФФХ МДА, № 0-81546.




Buxoro muzeyi xodimlari birinchi qatorda N.E.Shmidt, V.A.Shishkin xotini P.A.Gonchareva, ikkinchi qatorda chapdan P.E.Kornilov va etnograf Amitrov. Buxoro, 1931-yil¹⁷³.



Buxoro muzeyi xodimlari, birinchi qator chapdan P.E.Kornilov va N.E.Shmidt, o'ngda etnograf Amitrov va P.A.Gonchareva. Buxoro, 1931-yil.

¹⁷³Археология Центральной Азии: архивные материалы. Том II. –Самарканд: МИЦАИ, 2015. – С.7.



Buxoro muzeyi, chapdan etnograf Amitrov, Nataliya Eduardovna Shmidt, Vasiliy Afanasevich Shishkin va Nikolay Mixaylovich Bachinskiy. Buxoro, 1931-yil¹⁷⁴.



Ko'kaldosh madrasasining ta'mirlash jarayoni. Chapdan ikkinchi Vasiliy Afanasevich Shishkin va uning yonida arxitektor Nikolay Mixaylovich Bachinskiy. Buxoro, 1930-yil.

¹⁷⁴Археология Центральной Азии: архивные материалы. Том II. – Самарканд: МИЦАИ, 2015. – С.8-9.



Ismoil Somoniy maqbarasi. Buxoro, 1930-yil¹⁷⁵.



Ismoil Somoniy maqbarasi. Buxoro, 1930-yil.

¹⁷⁵Археология Центральной Азии: архивные материалы. Том II. –Самарканд: МИЦАИ, 2015. – С.10-11.
244



*Muzey xodimi Qosimzoda mahalliy aholigama'ruzaqilmoqda.
1965-yil.*



*Buxoro muzeyi ekskursavodi L.A.Shuklina Gazli pasyolkasidagi
maktabda "Shahrim mening faxrim" mavzusida ma'ruza o'qimoqda¹⁷⁶.*

¹⁷⁶ Бухоро давлат музей кўриқхонаси, Хужжатлар фонди. Нвсп 3980.



Buxoro muzeyi ekskursavodi Ashurova Zevar Buxoro shahridagi Engels maktabida “Shahrim mening faxrim” mavzuida ma’ruza o‘qimoqda. 1976-yil¹⁷⁷.



Buxoro muzeyi ilmiy xodimlari va shahar sayohat byurosi xodimlari arxeolog Obelchenko bilan uchrashuvda. 1980-yil¹⁷⁸.

¹⁷⁷Бухоро давлат музей кўриқхонаси, Хужжатлар фонди. Нвсп 3984.

¹⁷⁸Бухоро давлат музей кўриқхонаси, Хужжатлар фонди. Нвсп 3979.



M.I.Po'latova Sovet davri (1917-1941-yillar) bo'limida tashkil etilgan yangi ekspozitsiyada tomoshabinlarga ekskursiya qilmoqda. 1974-yil¹⁷⁹.



O'zbekiston Kompartiyasi birinchi Sekretari Sh.R.Rashidov San'atmuzeyidagi ekspozitsiya bilan tanishmoqda. Buxoro 1982-yil¹⁸⁰.

¹⁷⁹ Бухоро давлат музей қўриқхонаси, Хужжатлар фонди. Нвсп 3991.

¹⁸⁰ Бухоро давлат музей қўриқхонаси, Хужжатлар фонди. Нвсп 3988.



“Ark” qo‘rg‘oni Buxoro viloyat tarixiy-o‘lkashunoslik muzeyi joylashgan bino. 1955-yil¹⁸¹.




Buxoro o‘lkashunoslik muzeyi. 1948-yil¹⁸².

¹⁸¹ ЎЗР КФФХ МА, № 0-24839.



*Buxoro muzeyidagi tosh va yog‘och o‘ymakorligi ashyolari ekspozitsiyasi.
Buxoro. 1928-yil¹⁸³.*



*Buxoro muzeyidagi tosh va yog‘och o‘ymakorligi ashyolari ekspozitsiyasi.
Buxoro. 1928-yil¹⁸⁴.*

¹⁸² ЎЗР КФФХ МА, № 0-8469.

¹⁸³ ЎЗР КФФХ МА, № 4-2983.

¹⁸⁴ ЎЗР КФФХ МА, № 4-2984.




Buxoro o'lkashunoslik muzeyi ilmiy xodimi Nazarenko maktab o'quvchilariga ekskursiya qilmoqda. Tabiat va hayvonot bo'limida tashkil etilgan yangi ekspozitsiya. Buxoro, 1945-yil¹⁸⁵.



Tomoshabinlar muzey eksponatlarini tomosha qilishmoqda. Buxoro, 1964-yil¹⁸⁶.

¹⁸⁵ ЎЗР КФФХ МА, № 0-7421.

¹⁸⁶ ЎЗР КФФХ МА, № 0-75673



О‘zbekiston SSR Madaniyat ministrligining 1980-yilda 23-apreldagi “Buxoro viloyat tarixiy o‘lkashunoslik muzeyi” nomini “Buxoro viloyat o‘lkashunoslik muzeyi” deb o‘zgartirish to‘g‘risidagi buyrug‘i

СОВЕТ МИНИСТРОВ УЗССР
ПОСТАНОВЛЕНИЕ
№ 308 от 16 мая 1983 г.

О создании Бухарского Государственного историко-архитектурного музея-заповедника

Во исполнение решения ЦК КП Узбекистана от 14 июля 1983 г. и в целях совершенствования руководства музейным делом и охраны памятников истории и культуры СМ УзССР постановляет:

1. Создать с 1 июля 1983 г. в г. Бухаре Государственный историко-архитектурный музей-заповедник в пределах численности аппарата управления и лимитов предельных ассигнований на его содержание, установленных Минкультуры УзССР на 1983 г., в состав организаций согласно приложению:

Состав Бухарского историко-архитектурного музея-заповедника

- Бухарский историко-краеведческий музей и его филиалы:
- картинная галерея в г. Бухаре,
 - музей прикладного искусства /дворец Ситораи Мохи Хоса/
 - зиндан /эмирская тюрьма/ в г. Бухаре,
 - музей Ибн Сины в Дешкунском районе, п. Афшана,
 - Ромитанский районный краеведческий музей,
 - областной отдел по охране и использованию памятников,
 - памятники истории, архитектуры и искусства г. Бухары и обл. с их охранными зонами, стоящими на госучете в соответствии с постановлением СМ УзССР от 21.12.73. № 539 и от 07.07.81, №

Председатель СМ УзССР


Н. Худайбердыев



Handwritten signature

O'zbekiston SSR Madaniyat ministrligining 1980-yilda 23-apreldagi "Buxoro viloyat tarixiy o'lkashunoslik muzeyi" nomini "Buxoro viloyat o'lkashunoslik muzeyi" deb o'zgartirish to'g'risidagi buyrug'i

Ilona №25



S.N. Yurenyev kolleksiyasidagi kitoblar va muallifga tegishlilik belgisi



Tarix bo'limidagi ekspozitsiya



Tarix bo'limidagi ekspozitsiya



Arxeologiya bo'limidagi ekspozitsiya



Arxeologiyabo'limidagiekspozitsiya



Tabiat bo'limidagi ekspozitsiya



Tabiat bo'limidagi ekspozitsiya



Sitorai Mohi Xosa muzeyi



Sitorai Mohi Xosa muzeyi

*Ikkinchi modul
uchun ilovalar*

**O‘zSSR MAB boshqaruvchisiga inspektor S.V.Volindan
Buxoroga qilingan safar haqida doklad. 1932-yil 7-10-oktabr¹⁸⁷**

Buxoro arxivining ahvoli quyidagicha: o‘rtoq Haydarov va Shahar XTB hisobidan yangi ishchi ishlamoqda. O‘rtoq Shoyev qandaydir ish bilan qamoqqa olinib, hozir ozod qilingan. Egasiz hujjatlarni tartibga solish ishlari amalga oshirilmoqda. Stelajlarning bir qismi qayta yasalgan.

Buxoro amiri arxivi masalasi. Bu arxivning bir qismi Arkdagi vayronaga aylangan xonalarning biridan qog‘ozlar uyumi sifatida topilib muzeyning qo‘liga tushgan. Uncha katta bo‘lmagan qolgan qismi anchadan beri Davlat Kutubxonasida saqlanadi.

Hozirgi vaqtda birinchi qism 50 pud keladigan uzilgan qog‘ozlarni o‘z ichiga olgan, uni o‘rtoq Muhitdin Rifat Hakimov sinchiklab tekshirmoqda. U sobiq jadid bo‘lib, eskicha ish yuritishni yaxshi biladi. Men arxivning tartibga solingan qismini ko‘rib chiqdim. Umuman olganda ish to‘g‘ri amalga oshirilmoqda. Hujjatlar orasida tarixiy nuqtai-nazardan qaraydigan bo‘lsak qimmatlilari ham uchraydi.

Arxivning Davlat Kutubxonasiga qarashli bir qismi bir necha pachkani o‘z ichiga olib, uni ham Hakimov kutubxonaning Sharq bo‘limi rahbari bo‘lgan paytda tartibga solgan. Ishni tezlatish uchun yana 1-2 ta ishchi jalb qilishni taklif qiladi.

Men Davlat muzeyi bilan kelishdim. (nusxasi taqdim etiladi)

O‘zSSR MAB inspektori

Volin S.V

14.XI.1932-yil

¹⁸⁷ O‘zR MDA R-400-fond, 1-ro‘yxat, 414-ish, 74-varaq.

Shartnoma(15.XI.1932-y)¹⁸⁸

1932-yil 9-oktabrda MAB tomonidan inspektor Volin S.V va Davlat Muzeyi tomonidan direktor Ashurov X.X o'rtasida quyidagi bitim tuzildi:

- 1.MAB hozirda muzeyda va kutubxonada saqlanayotgan qushbegi arxivini muzeyga vaqtincha 1 yil muddatga berib turadi.
- 2.Belgilangan 1 yil ichida muzey yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarni tartibga solishi, ya'ni turiga qarab ajratishi, sanasiga qarab tomlarga ajratib ularning opisini tuzishi kerak.
- 3.MAB xarajatlarga 4000 rublgacha mablag' ajratadi. Ko'rsatilgan summani MAB to'laligicha yoki qismlarga bo'lib o'tkazadi, lekin 1932-yilning 15-noyabrigacha kamida 2000 rubl o'tkazishi kerak. Qolgani 1933-yilning 1-aprelegacha o'tkaziladi.
- 4.Muzey 3-bandda ko'rsatilgan smetani 2-bandda ko'rsatilgan ishga sarflaydi.
- 5.Agar pul ortib qolsa, ish tugagandan so'ng MABga qaytariladi. Ortiqcha xarajatlarni MAB to'lamaydi.
- 6.1-bandda ko'rsatilgan muddat tugashi bilan, ya'ni 1933-yil 1-noyabrda barcha materiallarni muzey MABga beradi. Ularni tashish oxirgi bo'lib amalga oshiriladi.
- 7.1-bandda ko'rsatilgan muddatda muzey hujjatlardan o'z manfaati uchun foydalanishi - nusxa olishi, suratga tushirishi mumkin. Lekin ularni boshqa muassasa yoki shaxslarga berish huquqiga ega emas.
- 8.Muzey hujjatlarni MABga topshirgunga qadar ularni saqlash ishiga javobgar hisoblanadi.
- 9.Mazkur bitim uni O'zSSR MAB boshqaruvchisi tasdiqlagandan so'ng kuchga kiradi.

Buxoro Davlat Muzeyi direktori - Ashurov

O'zSSR MAB inspektori - Volin S.V

R O Z I M A N - Suxoplev

¹⁸⁸ O'zR MDA R-400-fond,1-ro'yxat,414-ish,69-varaq.

**Qo‘shbegi arxivini saralash va ishlov berish uchun
Buxoro Davlat Muzeyining smetasi¹⁸⁹**

1. Arxivni mavzu va sana bo‘yicha saralash uchun ikki kishiga 10 rubldan - 150 ish kuni = 3000 rubl;
 2. Daftarlarni tikish uchun (2000 ta daftar - 50 tiyindan) = 1000 rubl;
 3. Arxivning opislarini tuzish uchun = 1000 rubl;
 4. Asosiy hujjatlardan nusxa ko‘chirish va fotosuratga olish uchun = 1500 rubl;
 5. Zarur hujjatlarni o‘zbek va rus tillariga o‘girish uchun = 3000 rubl;
 6. Opisi tuzilgan arxivlarni chop etishga tayyorlash uchun = 5000 rubl;
 7. Konselariya uchun (yelimlash, qog‘oz, kartochka, blanka) = 500 rubl;
- Jami = 15000 rubl

1933-yilga 8000 rubl so‘raladi

Buxoro Davlat Muzeyi direktori v/b - Dmitrov A.S

Konsultant Buxkomstaris vakili - Shishkin V.A

O‘rtoq Apresovga. Bu arxivni chop etishni zarur deb bilaman - Xo‘jaev F.

23.IV.1933-yil

Buxoro arkidagi qo‘shbegi arxivini saralash va ilmiy ishlov berish ish rejasi¹⁹⁰

1933-yil uchun

1. Arxivni mukammal saralash (mavzu va sanasi bo‘yicha) - 150 ish kuni talab qilinadi. 2 kishi = 300 ish kuni. 1- maydan – 1- noyabrgacha.
2. Qog‘ozlarni tikish - yuqoridagi ishlar bilan parallel olib boriladi va tugatilishi kerak.
3. Arxivlarga opis tuzish. 1- noyabrdan - 1934 -yil 11- yanvargacha. Shu yilning o‘zida nusxa ko‘chirish, suratga olish va tarjima ishlari boshlanib 50%i 1- maydan - 1934 -yil 11- yanvargacha bajarilishi kerak.

1934-yil uchun

Nusxa ko‘chirish, suratga olish, tarjima ishlari 1934-yil 1-yanvardan – 1-iyulgacha tugallanishi kerak.

Arxiv ro‘yxatini tuzish 1-iyuldan - 1935-yil 1-yanvargacha tugatilishi lozim.

Buxoro Davlat Muzeyi direktori - Ashurov

Buxkomstaris vakili - Shishkin V.A

¹⁸⁹ O‘zR MDA R-400-fond, 1-ro‘yxat, 442-ish, 2-varaq.

¹⁹⁰ O‘zR MDA R-400-fond, 1-ro‘yxat, 442-ish, 3-varaq.

**Arxiv bo'limi rahbari lavozimida faoliyat ko'rsatganlar to'g'risida
ma'lumot¹⁹¹**

Yillar	Lavozimining nomi	Rahbarning ismi va sharifi
1924	Arxiv ishi markaziy (SUARDEL) rahbari	Axadov
1937-1940	Arxiv ishi markaziy (SUARDEL) rahbari	Axadov
1940	Buxoro viloyat IIXK arxiv bo'limi	Gurin Andrey Stepanovich
1941-1943	Buxoro viloyat IIXK boshqarmasi arxiv bo'limi	Majidov Hamid
1944-1945	Buxoro viloyat IIXK boshqarmasi arxiv bo'limi	Kapitan Proskurin Dmitriy Kuzmich
1946	IIV Buxoro viloyat arxiv boshqarmasi bo'limi	Kapitan Proskurin Dmitriy Kuzmich
1953	IIV Buxoro viloyat arxiv boshqarmasi bo'limi	Vereshagina Anna Andreyevna
1955-1957	IIV Buxoro viloyat arxiv boshqarmasi bo'limi	Vereshagina Anna Andreyevna
1958	Buxoro viloyat ijroya qo'miyasi IIB arxiv bo'limi	Bekbulatov Ramil Mansurovich
1961-1967	Buxoro ijroya qo'mitasi arxiv bo'limi	Bekbulatov Ramil Mansurovich
1967-1987	Buxoro ijroya qo'mitasi arxiv bo'limi	Valitova Maryam Garifovna
1989-1996	Buxoro ijroya qo'mitasi arxiv bo'limi	Baymatov Hasan Norovich
1996-2006	Buxoro ijroya qo'mitasi arxiv bo'limi	Vohidov Amin Yaxyayevich
2007-2011	Buxoro viloyati arxiv ishi boshqarmasi	Tursunov Asror Ergashevich (2006 -yil 18.07dagi 46-son buyruq)
2019	Buxoro viloyati arxiv ishi boshqarmasi	Aminov Samad Djabbaraliyev (2019 yil 18 iyul buyruq)

¹⁹¹ Buxoro viloyat davlat arxivi./O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 -yilligi bag'ishlangan albom. Buxoro, 2011.-B.7.

**Viloyat davlat arxivi rahbari lavozimida faoliyat ko'rsatganlar
to'g'risida ma'lumot¹⁹²**

Yillar	Lavozimining nomi	Rahbarning ismi va sharifi
1948-1950	Buxoro viloyat davlat arxivi rahbari	Glimshina Fatima Ablyamovna.
1951-1953	Buxoro viloyat davlat arxivi rahbari	Xodjabekov Bahrom Sharipovich
1954	Buxoro viloyat davlat arxivi rahbari	Tanayeva Nina Ivanovna
1955-1956	Buxoro viloyat davlat arxivi rahbari	Valitova Maryam Garifovna
1958	Buxoro viloyat davlat arxivi rahbari	Vereshagina Anna Andreyevna
1962-1964	Buxoro viloyat davlat arxivi rahbari	Idrisov Ibragim Yakubovich
1965-1971	Buxoro viloyat davlat arxivi rahbari	Bekbulatov Ramil Mansurovich
1972-1979	Buxoro viloyat davlat arxivi rahbari	Kandibina J.B
1979-1987	Buxoro viloyat davlat arxivi rahbari	Nosirova Raisa Aminovna
1987-1990	Buxoro viloyat davlat arxivi rahbari	Molchanova Nadejda
1991-1992	Buxoro viloyat davlat arxivi rahbari	Rustamov Karim Raimovich
1993	Buxoro viloyat davlat arxivi rahbari	Mavlonov To'xta Raximovich
1994	Buxoro viloyat davlat arxivi rahbari	Butorina Yevdokiya Pavlovna
1994-1995	Buxoro viloyat davlat arxivi rahbari	G'ulomxo'jayev Hamid
1998-yildan	Buxoro viloyat davlat arxivi rahbari	Abbosova Saodat Ibragimovna

¹⁹² Buxoro viloyat davlat arxivi./O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 -yilligi bag'ishlangan albom. Buxoro, 2011.-B.11.

Вх. № 12.090

203

Переводъ.

ДЕКАБРЯ 28 ДНЯ 1913Г.

Бухарскій Кушбегу

وزارت بخارای شریف

رقم ۱۷۶

№ 176

۲۷ ماه محرم ۱۳۳۲
مطابق ۱۱ ماه دليلا ۱۹۱۳

бухара мѣсѣ 27 дня 1332.
Декабря мѣсѣ 11 дня 1913г.

عز تجاه قايم مقام محرم حضرت امير آطور معظم روس

ЕГО ВЫСОКОБЛАГОРОДИЮ
Господину Управляющему Россійскимъ
ИМПЕРАТОРСКИМЪ
Политическимъ Агентствомъ.

بعد از تبين كلام واضح باد که مورفوق مکتوب ۱۹ ماه نیا بر ۱۹۱۳

برقم ۲۹۳۳ شد که بکلم ولایت تورغان تیب
خط کرده لعین نمودیم که در وقت رفتن لیک بپسند
اسم زوف رعنت لازمہ را میرساند و نیز
بنام جاگمان دولت خانہ کا نوشته در جو خط

Согласно Вашего шев-
ша отъ 19 ноября с.г.
№ 47933. мы исполнили
распоряженіе Курган-
мененскому беру объ ока-
заніи содѣйствіи Алек-
сандру Федоровичу Семир-
нову, а также при семъ
переправляемъ от-
крытій листъ на имя
Бекова Бухарскаго
кlausiva.

/ печать Кушбегу /


مانده فرستاده و مذکور در بر آن عز تجاه اکابر
درده شد با قر از مر رحم امیر آطور معظم روس

خوارسند باشند



فوق بخارای شریف معظم

193 Buxoro amirligi qushbegisining rus siyosiy agenti nomiga yo'llagan xati. O'zR MDA I-3-fond, 1-ro'yxat, 374-ish, 203-varaq.



¹⁹⁴ Buxorodagi rus siyosiy agentining Turkiston general-gubernatorligi devonxonasiga yo‘llagan xati. O‘zR MDA I-3-fond, 1-ro‘yxat, 374-ish, 291-varaq.

Өз. Б. Ш. С. Уз. С. С. Р.
 Өз. Б. Ш. С. Маркази
 Эҳтӣс Бидеяс: пил
Бухара Ҷо'васи
 Бухарск. Отделом,
 Центрального
 Архивного Управления
 Уз. С. С. Р.
 № 2/2
 Саб-Н. И. Тошмухаммад
 Бухара 31.08.1938

ДУЖКАН-АБАДСКИИ РАЙИСТИОЛКОИ.

Бухарское Архивное Областное Управление сообщает
 что по имеющимся сведениям в Вашем районе до сего
 времени не закончена организация Райархива, так
 как до сего времени Райархив не обеспечен помещением
 для архива хранения и Зав. архивом получает ставку
 архивархуса. По этому просим с получением данного письма разрешить
 вопрос об окончании организации Райархива. Так же обеспечить Зав.
 рай архивом окладом как получает Ваши другие Зав.отделами.
 Назначенный Зав.рай архивом должен обеспечить руководством все
 учреждения, колхозы, совхозы и ИТС, а так же принять старый архив
 от все организации согласно постановления ЦИК УзССР от 14/19-38 г.
 Просим результат сообщить по нашему адресу Гор.Бухара
 Библиотечная улица № 4 Бухарскому Областному Архивному Управлению

Управ.Обл.Арх.Управл. / Ахадов/
 Секретарь *Терлянская* / Терлянская/

Buxoro vilovat davlat	
arxiv	
Fond №	15
Ro'yxat	1 s.b. 14



Amir Olimxon madrasasi



Ko'kaldosh madrasasi

¹⁹⁷ Buxorodagi ilk arxiv vazifasini bajargan muassasalar.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

- 1.1.**КаримовИ.А. Тарихийхотирасизкелажажакйўқ. –Тошкент: Шарқ, 1998. – 326.
- 1.2.** Каримов И.А Юксак маънавият-енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 173 б.
- 1.3.** Каримов И.А Она юртим бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш-энг олий саодитдир. –Тошкент: Ўзбекистон, 2015. –304 б.
- 1.4.** Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгорлик-хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. –102 б.
- 1.5.** Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан кураимиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2018. –448 б.
- 1.6.** Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Марожаатномаси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2018. –78 б.

2. Normativ - huquqiyhujjatlar:

- 2.1.**О‘zbekistonRespublikasiKonstitutsiyasi – Т.: О‘zbekiston, 2003. – 37 б.
- 2.2.**О‘zbekistonRespublikasi “Arxivishito‘g‘risida”giqonuni. – Toshkent, 2010.
- 2.3.** О‘zbekiston Respublikasi “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni. – Toshkent, 2001.
- 2.4.** О‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonuni. – Toshkent, 1994.
- 2.5.** “Arxiv ishi bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30-oktabr, 482-sonli qarori.
- 2.6.** О‘zbekiston Respublikasi “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni. – Toshkent, 2004-yil, 6-son.

- 2.7.** O‘zbekiston Respublikasi “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi qonuni. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004-yil, 4-son.
- 2.8.** “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 26-avgust, 194-sonli qarori.
- 2.9.** O‘zbekiston Respublikasi “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonuni.- Toshkent, 2010-yil.
- 2.10.** “O‘zbekiston Respublikasi arxiv ishini takomillashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 5-aprel qabul qilingan 101-sonli qarori
- 2.11.** 2019-yil 20-sentabrdagi "O‘zbekiston Respublikasi "O‘zarxiv" agentligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida"gi PQ-4463-son qarori.
- 2.12.** "O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-5834-son Farmoni.

3. Arxiv hujjatlari:

- 3.1** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligining joriy arxivi (1992-2012-yy.).
- 3.2.** O‘z MA, R-94-fondi - O‘zbekiston SSR Xalq Maorif komissarligi.
- 3.3.** O‘z MA, R-394-fondi - Sredazkomstaris (O‘rta Osiyo tarixiy yodgorliklarini muhofaza qilish qo‘mitasi).
- 3.4.** O‘z MA, R-396-fondi - Xalq Maorifi UzSSR komiteti qoshidagi O‘rta Osiy asosiy va Markaziy rassomchilik muzeyi.
O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi. fond R- 400
- 3.5.** O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi. fond M-17
- 3.6.** O‘z KFFH MA, fondidagi foto hujjatlar.
- 3.7.** Buxoro viloyat davlat arxivi, 629-fondi - "Zerkomstaris"(Zarafshon viloyati tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish qo‘mitasi) va "Sredazkomstaris".

- 3.8.** Buxoro viloyat davlat arxivi, 835 – fondi - "Buxkomstaris" va "Sredazkomstaris".
- 3.9.** Buxoro viloyat davlat arxivi, 1175-fondi - Buxoro o'lkashunoslik muzeyi.
- 3.10.** Buxoro viloyat davlat arxivi, 1232-fondi.- S.N.Yurenev shaxsiy hujjatlari.
- 3.11.** Buxoro viloyat davlat arxivi, 1313-fondi - R.V.Almeev shaxsiy hujjatlari.
- 3.12.**Buxoro viloyat davlat arxivi fond F-15.
- 3.13.** Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi Hujjatlar fondi.
- 3.14.** Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi Kirim kitobi.

4. Iimiy adabiyotlar:

- 4.1.** Альмеев Р.В. Бухара город-музей. –Ташкент: Фан, 1999. –С.128;
- 4.2.** Альмеев Р.В. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития. – Ташкент:Издательско-полиграфический творческий дом имени Гафура Гуляма, 2007. – 223 с.
- 4.3.** Археология Центральной Азии: архивные материалы. Том II. - Самарканд: МИЦАИ, 2015. - 232 с.
- 4.5.** Жумаев Қ. Ситораи Моҳи Хосса. –Тошкени: Фан, 2005. –Б.36
- 4.6.** Курбанов Ф. *П.Е.Корнилов*: годы работы в Бухарском Государственной музее //Актуальные вопросы развития искусствоведения в России, странах СНГ и тюркского мира. –Казань: 2017. –109 с.
- 4.7.** Корнилов П.Е. Чеканное производство Бухары. Бухара. 1932.-37 с.
- 4.8.** Корнилов П.Е. “Изучение искусство Средней Азии” Бухара. 1932. -10 с.
- 4.9.** Корнилов П.Е. “Бытовое искусство Средней Азии” Бухара. 1932.-27с.
- 4.10.** Курязова Д.Т. Ўзбекистонда музей иши тарихи. – Тошкент: Санъат, 2010. – 154 б.
- 4.11.** Музейное дело в России.3-е изд./ Под обший редакцией М.Е. Каулен, И.М. Коссовой, А.А. Сундиевой.-М.: Издательство “БК”, 2010. – 650 с.
- 4.12.** Мирзо Салимбек. Кашкули Салимий Таворихи муттақадимин ва муттаахирин (Форс-тожик тилидан таржима, кириш сўз, изоҳ ва кўрсаткичлар Н.Йўлдошевники). -Б.: Бухоро, 2003. –343 б.

- 4.13.** Ниязова М.И. Из истории деятельности Бухарского музея (1925-1927 гг.) //Из истории культурного наследия Бухары.- Вып. 2.- Бухара: “Бухоро”, 1994. – С.39.
- 4.14.** Садыкова Н.С. Музейное дело в Узбекистане. –Ташкент: Фан, 1975. 290 с.
- 4.15.** Содиқова Н.С. Маданий ёдгорликлар хазинаси. – Тошкент: Фан, 1981. - 270 б.
- 4.16.** Abbasova S.I., Rashidova O.A. Arxiv hujjatlari guvohlik beradi. Buxoro, 2013.143b.
- 4.17.** Abbasova S.I., Rashidova O.A. Tarix xazinachilari. Buxoro, 2014.27 b.
- 4.18.** Alimov A. “Arxiv hujjatlari ma'lumotlari klassifikatsiyasi va zamonaviy ilmiy-ma'lumot apparatini tuzish masalalari" mavzusidagi xalqaro o‘quv seminari haqida. // O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi Axborotnomasi, - T., 2008. - №39. - B. 24.
- 4.19.** Исакова М. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. Т.: Университет, 2012.-С 114.
Isakova M.S., Iofe V.G. Arxivshunoslik - Toshkent. Cho‘lpon, 2007.- B. 35-41.
- 4.20.** Иофе В.Г. Новое в управлении архивным делом Республики Узбекистан // Отечественные архивы. Т.: 2006. №1. - 126-128 с.
- 4.21.** Ibrohimov N. Dunyoga sochilgan xazina. // O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Bosh arxiv boshqarmasi Axborotnomasi, - T., 2003. – №30. - B. 3.
- 4.22.** Ismoilov M.M. Hujjatshunoslik va Markaziy Osiyo diplomatikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 64b
- 4.23.** Jumayev U. O‘rta Osiyo va O‘zbekistonda arxiv ishi tarixi, O‘zbekistonning asosiy arxivlari. – Toshkent: AL-FABA-SERVIS, 2010. – 64 b.
- 4.24.** Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro arxiv ishi tarixi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. –104 b.
- 4.25.** Hamroyev A., Rahmonova M. Buxoro viloyat davlat arxiviga qasida. Buxoro, 2014.8b

5.Gazeta va jurnallar:

- 5.1.** Абдурахмонова Ф. Музейлар – маданиятимиз хазинаси //Бухоро ёшлари газетаси. 2016 йил, 6 март.
- 5.2.** Барча эзгу ишларимиз халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришга йўналтирилган //Бухоронома. №22. 2017 йил 11-март.
- 5.3.** Бухоро ахбори. 3-сон. 1920 йил 17-сентябрь.
- 5.4.** Бухоро ахбори. 112-сон. 1922 йил 23-ноябрь.
- 5.5.** Большой краеведческий музей в Бухаре. Красная Бухара//1941, 20-март.
- 5.6.** Бобомуродов Э. Ўтмишга саёхат //Бухоро ҳақиқати. 1967, 8-ноябрь.
- 5.7.** Жумаев Қ. Ситораи Моҳи Хоса халқ амалий санъати музейи// Мозийдан садо. – Тошкент: 2003.- №1. 26 б.
- 5.8.** Жумаев Қ. Музейнинг янги кўرғазмаси //Бухоро ҳақиқати. 1987, 17-ноябрь.
- 5.9.** Жумаев Қ. Дурдоналар хазинаси //Бухоро ҳақиқати. 1986, 17-май.
- 5.10.** Идрисов И. Музей-тарих хазинаси //Бухоро ҳақиқати. 1967, 27-декабрь.
- 4.11.** Иброҳимова З. Халқ тарихининг ойнаси //Бухоро ҳақиқати. 1968, 26-июнь.
- 5.12.** Исмоилова Ж. Ўзбекистон музейларининг ҳуқуқий асослари // Мозийдан садо – Тошкент: 2016 йил, 4 сон. –Б.11.
- 5.13.** Корнилов П.Е. Государственный Бухарский музей//“Советский музей”. – М.: 1931.- №4. - С. 92-96.
- 5.14.** Корнилов П.Е. Из новых работ государственного Бухарского музея //“Советский музей”. – М.: 1932. №4. -С. 94.
- 5.15.** Курбанов Г.Н. Бухарскому краеведческому музею-60 лет //Общественные науки в Узбекистане. 1983. № 1. – С.64-65.
- 5.16.** Содиқова Н.С. Ўрта Осиё музейларини шакллантириш //Мозийдан садо. – Тошкент: 1999. №1-2. – 16-23 б.
- 5.17.** Йўлдошев Н. Бухоро музейи //Фан ва турмуш. 1959, №12. –Б.32
- 5.18.** Қосимзода А. Тарихимиз ойнаси //Бухоро ҳақиқати. 1967, 28-декабрь.

6. Internet materiallari:

6.1. [http://www. strategy.regulation.gov.uz](http://www.strategy.regulation.gov.uz)

6.2. <http://www.natlib.uz>.

6.3. <http://www.ziyonet.uz>.

6.4.<http://www.lex.uz>.

6.5.<http://www.bukhara-muzeum.uz>

6.6.[http:// www.centralarchiv.uz](http://www.centralarchiv.uz)

6.7. [http:// www.buxvaib.uz](http://www.buxvaib.uz)

6.8. [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz).

6.9. [http:// www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

7. Shartli qisqartmalar

Buxoro VDA – Buxoro viloyat davlat arxivi

SUARDEL - Arxiv ishi bo‘yicha markaziy boshqarma

O‘zR MDA- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi

O‘zR KS OH MDA- O‘zbekiston Respublikasi Kino,surat va ovozli hujjatlar markaziy davlat arxivi

O‘zR ITT MDA - O‘zbekiston Respublikasi Ilmiy texnika va tibbiyot markaziy davlat arxivi

O‘zSSR IIXKMAB - Ichki Ishlar Xaql Komissarligining markaziy arxiv boshqarmasi

Annotation

Bukhara museum and archive studies

Handbook

The handbook comprises the data regarding the establishment and development of the museum and archive handling in Bukhara, the analysis of the latest gains achieved in this field. The data on the foundation of museum of Bukhara, the scientific expeditions of the museum, the branches of the museum, the cooperation between the museum and school, the activity of the museum in the field of country studies, also the establishment of archive handling in the Bukhara region, the results achieved in this field are clarified in a chronological order in the handbook.

The following handbook is intended for the students majoring in 5121000-History. History of Bukhara, also the historians, museum scientists, country studies' scholars, archive studies' researchers, guides, scientific fellows and researchers interested in the history of Bukhara

Аннотация

Музееведение и архивоведение Бухары

учебное пособие

В данном учебном пособии приведены сведения о формировании музейного и архивного дела в Бухаре, а также проведён анализ последних достижений в данной сфере.

В данном пособии повествуется об основании Бухарского музея, его научных экспедициях и филиалах музея, также ведётся речь об организации архивного дела в Бухарской области, в хронологическом порядке освещены сведения о достижениях в данной сфере за годы независимости.

Данное учебное пособие предназначено для студентов бакалавриата Бухарского государственного университета направления образования по специальности 5121000- «История. История Бухары», для историков, интересующихся историей Бухары, музееведов, краеведов, архивоведов, экскурсоводов, научных сотрудников и исследователей.

MUNDARIJA

Kirish	3
1-modul. Buxoro muzeyshunosligi.....	9
1- mavzu: Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari.....	9
2- mavzu: O‘zbekistonda muzey ishi tarixi.....	22
3-mavzu: Buxoro o‘lkashunoslik muzeyning shakllanishi va XX asr 20-40-yillaridagi faoliyati.....	36
4-mavzu: XX asr 50-90-yillardagi Buxoro muzeyi faoliyati.....	53
5-mavzu: Mustaqillik davrida muzey ishi to‘g‘risidagi qonunlar.....	83
6-mavzu: Buxoro davlat muzey qo‘riqxonasi va muzey filiallari.....	100
7-mavzu: Muzey fondini boyitishda kolleksionerlarning o‘rni.....	121
2-modul. Buxoro arxivshunosligi.....	134
8- mavzu: Xiva va Qo‘qon xonliklarida arxiv hujjatlari.....	134
9- mavzu: Buxoro viloyatida arxiv ishining tashkil etilishi.....	146
10- mavzu: Mustaqillik yillarida Buxoro viloyatidagi arxiv ishi.....	191
Glossariy	228
Ilovalar	239
Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati	296

СОДЕРЖАНИЕ

Введение	3
Модуль № 1. Музееведение Бухары	9
1- тема: Предмет исследования, цели и задачи	9
2-тема: История музейного дела в Узбекистане	22
3-тема: Основание музея краеведения Бухары и его деятельность в 20-40е гг. XX века	36
4-тема: Деятельность Бухарского музея в 50-90е гг. XX века	53
5-тема: Законы о музейном деле в период независимости	83
6-тема: Заказник Бухарского государственного музея и его филиалы	100
7-тема: Роль и место коллекционеров в обогащении музейного фонда	121
Модуль № 2 Архивоведение Бухары	134
8-тема: Архивные документы в Хивинском и Кокандском ханствах	134
9- тема: Организация архивного дела в Бухарской области	146
10-тема: Архивное дело в Бухарской области в годы независимости	191
Глоссарий	228
Приложения	239
Использованные источники и список литературы	296

CONTENTS

Introduction	3
1-module. Bukharian museum studies.....	9
1-theme. Subject, aims and tasks of the curriculum.....	9
2-theme. History of museum handling in Uzbekistan.....	22
3-theme. The establishment of regional studies museum in Bukhara and its activity in the 20's-40's of the 20 th century.....	36
4-theme. The artivity of museum of the Bukhara in the 50's-90's of the 20 th century.....	53
5-theme. The laws on handling of museums in the period of Independence.....	83
6-theme. Bukhara state museum sanctuary and the branches of the museum.....	100
7-theme. The role of collectioners in the enrichment of the museum studies funds.....	121
2nd module. Bukharian archive s studies.....	134
8-theme. The archive documents in the khanates Khiva and Kokand.....	134
9-theme. The establishment of archive studies in the region of Bukhara...	146
10-theme. The archive studies in Bukhara region during the years of Independence.....	191
Glossary	228
Addendum	239
Sources and references used	296